

A.X. SHOALIMOV
SH.A TOJIBOYEVA

IQTISODIY TAHLIL NAZARIYASI

Darslik



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

‘

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

SHOALIMOV A.X., TOJIBOYEVA Sh.A

IQTISODIY TAHLIL NAZARIYASI

TOSHKENT- 2019

Shoalimov A.X., Tojiboyeva Sh.A. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Darslik. 2019. – 145 bet.

Ushbu darslikda iqtisodiy tahlilning nazariy asoslari, predmeti, vazifalari, mazmuni, metodi, maxsus usullari, iqtisodiy matematik usullari, axborot manbalari, tashkillashtirish, turlari, kompleks tizimi yoritilgan. Shuningdek, unda korxonalarning ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkichlarni tahlil qilish usullari ko‘rsatib o‘tilgan.

Darslik oliy o‘quv yurtlarida “Buxgalteriya hisobi va audit”, shuningdek “Bank ishi”, “Moliya” va boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha ta’lim olayotganlarga mo‘ljallangan.

Taqrizchilar:

Xasanov B.-	TDIU “Iqtisodiy tahlil va audit” kafedrasi professori, iqtisod fanlari doktori;
Sagdillayeva Z.-	TMI ”Audit va iqtisodiy tahlil ” kafedrasi dosenti, iqtisod fanlari nomzodi.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish sharoitida turgan birinchi va asosiy vazifa – izchil iqtisodiy o‘sish, chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, ishlab chiqarishni mukammallashtirish va ilg‘or texnologiyalar bilan qayta qurollantirishning bosh sharti bo‘lgan makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlikka erishishdir. Joriy yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning ”O‘zbekiston Respublikasinini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi №PF 4947-sonli Farmoni qabul qilindi[1]. Mazkur harakatlar strategiyasining uchinchi yo‘nalishi ”Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish” masalalariga bag‘ishlangan. Bu esa, iqtisodiyot tarmoqlarini iqtisodiy va moliyaviy barqaror faoliyat yuritishlari lozimligini taqozo etadi. Mamlakatimizda izchil iqtisodiy islohotlar amalga oshirilayotgan bosqichda iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti: “Iqtisodiyotning barqaror o‘sishi, birinchi navbatda, yetakchi sohalar rivojiga bevosita bog‘liqdir. Qaysi sohada yuqori qiymatga ega mahsulot yaratilsa, biz ana shu sohani birinchi navbatda qo‘llab-quvvatlaymiz. Shuning uchun iqtisodiyot rivojiga jiddiy turtki beradigan sohalarni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishimiz lozim” [2] - deb aytib o‘tdilar.

Iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish sharoitida har qanday xo‘jalik yurituvchi subyekt o‘z tasarrufidagi barcha resurslar – moliyaviy, moddiy va mehnat resurslari harakati hamda ulardan foydalanish samaradorligini to‘g‘ri boshqarishni ta’minlashi zarur bo‘ladi. Iqtisodiyot oldiga qo‘yilgan vazifalardan biri bu uning samaradorligini ko‘tarishdan iborat. Mamlakatimizda xo‘jalik subyektlarining iqtisodiy samaradorligini oshirishda ularning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish asosiy o‘rinni egallaydi. Tahlil natijalari asosida boshqaruv ma’muriyati o‘z korxonalarini iqtisodiyotda tutgan o‘rni, tanlagan strategik yo‘li to‘g‘riligi, mavjud ichki imkoniyatlardan resurslardan qay darajada foydalanganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarga ega bo‘ladilar. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015- yil 28- iyulda qabul qilingan ”Davlat ulushi bo‘ lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to‘g‘risida”gi[3] 207-sonli qarorining qabul qilinishi ham xo‘jalik subyektlarida iqtisodiy tahlil o‘tkazish dolzarbligini belgilab beradi .

Iqtisodiy tahlilning maqsadi faoliyat ko‘rsatayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatini ularni boshqaruvchilarga yaqqol ko‘rsatib berish, kamchiliklarini ochib tashlashdan, korxonaning asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlariga baho berish va ularga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g’risida” gi PF 4947-sonli Farmoni. 2017- yil 7- fevral.

[2] O‘zbekiston Pespublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga 2019 yil uchun mo‘ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018- yil 28- dekabr.

[3] O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ”Davlat ulushi bo’lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to‘g‘risida”gi 207-sonli qarori. 2015- yil 28- iyul.

hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish boʻyicha ichki xoʻjalik rezervlarini aniqlash va ularni ishlab chiqarish aylanmasiga jalb etish boʻyicha chora-tadbirlar ishlab chiqishdan iborat. Bular esa, oʻz navbatida mazkur fanni oʻrganishni oʻta dolzarbligidan dalolat beradi.

Iqtisodiy tahlil fani bevosita iqtisodiy nazariya fani bilan bogʻliq. Iqtisodiy nazariya jamiyatda sodir boʻlayotgan iqtisodiy jarayonlarning maʻlum qonuniyatlarini, ularning xarakterlanish va amal qilish yoʻllarini oʻrgatadi. Bu esa uning barcha iqtisodga oid fanlar uchun, jumladan, iqtisodiy tahlil uchun ham uslubiy asos ekanligini taʼminlaydi. Iqtisodiy tahlil esa shu qonunlarning mikroiqtisodiyot koʻlamida sodir boʻlish jarayonini oʻrgatadi. Iqtisodiy tahlil oʻz navbatida iqtisodiyotda sodir boʻlayotgan jarayonlarni chuqur oʻrganish bilan iqtisodiy nazariya fanining rivojlanishi uchun mustahkam asos yaratildi.

Iqtisodiy tahlil fani buxgalteriya hisobi fani bilan ham uzviy bogʻliq. Bu fanlar mazmun va mohiyati jihatidan aniq amaliy fanlar guruhiga kiradi. Iqtisodiy tahlil buxgalteriya hisobining mantiiqiy davomi hisoblanadi. Buxgalteriya hisobining asosiy vazifasi moliyaviy hisobotni tuzish, axborotlarni umumlashtirish bilan tugaydi. Shu moliyaviy hisobotlar asosida sodir boʻlgan iqtisodiy jarayonlarni oʻrganish bilan iqtisodiy tahlil fani shugʻullanadi. Iqtisodiy tahlilda korxonalarning xoʻjalik faoliyatining haqiqiy natijasi biznes rejadagi, meʼyorlardagi, oʻtgan davrlardagi koʻrsatkichlar bilan taqqoslanib farqlari aniqlanadi. Shundan soʻng natija koʻrsatkichining oʻzgarishiga taʼsir etuvchi omillarning hisob-kitobi bajariladi. Soʻngra tegishli xulosa chiqarilib, ichki xoʻ jalik imkoniyatlari aniqlanadi.

Iqtisodiy tahlil fani statistika fani bilan ham bevosita bogʻliq. Statistikada iqtisodiy koʻrsatkichlarni aniqlash usullari oʻrgatilsa, iqtisodiy tahlilda shu koʻrsatkichlardan tahlil qilish uchun foydalaniladi. Shu bois, statistik hisob va hisobot maʼlumotlari iqtisodiy tahlil uchun ham maʼlumotlar manbai boʻ lib hisoblanadi. Iqtisodiy tahlil jarayonida bir qancha statistik usullardan foydalaniladi. Iqtisodiy tahlil iqtisodiy jarayonlarni statistika fanidan farqli oʻlaroq mikroiqtisodiyot darajasida oʻrganadi.

Iqtisodiy tahlil fani moliya va kredit fani bilan uzviy ravishda bogʻliq. Korxonalarda sodir boʻlayotgan iqtisodiy jarayonlarning moliyaviy mablagʻ bilan taʼminlash, agar oʻz mablagʻi yetarli boʻlmasa, qancha kredit olish va unga qancha foiz toʻlash kabi masalalar bilan moliya va kredit fani bevosita shugʻullanadi.

Iqtisodiy tahlil menejment fani bilan ham mustahkam aloqada. Menejmentda asosan boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun u iqtisodiy tahlil natijalaridan va maxsus usullardan foydalanadi.

Iqtisodiy tahlil fani marketing bilan ham bogʻliq. Marketing isteʼmolchilar (bozor) talabidan kelib chiqib, ishlab chiqarish va sotishni yoʻlga qoʻyadigan tovar harakati bilan bogʻliq ekan. Marketing fanida bozorni isteʻmolchilar talabini oʻrganish uchun iqtisodiy tahlil usullaridan keng foydalaniladi.

Iqtisodiy tahlil fani, ayniqsa audit fani bilan uzviy ravishda bogʻliq. Auditor oʻz xulosasini asosli qilib berishi uchun korxonalarning xoʻjalik faoliyatini iqtisodiy tahlil qilishi zarur. Oʻz navbatida, analitik ham audit talablari tamoyillarini bilishi zarur. Demak, audit va tahlil bir-biri bilan uzviy bogʻlangan ekan.

Hozirgi kunda raqobatbardosh mutaxassis xo‘jalik subyektlari moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish ko‘ nikmalariga ega bo‘lishi kerak. Shunday qilib, zamonaviy mutaxasis iqtisodiyotning barcha sohalari va yo‘nalishlarida iqtisodiy tahlil o‘tkazish bo‘yicha nazariy bilimlariga va amaliy ko‘nikmalarga, xo‘jalik subyekti faoliyatini asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlariga axborot manbalaridan foydalangan holda baholash, sodir bo‘lgan o‘zgarishlar va ularga ta’sir etgan ichki hamda tashqi omillarni o‘z vaqtida aniqlash, foydalanilmagan imkoniyatlarni ko‘rsatib berish, to‘g‘ri boshqaruv qarorlarini qabul qilishga manba bo‘luvchi tavsiyalar ishlab chiqish tajribalariga va ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak. Ko‘rsatilgan muammolarni hal etish uchun “Iqtisodiy tahlil nazariyasi” fanini o‘qish va o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy tahlil fanining tutgan o‘rni, vazifalari beqiyos ravishda oshmoqda. Shu bois mazkur fanning predmeti, usuli, obyekti, subyekti, turlarini bugungi kun talabiga mos ravishda takomillashtirishni taqozo etadi. Shulardan kelib chiqqan holda, darslikda iqtisodiy tahlilning predmeti, mazmuni, vazifalari, usuli, texnik usullari, iqtisodiy tahlilni tashkil qilish kabi masalalar yoritilgan.

Ushbu darslikdan ”Buxgalteriya hisobi va audit”, ”Moliya”, ”Bank ishi” va boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalar, magistrlar hamda iqtisodiy ishlar bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar, tadbirkorlar, qolaversa, iqtisodiy tahlil bilan qiziquvchi keng kitobsevarlar ommasi foydalanishlari mumkin.

I bob. IQTISODIY TAHLILNING SHAKLLANISHI VA FAN SIFATIDA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

1.1. Iqtisodiy tahlilning fan sifatida shakllanishi va rivojlanish bosqichlari

Har qanday fanning vujudga kelishi uchun hayotiy zarurat tug‘ilishi lozim. Shu tufayli fanning shakllanishi biror kishi yoki vazirlikning ijod mahsuli bo‘lib qolmasdan, balki ob’yektiv jarayonga tayanadi.

Xo‘jalik faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish fani ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lgan buxgalteriya hisobi va statistika kabi fanlar asosida vujudga kelgan, buning uchun esa ob‘yektiv shart-sharoitlar yaratilgan.

Rus olimlarining buxgalteriya hisobiga bag‘ishlangan asarlari XIX asrda paydo bo‘la boshlagan. Shu davrdagi ishlab chiqarish taraqqiyoti iqtisodiy jarayonlarni to‘g‘ri va to‘liq hisobga olishni talab etadi. Ammo ishlab chiqarishning takomillashib borishi, korxonalar o‘rtasida erkin raqobatning vujudga kelishi buxgalteriya ma’lumotlarini chuqurroq o‘rganishni va uni to‘g‘ri tushuntirish zaruratini tug‘diradi. Bu esa o‘z navbatida tahlil elementlarining vujudga kelishini taqozo etadi, chunki, ”tijorat siri” ni takomillashtirish borasidagi juda ko‘p savollarga buxgalteriya hisobi va statistika fani javob berishga qiynalib qoladi.

Korxonalarni to‘g‘ri, oqilona boshqarish, uning moliyaviy holatini yaxshilash, raqobatbardoshlik quvvatini oshirish xo‘jalik faoliyatini chuqurroq o‘rganishni talab etdi. Bu esa buxgalteriya balansi va boshqa hisobotlarda ifodalangan ba‘zi ko‘rsatkichlarga izoh berishni talab qildi. Bular esa o‘z navbatida hozirgi tahlil fanining vujudga kelishi uchun ob’yektiv asos bo‘lgan.

Tahlilning elementlari birinchi marta 1880-yillarda chiqa boshlagan ”Schetovodstvo” jurnalida paydo bo‘la boshlagan. Keyinchalik bu jurnalda juda ko‘p maqolalar buxgalteriya balansini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Shunday qilib, tahlilning ba‘zi elementlari mavjud bo‘lgan fan ”Balansshunoslik” fani paydo bo‘lgan. Bu fanning balansshunoslik deb atalishiga asos bo‘lgan, chunki o‘sha paytlarda xo‘jalik faoliyatining natijasi asosan buxgalteriya balansida ifoda etilgan xolos. Balans ma’lumotlariga asosan korxonaning mablag‘i yoki ular manbaining ma’lum muddatda o‘zgarishi aniqlanadi. Lekin shu o‘zgarishlar nima evaziga sodir bo‘layotganligi, ularga qaysi omillar ta’sir ko‘rsatayotganligi korxona egasi uchun muhim bo‘lib bordi. Bu esa balansdagi ko‘rsatkichlarni batafsil tahlil qilish zaruratini vujudga keltiradi. Tahlilning ilk ko‘rinishi «Balansshunoslik» fani shu tariqa shakllana bordi.

Tahlil fanining vujudga kelishida va uning shakllanishida olimlardan V. S Nemchinov, A.V Prokofyev, R.Ya Veysman, I.S Arinushkin, P.N Xudyakov kabilarning juda katta xizmatlarini ta‘kidlash lozim. Bu mualliflar asarlari asosan o‘tgan asrdagi korxonalarning murakkab faoliyatini tahlil qilishga bag‘ishlangan.

Ishlab chiqarish taraqqiyoti inqiroz va raqobatni ham vujudga keltirdi. Bunday sharoitda har bir korxona faoliyatining moliyaviy barqarorligi, undagi ”tijorat siri” muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday sharoitda buxgalteriya balansi ma‘lumotlari yetarli bo‘lmasdan qoldi. Buxgalteriya balansi bilan birgalikda boshqa ko‘rsatkichlarni ifodalaydigan hisobotlar ham vujudga kela boshladi va tahlilning ko‘lami kengaydi. Oldin faqat buxgalteriya balansi tahlil qilingan bo‘lsa, endi unga boshqa hisobotlar

tahlili ham qo‘shilib ”Hisobot tahlili” vujudga keldi. Bunda buxgalteriya balansidagi ko‘rsatkichlar bilan birgalikda ”Foyda va zararlar” haqidagi hisobot ma’lumotlaridan ham foydalanildi.

Xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish fani mustaqil fan sifatida shakllangunga qadar o‘ziga xos tarixga va bir qancha nomlarga ega bo‘ldi. Iqtisodiy tahlilning vujudga kelish tarixi, bu bo‘yicha nashr qilingan adabiyotlar, uning fan sifatida shakllanishi va nomining ham takomillashib borganligidan dalolat beradi. Shunday qilib tahlil fani vujudga kelguncha bir qancha evolyutsion yo‘lni bosib o‘tdi. Nihoyat u fan sifatida shakllandi. Endigi vazifa bu fanga to‘g‘ri nom tanlashdan iborat edi. Bu borada ancha ijodiy tortishuvlar ham bo‘ldi. Bir guruh olimlar bu fanning nomini ”Iqtisodiy tahlil” deb atashni tavsiya qildilar. Bunda ushbu fan korxonaning butun iqtisodini o‘rgatadi, deb asosladilar.

Ikkinchi guruh olimlar esa ushbu fanning nomini ”Sosial-iqtisodiy tahlil” deb atashni tavsiya qildilar. Shu tufayli ushbu fan iqtisodiy jarayonlarni ijtimoiy (sosial) jarayondan ajratib bo‘lmaydi, deb o‘rganadi. Bu ayniqsa, mustaqil O‘zbekiston uchun juda katta ahamiyatga ega, chunki biz kuchli ijtimoiy himoyaga asoslangan bozor iqtisodiyotini shakllantirishni asosiy maqsad qilib qo‘ydik.

Ba’zi olimlar korxona va tashkilotlar xo‘jalik faoliyati faqat ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardan iborat emasligiga asoslanib, bu fanning nomini ”Ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik tahlil” deb atashni ham tavsiya qilib chiqdilar. Bu guruh olimlar xo‘jalik faoliyatida texnologik jarayonlar bilan birgalikda texnikadan samarali foydalanish zarurligini isbotlamoqdalar. Buni tahlil fanida o‘rganish kerakligini takidlashmoqda. Haqiqatda, korxona nuqtai nazaridan olib qaraydigan bo‘lsak, bu fikr to‘rg‘i. Hozirgi paytda juda ko‘p olimlar bu fanning nomini ”Xo‘jalik faoliyati tahlili” deb atamoqda. Bunga qo‘shimcha ravishda shuni ta‘kidlash mumkinki, barcha iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik jarayonlar xo‘jalik faoliyati davomida sodir bo‘ladi. Shu tufayli ”Xo‘jalik faoliyati tahlili” deyilsa, bu korxonaning barcha sohasini o‘z ichiga oladi va uni bemalol fanning nomini atashda qo‘llash mumkin.

Ammo shuni ta‘kidlash joizki, 1999 yilda ishlab chiqilgan ta’lim andozalarida ”Xo‘jalik faoliyati tahlili” fani o‘rniga ”Iqtisodiy tahlil” fani kiritilgan. Lekin mazmuni oldingidek qolgan. Shunday ekan, uni hozir davlat andozasiga asoslanib ”Iqtisodiy tahlil” deb atash xato bo‘lmaydi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida, iqtisodiy tahlil ham yangilanish davrini boshidan kechirmoqda.Uning mazmuni rejaning bajarilishini tahlil qilishdan jahon andozalari talablariga javob beradigan ko‘rsatkichlarni o‘rganishga qaratilmoqda. Bu borada ijtimoiy mahsulotdan ichki yalpi mahsulot va shundan kelib chiqadigan ko‘rsatkichlar tizimiga o‘tish ko‘zda tutilmoqda.

Respublikamizda iqtisodiyotni yanada rivojlantiriish va liberallashtirish sharoitida iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Zero, joriy yilda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida Prezident Farmoni imzolandi. 2017−2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirish harakatlar strategiyasining beshta ustuvor yo‘nalishidan uchinchi yo‘nalishi ”Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish” bo‘lib, makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori o‘sish sur’atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo‘jaligini

modernizasiya qilish va jadal rivojlantirish"[4] masalalari ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish sharoitida har qanday xo‘jalik yurituvchi sub’ekt o‘z tasarrufidagi barcha resurslar – moliyaviy, moddiy va mehnat resurslari harakati hamda ulardan foydalanish samaradorligini to‘g‘ri boshqarishni ta’minlashi zarur bo‘ladi. Zero, iqtisodiyot oldiga qo‘yilgan vazifalardan biri – uning samaradorligini ko‘tarishdan iborat.

Iqtisodiy tahlilning maqsadi hozirgi sharoitda faoliyat ko‘ rsatayotgan barcha firma va korxonalar xo‘jalik faoliyatini ularni boshqaruvchilarga yoqqol ko‘rsatib berishdan, kamchiliklarni ochib tashlashdan, ichki imkoniyatlarni (rezervlarni) ishga soladigan chora-tadbirlarni ishlab chiqishdan iboratdir. Bu jarayonda tahlil qilinayotgan obyektning moliyaviy barqarorligi, uning raqobatbardoshligi, moliyaviy va iqtisodiy potensialidan qanday foydalanayotganligiga ham obyektiv baho beriladi. Bularning hammasi oxir-oqibatda tahlil fani, uning nazariy asosi, xususan bozorli iqtisodiyot sharoitida tutgan o‘rni va roliga alohida to‘xtalishni taqozo qildi.

Korxonalarni to‘g‘ri, oqilona boshqarish, uning moliyaviy holatini yaxshilash, raqobatbardoshlik quvvatini oshirish xo‘jalik faoliyatini chuqurroq o‘rganishni talab qildi. Bu esa buxgalteriya balansi va boshqa hisobotlarda ifodalangan ba’zi ko‘rsatkichlarga izoh berishni talab qildi. Bular esa o‘z navbatida hozirgi tahlil fanining vujudga kelishi uchun obyektiv asos bo‘lgan.



Iqtisodiy tahlil fanini yaratilish davrlarini quyidagi bosqichlarga bo‘lish mumkin:

1. 1-davr. 20 asrning 60-yillari.
2. 2-davr. 70-yillar.
3. 3-davr. 80-yillar.
4. 4-davr. 90-yillarning boshlari.
5. 5-davr. Mustaqillik yillari.

Mustaqil Respublikamiz o‘zining mustaqil fanlariga va har bir fan o zining yaratilish tarixiga ega bo‘lishi kerak.

Iqtisodiy tahlilning fan sifatida shakllanishida uning turli davrlarda turlicha nomlanishini alohida ta’kidlash lozim. Jumladan; i.f.d., prof. Pardaev M.Q, tomonidan uning quyidagi shajarasi berib o’tiladi (1.1-chizma).

[4]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi PF 4947-sonli Farmoni. 2017- yil 7- fevral.



1.1-chizma . Iqtisodiy tahlilning fan sifatida shakllanishi

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, o‘ziga xos va mos bozor iqtisodiyotiga asoslangan taraqqiyot yo‘lini tanlab oldi. Bu esa olimlardan bozor iqtisodiyotiga oid adabiyotlarni yaratish vazifasini talab qiladi. 1991-yilda I. T. Abdukarimov, M.Q.Pardaev va Sh.U.Haydarovlar hamkorlikda “Yangi xo‘jalik yuritish sharoitida kooperativ savdoda daromadlar tahlili” risolasini chop etdi. Bundan tashqari A.X.Shoalimovning 1992-yilda “Sanoat korxonalari xo‘jalik faoloyatining tahlili“ o‘quv qo‘llanmasi, 1993-yilda Z.N.Qurbonovning “Bozor iqtisodiyoti sharoitida savdoda buxgalteriya uchyoti va iqtisodiy tahlil“ monografiyasi ham chop etildi.

1995-1999-yillarda O‘zbekistonda “Iqtisodiy tahlil“ fanining asosiy sohasi bo‘lgan moliyaviy tahlilga bag‘ishlangan bir qancha adabiyotlar chop etildi. Bular jumlasiga M.Q Pardaevning “Moliyaviy tahlil metodologiyasi” (Samarqand. 1997), A. Ibrohimovning “Moliyaviy tahlil” (Toshkent: Mehnat, 1995) I. T. Abdukarimovning “Moliyaviy hisobotni o‘qish va tahlil qilish yo‘llari” (Toshkent. 1998, ikkinchi nashri 1999-yilda), I.O.Voljin va V.V.Ergashboevlarning “Moliyaviy tahlil” (Toshkent. 1998), M.Q.Pardaev va B.I.Isroilovlarning “Moliyaviy tahlil” (Toshkent. 1999) kabi kitoblarni kiritish mumkin.

Hozirgi paytda juda koʻp olimlar bu fanning nomini "Iqtisodiy tahlil" deb atamoqda. Xulosa qilib aytish mumkinki, respublikamizda iqtisodiy tahlil fanining ravnaqi oʻziga xos tarixga ega. Bu fan borasida tegishli maktab shakllangan. Biroq, bu fanning ravnaqi, uning kelajagi oldinda.

1.2. Iqtisodiy tahlil – dialektikaning muhim xususiyati

Bilish – falsafa fanining fundamental uslubiy boʻlimi boʻlib, obyektiv borliqni inson ongida aks etishining oʻrganilishini oʻrgatadi. Barcha tarmoq fanlarining uslubiy asosi sifatida bilish nazariyasi iqtisodiy tahlilning mohiyati, zaruriyligi va natijasini aniqlab beradi.

Iqtisodiy tahlilning uslubiy asosi sifatida ham bilish nazariyasini koʻrsatish mumkin. Iqtisodiy tahlil - amaliy fandir. Agar u bilish nazariyasiga tayanib rivojlansa, insonning amaliy faoliyatida naflilik va iqtisodiy samaradorlik oshadi. Bu esa fanning amaliy hayotda oʻz oʻrnini topganligidan dalolat beradi. Iqtisodiy tahlil oʻz faoliyatida dialektikaning asosiy tamoyillariga asoslanadi. Ular quyidagilardan iborat:

- doimo harakat;
- oʻzaro aloqa va oʻzaro bogʻliqlik;
- sabab-oqibat;
- koordinatsiya va subkoordinatsiya;
- qarama-qarshilik;
- miqdor oʻzgarishidan sifat oʻzgarishi;
- inkorni-inkor va boshqalar.

Tahlilning xususiyati, zaruriyligi va qimmatli tomoni, u voqea va hodisalar dinamikasini oʻrganadi. Bu jarayonda mazkur fan tadqiq qilish mumkin boʻlgan obyektiv reallik; predmet va hodisalar u yoki bu tomon hamda jihatlarga koʻra boshqalar bilan bevosita va bilvosita bogʻliq boʻlgan holda, doimo harakatda, oʻzgarishda deb oʻrganiladi.

Iqtisodiy tahlil dialektikani oʻrganishning muhim vositasi hisoblanadi. Bilish nazariyasining mantiqiyligi dialektik tarzda quyidagi formulada aks etadi, ya'ni: jonli mushohada, abstrakt tafakkur, amaliyot. Iqtisodiy hodisa va jarayonlarni bilish ham uch bosqichli bilish nazariyasiga asoslanadi. Bunda jonli mushohada bosqichida xoʻjalik yuritishni bevosita iqtisodiy axborotlar tizimi orqali idrok qilinadi. Bu oʻ rinda iqtisodiy axborotlar tizimiga shunday talablar qoʻyiladiki, bular bilish nazariyasining ikkinchi bosqichi – abstrakt tafakkurga koʻp jihatdan bogʻliq.

Iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda barcha jarayonlarni tafakkur kuchi bajaradi.

Iqtisodiy hodisalarni oʻrganish jarayonida dialektik bilish usuli – analiz va sintez usuli birgalikda harakat qiladi. Tahlil jarayonida deduktiv va induktiv usullar ham qoʻllaniladi (1.2-chizma).

Ta'kidlash kerakki, hodisa yoki jarayonlar oʻrganilib ilmiy xulosalar chiqarilishida tahlil va sintez usuli birgalikda harakat qiladi. Mazkur tartib obyektning dialektik birligini ta'minlaydi. Bu bilan tadqiq etilayotgan predmet yoki hodisalarning dialektik birligini har tomonlama bilish mumkin. Faktlar tahlilidan nazariy sintezga oʻtish induksiya va deduksiya metodlari yordamida amalga oshiriladi.



1.2-chizma. Dialektik bilish usullari

Mazkur usullar yordamida iqtisodiy hodisalarni ham xususiy, ham umumiy jihatlari oʻrganilib, tegishli xulosalar chiqarilib, amaliyotga tatbiq etiladi. Yuqorida koʻrib chiqilgan bilishning elementlari, usullari (dialektika, analiz, sintez, induksiya va deduksiya) iqtisodiy-tahlil fanida ham iqtisodiy voqea va jarayonlarning oʻrganish asosini tashkil etadi.Iqtisodiy tahlil aytib oʻtilgan umumiy usullar va xususiy jihatlar bilan birgalikda alohida fan sifatida yuzaga chiqib, korxonalarni tadqiq qilish tizimiga ega boʻladi.

1.3. Iqtisodiy tahlil – boshqaruv tizimining maxsus funksiyasi

Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, fan-texnika taraqqiyotini yana ham jadallashtirish, ishlab chiqarish potentsialidan (salohiyatidan, imkoniyatidan) oqilona foydalanish, resurslarning hamma turlarini har tomonlama tejash va ishlab chiqarishni boshqarish mamlakatimiz iqtisodiy strategiyasining eng muhim tarkibiy qismidir. Bu muhim vazifalarni bajarish uchun korxonalarning ishlab chiqarish va xoʻjalik faoliyatini chuqur tahlil qilish darkor.

Fan sifatida iqtisodiy tahlilning mazmuni eng avvalo uning boshqa amaliy fanlar tizimida bajaradigan funksiyalaridan kelib chiqadi. Ana shunday funksiyalaridan biri iqtisodiy qonunlarni ta’siri xarakterini oʻrganish, aniq korxona sharoitida iqtisodiy hodisa va jarayonlar qonuniyatlari va tendensiyalarini belgilash hisoblanadi.

Turli mulkchilikka asoslangan iqtisodiyot – bozor munosabatlarining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Uning subyektlari bo‘lgan korxonalar, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi boshqa shaxslar mulkning egasi va tasarruf etuvchisi sifatida mablag‘lardan to‘g‘ri foydalanishdan manfaatdordirlar. Bu esa sodir bo‘layotgan xo‘jalik jarayonlari va hodisalarini davriy kuzatishni, faoliyat natijaviyligini batafsil o‘rganishni hamda ularni iqtisodiy tahlil qilishni talab etadi. Shu jihatdan korxona faoliyatini boshqarishning muhim vositasi va quroli bo‘lgan iqtisodiy tahlil o‘ta ahamiyatli hisoblanadi.

Iqtisodiy tahlil korxonalarni boshqarish tizimida oraliq bosqichni egallaydi. Bu jarayonni ushbu formula orqali ifoda etish mumkin:

$$I \longrightarrow A \longrightarrow Q \longrightarrow T \longrightarrow I_1 \longrightarrow A_1 \longrightarrow Q_1 \longrightarrow T_1 ; \ldots.$$

Bu yerda:

I - informasiya (axborot) bo‘ lib, uni buxgalteriya hisobi va hisobot, operativ (tezkor) hisob va hisobot, statistik hisob va hisobot, biznes-reja hamda hisobdan tashqari ma’lumotlar;

A - tahliliy bosqich;

Q - tahlil natijalari asosida qarorlar qabul qilish;

T - qarorlarni ishlab chiqish kanallarida tatbiq etish;

I_1 - bajarilmagan qarorlar;

A_1 - qayta tahlil qilish.

Iqtisodchi olimlar tomonidan iqtisodiy tahlil korxonani boshqarishni muhim funksiyalaridan biri sifatida quyidagilarga yordam berishi ko‘rsatilgan[5]:

a) boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslanishi ta’minlanadi;

b) mulk va mablag‘lardan foydalanishning muqobillik shartlarini belgilaydi va boshqaruvchi ular qatoridan o‘zi uchun maqbul bo‘lgan optimal variantlarni tanlaydi;

v) istiqbolli boshqarish uchun zamin tayyorlaydi.



Ishlab chiqarishni boshqarish jarayonida uch bosqichni ko‘rsatish mumkin: axborotlarni to‘plash, qayta ishlash va tayyorlash;. obyektning holatini iqtisodiy tahlil qilish va tahlil natijalari asosida takliflar kiritish;. optimal boshqaruv qarorlarini qabul etish. Qabul qilingan qarorlarning samarasi va sifati tahlilning o‘z vaqtida hamda tezkor tarzda o‘tkazilganligiga ko‘p jihatdan bog‘liq. Bu yerda asosiy vazifa aynan shu uch bosqichni bir-biri bilan uzviy ravishda bog‘lash hisoblanadi.

Belgilangan rejalarning amalda qanday bajarilayotgani yoki ishlab chiqarishni borishi to‘g‘risida real ahvolni buxgalteriya hisobi yordamida o‘rganiladi. Buxgalteriya hisobida shakllangan ma’lumotlar, pirovard natijada boshqaruv ehtiyojlari uchun ishlatiladi. Boshqaruv qarorlari esa tahlil ma’lumotlariga asoslanadi.

[5]Ishonqulov N.F va boshqalar. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Darslik. –T.: Sano-standart, 2014. -34 b.

Iqtisodiy tahlil reja, bozordagi ahvol va buxgalteriya hisobi ma’lumotlari asosida obyektdagi o‘zgarishni miqdor va sifat jihatdan o‘rganadi hamda baho beradi. Uning yordamida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar topiladi hamda tugatiladi, obyektni yanada rivojlantirish yo‘llari belgilanadi yoki samarali ishlashni ta’minlaydigan yo‘nalishga o‘tkaziladi. Bu esa, boshqaruv qarorlarini nechog‘lik real qabul qilinishiga asos bo‘ladi.

Demak, buxgalteriya hisobi va hisoboti ma’lumotlari ham iqtisodiy tahlil vositasida qayta ishlanar ekan. Bu bilan iqtisodiy tahlilning boshqaruv faoliyatidagi o‘ rni yanada yaqqolroq ko‘ rinadi.

Hisob va iqtisodiy tahlil xo‘jalikni boshqarishda asosiy vosita bo‘lishi kerak. Binobarin, mahsulot ishlab chiqarish jarayoni va natijalari kundalik hisob va hisobotda o‘z aksini topadi. Demak, iqtisodiy tahlil korxonalar faoliyatini nazorat qilishda, xo‘jalik hisobini mustahkamlashda, iqtisodiy tejamni o‘kazishda, texnika taraqqiyotini jadallashtirishda, ilg‘or tajribalarni tarqatishga, ish faoliyatida mavjud bo‘lgan kamchiliklarga barham berishda va ichki xo‘jalik rezervlarini aniqlashda muhim vosita sifatida qo‘llaniladi.

1.4. Iqtisodiy tahlilning rezervlarni aniqlashdagi ahamiyati

Mamlakatimizda korxonalarning iqtisodiy samaradorligini oshirishda ularning ichki imkoniyatlardan samarali foydalanish ko‘rsatkichlarini tahlil qilish asosiy o‘rinni egallaydi. Tahlil natijalari asosida boshqaruv ma’muriyati o‘z korxonalarini iqtisodiyotda tutgan o‘rni, tanlagan strategik yo‘li to‘g‘riligi, mavjud resurslardan qay darajada foydalanganligi, mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta’sir qiluvchi omilardan foydalanish to‘g‘risidagi ma’lumotlarga ega bo‘ ladilar. Shu bilan birga tahlil natijalari asosida ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va mehnat unumdorligini oshirish imkoni bo‘ladi. Korxonada mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta’sir qiluvchi omillarni tahlil qilish ularning faoliyatini yaxshilash, samaradorligini oshirish hamda moliyaviy barqarorligini ta’minlashning muhim omili bo‘lib hisoblanadi.

Korxonalar barqaror rivojlanishi uchun yetarli darajada mehnat, moddiy va moliyaviy resurslarga ega bo‘lishi kerak. Ularning minimal resurslarga ega bo‘lmasligi esa moliyaviy faoliyatining yomonlashuviga olib keladi. Shu boisdan, korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta’sir qiluvchi omillarning tahlili orqali ularni iqtisodiy salohiyatiga baho berish, ichki xo‘jalik rezervlaridan samarali foydalangan holda ishlab chiqarishni tashkil etish va asosli qarorlarni qabul qilish bugungi kunning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Korxonalarning xo‘jalik faoliyatini tahlil qilishdan ko‘ zlangan asosiy maqsad rezervlarni aniqlashdir. Rezervlarni aniqlashni osonlashtirish uchun ularni ilmiy asosda turkumlash kerak. Rezervlar quyidagilardan iborat: iqtisodiyot, tarmoq, regional (yondosh) va ichki xo‘jalik rezervlari.



Aytaylik, mashinasozlik sanoatida mahsulot tannarxini arzonlashtirish borasida bo‘ lgan katta rezervlardan biri – rangli metallarni plastmassalar bilan almashtirish hisoblanib, bu o‘ z navbatida kimyo sanoatini yanada rivojlantirishni taqozo etadi. Shu sababli, bunday rezervlar iqtisodiyot rezervlari qatoriga kiradi. Ixtisoslashtirish darajasini oshirish esa tarmoq rezervlari qatoriga kirib, u asosan vazirliklarga bog‘liqdir. Regional rezervlarga, aytaylik, bir ma’muriy tumanda joylashgan turli boshqarmalarga qarashli sanoat korxonalarini kooperativlashtirish misol bo‘la oladi.

Ichki xo‘jalik rezervlarini aniqlash va ularni xo‘jalik aylanmasiga yo‘naltirishda korxonalar katta imkoniyatlarga ega. Bu esa asosan uch guruh ishlab chiqarish resurslari, (mehnat resurslari, mehnat vositalari va mehnat predmetlari) omillaridan oqilona va samarali foydalanishga bog‘liq.

Qisqa xulosa

Ushbu bobni o‘rganish natijasida talabalar iqtisodiy tahlil fanining shakllanishi va rivojlanish tarixi, iqtisodiy tahlilning korxonalarni boshqarish tizimidagi tutgan o‘rnini, ishlab chiqarish jarayonidagi bosqichlarni tahlil qilish uchun asos qilib olgan tamoyillarni hamda iqtisodiy tahlilning ichki xo‘jalik imkoniyatlarni axtarib topishdagi ahamiyatini bilishlari zarur.

Talaba bilimini nazorat qilish hamda mustahkamlashga oid savol va topshiriqlar

1. Iqtisodiy tahlilning dastlabki boshlang‘ich davri va O‘zbekistonda iqtisodiy tahlilning holati.
2. Iqtisodiy tahlil va dialektikaning asosiy tamoyillari.
3. Umumnazariy jihatdan analiz, sintez, deduksiya, induksiya tushunchalarining mohiyati.
4. Rezervlar to‘g‘risida tushuncha, ularning qanday turlari bor?

1-topshiriq.

Bilish nazariyasi va iqtisodiy tahlil to‘g‘ risidagi xorijiy va respublikamiz iqtisodchi olimlarining qarashlarini mustaqil ravishda o‘rganib chiqing va fikrlaringizni bildiring.

2-topshiriq.

Iqtisodiy tahlilning makro va mikro darajaga bo‘linishi va tahlil obyektlarini ham ushbu darajalarga bo‘lib o‘rganishning sabablarini izohlab bering.

3-topshiriq.

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy tahlilni rivojlantirish istiqbollarini ko‘rsatib bering.

II bob. IQTISODIY TAHLILNING MAZMUNI, PREDMETI VA VAZIFALARI

2.1. Iqtisodiy tahlil mazmuni

Iqtisodiy tahlil o‘z mazmuni jihatidan turlichadir. Tahlilning ikki xil yo‘nalishi mavjud: moliyaviy - iqtisodiy va texnik - iqtisodiy. Moliyaviy - iqtisodiy tahlilda biznes-rejaning bajarilishiga ta’sir ko‘rsatuvchi (texnika, texnologiya, ishlab chiqarishni tashkil etish) kabi omillar o‘rganilmaydi. Texnik-iqtisodiy tahlilda esa texnika va texnologiya hamda ishlab chiqarishni tashkil etishga oid hamma masalalar har tomonlama va chuqur o‘rganilib, uning ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga ko‘rsatgan ta’siri ham aniqlanadi. Tahlil korxona va uning bo‘linmalari faoliyatining hamma tomonlarini o‘z ichiga olgan umumiy hamda ishning qandaydir biror tomoni yoki korxonaning bir necha bo‘g‘inlarini o‘z ichiga olgan tanlanma (tematik) bo‘ladi. Shuningdek, yirik masalalarga bag‘ishlangan, korxonaning kundalik ishini o‘rganishga va ichki imkoniyatlarini topishga qaratilgan tezkor tahlil bo‘ladi. Qabul qilinadigan qarorlarning xarakteriga qarab, tahlil quyidagilarga bo‘linadi: dastlabki, tezkor, yakuniy va istiqbolli.

Tahlil o‘tkazish muddatlari: har kuni, bir oyda va bir yilda yoki zarur bo‘lishiga qarab ahyon-ahyonda olib borilishi mumkin.

Iqtisodiy tahlil o‘tkazishning bosqichlarini 2.1-chizmada ko‘rish mumkin.



2.1-chizma. Iqtisodiy tahlil o‘tkazishning bosqichlari

Shuni aytish kerakki, iqtisodiyot tarmoqlarini tahlil qilish iqtisodiy fanlar majmuasida mustaqil o‘rin olmagan bo‘lib, iqtisodiy nazariya va tarmoqlar makroiqtisodiy kurslarida o‘ rganiladi. Holbuki, korxonalarni iqtisodiy tahlil qilish fani iqtisodiy fanlar qatoridan o‘ziga xos mustaqil o‘rin olgan. Bozor iqtisodiyotini qurish ko‘p jihatdan ishlab chiqarishni boshqarishni muttasil takomillashtirish, moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilash, ichki xo‘jalik rejasini tuzish va uni takomillashtirish, korxonalar va iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida bir butun iqtisodiy siyosat olib borishni taqozo etadi. Xususan, Vazirlar Mahkamasining maxsus qarorlari materiallarida aynan, shu muhim masalalarni izchillik bilan amalga oshirish ko‘p bor ta‘kidlanadi.

Binobarin, bu qarorlarni bajarish o‘z navbatida xo‘jalikni boshqaruvchi idoralarni yana ham ishlab chiqarishga yaqinlashtirishni, iqtisodiy bo‘linmalar o‘rtasidagi huquq va majburiyatlarni yana ham aniq chegaralashni, boshqaruv apparati ishining tezkorligi va ixchamligini oshirishni taqozo etadi. Demak, hisob va iqtisodiy tahlil xo‘jalikni boshqarishda asosiy vosita bo‘lishi kerak. Binobarin, mahsulot ishlab chiqarish jarayoni va natijalari kundalik hisob va hisobotda o‘z aksini topadi. Bu o‘rinda korxonalarning ish faoliyati to‘g‘risidagi hisobot ma‘lumotlari xo‘jalikni boshqarishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi, iqtisodiyot taqrmoqlarining istiqbol rejalarini tuzish uchun va korxonalarning xo‘jalik va moliyaviy faoliyatini tahlil qilish uchun har tomonlama asoslangan va aniq ma‘lumotlar bilan ta‘minlaydi.

Demak, iqtisodiy tahlil korxonalar faoliyatini nazorat qilishda, xo‘jalik hisobini mustahkamlashda, iqtisodiy tejamni o‘tkazish, texnika taraqqiyotini jadallashtirish, ilg‘or tajribalarni tarqatishga, ish faoliyatida mavjud bo‘lgan kamchiliklarga barham berish va ichki xo‘jalik rezervlarini aniqlashda muhim vosita sifatida qo‘llaniladi.

2.2. Iqtisodiy tahlilning predmeti

Har qanday fanning vujudga kelishi uchun hayotiy zarurat tug‘ilishi lozim. Shu tufayli fanning shakllanishi biror kishi yoki vazirlikning ijod mahsuli bo‘ lib qolmasdan, obyektiv jarayonga tayanadi.

Korxonalarni to‘g ri, oqilona boshqarish, uning moliyaviy holatini yaxshilash, raqobatbardoshlik quvvatini oshirish xo‘jalik faoliyatini chuqurroq o‘rganishni talab etadi. Bu esa buxgalteriya balansi va boshqa hisobotlarda ifodalangan ba‘zi ko‘rsatkichlarga izoh berishni talab qiladi. Bular esa, o‘z navbatida, hozirgi tahlil fanining vujudga kelishi uchun obyektiv asos bo‘lgan.

Fanning predmeti, deganda shu fanda nima o‘rgatilishi tushuniladi. Har qanday mustaqil fan o‘zining predmetiga ega.

Iqtisodiy tahlil fanining predmetiga keng ma’noda qaraydigan bo‘lsak, u iqtisodiy fan sifatida tahlil qilinayotgan obyekt (korxona, birlashma, kompaniya, aksiyadorlik jamiyati, konsern, korporasiya kabilar) xo‘jalik faoliyatining barcha sohalarini (iqtisodiy, ijtimoiy, texnik, texnologiya va h.k.) o‘z ichiga oladi.

Tahlil fani xo‘jalik faoliyatida sodir bo‘layotgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Ammo bu jarayonlarning sodir bo‘lish paytini emas, balki uning natijasini o‘rganadi. Obyektda sodir bo‘ladigan iqtisodiy jarayonlar uning biznes rejasida ko‘zda tutilgai ma’lumotga asoslansa, jarayonning sodir bo‘lishini qonuniy jihatdan hujjatlashtirish bilan buxgalteriya hisobi, statistika kabi fanlar shug‘ullanadi. Shu jarayonlarning natijasi ma’lum davrlarda (oy, chorak, yil) jamlanib boriladi va turli hisobotlarda o‘z aksini topadi. Tahlil esa aynan ana shu tuzilgan hisobotlarga, jamlangan hujjatlarga asoslanadi.

Shunday qilib, iqtisodiy tahlil fanining predmeti, xo‘jalik faoliyatida obyektiv (tashqi) va subyektiv (ichki) omillar ta’sirida sodir bo‘lgan, bo‘layotgan va bo‘ladigan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni ma’lumotlar manbaida ifodalangan ko‘rsatkichlar tizimi (sistemasi) orqali uning holatiga baho berish va yaxshilash yo‘llarini ishlab chiqishni o‘rganishdan iboratdir.



Tahlilning predmetida obyektiv (tashqi) va subyektiv (ichki) omillar alohida o‘rin tutadi, chunki iqtisodiy jarayonlar o‘ z-o‘zidan sodir bo‘ lmaydi. Ular ma’lum ichki va tashqi omillar ta’siri ostida ro‘ y beradi. Shu omillar ta’sirini boshqa fanlar o‘rgatmaydi. Bu faqat tahlil fanida o‘rganiladi va uning predmetining asosini tashkil qiladi. Shuningdek, xo‘jalik faoliyati natijasiga to‘g‘ri baho bermasdan, unga ta’sir qilgan ijobiy va salbiy omillarni o‘ rganmasdan turib ko‘zda tutilgan maqsadga erishib bo‘lmaydi. Shu tufayli tahlil fani predmetining markazida obyektiv va subyektiv omillarni o‘rganish lozimligi qayd qilinishi bejiz emas.

Juda ko‘p iqtisodiy fanlar mavjud. Lekin ularning ichida tahlil fani xo‘jalik faoliyatining natijasiga odilona baho bera oladi. Undagi ijobiy va salbiy o‘zgarishlarga omillar ta’sirini aniqlaydi. Shularga asosan xo‘jalik faoliyatini yaxshilash yo‘llarini ishlab chiqadi. Bu xususiyatlar faqat tahlilga xos bo‘lganligi uchun ham uning predmetida natijaga to‘g‘ri baho berish va yaxshilash yo‘llarnni ishlab chiqish tegishli o‘ringa ega.

Har qanday fanning obyekti bo‘lishi lozim. Fanning obyekti uning predmeti qayerlarda amalga oshishini ko‘rsatadi. Tahlil fanining predmeti hozirgi bozor munosabatlari shakllanayotgan sharoitda ko‘ p mulkchilikka asoslangan barcha yuridik va jismoniy shaxslarnnng xo‘jalik faoliyatida mujassam. Shu tufayli iqtisodiy tahlil fanining obyektiga davlat, jamoat tashkilotlari, kompaniyalar, birjalar, korxonalar, tashkilotlar, birlashmalar va boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar kiradi.

2.3. Iqtisodiy tahlilning vazifalari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarni boshqarishda iqtisodiy tahlilning roli keskin oshmoqda, chunki, boshqaruv tizimida oldingi ma’muriy-buyruqbozlik tizimidan voz kechilib, yangi, erkin iqtisodiy mexanizmlar orqali boshqarish tizimi shakllanmoqda. Rejali iqtisodiyotda tahlil asosan reja ko‘rsatkichlarini asoslashga, uning bajarilishini ta’minlashga qaratilgan bo‘lsa, bozor iqtisodiyotida esa har bir xo‘jalik subyekti, mulk shaklidan qat’iy nazar o‘z faoliyatini yuqoridan berilgan buyruqni bajarishga qaratmasdan, balki, mustaqil ravishda o‘zining iqtisodiy qudratini takomillashtirish maqsadida erkin boshqarishga qaratadi. Bu esa o‘z navbatida iqtisodiy tahlilning rolini yanada oshiradi.



Iqtisodiy tahlil orqali har bir subyektda mavjud bo‘lgan ichki va tashqi imkoniyatlar aniqlanadi, ularni amaliyotga safarbar qilish chora-tadbirlari ishlab chiqiladi.

Har bir fanning vazifasi iqtisodiy shart- sharoitga qarab belgilanib boriladi, lekin u oldiga qo‘yilgan vazifalarni to‘liq va keng hal etish uchun qator uslublarni qo‘llaydi.

Iqtisodiy tahlilning eng muhim vazifalari quyidagilardan iborat:

1) biznes-rejaning qanchalik realligi (mavjudligi) va ilmiy jihatdan asoslanganligiga baho berish;

2) iqtisodiyotni rivojlantirishning joriy va istiqbol rejalarini tuzish uchun iqtisodiy ko‘rsatkichlar bazasini aniqlash;

3) biznes-rejasining bajarilishiga obyektiv baho berish hamda uni bajarishda korxonalarga bog‘liq va bog‘liq bo‘lmagan omillar va sabablarni bir-biridan ajratib aniqlash;

4) ichki xo‘jalik rezervlarini aniqlash (bu o‘rinda tahlilning samarasi, birinchidan, aniqlangan rezervlarni butun nazariy jihatdan asoslangan rezervlarga nisbati va ikkinchidan, amalga oshirilgan rezervlarning aniqlangan rezervlarga nisbati bilan belgilanadi);

5) korxonalarning xo‘jalik faoliyatida kutiladigan natijalarni oldindan aniqlash;

6) tahlil materiallariga asosan ishlab chiqarishda aniqlangan kamchiliklarni tuzatishga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida “Iqtisodiy tahlil”ning vazifasi ushbu yuqorida ta’kidlangan vazifalar bilan cheklanmaydi. Bozor sharoitida korxonalar faoliyati shu darajada serqirraki, tahlil jarayonida uning hamma jihatlarini o‘rganish lozim bo‘ladi. Shu sababli ham, iqtisodiy tahlilning vazifasi ham ko‘p qirralidir. Biz esa shu kabi vazifalarning ayrimlarini sanab o‘tdik xolos.

Ko‘rinib turibdiki, iqtisodiy tahlilning vazifasi bozor munosabatlari shakllanayotgan bugungi sharoitda ham, kelajakda ham korxonalar xo‘jalik faoliyatini uzluksiz yaxshilab borishi uchun iqtisodiy dastak sifatida muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

2.4. Iqtisodiy tahlilning asosiy tamoyillari

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatini tahlil qilish natijasiga asoslanib, ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilinadi va u tufayli boshqaruv sistemasi boshqariladigan obyektning faoliyatini zaruriyatga qarab o‘zgartiradi. Qabul qilingan qaror boshqaruv jarayonining asosidir. Yangi xo‘jalik yili uchun ishlab chiqilgan reja, bu korxonani kelajakda rivojlanishini ta’minlaydigan qarordir. Korxonalarning xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish jarayonida korxonada qabul qilingan biznes rejalarning asoslanganligi tekshiriladi, rejada ko‘zda tutilmagan imkoniyatlar aniqlanadi. Iqtisodiy tahlilni rejalashtirish darajasini talab darajasiga ko‘taradi, uni yana ham ilmiy asoslanganlik darajasini ta’minlaydi. Shuning uchun ham rejalashtirish bilan tahlil o‘rtasidagi bog‘liqlik aniq ko‘rinib turadi.

Biznes reja tuzish korxona faoliyatining tahlili bilan boshlanadi va yakunlanadi. Biznes rejaning aniq va puxta ishlab chiqilishi korxonalarning iqtisodiy rivojlanishiga zamin yaratib beradi.

Tabiat va jamiyatdagi voqelikni o‘rganuvchi va ularning tadqiq qilish obyekti deb qarovchi alohida fanning o‘zi amal qiladigan tamoyillari mavjud bo‘ladi. Tamoyillar o‘rganiladigan obyektni bir butunligi, realligi va voqeligini tavsiflaydi. Shu

jihatdan tahlilning ham iqtisodiy hodisa va jarayonlarni o‘rganishda o‘zi amal qiladigan tamoyillari bor. Mazkur tamoyillar tahlil fani obyektlarning obyektivligi, mantiqliligi, shakl-mazmuni, miqdor-sifati va shu kabi jihatlarni tavsiflab, real voqelikning yagona tushunchasini hosil qiladi.

Korxonalarning xo‘jalik faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish uchun asos qilib olingan quyidagi tamoyillar mavjud:

1. Obyektning holatini dastlabki iqtisodiy nazariya jihatidan tahlil qilishning zarurligi, o‘rganiladigan hodisalarning mohiyati va bir-biriga o‘zaro bog‘liqligi.

2. Tahlilning kompleks xarakterga ega ekanligi hamda o‘zaro bir-biriga uzviy ravishda bog‘liq tahliliy ko‘rsatkichlar tizimining qo‘llanishi.

3. Iqtisodiy ma’lumotlarni tahliliy jihatdan qayta ishlash jarayonida o‘rganiladigan hodisalarni guruhlashtirish va ularga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni miqdor va sifat belgilariga qarab turkumlash.

4. Korxonalar faoliyatini tahlil qilishda taqqoslash usulining ichki xo‘jalik rezervlarini aniqlashdagi ahamiyati.

5. Tahlil natijalari asosida ilg‘or tajribalarni keng yoyish va ommani korxonalarni boshqarishga yana ham keng jalb etish.

6. Korxonalarni boshqarishda hisob va hisobotning hal qiluvchi roli, ularning iqtisodiy tahlilda asosiy axborot manbai ekanligi.

Yuqorida qayd etilgan tamoyillar iqtisodiy tahlilning shakllanishiga va uning rivojlanish jarayoniga asos bo‘ldi.

Iqtisodchi olimlar tomonidan O‘zbekiston Resrublikasida iqtisodiy tahlil quyidagi yo‘nalishlardarivojlanishi lozimligi ko‘rsatilgan[6]:

-·raqobatdosh iqtisodiyotni shakllantirish va uni rivojlantirishda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatini iqtisodiy tahlil jihatidan tahlil etishni takomillashtirish lozim;

- hozirgi vaqtda respublikamizda ko‘p mulkchilikka asoslangan bozor tizimidagi korxonalar vujudga keldi. Iqtisodiy tahlil ham ana shu sohaga mos rivojlanishi lozim;

- O‘zbekistonda barcha sohalar bo‘yicha, ayniqsa, buxgalteriya hisobining jahon andozalariga mos tizimi qabul qilinmoqda. Bu esa xalqaro andozaga mos iqtisodiy tahlil tizimini ham yaratishni taqozo etadi;

- olimlar sanoat, qurilish, transport, xizmat va boshqa iqtisodiyotning muhim sohalari bo‘yicha darslik va o‘quv qo‘lanmalar yaratishlari lozim;

- iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlashda bu fanga tegishli ahamiyat berilishi va davlat ta’lim standartlariga hamda o‘quv rejalariga kiritish lozim.

Ushbu tadbirlarning amalga oshishi mustaqil davlatimizning mustaqil fani – iqtisodiy tahlilning rivojlanishi uchun asos bo‘ladi. Bufanning kelajakda ahamiyati keskin oshadi, chunki iqtisodiyotni yanada rivojlantirisg va liberallashtirish sharoiti har xil korxonalarning xo‘jalik faoliyatini chuqur o‘rganishni, tahlil qilishni taqozo etmoqda.

---

[6] Vahabov A., Ishonqulov N., Ibrohimov A. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. Darslik. -T.: Iqtisod-moliya, 2013.

Qisqa xulosa

Ushbu bobni o‘rganish natijasida talabalar iqtisodiy tahlil predmeti bo‘yicha o‘quv adabiyotlarida mamlakatimiz va xorijiy mualliflar tomonidan berilgan ta‘riflarni, ularning farqlanadigan tomonlarini, iqtisodiy tahlilni eng muhim vazifalarni uning o‘z mazmuni jihatidan yo‘nalishlarini hamda uni o‘tkazishning bosqichlarini bilishlari kerak.

Talaba bilimini nazorat qilish hamda mustahkamlashga oid savol va topshiriqlar

1. Iqtisodiy tahlilning asosiy vazifalaridan kelib chiqqan holda uning tavsifini keltiring.
2. Boshqaruv (ichki) va moliyaviy(ichki va tashqi) tahlilning asosiy maqsadi va vazifalarini ayting.
3. Iqtisodiy tahlilning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
4. Iqtisodiy tahlilning tamoyillarini ko‘rsatib bering.

1-topshiriq.

Mualliflar tomonidan iqtisodiy tahlilning predmeti bo‘yicha berilgan ta’riflarni quyidagi jadvalda bering.

№	Iqtisodiy tahlilning predmetiga berilgan ta’rif	Muallif	Predmetga berilgan ta’rifning to‘ laqonligi va boshqa ta’riflardan farqi
1	2	3	4

2-topshiriq.

Quyidagi berilgan ro‘ yxatga ko‘ ra qaysi mavzular boshqaruv (ichki) tahlilga, qaysilari esa moliyaviy (tashqi) tahlil tarkibiga kiradi. Bularni tasvir (sxema) shaklida ifoda eting.

1. Ichki xo‘ jalik (ishlab chiqarish) tahlili.
2. Mahsulot hajmining tahlili.
3. Qarzga olingan mablag‘lardan foydalanishni tahlili.
4. Korxona faoliyatini reyting asosida baholash va tahlil qilish.
5. Korxonaning o‘z kapitalidan foydalanishni tahlil qilish.
6. Marketing tizimini tahlil qilish.
7. Korxonaning xo‘jalik faoliyatini kompleks tahlil qilish.
8. Korxonaning likvidlilik (oson pullanadigan), to‘lov qobiliyati va bozor barqarorligi ko‘rsatkichlarini tahlil qilish.
9. Biznes-rejaning asoslanganligi va uning bajarilishini tahlil qilish.
10. Mutlaq ko‘rsatkichlarni (foyda ko‘rsatkichlarni) tahlil qilish.
11. Nisbiy ko‘ rsatkichlar (rentabellik ko‘rsatkichlari)ni tahlil qilish.
12. Korxonaning texnika-tashkiliy darajasini tahlil qilish.
13. Avanslashgan kapitaldan samarali foydalanishni tahlil qilish.
14. Ichki xo‘jalik moliyaviy tahlil.
15. Tashqi moliyaviy tahlil.
16. Ishlab chiqarish resurslaridan foydalanishni tahlil qilish.

17. Mahsulot hajmi, tannarx va foyda koʻrsatkichlarining oʻzaro bogʻliqliklarini tahlil qilish.

3-topshiriq.

1. Quyida berilgan roʻyxatga asosan har bir guruh koʻ rsatkichlardan pirovard koʻrsatkichlar va ularning oʻzgarishiga taʼsir qiluvchi omillar (koʻrsatkichlarni) aniqlang.

Mahsulot hajmi, sanoat ishlab chiqarish xodimlarining roʻyxatdagi oʻrtacha soni, bir ishlovchiga toʻgʻri keluvchi oʻrtacha yillik ish unumi (mehnat unumdorlik darajasi), texnika darajasi, ishlab chiqarish texnologiyasi, mehnat va ishlab chiqarishni boshqarish;

- bir maromda mol yetkazib berish, mahsulotni bir maromda ishlab chiqarish, asbob-uskunalarni oʻz vaqtida va sifatli taʼmirlash, asbob-uskunalarning boʻsh turib qolishini kamaytirish.

Mahsulot hajmi, sanoat ishlab chiqarish asosiy fondlarining oʻrtacha yillik qiymati, fond samarasi, moddiy xarajatlar, material sigʻimi.

III bob. IQTISODIY TAHLILNING METODI VA UNDA QO‘ LLANILADIGAN AN’ANAVIY USULLAR

3.1. Iqtisodiy tahlilning metodi

Iqtisodiy tahlil dialektikani o‘rganishning muhim vositasi hisoblanadi. Iqtisodiy tahlilning uslubiy asoslari dialektika va iqtisodiy nazariya faniga tayanadi. Ma’lumki, bilish nazariyasi shunga asoslanganki, u ham bo‘lsa, obyektiv (mavjud) dunyoni bilishdir. Bu degani bilish jarayoni dialektik xususiyatga ega bo‘lib, voqelikning in’ikosidir. Bilish nazariyasining mantiqiyligi dialektik tarzda quyidagi formulada aks etadi, ya’ni: jonli mushohada, abstrakt tafakkur, amaliyot.

Metod juda keng ma’no va tushunchaga ega. Umuman metod deganda real voqelikda yuz berayotgan hodisa va jarayonlarni o‘rganishga yondashish usuli tushiniladi. Fanning metodi deganda esa, ushbu fanning obyektini tadqiq qilish usuli tushuniladi

Iqtisodiy tahlil metodi deganda esa, biznes-rejaning bajarilishiga va mahsulot hajmining o‘sishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni sistemali va kompleks tarzda o‘rganish, o‘lchash va umumlashtirish usuli bo‘lib, ular hisob, hisobot va hisobdan tashqari ma’lumotlarni maxsus usullar orqali qayta ishlanilib, amalga oshirilishi tushuniladi.

Ma’lumki, tahlil qilinayotgan obyektning faoliyatiga ichki va tashqi omillar ta’sir ko‘rsatadi. Shuni ta’kidlash lozimki, tahlilda omillar deganda u yoki bu iqtisodiy ko‘rsatkichga ijobiy hamda salbiy ta’sir ko‘ rsatuvchi faol harakat qiluvchi kuchlar nazarda tutiladi. “Sabab” termini nisbatan keng ko‘ lamdagi kompleks omillar tizimiga nisbatan qo‘llanilib, bu kompleksni tashkil etuvchilar esa omillar deb ataladi.

Tahlilning muhim metodologik jihatlaridan biri uning nafaqat sabab-oqibat aloqalarini o‘rganish, balki ularga miqdoriy tavsif berishi, ya’ni faoliyat natijalariga omillar ta’sirini miqdoran o‘lchashni ta’minlash sanaladi. Bu analitik tadqiqotlar darajasini oshiradi.

Iqtisodiy tahlilning muhim metodologik jihati, korxonaning xo‘jalik faoliyatidagi iqtisodiy jarayon va hodisalarning sabab-oqibat aloqalarini kompleks, tizimli tadqiq qilish uchun zaruriy sanaluvchi ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqish va undan foydalanish hisoblanadi.

Xo‘jalik faoliyati va uning natijaviy ko‘rsatkichlariga ta’sir etuvchi omillar beqiyosdir. Ammo, ularning barchasini hisoblash maqsadga muvofiq emas. Iqtisodiy tahlil jarayonida omillarning ayrim tomonlari, xususiyatlarini inobatga olib turkumlash va har birini alohida - alohida ta’riflash lozim. Iqtisodiy adabiyotlarda omillar qator belgilari bo‘yicha tasniflanadi. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ijobiy va salbiy omillar;
- korxona faoliyatiga bog‘liq (ichki) omillar, bog‘liq bo‘lmagan (tashqi) omillar;
- ishlab chiqarishning intensiv va ekstensiv omillari;
- ishlab chiqarish va muomala jarayonlari omillari.

Ular o‘z navbatida iqtisodiy mazmuni bo‘yicha miqdor va sifat omillarga bo‘linadi (3.1-chizma).



3.1-chizma. Tahlilda qo‘llaniladigan omillarning iqtisodiy mazmuni bo‘yicha tasnifi

Xo‘jalik yuritish samaradorligini oshirish imkoniyatini aniqlashda ijobiy ta’sir etuvchi omillar harakatini kuchaytirish va ularning salbiy ta’sirini tugatish rezervlar deb ataladi.

Deduktiv usul, asosan moliyaviy–iqtisodiy tahlilda qo‘llaniladi. Bunda avvalo xo‘jalik faoliyatini belgilovchi umumiy ko‘rsatkichlar o‘rganilib, so‘ngra ular bo‘laklarga bo‘linadi. Ko‘rsatkichlarni bo‘laklarga bo‘lish aslini olganda tahlil demakdir.

Induktiv usul ko‘pincha texnik-iqtisodiy tahlilda qo‘llaniladi, ya’ni avval, ayrim olingan ish uchastkalaridagi ko‘rsatkichlar har tomonlama tekshirilib, so‘ngra ana shu aniq ko‘ rsatkichlardan korxonaning xo‘jalik faoliyatini belgilovchi umumlashgan iqtisodiy ko‘rsatkichlar darajasiga chiqiladi.

Iqtisodiy tahlil usuli mazkur predmetni o‘rganish jarayoniga umumiy jihatdan yondashuvdir. Shu sababli, tahlil usulini unga bo‘ysinuvchi maxsus usullari bilan aralashtirib bo‘lmaydi. Zero, aniq shart - sharoit natijasida u yoki bu usullarning o‘zgarishi ehtimoldan xoli emas.

3.2. Iqtisodiy tahlil metodining o‘ ziga xos xususiyatlari

Iqtisodiy tahlil usulining eng muhim xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1) Xo‘jalik faoliyatiga ta’sir etuvchi texnika, texnologiya, ishlab chiqarishni tashkil qilish va barcha omillarni tekshirishni muntazam va kompleks tarzda o‘tkazishga yondoshuv tahlil usulining eng muhim xususiyatlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Bu o‘rinda muntazam tahlilni kompleks tahlil bilan almashtirish aslo mumkin emas. Obyektni ierarxik usul (bo‘ysunish tartibi) orqali boshqarish, masalan, sex korxonaning, korxona birlashmaning, birlashma tarmoqning bir qismi va hokazo sifatida o‘rganish sistemali tahlilga misol bo‘ladi. Kompleks tahlilda barcha ko‘rsatkichlar o‘rganiladi.

2) Tahlil usulining o‘ziga xos xarakterli xususiyatlaridan biri – iqtisodiy ko‘rsatkichlarning hartomonlama bir-birlari bilan sababiy bog‘lanishida ekanligidir. Bu borada tahlilning vazifasi ana shu sabablarni aniqlashdir. Shuni ta’kidlash kerakki, hatto ayrim olingan iqtisodiy ko‘rsatkichga bir qancha sabablar ta’sir ko‘rsatadi. Binobarin, bu sabablar harakatini aniqlash juda ham murakkabdir. Shu sababli asosiy va hal qiluvchi sabab va omillar ta’sirini aniqlash kerak. Shunday qilib, tahlilning dastlabki sharti xo‘jalik faoliyatiga ta’sir etuvchi sabablarni iqtisodiy belgilariga qarab to‘g‘ri turkumlash zarur. Masalan, tovar mahsuloti ishlab chiqarish hajmiga ta'sir qiluvchi omillar uch guruhga umumlashtiriladi (3.2-chizma).



3.2-chizma. Tovar mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta’sir qiluvchi omillar

Mehnat omillariga korxonaning ishchi kuchi bilan ta’minlanishi, ish vaqtidan foydalanish va mehnat unumdorligi kiradi.

Mehnat vositalari omillariga esa korxonaning asosiy fondlar bilan qay darajada ta’minlanganligi, ularning hajmi, strukturasi (tuzilishi), o‘sish sur’atlari, texnik holati va ulardan foydalanishning samaradorlik darajasi singari masalalar kiradi.

Mehnat predmetlari omillariga korxonaning xom- ashyo va asosiy materiallar bilan ta’minlanganligi, ulardan foydalanish, samaradorlik darajasi kabi masalalar kiradi.

Barcha omillar bir-biri bilan bog‘liqlikka ega, ammo iqtisodiy tahlilning shartiga ko‘ra ularni shartli ravishda guruhlarga ajratilib, har bir omilni ta’sir etish darajasi alohida aniqlanadi. Chunki, yuqorida sanab o‘tilgan omillar o‘ziga xos mustaqil ma’noga ega bo‘lishi bilan birga o‘zaro bir-birlari bilan uzviy bog‘langanlar. Binobarin, bu omillarning ta’sirini mexanik tarzda bir-biriga qo‘shib ham bo‘lmaydi. Masalan, mehnat unumdorligining o‘sishi ishchilarning ish vaqtidan samarali foydalanishga, ishchilarning kasbiy malakasiga bog‘liq (mehnat omillari). So‘ngra, mehnat unumdorligi korxonaning asosiy vositalar bilan ta’minlanish darajasiga, asosiy vositalarning texnik holatiga va ulardan samarali foydalanish darajasiga bog‘liq (mehnat vositalari omillari). Nihoyat, mehnat unumdorligining o‘sishi moddiy resurslardan samarali va tejamli foydalanishga (mehnat buyumlari omili) bog‘liq.

Demak, avval har bir omillar guruhi alohida-alohida o‘rganiladi. So‘ngra uchchala omillar guruhini tahlil qilish asosida mahsulot ishlab chiqarishni oshirish borasidagi yig‘ma (komplekt) rezervlar (imkoniyat) to‘g‘risida umumiy xulosa beriladi. Har bir omillar guruhi, o‘z navbatida, miqdor (ekstensiv) va sifat (intensiv) ko‘rsatkichlarga bo‘linadi. Miqdor ko‘rsatkichi-resurslarning mavjudligini ko‘rsatsa, sifat ko‘rsatkichi esa, resurslardan samarali foydalanishni ko‘rsatadi. Avval miqdor, so‘ngra sifat ko‘rsatkichlarning ta’siri o‘rganiladi. Chunki, korxonada ichki imkoniyatlardan samarali foydalanish bo‘yicha mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta’sir qiluvchi omillar ta’sirini miqdor va sifat jihatdan hisoblash asosiy masala hisoblanadi.

3.3. Iqtisodiy tahlilda qo‘ llaniladigan usullar va ularni guruhlarga ajratish

Iqtisodiy tahlil qilish jarayonida turli usullar va metodikalar qo‘llaniladi. Bu usul va metodikalardan foydalanish jarayonida tahlil metodining asosiy jihatlarining kompleksligi va tizimlashganligi yaqqol ko‘rinadi. Xo‘jalik jarayonlarining umumiy birligi, o‘ziga xos tuzilish va tarkibga egaligi hamda murakkab tavsifdagi o‘zaro bog‘liqligi tahlil usullari va metodikalarini qo‘llashda asosiy e’tiborda turadi.

Tahlilning usul va metodikalarini qo‘llashda korxonaning xo‘jalik va boshqa turdagi faoliyatini bir butun tizim ekanligi, uning umumiy yakuniy natijasi mavjudligi nazarda tutilgan holda faoliyatning turli tomonlari va elementlari ham alohida, ham birgalikda o‘rganilib, ularning o‘zaro bog‘liqligi, biri ikkinchisining ta’siridan kelib chiqishi, ya’ni ketma-ketligi aniqlanib, barcha omillar asosiy hamda asosiy bo‘lmagan guruhlarga bo‘linib, ular o‘zaro uyg‘unlashtirilgan hamda tizimga solingan holda yakuniy natijaga omillarning birgalikdagi bevosita va bilvosita ta’siri hisoblanadi.

Tahlil usullarini qo‘llash o‘rganilayotgan jarayonlarning bir-biriga bog‘liqligi, o‘zgarish sababi, ta’sir ko‘rsatgan omillar va qo‘shimcha sabablarni aniqlashga yordam beradi.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida aksariyat, yetuk iqtisodchi olimlarimiz tahlilning usullarini iqtisodiy adabiyotlarda shartli ravishda ikki guruhga ajratib

ko‘rsatishmoqda. Iqtisodiy tahlilining usullarini quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin:

1. An’anaviy usullar guruhi.
2. Iqtisodiy-matematik usullar guruhi.

Iqtisodiy tahlil usullarini quyidagi chizmada yanada aniqroq aks ettirish mumkin (3.3-chizma).

Tahlilda qo‘ llaniladigan usullar	
An’anaviy usullar	**Iqtisodiy-matematik usullar**
Solishtirish	Chiziqli
Farqlash	Korrelyasiya va regressiya
Balans	Dasturlash
Zanjirli almashtirish	O‘yin nazariyasi
Qayta hisoblash	Yalpi xizmat nazariyasi
Mutloq farq	Matrisalash
Indeks	va boshqalar
Nisbiy ko‘ rsatkichli	
va boshqalar	

3.3-chizma. **Tahlilda qo‘ llaniladigan usullar tasnifi**

An’anaviy usullar guruhiga iqtisodiy tahlil paydo bo‘lgandan buyon an’anaga aylanib, amaliy tajribada keng qo‘llanilib kelayotgan usullar kiritiladi. Ularning tarkibiga mutloq va nisbiy farqlarni aniqlash, taqqoslash, guruhlashtirish, balansli bog‘lanish, zanjirli bog‘lanish, indeks, foizlar va hokazo usullarni kiritishimiz mumkin bo‘ladi.

Iqtisodiy-matematik usullar iqtisodiy tahlil fanining takomillashib borishi natijasida vujudga kelgan bo‘lib, bunda turli dasturiy ta’minotlar va matematik usullardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

3.4. Iqtisodiy tahlilning maxsus usullari

Tahlilning usuli unga bo‘ ysinuvchi maxsus usullar orqali ifodalanadi. Korxonalar faoliyatini tahlil qilishda turli maxsus usullar qo‘ llaniladi. Shulardan eng asosiylari quyidagilardir:

a) Taqqoslash usuli korxona faoliyatini tahlil qilishning eng asosiy usulidir. Taqqoslash – inson atrof-muhitni anglay boshlagan usullardan biri bo‘ lib, undan doimo foydalaniladi. Uning muhimligi quyidagi maqolda ham qayd qilinadi: “Barcha narsa qiyoslashda anglanadi”. Bu usul iqtisodiy hodisalar tadqiqida ham keng tarqaldi: baholash uchun qo‘llaniladigan har bir ko‘rsatkich, har bir raqam, nazorat va prognoz xuddi shunday boshqalar bilan taqqoslashdagina ahamiyatlidir.Taqqoslash usullarini sanab o‘tamiz:

- haqiqatdagi ko‘rsatkichlarni biznes-reja darajasidagi ko‘rsatkichlar bilan taqqoslash natijasida biznes-rejaning bajarilish darajasi va sifati aniqlanadi;
- joriy yilda amaldagi ko‘rsatkichlarni o‘tgan davr hisoboti bilan taqqoslash natijasida ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati aniqlanadi;

- ishlab chiqarishda eng mukammal namunaga ega bo‘lgan korxonaning iqtisodiy modeli bilan taqqoslash. Bu o‘rinda taqqoslash kompleks tarzda olib borilmaydi, balki ushbu korxonaning ayrim ko‘rsatkichlari bilan taqqoslanadi;

- korxona ishining yakuni, ilg‘or texnik-iqtisodiy me’yorlar, o‘tgan davr hisoboti ayrim davrlarda qilingan ishlarning eng yaxshi natijalari ushbu korxonaning ilg‘or uchastkalaridagi ish natijalari, korxona hamda ushbu tarmoqdagi ilg‘or ishchilarning ish natijalari bilan taqqoslash;

- ushbu korxonaning ko‘ rsatkichlari tarmoq bo‘yicha aniqlangan o‘rtacha ko‘rsatkichlar bilan taqqoslanadi.

Avval qayd qilinganidek, iqtisodiy tahlilning vazifalaridan biri tizimli nazorat va qo‘yilgan maqsadlarga erishish bo‘yicha korxonalar faoliyatini har tomonlama baholash hisoblanadi. Bunda haqiqatdagi ma’lumotlarni rejadagi bilan taqqoslash zarurligiga shartlangan. Bunday taqqoslash oy, chorak yoki yil rejasini bajarish darajasini aniqlashga, mo‘ljal parametrlardan og‘ishni aniqlash, yechimini talab qiluvchi muammolarni aniqlashga imkon beradi.

b) Guruhlashtirish. U har qanday ijtimoiy-iqtisodiy tekshirishning ajralmas qismi bo‘lib hisoblanadi. Guruhlashtirish, ayniqsa, amaliy jihatdan ishlab chiqarishda keng qo‘ llaniladi. Masalan, yuqorida ta’kidlanganidek tovar mahsuloti ishlab chiqarishga ta’sir qiluvchi omillarni guruhlashtirish (mehnat, mehnat vositalari va mehnat predmetlari omillari) misol bo‘ladi.

Iqtisodiy tahlil korxona faoliyatida ko‘p sonli voqeliklarni guruhlashtirish usuli bilan tartibga solib o‘rganadi. Bunda voqeliklarni ijtimoiy-iqtisodiy tabiati chuqur tatqiq etilib, ularning bir turdagi xususiyatlari, jihatlari va miqdorlari aniqlanib, shu mezonlar bo‘yicha guruhlar va kichik guruhlarga ajratiladi. Ta’kidlash kerakki, voqeliklar tasodifiy belgilariga ko‘ra guruhlarga bo‘linmaydi. Bu holat tahlil natijalariga jiddiy ta’sir etadi.

v) Yetakchi halqani ajratib qo‘yish usuli. Korxona faoliyati tahlil qilinayotgan vaqtda nihoyatda ko‘p dalil va hodisalar uchraydiki, ularni to‘la tahlil qilish imkoni yo‘qligi uchun bu usuldan foydalaniladi. Bu usul u yoki bu hodisalarning sababini aniqlashdan tashqari texnikani hamda ishlab chiqarishni tashkil etishni yanada takomillashtirish vazifalarini muvaffaqiyatli hal etish imkonini beradi;

g) Mutlaq va nisbiy miqdorlar. Mutlaq miqdorlar orqali iqtisodiy ko‘rsatkichlarning umumiy hajmi aniqlanadi. Nisbiy ko‘rsatkichlar esa biznes-rejaning bajarish darajasini va ishlab chiqarishni rivojlantirish sur’atini belgilaydi.

Iqtisodiy tahlilda ko‘rsatkichlarni o‘rganish mutlaq miqdorlardan foydalanish bilan boshlanadi. Misol uchun, mahsulot ishlab chiqarish hajmi (natural va qiymat o‘lchovlarida), tovar aylanish hajmi, mahsulot ishlab chiqarish tannarxi, yalpi tushum, ishchilar soni va hokazo.

Mutlaq ko‘rsatkichlar hodisa birliklarining o‘lchov, og‘irlik, hajm, davomiylik, maydon, qiymat va boshqa hodisalarning o‘lchamiga nisbatsiz miqdoriy o‘lchovini aks ettiradi, nisbiy esa – kattaliklar o‘rganilayotgan hodisa va kattaliklarning boshqa davr yoki boshqa obyekt bo‘yicha olingan qandaydir boshqa hodisa yoki kattaliklarga nisbatini ifodalaydi.

Mutlaq miqdorlarsiz tahlil ishlarini amalga oshirib bo‘lmaydi. Iqtisodiy tahlilda mutlaq miqdorlar voqelikni bilish, tushunish, o‘qish va o‘rtacha hamad nisbiy

koʻrsatkichlarni hisoblashda asosiy axborot bazasi boʻlib foydalaniladi. Shuningdek, mutlaq oʻzgarish iqtisodiy tahlilda muayyan koʻrsatkichni avvalgi davrlarga nisbatan mutloq miqdordagi farqlarini koʻrsatib beradi.

Nisbiy koʻrsatkichlar bir xil tur va mazmundagi koʻrsatkichlarning oʻzaro nisbatini aniqlab foiz, koeffisient, indeks koʻrinishida aks ettirib beradi. Ushbu usul reja bajarilishi, oʻsish surʼatlari hamda salmogʻlar asosida voqeliklarni tarkibiy tuzilish holati kabilarni oʻrganishda keng qoʻllaniladi. Nisbiy koʻrsatkichlar bir kattalikni boshqasiga boʻlish natijasida olinadi va u taqqoslash bazasiga qabul qilinadi. Bu reja, bazis yil, boshqa korxonaning, oʻrtacha sohaviy maʼlumotlari boʻlishi mumkin. Nisbiy kattaliklar koeffitsiyentlar (baza 1) yoki foizlar (baza 100) shaklida ifodalanadi.

d) Dinamika metodi. Muhim hodisalar, jarayonlarning har birining rivojlanishida, deb qarash kerakligini koʻrsatadi. Demak, bu tahlil qilish jarayonida korxona faoliyati rivojlanayotganda, deb qaraladi va bu bilan uning ishidagi ayrim oʻzgarishlari ochiladi;

e) Indekslar. Ular yordamida maʼlumotlarni qator yillar boʻyicha taqqoslash mumkin. Bu oʻrinda bazali va zanjirsimon indekslardan foydalaniladi. Masalan, bazali indeksga mahsulot ishlab chiqarish surʼatining oʻsishi misol boʻla oladi. Bunda har yili ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi solishtirib boʻladigan bahoda oʻtgan yillarda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi bilan taqqoslanadi. Bazisli indeks boʻyicha hisob qilinganda taqqoslash uchun baza (asos) 100 ga teng, deb olinib, keyingi koʻrsatkichlar ana shu bazisli miqdorga foiz yoki koeffitsiyent hisobida olinadi.

j) Bartaraf etish (eliminirovanie) usuli. Xoʻjalik faoliyatiga yuqorida aytib oʻtilgandek, juda koʻp omillar taʼsir qiladi: asosiy, qoʻshimcha, tashqi va hokazo. Bu usul yordamida ushbu omillarni bir-biridan ajratib, alohida tahlil qilishga imkon beradi. Ushbu usul turli usullar bilan amalga oshiriladi, jumladan, zanjirli bogʻlanish usuli bilan ham.

z) Zanjirli almashtirish usuli. Bu usulning mohiyati quyidagidan iborat: yaʼni hisob formulasi tarkibiga kirgan oʻtgan yil doirasidagi ayrim olingan miqdoriy koʻrsatkichlarini aynan shu koʻrsatkichlarning haqiqatdagi darajasiga ketma-ket almashtiriladi. U yoki bu omilning taʼsiri ketma-ket ayirish yoʻli bilan aniqlanadi: ikkinchi hisobdan birinchi hisob ayriladi, uchinchi hisobdan ikkinchi hisob ayriladi va hokazo. Birinchi hisobda hamma koʻrsatkichlar oʻ tgan yil doirasida olinadi, soʻnggi hisobda esa-haqiqatdagi bajarilishi. Zanjirli almashtirish usulida tahlil qilinayotgan koʻrsatkichlar oʻaro qatʼiy funksional bogʻliqlikda boʻlishi talab etiladi. Yaʼni, bir yoki bir necha koʻrsatkich taʼsirida natijaviy koʻrsatkich yuzaga chiqishi kerak.

Zanjirli almashtirish usulida faqat natijaviy koʻrsatkichga faqat ikki omil taʼsir miqdori oʻrganilmaydi, balki uch va undan koʻp boʻlgan omillarning taʼsiri ham hisob-kitob qilinadi. Ushbu hisob-kitob modelini 3.1-jadvalda koʻrsa boʻladi.

Ushbu modelni aniq misolda oʻrganib chiqamiz. Maʼlumki, mahsulot hajmi oʻzgarishiga ishchilar soni, ishlangan kishi kunlari, soatlari, bir soatda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi kabi omillar taʼsir qiladi.

Zanjirli almashtirish usulini qoʻllanilishini tovar mahsulotiga taʼsir etuvchi mehnat omillarini tahlil qilish orqali koʻrib chiqishimiz mumkin (3.2-jadval).

3.1-jadval

Omillar ta’sir miqdorini zanjirli bog‘lanish usulida hisob-kitob qilish modeli

Tartib raqami		Bir- biriga ta’sir etuvchi ko‘rsatkichlar (Omillar)				Umumlashtiruvchi ko‘rsatkich	Umumlashtiruvchi ko‘rsatkichning o‘zgarishi	
Hisob-lashlar	Al-mash-tirish-lar	A	B	V	G		Alohida olingan omillar ta’sirida	O‘zgar-ishlar hisobi
1	-	o‘tgan yili	o‘tgan yili	o‘tgan yili	o‘tgan yili	A Bazis	x	x
2	1	hiso-bot yili	o‘tgan yili	o‘tgan yili	o‘tgan yili	A_1 Qayta hisoblangan	A	$A_1 – A$
3	2	hiso-bot yili	hisobot yili	o‘tgan yili	o‘tgan yili	A_2 Qayta hisoblangan	B	$A_2 – A_1$
4	3	hiso-bot yili	hisobot yili	hisobot yili	o‘tgan yili	A_3 Qayta hisoblangan	V	$A_3 – A_2$
5	4	hiso-bot yili	hisobot yili	hisobot yili	Hiso-bot yili	A_4 Haqiqatda	G	$A_4 – A_3$

$$(A_1-A) - (A_2-A_1) - (A_3-A_2) - (A_4-A_3) = A_4-A$$

3.2 - jadval

Zanjirli almashtirish usuli

Tartib soni		Hisob formulasiga kiruvchi omillar				Pirovard natija – tovar mahsulotining qiymati (ming so‘ m) [1us*2us*3us*4us]	Oldingi hisobga nisbatan farq (ming so‘ m)
Hisoblashlar	Almashtirishlar	Ishchilarning o‘rtacha ro‘ yxatdagi soni(kishi)	Bir ishchi tomonidan bir yilda ishlangan kishi kuni (kun)	Ish kunini o‘rtacha uzunligi (soat)	Bir ishchiga to‘gri keluvchi soatli ish unumi (so‘ m, tiyin)		
A	B	1	2	3	4	5	6
1	-	o‘.y 1113	o‘.y 238	o‘.y 7,78	o‘.y 3,21	o‘t.y 6615	-
2	1	o‘.y 1085	o‘.y 238	o‘.y 7,78	o‘.y 3,21	hisob 6449	- 166
3	2	h.y. 1085	h.y. 226	o‘.y 7,78	o‘.y 3,21	hisob 6124	- 325
4	3	h.y. 1085	h.y. 226	h.y. 7,73	o‘.y 3,21	hisob 6084	- 40
5	4	h.y. 1085	h.y 226	h.y 7,73	h.y 3,65	hisob 6905	+821

Omillar balansi: (-166)+(-325)+(-40)+821= +290 ming so‘m.

o‘.y. - o‘tgan yili.

h.y. - hisobot yili.

Jadvaldan ko‘rinishicha, korxonaning ish kuchi bilan to‘la ta’minlanmaganligi (ekstensiv omil), (1085-1113=28 kishi), bir ishchi tomonidan bir yilda ishlangan o‘rtacha kishi kunining o‘ tgan yilga nisbatan 12 kunga kamayishi (226-238) va ish kunining o‘rtacha uzunligi 0,05 soatga (7,73-7,78) kamayishi natijasida tovar mahsuloti ishlab chiqarish 531 ming so‘ mga kamaydi (166; 325; 40.). Bu kamayishning o‘rni intensiv omilning o‘ sishi evaziga qoplandi. Bir ishchiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha soatlik ish unumining 44 tiyinga (3,65-3,21) oshishi natijasida 821 ming so‘mlik tovar mahsuloti ishlab chiqarildi.

Endi pirovard natijaga ikkita omil ta’sirini hisob-kitob qilishda zanjirli almashtirish usulini qo‘llanilish tartibini ko‘rib chiqish uchun 3.3-jadvalni tuzamiz.

3.3-jadval

Mehnat unumdorligi ko‘rsatkichini tahlili

Ko‘ rsatkichlar	**Haqiqatda o‘tgan yil**	**Haqiqatda hisobot yil**	**Farqi (+,-)**	**O‘sish sur’ati, %**
1. Mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum , ming sum	11133677	16236271	+5102594	145,83
2. Xodimlarning ro‘yxat bo‘ yicha o‘rtacha soni, kishi	35	65	+30	185,71
3. Bir xodimga to‘g‘ri keluvchi o‘rtacha yillik ish unumi, ming so‘ m (1/2)	318105,06	249788,79	-68316,27	78,52

3.3-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, korxonada mahsulot sotishdan olingan sof tushum hajmi 5102594 ming so‘mga oshgan. Endi asosiy vositalarning o‘rtacha yillik qiymatining o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi omillarni zanjirli almashtirish usuli orqali hisob-kitobini havola qilamiz (3.4-jadval).

3.4-jadval

Zanjirli almashtirish usuli

Hisob	**Almashtirish**	**Hisob formulasi tarkibiga kiruvchi omiillar**		**Natijaviy ko‘rsatkich – . Mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum (1 u x 2 u)**	**Oldingi hisobga nisbatan farq, (+,-)**
		Xodimlarning ro‘yxat bo‘yicha o‘rtacha soni	**Bir xodimga to‘g‘ri keluvchi o‘rtacha yillik ish unumi**		
A	B	1	2	3	4
1	-	35	318105,06	11133677	-
2	1	65	318105,06	20676829	+9543152
3	2	65	249788,79	16236271	-4440558

Omillar balansi +5102594 ming so‘m

i) Tahlilda ko‘p qo‘llaniladigan usul ko‘rsatkichlarning o‘sish sur’ati bo‘yicha farqni aniqlash usulidir. Tahlil qilish uchun quyidagi 3.5 - jadval keltiriladi.

3.5 – jadval

Ko‘rsatkichlarning o‘sish sur’ati bo‘yicha farqni aniqlash usuli

Ko‘rsatkichlar	Ko‘rsatkich-larning o‘sish sur’ati, (%)	O‘sish sur’atidagi farq, (+,-)	Sof tushum hajmiga ta’siri, (ming so‘ m) (2 ustun x 11133677/100)
A	1	2	3
1.Xodimlarning ro‘yxat bo‘yicha o‘rtacha	185,71	185,71-100=+85,71	+9542674
2.Bir xodimga to‘g‘ri keluvchi o‘rtacha yillik ish unumi	78,52	78,52-185,71=-107,19	-11934188
3.Mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum	145,83	145,83-78,52=+67,31	+7494078
Omillar balansi:+ 5102564 ming so‘ m			

Raqamlarni butunlash hisobiga 30 ming so‘ m farq bo‘ ldi (5102594-5102564).

Jadvaldan ko‘rinishicha, mahsulot sotishdan olingan sof tushum hajmiga ta’sir qiluvchi omillarining bu usulda hisoblaganda olingan natijalar zanjiri bog‘lanish usuli bo‘yicha aniqlangan natijalarga teng (30 ming so‘m farq butunlash hisobiga hosil bo‘ldi).

k) Mutloq farq usuli (determinallashgan omillar). Bu usulning mohiyati quyidagidan iborat: miqdor omilida bo‘lgan farqni sifat omilini o‘tgan yildagi darajasiga ko‘paytiriladi; sifat omilida bo‘lgan farqni miqdor omilini hisobot yilidagi darajasi ko‘paytiriladi. Ushbu usulni qo‘lanish mohiyatini yuqoridagi 3.5-jadval ma’lumotlari asosida ko‘rib chiqamiz.

3.5-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, korxonada mahsulot sotishdan olingan sof tushum hajmi 5102594 ming so‘mga oshgan. Bu o‘zgarishga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatdi:

1. Xodimlarining o‘rtacha ro‘yxatdagi sonining o‘zgarishi: +30 x 318105,06=+9543152 m.s.

2. Bir xodimga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha yillik ish unumining o‘zgarishi: -68316,27x 65= -4440557 m.s.

Omillar balansi: 9543151,8 + (-4440557,55)= +5102594 m.s.

Xulosa qilib aytish mumkinki, korxonada xodimlar sonining oshishi natijasida 9543152 ming so‘mga ko‘p mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum olingan. Bir xodimga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha yillik ish unumining pasayishi esa mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum hajmini 4440557 ming so‘mga kamayishiga sabab bo‘lgan. Tahlil obyektida mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum hajmini oshirish bo‘yicha ichki xo‘jalik rezervi summasi 4440557 ming so‘mdan iborat. Demak, korxona boshqaruv ma’muriyati mehnat unumdorligi darajasini oshirish bo‘yicha kerakli tadbirlarni amalga oshirishi lozim bo‘ladi.

Yuqorida berilgan usullar iqtisodiy tahlilda pirovard natijaga ta’sir qiluvchi omillar ta’sirini hisob-kitob qilishda keng qo‘llanilib kelinayotgan an’anaviy usullar hisoblanadi. Mazkur usullar orqali hisob-kitob qilish ijobiy omillar ta’sirini kuchaytirish, salbiy omillar ta’sirini bartaraf qilish imkonini beradi. Zanjirli bog’lanish usulini qo‘llashning afzalligi shundaki, faqat ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘lagnish ko‘paytma shaklidagina emas, balki bo‘linma, qo‘shish va ayirish shaklidagi bog‘lanishlarda ham foydalanilishi mumkin. Mutloq farq usulining kamchiligi shundaki, pirovard natijaga ta’sir qiluvchi omilar o‘rtasidagi bog‘liqlik faqat ko‘paytirish bilan ifodalansa qo‘llaniladi.

l) Balans usuli – xom-ashyo (material) ning kelishi va undan foydalanish yo‘nalishi o‘rtasidagi nisbatni aniqlashga, shuningdek, ish vaqti, uskunalarning ishlashi va boshqalardan foydalanishni o‘rganish uchun xizmat qiladi. Balans usuli o‘zaro bog‘liq va tenglangan iqtisodiy ko‘rsatkichlarning ikki guruhi proporsiyalari, nisbatini aks ettirish uchun xizmat qiladi. Bu usul buxgalterlik hisobi va rejalashtirish amaliyotida keng tarqalgan. Lekin u iqtisodiy tahlilda ham muayyan ahamiyat kasb etadi, xususan bular korxonaning mehnat, moliyaviy resurs, xom-ashyo, yonilg‘i, material, asosiy ishlab chiqarish vositalari va boshqalar bilan ta’minlanganligining tahlilida keng foydalaniladi. Misol uchun, korxonaning mehnat resurslari bilan ta’minlanganligini aniqlash maqsadida, mehnat resurslari bo‘yicha balans tuziladi. Unda, bir tomondan, mehnat resurslariga bo‘lgan ehtiyoj, boshqa tomondan — ularning haqiqatdagi mavjudligi ko‘ rsatiladi. Mehnat resurslaridan foydalanish tahlilida ish vaqtining ehtimoliy fondi haqiqatdagi ishlangan soatlar miqdori bilan taqqoslanadi

m) Koeffitsientlar usuli. Koeffisientlarni aniqlash va uning o‘zgarishlarini qiyosiy taqqoslash asosida korxonaning moliyaviy axvolini aniqroq o‘ rganish, bilish imkoni tug‘ iladi. Masalan, korxonaning “Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti”ni aniqlanishiga e’tibor bering. Ushbu ko‘rsatkich “O‘z mablag‘lari manbalari” (1-shakl 480-satr) ni “Buxgalteriya balansini jami“ (1-shakl 780-satr)ga bo‘lish asosida aniqlanadi. Bu ko‘rsatkich korxonaning harakatda band qilingan mablag‘ning qaysi darajasi o‘ziga tegishli ekanligini tavsiflaydi. Ya’ni, harakatdagi, biznesdagi har bir so‘mning qaysi qismi o‘ziga tegishli ekanligini ifoda etadi.

Koeffitsientlar – mulkning nisbiy darajasini tavsiflaydi. Lekin, o‘zaro bog‘liqlikka va aloqadorlikka ega bo‘lgan ko‘rsatkichlarnigina taqqoslash talab etiladi. Masalan; asosiy vositalarning umumiy qiymatini qarz kapitaliga nisbatlash bilan hech qanday natijaga ega bo‘linmaydi. Nisbatlash yakunida chiquvchi ifoda o‘zining mazmuniga, mantiqqa ega bo‘lmog‘i lozim. Bu mantiqni to‘lovga qobillik ko‘rsatkichlarida, moliyaviy barqarorlikda, o‘z va qarz mablag‘lari nisbatida, moliyaviy mustaqillik koeffitsienti va shunga o‘xshash ko‘rsatkichlarda ko‘rish mumkin.

Qisqa xulosa

Ushbu mavzuni o‘rganish natijasida talabalar iqtisodiy tahlilning uslubiyati, usuli va uning o‘ziga xos xususiyatlarini, o‘quv adabiyotlarida iqtisodchi olimlar tomonidan iqtisodiy tahlilning metodi xususida berilgan ta’riflarni hamda korxonalar

faoliyatini ifodolovchi pirovard natija va uning o‘zgarishiga ta’sir qiluvhchi omillarni hisoblashda iqtisodiy tahlilning an’anaviy usullarini qo‘llashni bilishlari zarur.

Talaba bilimini nazorat qilish hamda mustahkamlashga oid savol va topshiriqlar

1. Iqtisodiy tahlil fanining usuli to‘g‘risida umumiy tushuncha va uning o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatib bering.

2. Xo‘jalik faoliyatiga ta’sir qiluvchi omillar tushunchasi va ular qanday turkumlanadi?

3. Iqtisodiy tahlilning qanday maxsus usullari bor?

4. Zanjirli almashtirish usulini qo‘llashning mohiyati va afzalliklarini ko‘rsatib bering.

1-topshiriq.

1. Quyida berilgan ma’lumotlarga asosan korxonada asbob-uskunalardan foydalanish darajasini baholash uchun taqqoslash usulining qaysi xillarini qo‘llaymiz: ushbu korxonada asbob-uskunalarning smenali ishlash koeffitsienti – 1,7; o‘rtacha tarmoq bo‘yicha – 1,6; tarmoqning eng ilg‘or korxonasida – 1,8; boshqa tarmoqlarning eng ilg‘or korxonalarida –2,5.

Taqqoslash usulining shartlarini hisobga olgan holda tahlil qilinayotgan korxonada asbob-uskunalarning smenali ishlash koeffitsientini oshirish imkoniyatini aniqlang.

2-topshiriq.

1 Mahsulot hajmining o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi omillar – mehnat resurslari, mehnat vositalari va mehnat predmetlari omillari tizimi bo‘yicha tahliliy formula tuzib, ularning bir-biri bilan uzviy ravishda bog‘langanligini ta’riflab bering va tegishli xulosa yozing.

2. Quyida berilgan jadval ma’lumotlariga asosan pirovard ko‘rsatkichni aniqlang va uning o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi omillarni mutlaq farq va zanjirni almashtirish usullari orqali aniqlang va xulosa yozing (ming so‘m hisobida).

Ko‘rsatkichlar	Shartli belgi	Reja bo‘yicha	Haqiqatda	Farqi
1.Sotilmagan mahsulotning yil boshi bo‘yicha qoldig‘ i	T1	1000	1500	
2. Tovar mahsuloti	M	40000	42000	
3.Sotilmagan mahsulotning yil oxiri bo‘yicha qoldig‘i	T2	800	900	
4.Pirovard natija – sotilgan mahsulot hajmi	R			

3-topshiriq.

Quyida berilgan jadval ma’lumotlariga asosan umumlashgan ko‘rsatkichni aniqlang va uning o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi omillarni zanjirli almashtirish usuli orqali aniqlang.

Ko‘rsatkichlar	Biznes rejada	Haqiqatda	Farqi (+,-)
1. Ishchilarning ro‘yxatdagi o‘rtacha soni , kishi	130	135	
2. Bir ishchi tomonidan bir yilda o‘rtacha ishlangan kishi-kunlari, kun	240	210	
3. Ish kuni uzunligi, soat	8,00	7,65	
4. Hamma ishchi tomonidan ishlangan kishi soatlari, soat	?	?	

4-topshiriq.

Quyida berilgan jadval ma’lumotlariga asosan pirovard ko‘rsatkich – tovar mahsuloti hajmini aniqlang va uning o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi mehnat omillarini zanjirli almashtirish, ko‘rsatkichlarning bajarilish foizi va o‘sish sur’atidagi farq hamda ko‘rsatkichlar darajasidagi farq usullari orqali aniqlang. Jadvallarga tegishli xulosalar yozing hamda korxonaning mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish borasida ichki xo‘jalik rezervlari summasini aniqlang.

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	Biznes-rejada	Haqiqatda	Farqi
1. Ishchilarning ro‘yxatdagi o‘rtacha soni	kishi	40	42	
2. Bir ishchi tomonidan bir yilda o‘rtacha ishlangan kishi kunlari	kun	237	220	
3. Ish kunining uzunligi	soat	8,00	7,70	
4. Bir ishchiga to‘g‘ri keluvchi o‘rtacha soatlik ish unumi	so‘m ming	5,13	5,45	
5. Pirovard ko‘ rsatkich – tovar mahsuloti	so‘m	?	?	

a) Zanjirli almashtirish usuli

Hi-sob soni	Al-mash-tirish soni	Hisob formulasiga kiruvchi ko‘rsatkichlar				Pirovard ko‘rsat - kich – tovar mahsuloti (ming so‘m)	Oldingi hisobga Nisba-tan farq (+, -)	O‘zga-rish sabab-lari
		Ishchi-lar soni (kishi)	Bir ishchi tomonidan ishlangan ish kunlari (kun)	Ish kuni-ning uzun-ligi (soat)	Soatlik ish unumi (so‘ m)			
A	B	1	2	3	4	5	6	7
1 2 3 4 5	- 2 3 4 5							

b) Berilgan ko‘ rsatkichlarning bajarilish foizi darajasidagi farq usuli

Ko‘ rsatkichlar	Ko‘rsatkich-larning bajarilishi (%)	Foizda bo‘lgan farq (+,-)	Mahsulot hajmiga ta’siri (ming so‘ m)
1. Ishchilarning ro‘yxatdagi o‘rtacha soni			
2. Hamma ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan kishi kunlari			
3. Hamma ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan kishi soatlari			
4. Pirovard ko‘rsatkich – tovar mahsuloti			

v) Ko‘rsatkichlar darajasidagi farq usuli. Ushbu usul zanjirli almashtirish usulining texnik jihatdan eng soddalashtirilgan usulidir. Bizning misolimizda tovar mahsuloti hajmi hisobot yili haqiqatda biznes rejaga nisbatan ming so‘mga oshgan. Bu o‘sishga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatadi:

1. Ishchilarning o‘rtacha ro‘yxatdagi sonining o‘zgarishi (hisoblab chiqing).

2. Bir ishchi tomonidan o‘rtacha ishlangan kishi kunlarining o‘zgarishi (hisoblab chiqing).

3. Ish kuni uzunligining o‘zgarishi (hisoblab chiqing).

4. Bir ishchiga to‘g‘ri keluvchi soatli ish unumining o‘zgarishi (hisoblab chiqing).

Omillar tengligi (balans) ? (ming so‘m).

Mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish bo‘yicha ichki xo‘jalik rezervi summasi ? (ming so‘m).

IV BOB.IQTISODIY TAHLILNING IQTISODIY-MATEMATIK USULLARI

4.1.Iqtisodiy - matematik usullarni tahlilda qo‘ llashning zaruriyati

Ko‘xna va qadimgi Gretsiyaning Platon darvozasiga shu so‘zlar yozilgan: “Kimda-kim matematikani bilmasa, uning akademiya darvozasiga kirishining hojati yo‘q“. Matematika – bu fanlar malikasidir. Matematika zehn va aqlni mashq qilish vositasidir.

Iqtisodiy tahlilni takomillashtirishning muhim yo‘nalishlaridan biri korxonalar faoliyatida iqtisodiy-matematik usullardan hamda bu boradagi ilg‘or axborot texnologiyalaridagi yangiliklardan samarali foydalanishdir. Ushbu tadbirlarni muvaffaqiyatli amalga tatbiq etilishi, iqtisodiy tahlil imkoniyatlarini oshirib, yanada ko‘proq turdagi va murakkab tavsifdagi masalalarni qisqa muddatda to‘g‘ri hal qilish imkonini beradi. Natijada, korxona iqtisodiy faoliyatidagi juda ko‘plab omillar topiladi hamda o‘rganiladi, iqtisodiy resurslardan foydalanishning eng maqbul yo‘llari tanlanadi, qabul qilinadigan boshqaruv qarorlari ilmiy jihatdan asoslanadi hamda faoliyat samaradorligini oshiruvchi zaxiralar aniqlanib, ular maqsadga muvofiq yo‘naltiriladi.

Iqtisodiy-matematik usullarni iqtisodiy tahlilda qo‘llash quyidagilardan kelib chiqqan:

1. Korxonalar soni kun sayin oshib bormoqda.
2. Ishlab chiqariladigan mahsulotlar nomenklaturasi 10 mln. tur, ularning xilma-xilligi esa 1 mlrd. turni tashkil etadi.
3. Iqtisodiyot juda ham murakkab ierarxik (bo‘ ysunish) tizimiga ega.
4. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlari juda yuqori parametrlarda ishlamoqdalar, ya’ni ishlab chiqariladigan mahsulot xilma-xilligi va tarkibining o‘zgarishi tez sur’atlar bilan bormoqda.

Iqtisodiy tahlilda iqtisodiy-matematik usullarni qo`llash quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi (4.1-chizma).



4.1-chizma. Iqtisodiy-matematik usullarni tahlilda qo‘llash bosqichlari

Iqtisodiy-matematik usullarni tahlilda qo‘llashning afzalliklari quyidagilardan iborat:

a) tahlil etish muddati tezlashadi;

b) iqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar ulushi (salmog‘i) aniq hisoblanadi;

v) taxminiy yoki noaniq hisoblashlar o‘rnini aniq raqam va dalillar egallaydi.

4.2. Iqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlashda integral usulini qo‘llash

Iqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar va dalillar aniq o‘lchangan va hisoblangan bo‘lishi shart. Bunga integral usulini qo‘llash orqali erishish mumkin.

Masalan, tovar mahsuloti hajmining o‘sishi va kamayishiga asosiy fondlar qiymati va undan samarali foydalanish ta’sirini quyidagi misolda integral usuli orqali aniqlash mumkin (4.1-jadval).

4.1-jadval

Asosiy fondlardan samarali foydalanishni integral usuli orqali aniqlash

Ko‘rsatkichlar	Shartli belgilar	O‘tgan yili (0)	Hisobot yili (1)	O‘ zgarishi (+,-) Δ
1. Tovar mahsuloti (ming so‘ hisobida)	N	5254	5224	- 30
2. Asosiy fondlarning yillik o‘ rtacha qiymati (ming so‘m hisobda)	F	4430	5844	+ 1414
3. Fond samarasi (1q:2q), (so‘m hisobda)	L	1,1860	0,8939	- 0,2921

4.1-jadvaldan ko‘ rinishicha, hisobot yili tovar mahsuloti hajmi haqiqatda o‘tgan yilga nisbatan 30 ming so‘mga kamaygan. Bunga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatdi:

1. Asosiy fondlar yillik o‘rtacha qiymatining o‘zgarishi (ekstensiv omil). U quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$N_F = L_o$ x· ΔF + ΔL x ΔF:2

N_F =1,1860 x ·1414 + (- 0,2921) ·1414/2 =+ 1470 ming so‘ m.

2. Fond samarasining o‘zgarishi. U quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$N_L = F_0$ x ΔL + ΔL x ΔF:2

N_L =4430· (- 0,2921) + (- 0,2921) ·1414:2 = - 1500 ming so‘m

3. Ikkala omilning yig‘indisi:

$N_F + N_L$ = (+1470) + (-1500) = - 30 ming so‘m.

Demak, tovar mahsulot ishlab chiqarishning 30 ming so‘mga kamayishi asosiy fondlardan foydalanishni yomonlashganligi sababli sodir bo‘lgan, buning ta’sirida tovar mahsulot ishlab chiqarish 1500 ming so‘mga kamaygan, lekin asosiy fondlar qiymatining o‘sishi natijasida mahsulot hajmi 1470 ming so‘mga ko‘paygan.

4.3. Korrelatsiya va regressiya usullarining mohiyati va ularni iqtisodiy tahlilda qo‘llanilishi

Korrelatsiya va regressiya usullari ikki va undan ortiq ko‘rsatkichlarning o‘zgarishini bir-biri bilan bog‘langanligini hisoblashda qo‘llaniladi. Bunda korrelyasiya koeffitsienti 0 ga teng bo‘lsa, u holda o‘rganiladigan ko‘rsatkichlarda hech qanday bog‘liqlik yo‘qligini ko‘rsatadi. Agar korrelyatsiya koeffitsienti 1 ga teng bo‘lsa, u holda o‘rganiladigan ko‘rsatkichlarda bog‘liqlik to‘liq bo‘ladi, ya’ni funksional bo‘ladi.

Korrelyatsion tahlilni qo‘llashning zaruriy shartlari:

- o‘rganilayotgan omillar va natijaviy ko‘rsatkichlar haqida tanlanadigan ma’lumotlarning yetarlicha ko‘pligi (dinamikada yoki joriy yil uchun bir turdagi obyektlarning majmui);
- o‘rganilayotgan omillar sonli o‘lchamda bo‘lishi va axborotning u yoki bu manbaida aks etishi.

Korrelyatsion tahlilni qo‘ llash quyidagi masalalarni echish imkonini beradi**:**

1) bir yoki bir nechta omillar ta’siri ostida bo‘ lgan natijaviy ko‘rsatkichlar o‘zgarishini aniqlash (absolyut o‘lchamda), ya’ni omillining birlikka o‘zgarishida natijaviy ko‘rsatkich kattaligi necha birlikka o‘zgarganini aniqlash;

2) har bir omildan natijaviy ko‘rsatkichning nisbiy bog‘lanish darajasini o‘rnatish.

Quyidagi jadval ma’lumotlari asosida korrelyatsion-regression usuldan foydalanib, ishchilarni fond bilan qurollanish va bir ishchiga to‘g‘ ri keluvchi ish unumi o‘rtasidagi bog‘lanishni ko‘rishimiz mumkin (4.2-jadval).

4.2 – jadval

Korrelatsiya va regressiya usullarining qo‘llanilishi

Sex	**Bir birlik mahsulot tannarxi, (so‘m) X1**	**Bir birlik mahsulotga ketgan material xarajatlar (so‘ m) X^2**	**X^1 qatorning kvadrati X^1**	**X^2qatornin g kvadrati X^2**	**Omillarni ko‘payt-masi $X^1 \cdot X^2$**
A	**1**	**2**	**3**	**4**	**5**
1.	254	56	64516	3136	14224
2.	230	50	52900	2500	11500
3.	241	54	58081	2916	13014
4.	254	56	63001	3136	14056
5.	264	60	69696	3600	15840
6.	270	62	72900	3844	16740
Summa	1510	338	381094	19132	83374

Bir birlik mahsulot tannarxi va bir birlik mahsulotga ketgan material xarajatlar o‘rtasidagi korrelyatsiya koeffitsientini quyidagi formula orqali ifoda etish mumkin:

$$R_{xy}=\sum \Delta X \times \Delta Y \div \sqrt{\sum \Delta X_2 \times \Delta Y_2};$$

Mazkur formulaning hisob-kitobi: 83374 /381094x19132= 83374/85329 = 0,98.

Demak, bir birlik mahsulot tannarxi va bir birlik mahsulotga ketgan material xarajatlar o‘rtasidagi bog‘liqlik to‘la (funktsional), degan xulosaga kelish mumkin. Bir birlik mahsulot tannarxining 98 %i moddiy xarajatlarga bog‘liq, qolgan 2 %i esa boshqa omillarga bog‘liq hisoblanadi.

4.4. Omillar tizimini determinallashgan modellarda aks ettirish

Omillar tizimini modellashtirishda iqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi barcha omillarni model tizimiga kiritish zarur. Masalan, avanslashtirilgan fondlarning rentabellik darajasi baho miqdoriga, baho o‘zgarishiga, asosiy fondlar va aylanma mablag‘larning o‘zgarishiga, sof foydaning o‘zgarishiga, mahsulot xilma-xilligi va tarkibining o‘zgarishiga hamda boshqa ko‘p omillarga bog‘liq.

Avanslashtirilgan fondlarning rentabellik darajasi sof foydani asosiy fondlar va aylanma mablag‘larning yillik o‘rtacha qiymatiga nisbati tariqasida aniqlanib, uni quyidagi formula orqali ifoda etishimiz mumkin:

$$R = \frac{\hat{O}^{\tilde{N}}}{F + E} = \frac{X_1}{X_2 + X_3}$$

Buni quyidagi misolda ko‘ramiz (4.3-jadval).

4.3 - jadval

Avanslashtirilgan fondlarning rentabellik darajasi

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	Shartli belgi	Baza yili (0)	Hisobot yili (1)	O‘zgarishi (+, -)
1. Sof foyda	Ming so‘m	$\mathcal{D}^c = X_1$	714	902	+ 188
2. Asosiy fondlarning yillik o‘ rtacha qiymati	Ming so‘m	$F = X_2$	4430	5844	+ 1414
3. Aylanma mablag‘ larning yillik o‘rtacha qiymati	Ming so‘ m	$E = X_3$	2120	2396	+ 276
4. Sof tushum	Ming so‘m	N_P	6432	7340	+ 908
5. Bir so‘ milk sotilgan mahsulot hisobiga olingan cof foyda	so‘m	$\frac{X_1}{N_P} = X_4$	0,1110	0,1229	+ 0,0119
6. Fond sig‘imi	so‘m	$\frac{X_2}{N_P} = X_5$	0,6887	0,7962	+ 0,1075
7. Aylanma mablag‘lar sig‘imi	so‘m	$\frac{X_3}{N_P} = X_6$	0,3296	0,3264	- 0,0032
8. Aylanma mablag‘larning aylanish koeffitsienti	Marta	$\frac{N_P}{X_3} = X_7$	3,034	3,063	+ 0,029
9. Umumiy fondlar tarkibda aylanish mablag‘larning ulushi	Koef.	$\frac{X_3}{X_2 + X_3} = X_8$	0,3237	0,2908	- 0,0329
10. Rentabellik koeffitsienti	Koef.	$R = \frac{X_1}{X_2 + X_3}$	0,1090	0,1095	+ 0,0005

1. $\Delta R(X_4) = \frac{\Delta X_4}{\Delta X_5 + \Delta X_6} = \frac{0.012}{(+0.1075) + (-0.0032)} = 0.1141$
2. $\Delta R(X_5) = \frac{(0.0005 - 0.1141)}{0.1075 - 0.0032} = -0.1124$
3. $\Delta R(X_6) = \frac{(0.0005 - 0.1141)}{0.1075 - 0.0032} * (-0.0032) = 0.0033$
4. $\Delta R = \Delta R(X_4) - \Delta R(X_5) + \Delta R(X_6) = 0.1141 - 0.1124 + 0.0033 = +0.0005$

Yagona eng qulay usulni qo‘llash uchun nazariy o‘yin usulidan foydalanmoq zarur. Bu usulning mohiyatini quyidagi misolda ko‘rish mumkin.

Xo‘jalik oktabr va noyabr oylarida 1ts. sut ishlab chiqarish 20 ming so‘m, 1ts. go‘sht tayyorlash uchun esa 200 ming so‘m xarajat qilgan. Davlatga sotish bahosi esa sut uchun 30 ming so‘ m, go‘sht uchun 250 ming so‘mdan iborat.

O‘tgan yillar shuni ko‘rsatdiki, yuqoridagi oylarda havo issiq keldi. Xo‘jalik aholiga 500 ts. sut va 400 ts. go‘sht sota oladi. Agar oktabr va noyabr oylarida havo sovuq kelsa, 600 ts. go‘sht va 100 ts. sut sotadi.

Vazifa.

Tabiat injiqliklarini hisobga olgan holda xo‘jalikka keladigan tushumni bir maromda bo‘lishini ta’minlashdan iboratdir.

1. Xo‘jalik - R1 - o‘yinchi

Tabiat - R2 - o‘yinchi

Issiq havoda xo‘jalik daromadi quyidagicha 400 s.·(250000-200000) + 500s.· (30000-20000) s 25 mln. so‘m.

Xo‘jalik uchun A strategiya, tabiat uchun s strategiya. Xo‘jalik A strategiya bo‘yicha ish yuritadi. Ob-havo sovuq bo‘lib qoldi.

2. 400 s·(250000-200000)+100 s·(30000-20000)-400 s·(30000-20000)=17 mln. so‘m.

3. Sovuq ob-havoda xo‘jalik daromadi 600s·(250000-200000)+100 s·(30000-20000) = 31 mln. so‘m.

Tabiat uchun V strategiya quyidagi to‘lov matritsasini tuzamiz (4.5-jadval).

4.5-jadval

V strategiyasining to‘lov matritsasi

O‘ yinchilar R	R_2			
	Strategiya	S	D	Min
	A	25000	17000	17000
	B	17000	31000	17000
	Max	25000	31000	X

Xo‘jalik V strategiyasida noma’lum (x) A strategiyasini qo‘llasa(1-*x*) 31000*x*+17000(1-*x*)=17000*x*+25000(1-*x*)=22000*x*=3000

$x = \frac{4}{11}$ $1 - \frac{4}{11} = \frac{7}{11}$

$31000\frac{4}{11} + 17000\frac{7}{11} = 22091$ ming so‘m

$17000x\frac{4}{11}+25000x\frac{7}{11}=22091$ ming so‘m

Endigi vazifa xo‘jalik yil davomida qanday nisbatda sut va go‘sht ishlab chiqarishi lozimki, xo‘jalik daromadi bir maromda bo‘lishligini ta’minlash uchun (400s. go‘ sht + 500s. sut) $\frac{4}{11}$ + (600s. go‘ sht + 100s. sut)× ×$\frac{7}{11}$ + $\frac{1}{11}$ (1600s. go‘sh + 2000s. sut + 4200s. go‘ sht + 700s. sut)= $\frac{1}{11}$ (5800s. go‘ sht + 2700s. sut) = 527s go‘sht, 245s. sut.

Demak, xo‘jalik uchun optimal strategiya yil davomida 527 ts. go‘sht va 245 ts. sut ishlab chiqarishdan iborat. Bunda ob-havoning qay darajada kelishidan qat’i nazar, daromadi 22091 ming so‘m bo‘lib turishi ta’minlanadi.

Qisqa xulosa

Ushbu mavzuni o‘rganish natijasida talabalar iqtisodiy-matematik usullarni qo‘llashning mohiyatini, xususan natija ko‘rsatkichining o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlashda integral, korrelyatsiya va regressiya usullarini, omillar tizimini determinallashgan modellarda ifoda etishni hamda nazariy o‘yin usulini iqtisodiy tahlilda qo‘llashni bilib oladilar.

Talaba bilimini nazorat qilish hamda mustahkamlashga oid savol va topshiriqlar

1. Tahlilda qo‘llaniladigan iqtisodiy-matematik usullarga umumiy ta’rif bering.
2. Iqtisodiy tahlilda iqtisodiy-matematik usullarni qo‘ llashnig mohiyati nimada?
3. Integral usulini qo‘llashning mohiyati nimada?
4. Korrelyasion-regression usulni qo‘ lashning afzalliklari nimada?
5. Omillar tizimini determinallashgan modellarda aks ettirishning asosiy jihatlari.

1- topshiriq.

Quyidagi jadval ma’lumotlaridan foydalanib, sanoat ishlab chiqarish asosiy fondlalarining o‘rtacha yillik qiymati va ulardan samarali foydalanishning tovar mahsulot ishlab chiqarishga ta’sirini integral usuli orqali aniqlang.

Ko‘rsatkich	**Shartli belgi**	**O‘tgan yili (0)**	**Hisobot yili (1)**	**O‘zgarishi (+, -)**
Tovar mahsuloti (ming so‘m)	N	5300	5720	?
Sanoat ishlab chiqarish asosiy fondlarining o‘rtacha yillik qiymati (ming so‘m)	F	2600	2905	?
Fond samarasi (so‘m)	L	?	?	?

1. Sanoat ishlab chiqarish asosiy fondlarining o‘rtacha yillik qiymatini o‘zgarishining tovar mahsulotiga ta’siri.
2. Fond samarasi o‘zgarishini tovar mahsulotiga ta’siri.
3. Omillar ta’siri yig‘indisi.

2- topshiriq.

Quyidagi ma’lumotlari asosida korrelyatsion-regression usuldan foydalanib, ishchilarning fond bilan qurollanish va bir ishchiga to‘g‘ri keluvchi ish unumi o‘rtasidagi bog‘lanishni aniqlang. Fond bilan qurollanish va mehnat unumdorligi o‘rtasidagi korrelyatsiya koeffitsientini hisoblang.

Tartib soni	**Fond bilan qurollanish (ming so‘ m), X**	**Bir ishchiga to‘g‘ri keluvchi ish unumi (ming so‘ m), U**	**O‘rtacha X qatordan farqi □X= $\overline{X}$ - X**	**O‘rtacha U qatordan farqi □U = $\overline{Y}$ - U**	**Farqlar-ning ko‘payt-masi □X +□U**	**X qatori-ning kvadrat farqi $\square X^2$**	**U qatori-ning kvad-rat farqi $\square U^2$**
A	1	2	3	4	5	6	7
1	100	250					
2	200	280					
3	300	290					
4	400	370					
5	500	390					
Jami							
O‘rtacha miqdori							

V Bob. IQTISODIY TAHLILNING TURLARI, SHAKLLARI VA ULARNING AXBOROT MANBALARI

5.1. Iqtisodiy tahlilning turlari va shakllari to‘g‘risida tushuncha

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini to‘liq va samarali o‘rganish uchun iqtisodiy tahlilni turlarga ajratish zarur. Bu bilan iqtisodiy tahlilning analitik tavsifi yanada oshadi hamda boshqaruv maqsadlari uchun yetarli ma’lumotlarni yetkazib bera oladi. Iqtisodiy tahlilni turlarga ajratish zamirida boshqaruv funksiyalari va uning murakkabligi yotadi. Iqtisodiy tahlil mazmun va mohiyati jihatdan turli shakllarga va turlarga egadir**.**

Iqtisodiy tahlil turi deganda, ma’lum belgalari, xossalari, vazifasi va shu kabilar bilan umumiy bo‘ lgan guruhlar yoki bir butunlikni tashkil etgan yaxlit xillari tushuniladi**.** Iqtisodiy tahlil shakli deganda, uning o‘ziga xos bo‘lgan tashqi ko‘rinishi, sirtqi qiyofasi bilan birga o‘ziga xos mazmuni, ya’ni uni amalga oshirish yo‘llari, usullari tushuniladi.

Iqtisodiy tahlil turi va shakli mazmun jihatdan bir-biriga juda yaqin, chunki ularning ikkalasi xam tahlil qiluvchining o‘z oldiga qo‘ygan maqsadini amalga oshirishga xizmat qiladi. Tahlilning turi necha xil bo‘lishidan qat’iy nazar ularda bir-biriga o‘xshash usullardan foydalaniladi. Tahlilning shaklida esa har birida o‘ziga xos usullar majmuasi qo‘llaniladi. Masalan, kompleks tahlil shaklida qo‘llaniladigan kompleks baholash usullaridan funksional qiymat tahlilda qo‘llanilmaydi. Funksional qiymat tahlili usullari esa omilli tahlilda qo‘llanilmaydi.

Tahlil turlarida ma’lum darajada metodologik mushtaraklik bo‘lsa, shakllarida esa o‘ziga xoslik ustuvordir.

Iqtisodiy tahlilning turi uning belgilari bo‘yicha turkumlanadi.

1. Iqtisodiy tahlilning mazmuni bo‘ yicha: global, lokal, tematik.
2. Iqtisodiy tahlilni o‘ tkazilish davri bo‘ yicha: tezkor, joriy va istiqbolli.
3. Iqtisodiy tahlilni o‘ tkazilish joyi bo‘ yicha: ichki va tashqi.
4. Iqtisodiy tahlil qiluvchi subyektlar bo‘yicha: tahlil maqsadiga qarab subyektlar har xil bo‘ladi. Masalan, auditorlik tahlili bo‘lsa auditor , texnik-iqtisodiy tahlil bo‘lsa injener va iqtisodchi va hokazo.
5. Iqtisodiy tahlilning o‘rganilayotgan obyektni qamrab olish darajasi bo‘yicha: batafsil va tanlab o‘tkaziladigan tahlil.

Iqtisodiy tahlil shakllari va utralirini mazmunni quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin (5.1-jadval).

Tahlil turlarini turkumlash – ularni umumlashtirish va bir tizimga keltirishga, eng muhim tomonlarini aniqlashga hamda ushbu fanning istiqbolda yanada takomillashtirish uchun keng imkoniyat ochib beradi.

Iqtisodchi olim A.D.Sheremet tomonidan tahlil turlarini guruhlashtirish belgilariga quyidagilar kiritilgan: tahlilning vazifalari, uni o‘tkazish muddati, qabul qilinadigan qarorlarning xarakteri, korxonalar faoliyatini o‘rganishning asosiy tomonlari, rezervlarni aniqlash usullari, o‘rganiladigan

5.1-jadval

Iqtisodiy tahlil shakllari

Iqtisodiy tahlil	
Shakllari	**Mazmuni**
1. Kompleks tahlil	Xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatini makon va zamon nuqtai nazaridan barcha tuzulmalari bilan birga batafsil tahlil qilishdir
2. Solishtirish tahlili	Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini yaxlit holda alohida tuzulmalari yoki mavzularini baho va vaqt jihatidan solishtiriladigan holatga keltirilib amalga oshiriladigan tahlildir
3. Omilli tahlil	Xo‘jalik faoliyati natijasiga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash va ularning ta’sirini hisbolash usullari majmuasini o‘zida aks ettirgan tahlildir
4. Marjinal tahlili	Barcha xarajatlarni doimiy va o‘zgaruvchi xarajatlarga bo‘lib ishlab chiqariladigan mahsulotlarning (bajariladigan ish, ko‘rsatiladigan hizmat) biznesda ko‘ zda tutilgan foydaga erishish uchun zarur bo‘lgan miqdorini aniqlash va samaradorligini oshirishga qaratilgan tahlildir
5. Stoxastik tahlil	Xo‘jalik faoliyatida natija va omillar o‘rtasidagi bog‘liqlik, funksional bog‘liq bo‘lmagan sharoitda, ularning bog‘liqligini o‘rganishga qaratilgan tahlildir
6 .Loyiha tahlili	Xo‘jalik yurituvchi subyektlar istiqboli, biznes-rejasi, investisiya loyihalarini asoslash uchun hali sodir bo‘lmagan, ya’ni, bo‘lishi kutilayotgan iqtisodiy jarayonlarni o‘rgatadigan tahlildir
7. Moliyaviy tahlil	Xo‘jalik yurituvchi subyekt moliyaviy natijalari va moliyaviy holatini o‘rganishga bag‘ishlangan tahlildir
8. Boshqaruv tahlili	Korxona rahbariyati, egasi va mutaxassislari tomonidan ichki imkoniyatlarni ishga solish va samaradorlikni oshirish maqsadida qilinadigan tahlildir
9. Xo‘ jalik faoliyati tahlili	Korxonalar xo‘jalik faoliyatini o‘rganishga qaratilgan iqtisodiyotning mikroiqtisod darajasini o‘rganishga qaratilgan tahlildir
10. Auditorlik tahlili	Xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliya -xo‘jalik faoliyatini audit qilganda to‘g‘ri xulosa chiqarish uchun auditorlar tomonidan o‘tkaziladigan tahlil

obyekt, tahlil qiluvchi subyekt, o‘rganiladigan hodisalarning ko‘lami, axborotlarni qayta ishlash kabilar[7].

Barcha turdagi tahlilning turlari ularning bajargan vazifalariga qarab quyidagi guruhlarga umumlashtiriladi: biznes-rejaning tig‘izligi va asoslanganligini baholash va uning bajarilishini nazorat qilish, erishiladigan natijalarni oldindan aytib berish va erishilgan natijalarga obyektiv baho berish va shu maqsadda korxona faoliyatiga bog‘liq va bog‘liq bo‘lmagan sabablarni aniq belgilash, ichki xo‘jalik hisobi yakunini o‘tkazish, rezervlarni aniqlash va ularni ishlab chiqarishga jalb etish, kelgusida rejalashtirish uchun asos (baza)ni aniqlash, optimal boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tahliliy variantlarni tayyorlash.

Iqtisodiy tahlilning asosiy shakllari bo‘lib boshqaruv va moliyaviy tahlil hisoblanadi.

Boshqaruv va moliyaviy tahlil yuzasidan olimlar o‘rtasida turlicha qarashlar mavjud. Masalan; M.Q.Pardaev tomonidan boshqaruv va moliyaviy tahlilga quyidagicha ta’rif beriladi: Boshqaruv tahlili-korxona rahbariyati, egasi va mutaxassislari tomonidan ichki imkoniyatlarni ishga solish va samaradorlikni oshirish

[7] Шеремет А.Д., Хорин А.Н. Теория экономического анализа.Учебник. –М.: ИНФРА-М. 2019.

maqsadida qilinadigan tahlildir; Moliyaviy tahlil-xo‘jalik yurituvchi subyekt moliyaviy natijalari va moliyaviy holatini o‘rganishga bag‘ishlangan tahlildir.

Moliyaviy tahlil asosida firma va kompaniyalarning moliyaviy ahvolidan to‘la voqif bo‘linadi. Bu esa ular boshqaruvida muhim masala hisoblanadi. Tahlil natijalaridan nafaqat ichki, balki tashki foydalanuvchilar ham foydalanishlari mumkin. Negaki moliyaviy hisobot va moliyaviy tahlil natijalarida sir saqlanadigan, ya’ni birovning zarari hisobiga boshqa birovning naf ko‘rishi mumkin bo‘lgan axborotlar kuzatilmaydi. Shu sababli, moliyaviy tahlilning ko‘plab subyektlarini tarkiblash mumkin.

Boshqaruv va moliyaviy tahlil orasidagi farqni quyidagi jadval ma’lumotlari asosida aniq bayon etish mumkin (1.2-jadval).

1.2-jadval

Boshqaruv va moliyaviy tahlil

Farqlash belgisi	Boshqaruv tahlili	Moliyaviy tahlil
1.Obyekti bo‘yicha	Subyektlarning boshqaruvini quyi bo‘g‘inlarini	Subyektlarning moliyaviy holati
2.Subyekti bo‘yicha	Subyektlarning o‘z xodimlari	Subyektlarning o‘z hodimlari hamda uchinchi shaxslar (tashqi subyektlar)
3.Tartibga solinishi	Subyektlarning ichki Nizom, qoidalari asosida	Umumiy Nizom, qoidalar asosida tartibga solinadi
4.Maqsadi	Faoliyatni quyi bo‘g‘inlari samaradorligi yuzasidan ichki imkoniyatlarni aniqlash va yo‘lga qo‘yishdan	Korxonaning moliyaviy ahvolining iqtisodiy reytingi va uni bashoratlashdan
5.Ma’lumot iste’molchilari	Faqat, shu subyektning boshqaruvi xodimlari, xizmatchilari	Subyektlarning o‘z hodimlari va tashqi tahlil subyektlari
6.Usullari bo‘yicha	Iqtisodiy tahlilni oddiy va iqtisodiy matematik usullari	Oddiy, iqtisodiy matematik usullar hamda, moliyaviy tahlilni individual usullari
7.Ma’lumotlarni olish shakli bo‘yicha	Ma’lumotlarni olishni istalgan shaklida (og‘zaki, yozma, hisobot shaklida, telefon orqali, ma’ruza yoki nutq shaklida va x.k.	Moliyaviy hisobot shakllari asosida
3.Tahlil natijalarini oshkor etilishi bo‘yicha	Sir saqlanadi	Oshkor etiladi
9.Mazmuni bo‘yicha	Boshqaruvni, faoliyat va harakatning har bitta bo‘g‘ini, resurslarning har bitta turi, jarayonlarning har bittasi bo‘yicha ma’lumotlar bazasi bilan ta’minlashi bilan farq etadi	Boshqaruvni, subyektlar faoliyatining muayyan davrga bo‘lgan umumlashgan ma`lumotlarini tahlil etish asosida manbalashi bilan farq etadi
10.Vazifalari bo‘yicha	Vazifalarni hal etilishi faqat shu korxona boshqaruv xodimlari uchun xizmat qiladi.	Vazifalarni hal etilishi ham ichki, ham tashqi tahlil subyektlari uchun xizmat qiladi
11.Tahlilni tashkil etilishi yuzasidan	Norasmiy (korxona uchun maqbul) shaklda	Rasmiy shaklda

Xo‘jalik faoliyatining tahlili yoki iqtisodiy tahlil fanining bugungi kunda, “Moliyaviy tahlil“ sifatida tarkiblanishi bir jihatdan to‘g‘ridek. Lekin uning boshqa tomoniga ahamiyat berish lozim. Chet el adabiyotlarini kuzatishdan shunday xulosaga kelish mumkinki, tarkiblar orasida bir xillik va farqlanishni sezish mumkin. Moliyaviy tahlil fanida bu o‘xshashlik mavjud. Lekin “Boshqaruv tahlili“ni fan sifatida shakllanishida farqlanish bor. Negaki, boshqaruv tahlili boshqaruv hisobini ichida o‘qiladi. Shuni hisobga oladigan bo‘lsaq xorijiy yoki iqtisodi rivojlangan davlatlarda boshqaruv tahlili alohida fan sifatida shakllanmagan. Hozirgi kunda o‘quv rejada mazkur fan ikki tarkibga, ya’ni “Moliyaviy tahlil“ va “Iqtisodiy tahlil“ deb nomlangan.

5.2. Xo‘jalik faoliyatini joriy (retrospektiv), tezkor va istiqbolli tahlili

Xo‘jalik faoliyatining joriy (retrospektiv) tahlili. Korxonalarning amaliy faoliyatida asosan joriy tahlil o‘tkazish usuli to‘la ishlab chiqilgan. Joriy tahlil korxonalarning xo‘jalik faoliyatini tahlil qilishda rasmiy jihatdan qabul qilingan hisobotga tayangan holda ularning oylik, kvartallik, yillik va qator yillar tahlil qilinadi. Joriy tahlilning asosiy vazifasi xo‘jalik faoliyatida erishilgan pirovard natijalarga obyektiv baho berish, foydalanilmagan ichki xo‘jalik rezervlarini kompleks tarzda aniqlash va ularni kelgusida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga jalb etish hisoblanadi. Joriy tahlilning asosiy vazifalarini quyidagi 5.1-chizmada ko‘rish mumkin.



5.1.-chizma. Joriy tahlilning asosiy vazifalari[8]

Iqtisodchilar hamda buxgalteriya mutaxassislari joriy tahlilni tashkil etadi va olib boradilar. Obyektlar ko‘lami keng bo‘lgani uchun zarurat va ehtiyojga ko‘ra boshqa mutaxassis hamda xodimlar tahlil jarayoniga jalb qilinadi

Joriy tahlilning keng ko‘lamda qo‘llanishiga quyidagilar sabab bo‘ldi: birinchidan, tahlilning barcha vazifalari biznes-rejaning tig‘izligi va asoslanganligi, uning bajarilishini nazorat qilish, xo‘jalik faoliyatida erishiladigan natijalarni oldindan aytib berish, mehnat, moddiy va moliya resurslaridan samarali foydalanish va hokazolar joriy tahlil zimmasiga tushadi; ikkinchidan, joriy tahlilning keng ko‘lamda

[8] Shoalimov A.X. va boshqalar Iqtisodiy tahlil. O‘quv qo‘llanma. – T.: Lesson press, 2016. -27 bet.

qo‘llanilishiga barcha korxonalarning tasdiqlangan yagona hisobot shakllariga asosan yuqori tashkilot, statistika, moliya va soliq organlari, davlat bankiga hisobot topshirish vazifasining zarurligi; uchinchidan, joriy tahlilning bajariladigan tahliliy ishlarda tutgan salmog‘i 90 foizni tashkil qiladi, chunki dastlabki va tezkor tahlilni o‘tkazish usuli hali to‘la ishlab chiqilmagan; to‘rtinchidan, joriy tahlilda korxonaning xo‘jalik faoliyati chuqur, har tomonlama o‘tkaziladi, chunki xodimning ixtiriyorida barcha tahliliy axborotlar manbai muhayyo; beshinchidan, xo‘ jalik faoliyatini tahlil qilish tarixan joriy tahlildan boshlangan; oltinchidan, iqtisodiy oliy o‘quv yurtlarida mutaxassislarni tayyorlash ham joriy tahlil asosida olib boriladi.

Joriy tahlilning dastlabki va tezkor tahlildan ustunligi shundaki, uni o‘tkazishda axborotlar tizimi sistemali va kompleks xarakterga ega bo‘lib, rasmiy jihatdan qabul qilingan buxgalteriya va statistika hisobotlariga asoslanadi. Joriy tahlilning kamchiligi shundan iboratki, tahlil xo‘jalik faoliyatida kamchilik va xato ro‘y berib bo‘lgandan so‘ng boshlanadi.

Tezkor tahlil korxonaning xo‘jalik faoliyatini boshqarishda shu kundagi ishlab chiqarish jarayonini tezkor tarzda boshqarishda qo‘llaniladi. Bu qisqa muddatli tahlil bo‘lib, ishlab chiqarish jarayonida ro‘y bergan chetga chiqishlarni tezkorlik bilan aniqlab, uni bartaraf qilish chora-tadbirlarini ko‘radi. Tezkor tahlilning asosiy vazifasi topshiriqlarni muntazam nazorat qilish, mahsulotni ishlab chiqarish va uni sotish jarayonini kunda aniqlash, shu kundagi ishlab chiqarish rezervlarini o‘z vaqtida aniqlash va ularning ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga jalb qilish hisoblanadi (5.2-chizma).



5.2-chizma. Tezkor tahlilning asosiy vazifalari

Tezkor tahlil joriy tahlildan farqli o‘laroq, u asosan boshlang‘ ich ma’lumotlarga asoslanadi. Tezkor tahlil o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

- korxonaning asosiy miqdor va sifat ko‘ rsatkichlari bo‘yicha hamda uning bo‘linmalari smenada, sutkada, besh kunlikda va dekadalarda chetga chiqishini aniqlash;
- me’yordan chiqishga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash;
- kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan javobgar shaxslarni aniqlash;
- salbiy omillarni bartaraf qilish uchun tadbirlar ishlab chiqish;
- ko‘rsatilgan vaqtda erishilgan natijalarni yakunlash va “Tor“ joy va ilg‘or bo‘g‘inlarni aniqlash.

Tezkor tahlilning boshqa tahlil turlaridan afzalliklari quyidagilar:

- tahlil sodir bo‘layotgan xo‘jalik jarayoni bilan ketma-ketlikda va bir-biriga yaqin oraliqda amalga oshiriladi;
- yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklarni o‘z vaqtida tuzatish imkoniyati mavjudligi;
- tahlil natijalari korxonalarni tezkor boshqarish uchun asosiy manbaligi va shu kabilar.

Boshqa tahlil turlari kabi tezkor tahlilda ham ba’zi kamchiliklar mavjud. Ularga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- ayrim hollarda tezkor tahlil ma’lumotlari juda ham aniq ma’lumotlar bo‘lmasligi mumkin;
- tezkor tahlil natijasi oxirgi iqtisodiy natijalar ma’lumotlariga mos kelmasligi va shu kabilar.

Tezkor tahlil vositasida korxonaning kunlik mahsulot ishlab chiqarishi, sexlar o‘rtasidagi kunlik yoki soatlik ish unumi, qishloq xo‘jaligi korxonalarida kunlik paxta topshirish holati, yerlarni shudgorlash va shu kabilar o‘rganilishi mumkin

Istiqbol tahlili deganda, xo‘jalik yurituvchi subyektning kelgusi faoliyatini oldindan o‘rganish, bo‘ladigan jarayonlarni oldindan belgilash maqsadida amalga oshiriladigan tahlil tushuniladi. Masalan, xo‘jalik yurituvchi subyekt biznes-rejani tuzish uchun o‘z faoliyatini nima bilan yakunlashi to‘g‘risida aniq tushuncha va ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishi kerak. Bu esa istiqbol tahlili orqali amalga oshiriladi. Hozirgi paytda uni loyiha tahlili, ham deb atamoqdalar.

Istiqbolli tahlilning vazifalarini quyidagi 5.3-chizmada ko‘rish mumkin.



5.3-chizma. Iqtiqbolli tahlilning asosiy vazifalari

Xo‘jalik yurituvchi subektlar o‘z faoliyatlarini boshlashlaridan oldin ham iqtibolli tahlil o‘tkazadilar. Mazkur tahlil ko‘proq xo‘jalik subektining mahsulot ishlab chiqarish hajmi, xarajat, daromad, foyda ko‘ rsatkichlarini tashxis qilishda qo‘llaniladi.

Istiqbolli iqtisodiy tahlildan quyidagi maqsadlarda foydalanish mumkin:

- qisqa muddatli va uzoq muddatli investisiya qarorlarini maqsadga muvofiqligini asoslashda;
- investisiya faoliyatini boshqarish sifatini baholashda;
- kelgusi natijalarni taxminlash usuli sifatida.

Istiqbolli iqtisodiy tahlil natijalari oqilona strategik boshqaruv qarorlari qabul qilishda muhim ma’lumotlar manbai hisoblanadi.

Iqtisodiy tahlilning ushbu turi quyidagi asosiy bosqichlarga asoslanadi:

- retrospektiv (joriy) tahlil qilish;
- taxminlash asosida tahlil qilish;

- istiqbolni baholash;

- oqilona boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishga imkon beruvchi ma’lumotlar bazasini shakllantirish;

-yangi taxminga asoslangan hisob-kitoblarni amalga oshirish;

-xo‘jalik subyektlarni muhim iqtisodiy rivojlanish yo‘nalishlarini belgilab berish va amaliyotga joriy etish borasida yetarlicha ilmiy asoslangan amaliy takliflar berish.

5.3. Moliyaviy-iqtisodiy va texnik- iqtisodiy tahlil

Moliyaviy-iqtisodiy tahlil. Ushbu tahlilning mohiyati umumiy qiymat ko‘rsatkichlar tizimini o‘rganish va korxonalarning moliyaviy faoliyati natijalarini tahlil qilish bilan ifodalanadi. Moliyaviy-iqtisodiy tahlilga xos muhim xususiyatlardan biri – bu asosiy axborot olish manbalari. Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan yagona hisobot shakllaridan qo‘llanilish hisoblanadi. Shunday qilib, moliyaviy tahlilning predmeti korxonalar xo‘jalik faoliyatining turli tomonlari, xo‘jalik yuritish jarayoni, iqtisodiy ko‘ rsatkichlarning bir-biri bilan sababli bog‘lanishi hisoblanadi.

Moliyaviy-iqtisodiy tahlilning subyekti –korxona, vazirlik, boshqarma, moliya-kredit idoralari va statistika organlarining iqtisodiy bo‘linmalari hisoblanadi.

Shu bilan birga korxona tahlilning obyekti ham hisoblanib, ularning faoliyati yuqori tashkilot, moliya-kredit va statistika organlari tomonidan o‘rganiladi. Masalan, moliya organlari korxonalarning xo‘jalik faoliyatini tahlil qilishda asosiy e’tiborni biznes-rejaning bajarilishi, aylanma mablag‘larining holati, foyda bo‘yicha biznes-rejaning bajarilishi, davlat budjetiga tushadigan to‘lov majburiyatlarining bajarilishiga qaratadilar. Kredit tizimi esa korxonalar o‘z aylanma mablag‘lari holatini, olingan kreditning tovar-moddiy boyliklar bilan ta’minlanganligini, to‘lov intizomining bajarilishi kabi masalalarga qaratadi.

O‘rganiladigan masalalarga qarab moliyaviy tahlil to‘la yoki tanlanma xarakterga ega bo‘lishi mumkin. Moliyaviy tahlilning o‘tkazish muddatlari kunlik, haftalik, dekadalik, oylik, kvartallik, yillik bo‘ladi. Moliya-iqtisodiy tahlilning turlari: dastlabki, tezkor va joriy tahlildan iborat. Moliyaviy-iqtisodiy tahlilning axborot manbalarini moliyaviy hisobot shakllari va unga ilova qilingan rasmiy hujjatlar tashkil etadi. Mazkur turdagi hisobot shakllari ommaviy-axborot vositalarida ochiq e’lon qilinadi.

Moliyaviy hisobotning quydagi turlari bo‘ladi:

1.Buxgalteriya balansi – 1-shakl;

2.Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot – 2-shakl;

3.Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot – 4-shakl;

4.Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot – 5-shakl;

5.Moliyaviy hisobotga tushuntirish xati.

Moliyaviy tahlil hisob tizimi bo‘yicha yetarli bilim va malakaga ega bo‘lgan mutaxassislar tomonidan o‘tkaziladi. Chunki, tahlilchi hisob tizimining o‘ziga xos bo‘lgan barcha jihatlarini bilishi va amalda qo‘llay olishi shart

Texnik-iqtisodiy tahlil. Ushbu tahlil kompleks iqtisodiy tahlil va muhandislik tahlilning birikishi asosida hosil bo‘lgan. Texnik-iqtisodiy tahlil 3 yo‘nalishda olib boriladi: a) ishlab chiqarishning texnik darajasini tahlil qilish; b) ishlab chiqarishni

tashkil qilish, mehnat va boshqaruvni tahlil qilish; v) ishlab chiqarilgan mahsulotning texnik darajasini tahlil qilish.

Korxonaning texnik darajasini tahlil qilish jarayonida korxonaning ishlab chiqarish bazasini rivojlantirish darajasi, ilg‘or texnologiya jarayonlarini joriy qilish, ishlab chiqarishni kompleks mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish, qo‘l mehnatini to‘ la mexanizasiyalash, zamonaviylashtirish kabi masalalar kiradi.

Ishlab chiqarishni tashkil qilish, mehnat va boshqaruv masalalarini tahlil qilish jarayonida qo‘llanilayotgan boshqaruv shakllarining progressivligi (ilg‘orligi), boshqaruv tizimining samaradorligi, boshqaruv shakllarining ilg‘ orligi, boshqaruv tizimining samaradorligi, boshqaruv apparatini qisqartirish kabi yechimlar hal etiladi.

Mahsulotning texnik darajasini tahlil qilish jarayonida iste’molchilar talablarini hisobga olgan holda yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish, ularning texnik va iqtisodiy ko‘rsatkichlari respublikamizda va chet ellarda ishlab chiqarilgan eng yaxshi (yuqori) namunalari bilan taqqoslash. Mahsulotning texnik darajasi ularni attestatsiya qilish orqali aniqlanadi. Texnik-iqtisodiy tahlil iqtisodchilar, texniklar, muhandislar, mutaxassislardan tuzilgan kompleks brigada orqali amalga oshiriladi.

5.4. Taqqoslama (korxonalararo) va funksional – qiymat tahlili tahlili

Taqqoslash iqtisodiy tahlilning eng ko‘p qo‘llaniladigan usulidir. Taqqoslama tahlilning 2 asosiy turi mavjud: ichki korxona tahlili, ya’ni tahlilning obyekti sifatida shu korxonaga taalluqli xo‘jalik jarayoni o‘rganiladi; korxonalararo tahlilda esa bir qator korxonalarning xo‘jalik faoliyati tahlil qilinib, tarmoqdagi ilg‘or tajriba o‘rganiladi.Tahlil uchun quyidagi jadvalni keltiramiz.

5.**1-jadval**

Mehnat resurslarining tarkibi, strukturasi va dinamikasining tahlili

Ko‘rsatkichlar	Korxona 1				Korxona 2			
	2014y.	2015y.	2016y.	2017 y	2014y.	2015y.	2016y.	2017 y
Jami xodimlar	15	19	18	20	35	42	60	65
shu jumladan:								
rahbarlar	2	2	2	2	2	2	4	5
mutaxassislar	2	3	4	4	3	5	6	6
texnik xodimlar	1	1	1	2	4	4	6	9
xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar	2	1	1	2	2	2	4	8
ishchilar	8	12	10	10	24	29	40	37

Taqqoslama korxonalararo tahlilning mohiyati alohida olingan korxonalarning xo‘jalik faoliyatini ularning ko‘rsatkichlarini har tomonlama o‘rganib, erishilgan natijalar darajasini xolis farqlash va iqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta’sir qiluvchi asosiy omillarni aniqlash hamda ilg‘ or tajribalarni ishlab chiqarishda tatbiq etish natijasida ichki xo‘jalik rezervlarini aniqlashdan iboratdir.

Endi ichki taqqoslama tahlil uchun korxona mehnat resurslari tarkibi va strukturasi o‘zgarishini 5.2-jadvalda ko‘rib chiqamiz.

5.2-jadval

Mehnat resurslarining tarkibi, strukturasi va dinamikasi o‘zgarishini tahlili

Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yil		Hisobot yil		Farqi	
	Soni (kishi)	Salmo-g‘i, %	Soni (kishi)	Sal-mo-g‘i, %	Soni (kishi)	Sal-mo-g‘i, %
Jami xodimlar. Shu jumladan:	35	100	65	100	+30	-
rahbarlar	2	5,71	5	7,69	+3	+1,98
mutaxassislar	3	8,58	6	9,23	+3	+0,65
texnik xodimlar	4	11,43	9	13,85	+5	+2,42
xizmat ko‘ rsatuvchi xodimlar	2	5,71	8	12,31	+6	+6,6
ishchilar	24	68,57	37	56,92	+13	-11,65

5.2-jadval ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, tahlil qilinayotgan korxonada o‘rganilayotgan davrda mehnat resurslari tarkibida bir qator o‘zgarishlar sodir bo‘lgan. Korxonada o‘tgan yili jami xodimlar soni 35 kishini tashkil qilgan bo‘lsa, hisobot yilda 65 kishidan iborat bo‘lgan holda, 30 kishiga ko‘paygan. Demak korxonada joriy davrda yangi ish o‘rinlari yaratilgan. Korxona xodimlarining strukturaviy o‘zgarishida ishchilar sonining oshishi yetakchi o‘rinni egallagan bo‘lib, ularning soni o‘tgan yildagi 24 kishidan hisobot yilga kelib 37 kishiga etgan. Ishchilarning jami xodimlar tarkibidagi salmog‘i o‘tgan yilda 68,57 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, hisobot yili 56,92 foizdan iborat bo‘lgan holda 11,65 foizga kamaydi. Korxonada o‘tgan yili rahbarlar soni 2 kishidan, hisobot yili esa 5 kishidan iborat bo‘lgan. Shu bilan birga korxonada hisobot yili o‘tgan yilga nisbatan mutaxassislar soni 3 kishiga, texnik xodimlar soni 5 kishiga, xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar soni esa 6 kishiga oshganligini ko‘rish mumkin. Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, korxonadagi ishlab chiqarish sohasidagi mehnat resurslarining asosiy salmog‘ini ishchilar tashkil etmoqda. Xodimlar tarkibida mutlaq tarkibiy o‘zgarishlar kuzatilgan bo‘lsa-da, ularning umumiy tarkibdagi salmog‘ida deyarli keskin o‘zgarishlar kuzatilmaydi. Rahbar xodimlarning ortishi korxona uchun samara bermaydi. Shu sababli korxonada bevosita ishlab chiqarish jarayonida to‘g‘ridan-to‘g‘ri qatnashadigan xodimlar sonini oshirishga harakat qilinishi lozim. Bu esa samaradorlikni oshirishga olib kelishi mumkin.

Taqqoslama tahlil korxonaning barcha iqtisodiy ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga olishi mumkin yoki boshqacha so‘z bilan aytganda, kompleks xarakterga ega bo‘ladi. Taqqoslama tahlilning mazmuni qo‘yilgan maqsad va tekshiriladigan obyektga qarab quyidagicha turkumlanadi:

- obyekt bo‘yicha (korxona, sexlar, ishlab chiqarish uchastkasi, ish joyi);
- mavzuning (tema) mazmuni bo‘yicha - mehnat predmetlari, mehnat vositalari, mehnat va moliya resurslarini tahlil qilish va hokazo;
- tahlilni o‘ tkazish doirasi – kompleks tahlil va maxsus (tematik) tahlil.

Taqqoslama tahlilning eng muhim uslubiy masalalardan biri o‘rganiladigan obyektni bir-biri bilan solishtirish shartlariga rioya qilishdir.

Funksional qiymat tahlili. Mahsulot tannarxini kamaytirish borasida keraksiz va ortiqcha xarajatlarni minimal darajaga keltirish mahsulot ishlab chiqarishni loyihalashtirish va uni ishlab chiqarish chog‘ida har tomonlama hisobga olish kerak. Bu masalani ijobiy hal qilishda FQT asqotadi. FQT – obyektni (mahsulot) texnologik va mehnat jarayonlari tizimli tarzda tadqiq qilib, mehnat va moddiy resurslardan samarali foydalanishga qaratilgan chora - tadbirlarni ishlab chiqadi.

FQT ning asosiy maqsadi–ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari chog‘ida yangi xil mahsulotlarni loyihalashtirish va ularni o‘zlashtirishda ortiqcha xarajatlarning yuzaga kelishiga yo‘l qo‘ymaslik; ishlab chiqarish bosqichida loyiha bo‘yicha ko‘zda tutilgan xarajatlar darajasidan chetga chiqmaslikni; buyumni qo‘llash bosqichida oqlanmagan ekspluatasion xarajat va yo‘qotishlarni bartaraf qilish va nihoyat, buyumlarni utilizasiya (chiqit) ga chiqarish bosqichida chiqitga chiqarilgan buyumlarni qayta ishlab, ulardan foydalanish jarayonini o‘z ichiga oladi.

FQT ning eng muhim tamoyillari quyidagilardan iborat:

- obyektga kompleks tarzda yondashuv;
- obyekt holatini o‘rganilganda jamoa ijodiy tafakkurini har tomonlama faollashtirish (fikrlar hujumi);
- FQT barcha bosqichlarida texnikaviy va tashkiliy yechimlarni baholashda funktsional kerakli va ortiqcha xarajatlarni aniqlash.

FQT o‘tkazish quyidagi bosqichlarga bo‘linadi:

- tahlil qilish obyektini tanlash (mahsulot konstruktsiyasi, ishlab chiqarishni tashkil qilish, texnologik jarayon, boshqaruv va hisob tizimi kabilar);
- tahlilning maqsadi va vazifalarini asoslash (rentabellik darajasini oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, jahon bozorida mahsulotlarning raqobatbardoshlik qobiliyatini oshirish, xom-ashyo, materiallar va elektr quvvatini tejash, ishlab chiqarishdagi “tor“ joylarni bartaraf qilish, import va taqchil mahsulotlarni ishlatishdan voz kechish);
- tahlil obyekti to‘g‘risida ma’lumotlarni yig‘ish va asosiy, qo‘shimcha hamda keraksiz funksiyalarni aniqlash;
- ijodiy yondashuv va nostandart tafakkur qilish;
- funksional qiymat tahlilini qo‘llash natijasida olinadigan iqtisodiy samarani aniqlash;
- qabul qilingan qarorlarni ishlab chiqarishga joriy qilish.

Funksional qiymatli tahlil ishlab chiqarish sikli davomida sodir bo‘ladigan xarajatlar to‘ g‘ risida ma’lumotlarni jamlab, sodir bo‘lgan sarflarni kamaytirish yoki uni maqbul darajalarini ko‘rsatishdan iboratdir.

Ushbu tahlilning obyekti muayyan mahsulot, uning ishlab chiqarish jarayoni hamda texnik-texnologik tizimi hisoblanadi. Misol uchun, korxona traktor ishlab chiqarish uchun mo‘ ljallangan. Demak, traktor uning obyekti bo‘lib hisoblanadi.

Funksional qiymatli tahlil o‘z ichiga xo‘jalik faoliyatini amalga oshirishning dastlabki faoliyatlarini ham qamrab oladi, ya’ni kerak bo‘ladigan mablag‘lar, ilmiy-metodik ishlar, texnik-iqtisodiy usullar, qurollanish bazasi, oshiqcha xarajatlarni kamaytirish yoki ular uchun qo‘ shimcha mablag‘ larni ajratish va hokazolar. Bu ishlarning amalga oshirilishi faoliyat funksiyasini har tomonlama o‘rganib, ularning sarflash kerak bo‘lgan xarajatlari bilan birga belgilanib olinishidan boshlanadi.

Mazkur tahlil turining o‘ziga xos xususiyati shundaki, ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish uchun kerak bo‘lgan barcha omillarni xarajatlar bilan birga bog‘liq holda tahlil qilishni ta’minlaydi

Funksional qiymatli tahlil eng ilg‘or tahlil turi bo‘lib, obyektlarni tizimli o‘rganish metodiga asoslanib bajariladi. Uning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- funksional yondashuv, ya’ni o‘ rganiladigan jarayonlar asosiy, qo‘shimcha va yordamchi, keraksiz guruhlarga ajratilib o‘rganiladi;
- mulk egalarining manfaati nuqtai nazaridan yondashuv;
- tizimli va kompleks yondashuv;
- ijodiy yondashuv;
- istiqbolli tahlil metodlarini qo‘llash.

Ushbu tahlilning eng ijobiy tomoni o‘rganilayotgan iqtisodiy hodisa va jarayonlarni qanday natija bilan tugashini avvaldan aniq ko‘rsata biladi.

Funksional qiymatli tahlilning asosiy maqsadi – mahsulotning (ish,xizmat) iste’mol qiymati va qiymati bo‘yicha maqbul aloqadorlilik hamda moslikni aniqlashdan iborat.

Funksional qiymatli tahlil quyidagi maqsadlarni amalga oshirishda foydalaniladi:

- korxonaning foydasini oshirish;
- mahsulot tannarxini pasaytirish va foydalanishdagi xarajatlarni kamaytirish;
- ishlab chiqarilgan mahsulotni standart talablari darajasida bo‘lishini ta’minlash;

Tahlilning asosiy vazifalaridan yana biri ishlab chiqarishning texnologik jarayonida sodir bo‘layotgan barcha salbiy xarajatlar to‘g‘risida ma’lumotlarni jamlab, ularni bartaraf etish yo‘llarini ko‘rsatishdir.

Funksional qiymatli tahlil injenerlik, iqtisodiy, huquqiy, texnologik masalalarni barchasini mujasamlashtirgan holda jarayonlar va hodisalarni oxirgi natijasidan avvalroq bilib, o‘rganib turadigan tahlil turidir. Bu tahlil turi eng rivojlangan mamlakatlarning ishlab chiqarishida amalda qo‘llanilib katta ijobiy taraflarni egallashga musharraf bo‘lgan.

Funksional qiymatli tahlilda iqtisodchilar bilan bir qatorda injener, texnolog, oddiy ishchilarni mahsulot ishlab chiqarish jarayonida qatnashuv darajasini takomillashtirish ishlari ham ko‘rib chiqiladi. Umuman bu tahlil har bir faoliyatni aniq o‘lchangan va natijalashtirgan holda ko‘radi.

5.5. Iqtisodiy tahlilning asosiy axborot manbalari

Iqtisodiy tahlil jarayonida turli xil axborotlar hamda ma’lumotlardan foydalanish zarur bo‘ladi. Ularning to‘g‘ri, aniq, ishonchli bo‘ lishi hamda o‘z vaqtida olinishi tahlil natijalarining samaradorligini oshiradi.

Ichki va tashqi foydalanuvchilar uchun muayyan shakl va mazmunga ega iqtisodiy hodisa, voqea va xo‘jalik jarayonlarini qayd etish yoki qayta hisoblab tegishli manbalarlarda darak yoki ko‘rsatkich ko‘rinishida aks ettirish iqtisodiy tahlilda uchun ma’lumotlar hisoblanadi.

Iqtisodiy tahlil jarayonida turli xil axborotlar hamda ma'lumotlardan foydalanish zarur bo‘ladi. Ularning to‘g‘ri, aniq, ishonchli bo‘lishi hamda o‘z vaqtida olinishi tahlil natijalarining samaradorligini oshiradi.

Ichki va tashqi foydalanuvchilar uchun muayyan shakl va mazmunga ega iqtisodiy hodisa, voqea va xo‘jalik jarayonlarini qayd etish yoki qayta hisoblab tegishli manbalarlarda ko‘rsatkich ko‘rinishida aks ettirish iqtisodiy tahlila uchun ma'lumotlar hisoblanadi.

Iqtisodiy tahlilda foydalanuvchilarga uzatiladigan xabar tavsifiga ega ma'lumotlar yoki ularning to‘plami axborot tushunchasini beradi.

Tahlil uchun kerakli bo‘lgan ma'lumotlar hamda axborotlarning mazmuniga qarab quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- iqtisodiy ma’lumotlar;
- huquqiy – me’yoriy ma’lumotlar;
- ilmiy - texnikaviy ma’lumotlar;
- tabiiy - ekologik ma’lumotlar;
- boshqa ma’lumotlar.

Iqtisodiy ma’lumotlar ikki guruhga bo‘linadi. Birinchisi – ichki iqtisodiy ma’lumotlar. Ularni biznes- reja, hisob tizimi, budjet hisob-kitoblari, korxona dasturi ma’lumotlari va shu kabilar tashkil etadi. Ikkinchisi – tashqi iqtisodiy ma’lumotlar. Misol uchun, tovar-xomashyo bozoridagi ma'lumotlar, qimmatli qog‘ ozlar bozoridagi ma’lumotlar, raqobatdosh korxona ma'lumotlari, tarmoqdagi o‘rtacha ko‘rsatkichlar va shu kabilar. Bu manbalar tahlilda eng ko‘p foydalaniladi.

Iqtisodiy tahlilda qo‘llaniladigan axborotlar oshkoraligi nuqtai nazaridan yopiq va ochiq ma’lumotlarga bo‘lnadi. Buxgalteriya va statistik hisobotlarda iqodalangan ma’lumotlar tashqariga, boshqa subyektlarga taqdim etiladi va ular ochiq ma’lumotlarga kiradi. Bozor munosabatlari sharoitida har bir xo‘jalik yurituvchi sub’yekt o‘zining me’yoriy ko‘rsatkichlari, tariflari, limitlari va ularni baholash yo‘llarini ishlab chiqadi. Bu ko‘rsatkichlar xo‘jalik subyektining tijorat, texnologik va ishlab chiqarish siri hisoblanadi.

Korxonalar faoliyatini tahlil qilshda ko‘plab ma’lumot manbalaridan foydalaniladi. Iqtisodiy tahlilning asosiy axborot manbalari quyidagilar:

1. Biznes-reja ma’lumotlari.
2. Buxgalteriya hisobi va hisoboti.
3. Statistik hisob va hisobot.
4. Operativ (tezkor) hisob va hisobot.
5. Hisobdan tashqari ma’lumotlar.

Ushbu sanab o‘tilgan ma’lumotlar ichida eng asosiysi buxgalteriya hisobi va hisoboti hisoblanadi, chunki taxminan 70 foiz ma’lumotlarni iqtisodiy tahlil buxgalteriya hisobidan oladi. Tahlil qilish jarayonida yillik hisobotga yozilgan izohnoma ham har tomonlama ko‘rib chiqiladi. Tahlil qilish jarayonida hisobdan tashqari ma’lumotlardan ham foydalanish katta samara beradi. Bularga: tekshirish va taftish dalolatnomalari, moliya va soliq idoralari, bankning bajargan tahlil natijalari, laboratoriya va tabobat-nazorti materiallari, korxona mehnat jamoasining umumiy majlis materiallari, korxona mehnat jamoasining umumiy majlis materiallari kiradi.

Tahlil qilish jarayonida hisobdan tashqari ma’lumotlardan ham foydalanish katta samara beradi. Tahlil qilish jarayonida hisobdan tashqari ma’lumotlardan ham foydalanish katta samara beradi. Bularga: tekshirish va taftish aktlari, moliya va soliq idoralari, bankning bajargan tahlil natijalari, laboratoriya va tabobat nazorati materiallari, korxona mehnat jamoasining umumiy majlis materiallari kiradi.

Iqtisodiy tahlil qilishning samarasi, avvalambor, hisobot ma’lumotlarining sifatiga bog‘liq. Shuning uchun hisob va hisobot materiallarini tekshirish kerak. Amalda ma’lumotlarni tekshirishning bir necha usullari mavjud:

1. Hisobotlarni tuzish qoidalariga amal qilish. Ushbu tekshirish o‘z ichiga quyidagilarni oladi: hisobot shakllarining to‘g‘ri to‘ldirilishi va ularning O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O‘zbekiston Davlat Statistika qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan shakllarga mos kelishi, ayrim miqdoriy ko‘rsatkichlarni aniqlashda arifmetika amallarini to‘g‘ri qo‘llanilganligi kabilar. Hisobot shakllari va hujjatlarda hech qanday tuzatish yoki raqamlarni o‘chirib qayta yozish aslo mumkin emas.

2. Turli hisobot shakllarida beriladigan iqtisodiy ko‘rsatkichlar summasining bir- biriga mos kelishi. Tekshirishning ushbu usulini aniqroq tushunish uchun quyidagi 5.3-jadvalni havola qilamiz.

5.3 – jadval

Turli hisobot shakllarida berilgan iqtisodiy ko‘rsatkichlar summasining bir-biriga mos kelishi

Tartib soni	Ko‘rsatkichlar	1 - shakl			2 - shakl			Mos kelishi to‘g`risidagi belgi
		Shakl soni	Qator va ustun soni	Summa (ming so`m hisobda)	Shakl soni	Qator va ustun soni	Summa (ming so`m hisobda)	
1	Ustav kapitali yil boshiga yil oxiriga	 1 1	 410/3 410/4	 8 937 8 937	 5 5	 010/3 110/3	 8 937 8 937	 mos mos
2	Rezerv kapitali yil boshiga yil oxiriga	 1 1	 430/3 430/4	 6 763 7 983	 5 5	 010/5 110/5	 6 763 7 983	 mos mos

Ushbu tekshirishning mohiyati quyidagidan iborat: Bir qancha iqtisodiy ko‘ rsatkichlar turli hisobot shakllarida beriladi va binobarin, hisobot tuzishda ana shu iqtisodiy ko‘rsatkichlar summasi bir-biriga to‘g‘ri kelishi shart. Masalan, ustav kapitalining miqdori 1-shakl (balans) va 5-shakl (xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot) beriladi va h.k.

5.6. Tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish

Iqtisodiy tahlilining oxirgi bosqichi – tahlil natijalarini yakuniy xulosalarini chiqarish va rasmiylashtirish hisoblanadi.Yakuniy xulosada, korxonaning mulkiy holati, ularning manbalanishi, iqtisodiy va moliyaviy salohiyati, to‘lovga qobilligi, likvidliligi, moliyaviy mustahkamlik va barqarorligini tashxisi qo‘yiladi. Bu tashxis asosida uning iqtisodiy reyting bahosini ham berish mumkin.

Iqtisodiy tahlil natijalari tahliliy mavzular yoki xo‘jaliknik yillik hisobotiga ilova qilinqdigan bayonnoma ko‘rinishida ifoda etiladi.

Tahlil natijalariga asoslangan holda ma’lumotnoma yoki izohnoma yoziladi. Izohnomada korxona va tashkilotlarning xo‘jalik faoliyatida qo‘lga kiritilgan yutuqlari va yo‘l qo‘ygan kamchiliklarini bartaraf qilish yo‘llari ko‘rsatiladi. Bu o‘rinda, ayniqsa, aniqlangan ichki xo‘jalik rezervlarni ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga jalb etish yo‘llari ko‘rsatiladi.

Tahlil natijalarini umumlashtirish va yakunlash qaysi turdagi tahlilni o‘tkazganligiga qarab bajariladi. Misol uchun, korxonalarning yillik hisoboti asosida o‘tkazilgan joriy tahlilning yakuni, umumiy xulosalar va yuqori tashkilotlarga tushuntirish xati yozish orqali yakunlanadi. Ayrim turdagi boshqa tahlil turlarining natijalari esa mutaxassislarni ma’ruzasi, korxona rahbarining buyrug‘i, jamoaning majlis bayoni, audit xulosalari orqali umumlashtirilishi mumkin.

Tahlil natijalarini umumlashtirganda albatta erishilgan natijalar, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar ko’rsatilishi lozim. Ytuqlar aniq raqamlarda va faktlar bilan ko‘rsatilgan bo‘lishi talab etiladi. Shuningdek, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni tuzatish chora-tadbirlari, ya’ni takliflar ham k o‘rsatiladi.

Iqtisodiy tahlil natijalarini rasmiylashtirish va umumlashtirishga korxonaning umum majlis materiallari, turli xil diagramma, jadval va grafiklar tuziladi. Chunki, hisobot ma’lumotlarini tahliliy jihatdan qayta ishlash usullaridan biri tahliliy jadvallarni tuzish hisoblanadi. Jadvalga tahlil qilinadigan ko‘rsatkichlarning baza va amaldagi darajasi kiritiladi, mutlaq farq aniqlanadi, ko‘rsatkichlarning o‘sish sur’ati aniqlanadi hamda tegishli xulosa yoziladi. Tahliliy jadvallarning ustunligi va afzalligi shundan iboratki, u ham bo‘lsa, ko‘rsatkichlarning o‘zaro bog‘lanishi juda ham aniq va ko‘rgazmali tarzda namoyon bo‘ladi.

Tahlil natijalarini rasmiylashtirishni uslubiy tartibida xulosalarni aniq va ravon tilda bayon etilishiga, yutuq va kamchiliklarni asosligiga, o‘rinli va obyektivligiga, yuzaga kelish va o‘zgarishlarni davriyligiga, tahlil yakuni bo‘yicha kompaniya, firma boshqaruvini optimal strategiyalarini (chora, tadbirlar) belgilab olinishiga ahamiyat berish lozim.

Qisqa xulosa

Ushbu bobni o‘rganish natijasida talabalar iqtisodiy tahlilning turlarini turkumlash, ularni umumlashtirish va bir tizimga keltirish hamda ushbu fanning istiqbolda yanada takomillashtirish yo‘llarini, xususan retrospektiv (joriy), tezkor, istiqbol, moliyaviy-iqtisodiy, texnik-iqtisodiy, taqqoslama va funksional qiymat tahlilini o‘tkazish usullarini, iqtisodiy tahlilda qo‘llaniladigan asosiy iqtisodiy

koʻrsatkichlarni axborot manbalari, qoʻllaniladigan maʼlumotlar manbalarining toʻgʻriligini tekshirish usullarini, maʼlumotlardan tashqi va ichki foydalanuvchilariga qanday maqsad uchun kerakligini, tahlil natijalari qanday rasmiylashtirish kabilarni bilishlari zarur.

Talaba bilimini nazorat qilish hamda mustahkamlashga oid savol va topshiriqlar

1.Iqtisodiy tahlil tur lari va shakllari toʻgʻrisda qanday tushunchaga egasiz ?

2. Joriy (retrospektiv), tezkor va istiqbolli tahlilni tashkil etish usulining oʻziga xos xususiyatlari nimalardan iborat ?

3. Xoʻjaliklararo taqqoslama tahlilni tashkil etishning oʻziga xos xususiyatlarini koʻrsatib bering.

4. Funksional qiymat tahlilini tashkil etish va uning uslubi.

1-topshiriq.

Quyidagi jadval maʼlumotlari asosida ishlab chiqarish samaradorligi darajasini korxonalararo taqqoslash usuli orqali aniqlang.

Koʻrsatkichlar	**A korxonasi**	**B korxonasi**	**Koʻrsatkichlar oʻrtasidagi farq**
1. Bir ishlovchiga toʻgʻri keluvchi oʻrtacha yillik ish unumi (mehnat unumdorligi), soʻm	672500	782000	
2. Bir soʻmlik tovar mahsulotiga qilingan xarajatlar, tiyin	85,00	83,00	
3. Fond samarasi, soʻ m	2,15	2,35	
4. Sotilgan mahsulot rentabellik darajasi, %	22,5	25,5	

2- topshiriq.

1. Quyida berilgan jadval maʼlumotlariga asosan korxonada mahsulotni bir maromda ishlab chiqarilishiga tezkor tahlil usuli boʻ yicha baho bering.

Oʻn kunliklar	**Mahsulot ishlab chiqarish (ming soʻ m)**			
	1 – oy		**2 – oy**	
	Biznes-rejada	**Haqiqatda**	**Biznes-rejada**	**Haqiqatda**
1- oʻn kunlik	3300	3800	4200	4000
2- oʻn kunlik	3400	3000	4350	4200
3- oʻn kunlik	3300	4900	4300	4700
Jami 1 oyda	10000	11700	12850	12900

Koʻrsatma: Har bir oʻn kunlikda ishlab chiqarilgan mahsulot ulushini hisoblab chiqing va olingan natijalarni quyidagi jadvalda aks ettiring hamda xulosa yozing.

Oʻn kunliklar	**Jami ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga nisbatan (ulushi) % hisobida**			
	1 – oy		**2 – oy**	
	Biznes-rejada	**Haqiqatda**	**Biznes-rejada**	**Haqiqatda**
1				
2				
3				
Jami				

2. Quyidagi jadval ma’lumotlariga asosan iste’molchilarga bir maromda mol yetkazib berish bo‘yicha oylik biznes-rejaning bajarilishiga baho bering.

Mahsulot turlari	**Bir oyda mol yetkazib berish**							
	1- o‘n kun		**2- o‘n kun**		**3- o‘n kun**		**Jami**	
	Reja	**Haq.**	**Reja**	**Haq.**	**Reja**	**Haq.**	**Reja**	**Haq.**
1. Po‘lat prokati	10	12	10	13	10	16	30	41
2. Plastmassalar	5	4	5	3	5	8	15	15
3. Sim	15	11	16	15	15	20	46	46
4. Bronza	8	7	9	6	8	12	26	25

Ko‘rsatma: Iste’molchilarga bir maromda mol yetkazib berishga baho berish koeffitsientini aniqlash kerak.

3- topshiriq:

Quyidagi ma’lumotlar asosida mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmining hisobot yilida o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’atini aniqlang va tahlil qiling.

Ko‘ rsatkichlar	**O‘lchov birligi**	**O‘tgan yili**	**Joriy yil**	**Mutlaq summada o‘zgarishi**	**Foiz hisobida**
1.Mahsulotlar ishlab chiqarish - taqqoslama bahoda - amaldagi bahoda	Ming so‘m	50512 52678	55890 56377		
2. Sotilgan mahsulot hajmi	_'_	49200	49430		

VI Bob. IQTISODIY TAHLIL ISHLARINI TASHKIL QILISH

6.1. Iqtisodiy tahlil qilishning asosiy qoidalari

Korxona faoliyatini iqtisodiy tahlil qilishning natijasi asosan, uning to‘g‘ri amalga oshirilishiga bog‘liq. Iqtisodiy tahlil qilish qator talablarga javob berishi lozim. Ya’ni, u reja va yangi metodikaga asoslanishi hamda analitik jarayoni samarasini ta’minlab berishi kerak.

Boshqaruv uchun analitik ishlanmalarni bir tartibda, o‘z vaqtida hamda tushunarli tarzda yetkazib berishni ta’minlash uchun iqtisodiy tahlilni tashkil qilish va o‘tkazish jarayonlari quyidagi talablarga asoslanadi:

- Majburiyatlarning taqsimlanishi. Tahlilni amalga oshirish bo‘yicha majburiyatlar alohida ijrochilarga bo‘lib beriladi hamda u bo‘yicha mas’ul belgilanadi.
- Tahlil kamchiqim, natijasi esa, samarali bo‘lishi zarurur. Tahlilni amalga oshirishda tahlilning yangi usullari, ma’lumotni kompyuter texnologiyalari yordamida o‘rganish, ma’lumotni yig‘ish hamda uni saqlashning ratsional usullari keng miqyosda ishlatilishi lozim. Natijalardan esa turli maqsadlarda foydalanish imkoniyati ta’minlanishi shart. U asosida qabul qilingan qarorlar aniq ijobiy yakunlar bilan tugashi kerak.
- Ma’lumotga bo‘lgan ehtiyojlarni to‘la qondirishga yo‘naltirilishi. Tahlilni turli subyektlarining informatsion talablarni imkon qadar to‘la qondirish yo‘llarini hamda tahlilni o‘tkazishga ketgan xarajatlarni kamaytirish bilan uyg‘unlashtirib olib borish.
- Tahlil ishlarini reglamentatsiyalash va unifikatsiya qilish. Reglamentatsiyalash har bir ijrochidan majburiy talab qilinadigan jadval va natija shakllarini ishlab chiqishni nazarda tutadi. Tahlilni unifikatsiyalash (standartizatsiyalash) metodik qo‘llanmalarni, natija shakllarini, jadvallarni, standart programmalarni, umumiy baholash mezonlarini ishlab chiqishni ko‘zda tutadi.

Ko‘rsatib o‘tilgan qoidalarga rioya qilish tahlil ishlari samarasini keskin oshiradi.

Iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish bo‘yicha farmon va qarorlar qabul qilinmoqda.

Mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘ g‘ risida“ 2015-yil 24-apreldagi PF-4720-sonli Farmonini bajarish yuzasidan Vazirlar Vahkamasining “Davlat ulushi bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to‘g‘risida“ gi 2015-yil 28-iyuldagi 207-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qaror 2016-yil 1-yanvardan kuchga kirdi. Ushbu qarorning bajarilishi yuzasidan «Davlat ulushi bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlari to‘g‘risida» nizom qabul qilindi. Ushbu Nizom banklarga va sug‘ urta tashkilotlariga nisbatan tatbiq etilmaydi. Ustav kapitalida davlat ulushi bo‘lmagan xo‘jalik jamiyatlari o‘zlarining faoliyati samaradorligini baholash uchun ushbu Nizomni jamiyatning boshqaruv organlari qaroriga binoan tatbiq etishlari mumkin. Samaradorlikni baholash mezonlari

belgilangan davriylik bo‘yicha hisoblanadigan samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga oladi.

Samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlari (keyingi o‘rinlarda SMK deb ataladi) tashkilotlarning ijro etuvchi organi faoliyati samaradorligini aniqlash uchun foydalaniladigan baholash mezonlarining miqdoriy o‘lchovidan iborat bo‘ladi.

SMK ro‘yxati faoliyatning iqtisodiy, energetika, ishlab chiqarish, innovasion samaradorligi ko‘rsatkichlarini va samaradorlikning boshqa ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga olishi mumkin. SMK ro‘yxati tashkilotning vakolatli boshqaruv organi bo‘lgan kuzatuv kengashi, u mavjud bo‘lmaganda esa — yuqori boshqaruv organi (xo‘jalik jamiyatlari uchun) yoki muassis (davlat korxonalari uchun) qarori bilan tasdiqlanadi. SMKni hisoblashning davriyligi har chorakdan iborat bo‘ladi va tashkilotning vakolatli boshqaruv organi qarori bilan belgilanadi.

Manbai faqat yillik hisobot bo‘lgan ko‘rsatkichlar bir yilda bir marta hisoblanadi. Tashkilotning vakolatli boshqaruv organi qarori bilan tashkilot faoliyatining tarmoq bo‘yicha mansubligi, rivojlanish strategiyasi va faoliyatining xususiyatidan kelib chiqqan holda SMK sifatida boshqa koeffitsientlardan foydalanish mumkin.

Baholash maqsadi uchun har bir SMKga uning tashkilot uchun ahamiyatini aks ettiruvchi salmoq o‘lchovi belgilanadi. Tashkilotga nisbatan tatbiq etiladigan barcha SMK salmoq o‘lchovlari jami 100 foizni tashkil qiladi. Har bir SMKning salmoq o‘ lchovi, uning tashkilot faoliyati uchun ahamiyatini hisobga olgan holda, tashkilotning vakolatli boshqaruv organi qarori bilan belgilanadi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda mazkur nizomda ko‘rsatilgan tahliliy ko‘rsatkichlarga baho berish iqtisodiy tahlil samarasini oshirish imkonini beradi.

6.2.Iqtisodiy tahlilni tashkil qilish va o‘tkazish bosqichlari

Tahliliy ishlarni muvaffaqiyatli, samarali o‘tkazilishi, uni har tomonlama o‘ylab, sinchiklab tashkil qilinishiga bog‘liqdir. Uning o‘tkazilishi ilmiy xarakterga asoslangan reja asosida amalga oshirilishi lozim.

Iqtisodiy tahlilni alohida tahlil xizmat bo‘limini ochish orqali yuritish, yollangan tahlilchidan foydalanish yoki uning funksiyasini alohida xodimga yuklash orqali bajarish, egasi tomonidan mustaqil yuritilishi kabi tashqiliy shakllarini ajratish mumkin. Bu tashkiliy shakl ichki moliyaviy tahlil uchun xos bo’lgan tarkiblashdir. Tashqi tahlilchilar tomonidan o‘tkaziladigan tahlil natijalaridan manfaatdor tashkilotlar va xodimlar tomonidan mustaqil yoki shartnomaviy asosda tashkil etilishi mumkin.

Xo‘jalik subyektlarida iqtisodiy tahlilni tashkil etish shakllarini quyidagi 6.1-chizmada ko‘rishimiz mumkin.

Iqtisodiy tahlilni tashkil etilishiga muhim ahamiyat berilishi yana shu bilan harakterliki, uning yutug‘i ko‘p jihatdan tashkil etish tartibiga ham bog‘liq. Albatta tashkiliy shakllarni u yoki bu shakli korxonaning mulkiy holati, katta-kichikligi, jarayonlarning murakkabligi va o‘ziga xosligi, moliyaviy imkoniyatlar, ish ko‘lami, malakali kadrlar va boshqa imkoniyatlardan kelib chiqqan holda tanlanadi. Agar korxonaning ish ko‘lami, ishlab chiqarish jarayoning murakkabligi, moliyaviy imkoniyati, malakali kadrlarga bo‘lgan talabining qondirilishidan kelib chiqqan holda,



6.1-chizma. Iqtisodiyot subyektlarida iqtisodiy tahlilni tashkil etish shakllari

alohida tahlil xizmat bo‘limini tashkil etish maqbul deb topilsa, albatta bu eng to‘g‘ri yo‘l hisoblanadi.

Iqtisodchi olim M.Q.Pardaev tomonidan iqtisodiy tahlilning uchta bosqichi, ya’ni tahlil maqsadini aniqlash va unga yondoshish yo’llarini belgilash; tahlil uchun taqdim qilinadigan axborotlar sifatiga baho berish; tahlilni usullaridan foydalangan holda tahlilni o’tkazish va uning natijalarini rasmiylashtirish bosqichlari tarkiblanadi.

Tahliliy jarayon quyidagi bosqichlardan iborat:

a) tahlil dasturini tuzish;

b) tahlil uchun ma’lumotlarni va ularni tekshirish, ko‘rsatkichlarni tanlash va hisoblash;

v) ko‘rsatkichlarni tahliliy jihatdan qayta ishlash va taqqoslash.;

g) tahlil natijalarini umumlashtirish va korxona hamda tashkilotlar faoliyatida sodir bo‘lgan kamchiliklarni bartaraf qilish uchun chora va tadbirlar ishlab chiqish hamda aniqlangan ichki xo‘jalik rezervlaridan foydalanish.

6.3. Iqtisodiy tahlil dasturini tuzish

Iqtisodiy tahlil dasturini tuzish tahliliy ishlarni tashkil qilish borasidagi eng mas’uliyatli vazifa hisoblanadi. Dastursiz bajariladigan tahlil, yoxud o‘rganiladigan masalalar ko‘lamini aniq belgilamaslik, o‘z navbatida, tahlil natijalariga putur yetkazadi.

Tahlil dasturining hajmi va mazmuni undan ko‘zlangan maqsadga bog‘liq. Masalan, tahlil kompleks tarzda o‘tkazilishi mumkin. Xo‘jalik faoliyatining kompleks tahlili deb xo‘jalik faoliyatini bo‘laklarga bo‘lib, bir-biriga bog‘liq holda batafsil o‘rganishga aytiladi. Bunda korxona va tashkilotlar faoliyatini hamma tomonlari chuqur o‘rganiladi. Yoki ishning qandaydir bir tomonini o‘z ichiga olgan tematik (tanlanma) tahlil bo‘ladi. Kompleks tahlil o‘tkazilganda, oylik, kvartallik va yillik hisobot materiallari asosida tahliliy bayonot yozishda qo‘llaniladigan jadvallar maketi yuqori tashkilot tomonidan tasdiqlanishi kerak. Agar tanlanma tahlil o‘tkazilsa, u holda dasturda uning mavzusi, hajmi qanday manbalarga va ma’lumotlarga asoslanishi, tahlilni bajaruvchi shaxs, ishning bajarilish muddati ko‘rsatilishi kerak.



Joriy hisobda berilmaydigan ma’lumotlarni aniqlash katta ahamiyatga molik. Masalan, ishchilarning bekor turib qolish sabablarini aniqlash uchun bevosita kuzatuv olib borish kerak. Bunda ish kunini fotografiya qilish orqali yoki ushbu uchastkada band bo‘lgan ishchilar, muhandislar va boshqa xodimlarning fikr va mulohazalarini bilish orqali yuqorida aytilgan kamchiliklarning sabablari aniqlanadi.

U yoki bu axborotlar manbaidan foydalanish tahlil dasturini tuzishda hisobga olinishi kerak. Ma’lumotlarni to‘g‘riligini va aniqligini tekshirishdan so‘ng ularni qayta ishlashga o‘tiladi.

6.4. Korxonalarning faoliyatini iqtisodiy tahlil qilishda qatnashadigan subyektlar

Korxona va tashkilotlarning xo‘jalik va moliyaviy faoliyati, avvalambor ushbu korxonaning xodimlari tomonidan tahlil qilinadi. Korxonalarning xo‘jalik va moliyaviy holatini tahlil qilish asosan reja-iqtisod, buxgalteriya va moliya bo‘limlarining vazifasidir. Iqtisodiy tahlil jarayonida qatnashuvchi subyektlar quyidagi cizmada ko‘rsatiladi (6.2-chizma).



6.2-chizma. Tahlil jarayonida qatnashuvchi subyektlar

Hozirgi vaqtda katta va yirik korxonalarning tarkibida iqtisodiy laboratoriyalar ham iqtisodiy tahlil qilish bilan mukammal tarzda shug‘ullanmoqdalar.

Korxona va tashkilotlarning faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish, bevosita yuqori tashkilotlarning vazifasi ham bo‘lib, ular korxonalar hisobotini tasdiqlaydilar hamda ularning ishlab chiqarish, xo‘jalik va moliyaviy faoliyatini obyektiv (xolisona) baholab, tegishli qarorlar qabul qiladilar. Iqtisodiy tahlil qilish bilan moliya va soliq idoralari, bank xodimlari ham shug‘ullanadilar. Hozirgi kunda xo‘jalik subyektlarining moliyaviy-xo‘jalik faoliyati tahlili masalalari bilan bevosita auditorlik kompaniyalari ham shug‘ullanmoqda. Statistika idoralari ham iqtisodiy tahlil bilan shug‘ullanadilar. Ular qabul qilingan hisobot va statistik ma’lumotlarni statistika usullari bilan qayta ishlab, vazirliklar va boshqarmalarni yig‘ma axborot materiallari bilan ta’minlaydilar.

Xo‘jalik subyekti xodimlari tomonidan o‘tkazilsa, ichki tahlil deb ataladi. Bunday tahlil asosan korxonani boshqarish, uning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatiga baho berish uchun o‘tkaziladi. Tashqi tahlil esa boshqa subyektlar tomonidan o‘tkaziladi.

Iqtisodiy tahlil subyektlari va ularning manfaatlar mushtarakligini quyidagi 6.1-jadval ma’lumotlaridan ko’rib chiqish mumkin.

6.1-jadval

Iqtisodiy tahlil subyektlari va ularning manfaatlari

t/r	Iqtisodiy tahlil subyektlari	Subyektlar manfatlari
1	2	3
1.	**Korxona xodimlari**	Xo‘jalik subyektining moliyaviy natijaviyligi moliyaviy holati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni bilishdan
2.	**Ta’sischilar**	Xo‘jalik subyektiga qo‘yilgan va qo‘yiladigan mablag‘larning foydaligidan
3.	**Auditorlar**	E’lon qilinadigan hisobot shakllarini to‘g‘riligini huquqiy tamoyillar asosida baholash va ularning moliyaviy holatini yaxshilash, ichki imkonintlarini ko‘rsatib berish, mulk egalari manfaatlarini himoya etishdan
4.	**Yuqori tashkilotlar**	Band qilingan moddiy va moliyaviy resurs harakatini va samaradorligini o‘rganishdan
5.	**Soliq idoralari**	Majburiy to‘lovlar, soliqlar va ajratmalar undirish yuzasidan resurslar holati, harakatini faoliyat natijaviyligini o‘rganishdan
6.	**Sug‘urta agentliklari**	Xo‘jalik subyekti mulkini turli tahlikalarda himoya qilish, saqlanishi yuzasidan ma’lumotlarni o‘rganishdan
7.	**Mol yetkazib beruvchilar**	Shartnomaviy munosabatlarni yo‘lga qo‘yish, tomonlarning o‘z majburiyatlarini bajarishi, to‘lov intizomiga rioya qilish, to‘lovga qobillikni holati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘rganishdan
8	**Haridor va buyurtmachilar**	Ta’minotdagi uzilishlarga yo‘l qo‘ymaslik yuzasidan xo‘jalik subyektining moliyaviy va iqtisodiy salohiyatining tayanchi to‘g‘risidagi ma’lumotlardan

Iqtisodiy tahlil subyektlarining keng qamrovliligi va ular manfaatlarining turlichaligi tahlilni o‘tkazish bo‘yicha aniq konseptual asoslarni belgilashni talab etadi. Lekin, xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holatini baholashning me’yoriy hujjatlarga tayangan rasmiy va norasmiy jihatlari mavjud. Rasmiy jihatlarni xo‘jalik

subyektlarining reyting bahosini chiqarishda, to‘lovga qobillik va kreditga qodirligini baholashda, iqtisodiy nochorlik va bankrotlik darajalarini belgilashdagi ko‘rish mumkin. Norasmiy jihatlar bo‘yicha tahlilchi, analitiklar o‘zlari uchun maqbul shaklda tartib va qoidalarni belgilashlari va ularga mos analitik jarayonlarni tuzib chiqishlari mumkin.

Qisqa xulosa

Ushbu mavzuni o‘rganish natijasida talabalar tahliliy jarayon bosqichlarini, xususan iqtisodiy tahlil dasturini tuzish, tahlil uchun ma’lumotlarni to plash va ularni tekshirishni, ko‘rsatkichlarni tanlash va hisob-kitob qilishni, ko‘rsatkichlarni tahliliy jihatdan qayta ishlash va taqqoslash hamda xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini iqtisodiy tahlil qilishda qatnashadigan subyektlarni bilishlari lozim.

Talaba bilimini nazorat qilish hamda mustahkamlashga oid savol va topshiriqlar

1. Iqtisodiy tahlilning so‘nngi bosqichi qanday rasmiylashtiriladi ?
2. Tahliliy ishlarning asosiy bosqichlari va ularning mantiqiy ketma-ketligi nimalardan iborat?
3. Iqtisodiy tahlil dasturi qanday tuziladi?
4. Iqtisodiy tahlil qilish bilan mukammal tarzda kim shug‘ullanadi?

1-topshiriq.

Tahliliy ishlarni tashkil etishni boshqaruv apparatining tarkibi va boshqaruv tizimining texnikaviy jihatdan jihozlanganligiga bog‘liqligini izohlab bering.

2-topshiriq.

Kompleks tahlil bo‘yicha tuzilgan iqtisodiy tahlil dasturining o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatib bering.

3-topshiriq.

O‘zbekiston Respublikasi bilan xorijiy davlatlarda iqtisodiy tahlilni tashkil etishning muvofiqligi va farqli jihatlarini o‘rganib chiqing.

VII Bob. KOMPLEKS IQTISODIY TAHLIL TIZIMI VA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARINI ANIQLASH

7.1. Kompleks iqtisodiy tahlilni tashkil etish asoslari, mazmuni va asosiy prinsiplari

Korxonalarning xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish hozirgi vaqtda obyektiv zaruriyatdir. “Kompleks” so‘zi lotincha so‘zdan kelib chiqib, aloqa, muvofiqlik, majmua, barchasi, jami degan ma’noni anglatadi.

Xo‘jalik faoliyatining kompleks tahlili deb xo‘jalik faoliyatini bo‘laklarga bo‘lib, bir-biriga bog‘liq holda batafsil o‘rganishga aytiladi.

Korxona xo‘jalik faoliyati murakkab, bir-biriga bevosita bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar majmuasidan iboratdir. Shu bois bu jarayonlarni batafsil o‘rganmasdan turib, uni boshqarish uchun qulay, samarali tadbirlar ishlab chiqib bo‘lmaydi. Shu tufayli xo‘jalik faoliyatini yaxshilash uchun uni kompleks holda atroflicha o‘rganish lozim. Bu masalani o‘rganishda batafsil tahlil bilan kompleks tahlilni farqlash kerak. Batafsil tahlil, deganda xo jalik faoliyatini (makonni) yoki bir iqtisodiy ko‘rsatkichning bir-biriga bog‘liq holda bir davr (zamon) mobaynida har tomonlama o‘rganishga aytiladi.

Kompleks tahlilda esa ushbu batafsil tahlilga muntazam yondashuv tufayligina erishiladi, ya’ni xo‘jalik faoliyatini yaxlit holda bir qancha davr mobaynida o‘rganishdir. Misol uchun korxona xo‘jalik faoliyati yilning bir choragi bo‘yicha batafsil o‘rganiladi, bu yaxlit, ya’ni batafsil tahlil bo‘lib hisoblanadi. Kompleks tahlil bo‘lish uchun shu yilning hamma choraklarini va shu hisobot yilida erishilgan barcha natijalarni batafsil sistemali o‘rganish zarurdir. Agar tahlil besh yillik muddatga o‘tkazilayotgan bo‘lsa, xo‘jalik faoliyatini bir yilda atroflicha o‘rganish batafsil tahlildir. Shu tarzda besh yil mobaynida tahlil qilib borsak, shundagina kompleks tahlilga erishgan bo‘lamiz.

Demak, xo‘jalik faoliyatining kompleks tahlili xo‘jalik faoliyatini batafsil o‘rganishda sistemali yondashuvdan iborat. Agar buni korxona misolida yoritadigan bo‘lsak, korxonaning xo‘jalik faoliyatini bir hisobot davri mobaynida to‘liq o‘rganish batafsil tahlil bo‘ladi. Uni alohida bo‘limlari bilan bir qancha davrlar bo‘ yicha batafsil o‘rganish kompleks tahlil bo‘ladi. Iqtisodchi olimlarning fikricha: “Kompleks tahlil xo‘jalik faoliyatininng barcha ko‘ rsatkichlarini qamrab olgan holda batafsil o‘tkazilishi mumkin”[9]. Shuningdek, bu tahlil alohida ko‘rsatkichlar, sohalar bo‘yicha ham amalga oshiriladi. Masalan, iqtisodchilar oldiga faqat korxonaning moliyaviy natijalarini o‘rganish maqsad qilib qo‘yilsa, aynan shu ko‘rsatkichlar bo‘yicha ham kompleks tahlil o‘tkazish mumkin.

[9] Басовский Л.Е., Басовкая Е.Н. и др. Комплексный экономический анализ хозяйственной деятельности. Учебное пособие. – М.: ИНФРА-М, 2009.

7.2.Kompleks iqtisodiy tahlilning umumiy sxemasi va undagi ko‘rsatkichlarning bir- biri bilan bog‘liqligi

Kompleks iqtisodiy tahlil korxona faoliyatining barcha tomonlari va bo‘linmalarini bir-biri bilan uzviy bog‘likda, ya’ni ishlab chiqarishning barcha bosqichlari tayyorlov, ishlab chiqarish va mahsulot muomalalarini o‘z ichiga oladi.

Kompleks iqtisodiy tahlilning mazmunini korxona faoliyatini keng qamrovli tarzda o‘rganish asosida, ularning har bir bo‘lagini o‘zaro bog‘liqlikda, aloqadorlikda ko‘rib chiqib mavjud resurslardan samarali foydalanishning chora-tadbirlarini belgilab berish maqsadidagi korxona faoliyati natijaviyligini yaxshilashga qaratilgan ichki imkoniyatlarini aniqlash tashkil etadi.

Kompleks iqtisodiy tahlilning maqsad va vazifasi avvalo korxonani ichki xo‘jalik muommolarini yechishga ya’ni faoliyat natijaviyligi hamda uning iqtisodiy potensialini tashkil etuvchi resurslar, kapitaldan foydalanishga daromad, foyda kompaniya qiymatini, aksionerlarning aksiyadan oladigan daromadlarini oshirishga qaratilgan.

Tizimli tahlil metodining nazariy asosini dialektika tashkil etadi. Dialektik materializm xo‘jalik jarayonidagi o‘zgarishlarni uzviy bog‘liqlikda, rivojlanishda, dialektik bir butunlikda o‘rganishni o‘rgatadi.

Korxonani tez va uzluksiz rivojlanishi, ishlab chiqarish hajmi, moliyaviy va xo‘jalik faoliyatining o‘sishi, iqtisodiy aloqalarning keskinlashuvi, keng miqyosda matematik usullar, zamonaviy kompyuter texnikalarining qo‘llanilishi, boshqaruvning optimal tamoyillarini amalda qo‘llash, iqtisodiy hodisalar, har bir xo‘jalik subyektini kompleks bir butun sistemali tarzda o‘rganishni taqozo etadi.

Iqtisodiy tahlilda tizimli yondashuv ikki ko‘ rinishda namoyon bo‘ladi:

- birinchidan, iqtisodiy tahlilning har bir obyekti, ya’ni har bir xo‘jalik subyekti bir butun tizim sifatida;

- ikkinchidan, xo‘jalik subyekti faoliyatining iqtisodiy samaradorligi bir qancha ko‘rsatkichlar tizimi, jumladan, tannarx ko‘rsatkichlari tizimi, rentabellik ko‘rsatkichlari tizimi, ish faollik ko‘rsatkichlari tizimi, moliyaviy holatni ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi orqali baholanadi.

Demak, korxona faoliyatining tahlil tizimi xarakterining asosiy sharti uning barcha tomonlari va elementlari bir-biri bilan uzviy bog‘liqlikda, faoliyati yagona maqsad sari yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Masalan, ishlab chiqarish sharoitini hisobga olmay sotish hajmi tahlil etilmaydi; korxonaning moliyaviy holatini tahlil etmay, ishlab chiqarish samaradorligini jamlab bo‘lmaydi.

Korxonalarning xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish sistemali (tizimli) xarakterga ega. Sistemali (tizimli) tahlil o‘tkazishda birinchi bosqichda tadqiqot obyekti tizimi sifatida namoyon bo‘ladi.

Korxonalarning xo‘jalik faoliyatini sistemali tahlil qilish tartibini uzviy ravishda o‘zaro bir-biri bilan bog‘langan 3 guruh ishlab chiqarish resurslari misolida yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Bularga ishlab chiqarish resurslari, ishlab chiqarish jarayoni va tayyor mahsulot kiradi. Ushbu tizimga kirish moddiy buyumlar oqimi (mehnat vositalari va mehnat predmetlari) hamda mehnat resurslari oqimi orqali amalga oshadi. Tizimdan chiqish esa tayyor mahsulotni ishlab chiqarish bilan o‘z ifodasini topadi.

Tizimli tahlilni o‘tkazishning dastlabki sharti korxonalarning faoliyatini baholovchi sintetik va tahliliy ko‘rsatkichlarni aniqlashdir. Ushbu ko‘rsatkichlarni tanlash va saralash sistemali iqtisodiy tahlil o‘tkazishning ikkinchi bosqichida amalga oshiriladi. Sistemali iqtisodiy tahlilning uchinchi bosqichida tizimning umumiy tasviri tuzilib, unda uning bosh (tarkibiy qismi) funksiyalari, o‘zaro bog‘lanishi hamda bosh komponentiga (tarkibiy qismiga) bo‘ysinuvchi elementlar (unsurlar) ishlab chiqiladi.

Kompleks iqtisodiy tahlilda ko‘ rsatkichlar tizimidan foydalaniladi.

Iqtisodchi olim A.X.Shoalimov tomonidan ko‘rsatilgan kompleks iqtisodiy tahlilning umumiy blok-tasviri quyidagi 7.1-chizmada berilgan.



7.1-chizma. Kompleks iqtisodiy tahlilning umumiy blok-tasviri

Iqtisodchi olim T.Sh.Shog‘iyosov tomonidan ular qatoriga quyidagi asosiy ko‘rsatkichlarni kiritish ko‘rsatilgan[10]:

1. Mehnat resurlaridan samarali foydalanishni tavsiflovchi ko‘rsatkichlar tahlili.
2. Mehnat vositalaridan samarali foydalanishni tavsiflovchi ko‘rsatkichlar tahlili.
3. Nomoddiy aktivlardan samarali foydalanishni tavsiflovchi ko‘rsatkichlar.
4. Mehnat ashyolari, buyumlaridan samarali foydalanishni tavsiflovchi ko‘rsatkichlar tahlili.
5. Ishlab chiqarish va faoliyat natijaviyligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar tahlili.
6. Moliyaviy holat va to‘lov layoqatini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar tahlili.

[10] Shog’yosov T.Sh. Kompleks iqtisodiy tahlil. Darslik. -T.: Fan va texnologiya, 2012.

Ma’lumki, ishlab chiqarish munosabatlari iqtisodiy fanlarni o‘rganish predmeti bo‘lib, u ishlab chiqaruvchi kuchlar bilan uzviy ravishda bog‘liq. O‘z navbatida, ishlab chiqaruvchi kuchlarning mazmuni ishlab chiqarishning tashkiliy va texnikaviy darajasini taqozo etadi. Shu bois korxonaning xo‘jalik faoliyatini ifodalovchi barcha iqtisodiy ko‘rsatkichlar asosida ishlab chiqarishni tashkil etish va texnikaviy darajasi yotadi, ya’ni mahsulot sifati va raqobatbardoshligi, ilg‘or texnika va energiya bilan qurollantirish, ishlab chiqarishni (kontsentrasiya) to‘plash, ixtisoslashtirish va kooperatsiya darajasi, operasion (sikl) davrning davomiyligi kabilar.

7.3. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning imkoniyatlari

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning imkoniyatlarini aniqlash tahlilning asosiy maqsadini ham belgilaydi. Ya’ni, mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish va korxonaning moliyaviy natijalarini hamda holatini yaxshilash bo‘yicha subyektda mavjud bo‘lgan ichki imkoniyatlarni aniqlash va ularni amaliyotga tatbiq etish chora-tadbirlarini belgilash tahlilning muhim vazifasi hisoblanadi.

Tahlilda har bir tarkib bo‘yicha mavjud bo‘lgan ichki imkoniyatlar aniqlanib ularga baho beriladi. Jumladan, ishlab chiqarishda mehnat resurslari bo‘yicha imkoniyatlar, mehnat vositalari va ulardan samarali foydalanish bo‘yicha imkoniyatlar, mehnat predmetlari va ulardan samarali foydalanish bo‘yicha imkoniyatlar, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish yuzasidan imkoniyatlar mavjudligi va shu kabilarni belgilash mumkin.

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning ichki imkoniyatlari – resurslardan foydalanish bo‘yicha korxonada mavjud bo‘lgan, biroq ishga solinmagan zaxiralarning mavjudligidan tashkil topadi.

Bu imkoniyatlar birinchi navbatda korxonaning mehnat vositalari, texnologiyalari va zamonaviy mehnat vositalari bilan qurollanish darajasiga hamda ularning holatiga bog‘liq.

Iqtisodchi olimlarning fikricha: “Imkoniyat – korxona iqtisodini kuchaytirishning muhim vositasidir. Agarda subyektda ulardan to‘liq va to‘g‘ri foydalanilsa ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yuzasidan muhim ijobiy natijalarga erishiladi”[11].

Demak, ishlab chiqarish samaradorligining oshirish ko‘p jihatdan mavjud zaxiralardan foydalanish holatiga ham bog‘liq.

Korxona biznes rejalarini belgilashda barcha imkoniyatlar hisobga olinadi va ularning realizatsiyasi reja bajarilishi davomida amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish imkoniyatlari faoliyatdagi texnologiyalarni takomillashtirish, ishlab chiqarishni tashkil etish hamda uning tashkiliy texnikaviy darajasini yaxshilash, mehnatni tashkil etish, boshqaruvni takomillashtirish kabilar orqali ham belgilanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda makro darajadagi imkoniyatlarning tarkiblashni quyidagi uch guruhi ajratiladi[12]:

1. Iqtisodiyot.

11 Ishonqulov A.N. va boshqalar. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Darslik. –T.: Sano-standart, 2014. -264 b.
[12] Ishonqulov A.N. va boshqalar. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Darslik. –T.: Sano-standart, 2014. -270 b.

2. Tarmoq.

3. Ichki xo‘jalik imkoniyatlari.

Korxonada har bir imkoniyatdan maqsadga muvofiq foydalanish yo‘llari ishlab chiqilishi zarur.

Korxona ichki imkoniyatlari quyidagi tarkib bo‘yicha guruhlanadi:

a) mehnat vositalari bilan bog‘liq bo‘lgan imkoniyatlar:

- ishlab chiqarish vositalari va ularni modernizatsiyalash, ishlab chiqarish texnologiyalarini samarali turlarini ishlab chiqarishga jalb etish, asosiy vositalarning aktiv qismini ko‘paytirish, informatsion texnologiyalarga asoslangan ish o‘rinlarini tashkil etish;

- asosiy vositalarni zamonaviylashtirish, ishlab chiqarish uskunalarining mehnat unumi, samarasini oshirish;

- asosiy vositalarga xizmat ko‘rsatuvchi bo‘limlarni tashkil etish va ular faoliyatini faollashtirish;

- texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni tashkil etishning usullarini faollashtirish, ishlab chiqarish maromiga amal etish, texnik standartlar, loyihalar tuzilishi va shu kabilar.

b) moddiy va yoqilg‘i energetika resurslaridan foydalanish bilan bog‘ liq bo‘ lgan imkoniyatlar:

- xom ashyo va materiallarni sarf me’yorlarini to‘g‘ri belgilash va ularga amal qilish;

- zamonaviy texnika va chiqindisiz texnologiyalarni joriy qilish;

- ishlab chiqarishdagi braklar hajmini kamaytirish;

- yoqilgi va elektr energiya resurslaridan foydalanishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish.

s) mehnat resurslaridan samarali foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan imkoniyatlar:

- mehnat sharoitlarini yaxshilash;

- xodimlar bilan ta’minlanish holati va harakatini to‘ g‘ ri boshqarish;

- ish o‘rinlariga xizmat ko‘rsatish holatini yaxshilash;

- ish o‘rinlarini tashkil etishni takomilashtirish;

- mehnatning taqsimlanishini ilmiy asosda tashkil etish;

- mehnatni me’yorlashtirishni takomillashtirish.

d) mahsulot tannarxini pasaytirish va foydani ko‘paytirish bo‘yicha imkoniyatlar:

- ishlab chiqarishning texnik-texnologik darajasidan to‘g‘ri foydalanish;.

- ishlab chiqarish va mehnatni to‘g‘ri tashkil etish;

- mahsulotlar diversifikatsiyasi hamda hajmini oshirish;

- mahsulotlarning tarkibi hamda sifatini yaxshilab borish;

- tabiiy resurslardan foydalanishni yaxshilash;.

- ishlab chiqarishning rivojlanishi va shu kabilar.

Korxonadagi imkoniyatlar faoliyatni intensiv rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ishlab chiqarish imkoniyatlari faoliyatdagi texnologiyalarni takomillashtirish, ishlab chiqarishni tashkil etish hamda uning tashkiliy texnikaviy darajasini yaxshilash, mehnatni tashkil etish, boshqaruvni takomillashtirish kabilar orqali ham belgilanadi.

Korxonada har bir imkoniyatdan maqsadga muvofiq foydalanish yo‘llari ishlab chiqilishi zarur. Imkoniyatlarni aniqlash mexanizmi korxonaning aniq shart-sharoiti va oldiga qo‘ygan vazifalariga tayanadi. Iqtisodchi olim T.Sh.Shog‘iyosov tomonidan uning umumiy tuzilishi quyidagicha ko‘rsatilgan[13]:

- ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdagi bosh bo‘g‘in aniqlanadi. Ularga sarf-harajatlarni kiritish mumkin, chunki, mahsulot tannarxida ularning ulushi yuqori. Sarf-xarajatlarni qisqartirish tufayli katta iiqtisodiy samaraga erishiladi;
- ishlab chiqarishdagi “tor tomonlar” aniqlanadi, ular ishlab chiqarishning o‘sish sur’atlari, tannarxini pasaytirishga imkon bermaydi;
- ishlab chiqarish tipi hisobga olinadi. Masalan, keng ko‘lamli ishlab chiqarishda rezervlarni belgilangan ketma-ketlikda aniqlash tavsiya etiladi: mahsulot, uzel, detal, operatsiya jarayoni; yakka tartibdagi ishlab chiqarishda ishlab chiqarish siklining ayrim operatsiyalari bo‘yicha aniqlanadi;
- rezervlar mahsulotning hayot siklini barcha bosqichlari yoki obyektlari (loyihalashtirish, ishlab chiqarish, sotish) bo‘yicha aniqlanadi;
- moddiy resurslardan iqtisod, ya’ni, mavjud mehnat, uskunalardan foydalanishda iqtisodga erishgan taqdirdagina rezerv komplekt deb hisoblanadi.

Ichki xo‘jalik rezervlari deb, korxona faoliyati natijalarini o‘rganish orqali aniqlangan imkoniyatlar va ulardan foydalanishga aytiladi. Bunday rezervlarga ish vaqtidan to‘liq foydalanmaslik sabablari va unumsiz harajatlarni bartaraf etish tufayli erishiladi. Ular qatoriga ishni tashkil etish va ishlab chiqarish texnologiyalarining past darajada bo‘lishi, xo‘jasizlik va hokazolar tufayli ish vaqtini yo‘qotilishi, moddiy resurslardan ortiqcha sarflarga yo‘l qo‘yilishlari kiradi.

7.4. Intensivlashtirish va ishlab chiqarishning samaradorligini kompleks baholash metodlari

Iqtisodiy rivojlantirishning muhim yo‘nalishlari sifatida intensiv va ekstensiv yo‘nalishlar tarkiblanadi. Intensiv rivojlantirish va ekstensiv rivojlanish yo‘ nalishlari bir - biridan bevosita miqdoriy ko‘ rsatkichlarga farqlanishi bilan tavsiflanadi.

Ekstensiv asosda rivojlanish mahsulot hajmining oshishi unga ta’sir etuvchi omillarning (mehnat vositalari, mehnat predmetlari, yer, ish kuchi sarfi va shu kabilar) o‘zgarishi bilan mutonosib holda sodir bo‘ladi. Misol uchun, hosilning ko‘payishi yer maydonining kengayishi, non mahsuloti un sarfi o‘zgarishi va shu kabilar bilan amalga oshiriladi.

Intensiv rivojlanishda esa natijaning (mahsulot hajmi) ijobiy o‘zgarishi resurs sarfi oshishi bilan shartlanmaydi. Misol uchun, hosil miqdori hosildorlikni oshirish hisobiga ko‘paytiriladi. Yer maydonining kengayishi yoki o‘z holatida qolishi bu jarayonda e’tiborga olinmaydi. Intesiv rivojlanish fan-texnika yutuqlari hamda innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish asosida amalga oshiriladi. Serhosil urug‘ navining ekilishi hosildorlikni keskin oshiradi. Texnikalardan unumli foydalanish texnologik tadbirlarni o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlaydi.

---

[13] Shog‘yosov T.Sh. Kompleks iqtisodiy tahlil. Darslik. -T.: Fan va texnologiya, 2012.

Iqtisodiy tahlilda natijaviy koʻrsatkich oʻzgarishini baholashda intensiv yoki ekstensiv rivojlanishga baho berish zarur. Misol uchun, ishchiga toʻgʻri keladigan mahsulot hajmini oshishi ishchilar sonini ortishi yoki bir ishchining mehnat unumdorligini oʻzgarishi bilan sodir boʻlganligini bilish hamda uning dinamikasini kuzatish kerak. Bu bilan nisbiy iqtisodlar aniqlanadi.

Ishlab chiqarishning ichki imkoniyatlari resurslarning har bir turi, ulardan foydalanish oʻrni, joyi boʻyicha oʻrganilgan holda tarkibli va umumiy oʻrganilgan holda korxona boʻyicha kompleks baholanadi hamda ularni boshqarishning chora-tadbirlari belgilanadi.

Qisqa xulosa

Ushbu mavzuni oʻrganish natijasida talabalar xoʻjalik subyektlarida kompleks iqtisodiy tahlilni tashkil etish maqsadi, prinsiplari, komkleks tahlilni ifodalovchi koʻrsatkichlarni, ishlab chiqarish samaradorligini kompleks baholash metodlarini bilishlari kerak.

Talaba bilimini nazorat qilish hamda mustahkamlashga oid savol va topshiriqlar

1. Kompleks iqtisodiy tahlilning maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
2. Tizimli tahlil va kompleks tahlil qanday farqlanadi?
3. Imkoniyatlar deganda nima tushuniladi va uning tarkibi necha qismdan iborat?
4. Ichki imkoniyatlar qanday tarkib boʻ yicha guruhlanadi?
5. Intensiv va ekstensiv rivojlantirish rivojlanish yoʻnalishlari bir - biridan qanday farqlanadi?

1- topshiriq.

Kompleks iqtisodiy tahlilni tashkil qilish jarayoniga baho bering.

Kompleks iqtisodiy tahlilning mazmuni va uning oldiga qoʻyilgan vazifalar	Kompleks iqtisodiy tahlil metodikasining bosqichlari nimalardan iborat?	Kompleks iqtisodiy tahlil metodikasi bosqichlariga sharh bering

2- topshiriq.

1.Quyida berilgan maʼlumotlarga asosan tovar mahsuloti hajmini koʻpaytirish boʻyicha yig ma (komplekt) rezerv summasini aniqlang.

Rezervlarni turlari	Summasi (ming soʻ m)
1.Ishchilarni kun boʻ yi boʻsh turib qolishini bartaraf qilish	250
2. Qimmatbaho rangli metallarni plastmassalar bilan almashtirish	400
3. Asbob-uskunalarning smenali ishlash koeffitsientini oshirish	440
4. Asosiy materiallardan tushadigan chiqitlarni kamaytirish	100
5. Asbob-uskunalarni boʻsh turib qolishini kamaytirish	120
6. Ishchilarni smenalar ichidagi boʻsh turib qolishini bartaraf qilish	90
Yigʻma rezerv	?

VIII BOB. MOLIYA-XO‘JALIK FAOLIYATINING ASOSIY KO‘RSATKICHLARINI TAHLIL QILISH USLUBI

8.1. Mahsulotni ishlab chiqarish va uni sotishni tahlil qilish

Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, fan-texnika taraqqiyotini yana ham jadallashtirish, ishlab chiqarishni salohiyatidan oqilona foydalanish, resurslarning hamma turlarini har tomonlama tejash va ishlab chiqarishni boshqarishni bozor iqtisodiyoti qonunlariga mos ravishda olib borish mamlakatimiz iqtisodiy strategiyasining eng muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Bu muhim vazifalarni amalga oshirish uchun korxonalarning ishlab chiqarish va xo‘jalik faoliyatini chuqur tahlil qilish darkor.

Jamiyat ehtiyojini yanada to‘laroq qondirish uchun zarur bo‘lgan moddiy ne’matlarni ishlab chiqarish asosan sanoat korxonalari zimmasiga tushadi.

Sanoat mahsuloti ishlab chiqarishning og‘ishmay o‘sishi milliy daromad hajmini oshiradi, ishlab chiqarishning o‘sish sur’atlari yuksalishi uchun qo‘shimcha manbalarni yaratadi, mehnatkashlarning moddiy farovonlik darajasini yana ham oshiradi.

Iqtisodiyotning barqaror o‘sishi aholining real daromadlari o‘sishiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Bozor iqtisodiyoti korxona faoliyatining eng zamonaviy xo‘jalik mexanizmini vujudga keltirish vazifasini o‘rtaga qo‘ydi. Bunday mexanizm korxonani rivojlantirish uchun ta’sirchan ichki omillarni ta’minlashi kerak. Iste’molchi uchun ishlash, resurslarni butun choralar bilan tejash, fan va texnika yutuqlarini keng qo‘llashga undashi zarur.



Iqtisodchi olim A.X.Shoalimov tomonidan mahsulotni ishlab chiqarish va sotishda tahlilning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar ko‘rsatilgan[14]:

- mahsulotni ishlab chiqarish va uni sotish bo‘yicha biznes-rejaning asosliligi va to‘g‘riligini aniqlash;
- korxonalarning mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha o‘sish sur’ati, tarkibi, xilma-xilligi, sifati va bir tekisda ishlab chiqarishga baho berish;
- o‘tgan yilga nisbatan mahsulot hajmining o‘sishi va uning sabablarini aniqlash;
- tuzilgan shartnoma majburiyati asosida mahsulot yetkazib berish bo‘yicha sotish rejasining bajarilishiga baho berish;
- mahsulot ishlab chiqarish va uni sotishni tez amalga oshirish bo‘yicha rezervlarni aniqlash .

[14] Shoalimov A.X. va boshqalar Iqtisodiy tahlil nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Lesson press, 2016. -35 б.

Korxonalarning mahsulot ishlab chiqarish va sotishini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkichlar quyidagilardir:

- korxonaning yalpi mahsuloti – tovar mahsuloti qo‘shuv tugallanmagan ishlab chiqarish qoldig‘i hamda korxonaning o‘zida tayyorlangan yarim-fabrikatlar va asboblardan iboratdir;

- tovar mahsuloti deganda, barcha ishlab chiqarish bosqichlarini o‘tgan, to‘la butlangan, texnika nazorati bo‘limidan ham o‘tgan va omborga topshirilgan mahsulot tushuniladi;

- sotilgan mahsulot deganda, tovarlar iste’molchilarga jo‘natilib, uning haqi mol yuboruvchilarning bankdagi hisob-kitob raqamiga o‘tkazilishi tushuniladi.

Sotish hajmining o‘sish sur’atiga ko‘pgina omillar ta’sir etadi. Bularga mahsulot sifati, uni bir maromda ishlab chiqarish, mahsulotni o‘z vaqtida iste’molchilarga jo‘natish, uning haqini to‘lash, sotilmagan mahsulotlarning yil boshiga va yil oxiriga bo‘lgan qoldig‘i kabilar kiradi.

Ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotlarning bir-biriga bog‘liqligini tekshirish uchun tovar balansini tuzish kerak. Uni quyidagi formula orqali ifoda qilish mumkin:

$$T_1 + M = R + T_2$$

Bu yerda:

T_1 - sotilmagan mahsulotlarning yil boshiga qoldig‘i;

M - joriy yilda ishlab chiqarilgan tovar mahsuloti hajmi;

R - joriy yilda sotilgan mahsulot hajmi;

T_2 - sotilmagan mahsulotlarning yil oxiriga bo‘lgan qoldig‘i.

Tahlil uchun quyidagi jadvalni tuzamiz (8.1-jadval).

8.1-jadval

Sotilgan mahsulot hajmi tahlili

Ko‘rsatkichlar	**Biznes-reja bo‘yicha**	**Hàqiqatda**	**Farqi (+,-)**	**Sotish hajmiga ta’siri (+,-)**
1. Sotilmagan mahsulotlarning yil boshiga bo‘lgan qoldig‘i	62470	62520	+50	+50
2. Tovar mahsuloti	942600	997970	+55370	+55370
3. Sotilmagan mahsulotlarning yil oxiriga bo‘lgan qoldig‘i	62470	78030	+15560	-15560
4. Sotilgan mahsulot hajmi (1 q+ 2 q - 3 q)	942600	982460	+39860	+39860

Tovar balansining unsurlari bir-biri bilan uzviy ravishda bog‘liq. Agar rejaga nisbatan yil boshiga bo‘lgan qoldiq ko‘p bo‘lsa, u holda sotish hajmi oshadi. Demak, sotish hajmining o‘zgarishiga tovar mahsulotini ishlab chiqarish va sotilmagan mahsulotlarning o‘zgarishi ta’sir qilar ekan. Endi yuqorida berilgan tenglikdan sotish jarayonini quyidagicha ifoda etish mumkin:

$$R = T_1 + M - T_2$$

Mahsulot ishlab chiqarishni ifodalovchi ko‘rsatkichlar – sof mahsulot, me’yoriy sof mahsulotlarni tahlil qilish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Sof mahsulot tovar mahsulot bilan uni ishlab chiqarishga qilingan moddiy sarflar va asosiy ishlab chiqarish fondlarining amortizatsiyasi summasi o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Me’yoriy sof mahsulot ishlab chiqarishdagi ishchilarning asosiy va qo‘shimcha ish haqini, ijtimoiy sug‘urta uchun ajratmalar va me’yoriy foydani jamlash orqali aniqlanadi. Shartli sof mahsulot bu sof mahsulot qo‘shuv asosiy fondlarning amortizasiyasidir.

Korxonalarning xo‘jalik faoliyatiga baho beruvchi muhim mezon – sotish rejasining shartnoma majburiyatini hisobga olgan holda bajarilishi bo‘lib qoldi. Mazkur ko‘rsatkich bo‘yicha rejaning bajarilish darajasi 100 foizdan oshmaydi, eng maqbuli 100 foizdir.

Tuzilgan shartnoma majburiyatiga asosan iste’molchilarni zarur tovarlar xilma-xilligi bilan ta’minlash sifat ko‘rsatkichi hisoblanadi. Korxonalar mahsulot ishlab chiqarish rejasini nafaqat qiymat ifodasida, balki belgilangan assortimenti bo‘ yicha bajarilishlari zarur. Korxona faoliyatiga to‘g‘ri baho berishda mahsulotning xilma-xilligi bo‘yicha biznes-rejaning bajarilishini aniqlashda eng kam son miqdorini hisobga olish usuli qo‘llaniladi.

Mahsulot sifati deganda, uning barcha mo‘ljallangan maqsadda foydalanishga yaroqli xususiyatlari majmuasi tushuniladi. Iqtisodiyot tarmoqlarida mahsulot sifatini baholashda turli ko‘rsatkichlar qo‘llaniladi.

Mahsulot sifatini tahlil qilishda foydalaniladigan asosiy ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda sifatsiz mahsulot uchun iste’molchilarga to‘lanadigan jarimalar, mahsulotni kafolatli ta’mirlovchi ustaxonalarga sarflanadigan xarajatlar kabi ko‘ rsatkichlar ham qo‘llaniladi. Shunday qilib, mahsulot sifatini tahlil qilish usullari tahlil qilinayotgan korxonaning qaysi tarmoqqa mansub ekanligiga bog‘liq ekan.

Mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish bo‘yicha dasturning bajarilishini tahlil qilish jarayonida mahsulotni bir maromda ishlab chiqarishni tashkil qilish katta ahamiyatga ega. Mahsulotni bir maromda ishlab chiqarish deganda, uni tuzilgan jadval asosida, mahsulotning oldindan aniqlangan xilma-xilligi va sifatiga muvofiq yetkazib berish va sotishni o‘z vaqtida ta’minlash tushuniladi. Bir maromda mahsulot ishlab chiqarishning umumlashgan ko‘rsatkichi bir me’yorda ishlash koeffitsienti hisoblanadi, u jadval bo‘yicha mahsulot ishlab chiqarish rejasi bajarilgan kunlarni umumiy ish kuniga bo‘lish bilan aniqlanadi, odatda oy hisobida.

Tovar mahsuloti ishlab chiqarish bo‘ yicha biznes-rejaning bajarilishi ko‘ pgina omillarga bog‘liq. Tovar mahsuloti ishlab chiqarish bo‘yicha biznes-rejaning bajarilishiga ta’sir qiluvchi omillar iqtisodiy belgilariga ko‘ra 3 guruhga bo‘linadi:

1.Mehnat omillari. Bu omillar tarkibida korxonalarni mehnat resurslari bilan ta’minlash va ulardan samarali foydalanish, mehnat unumdorligi kabi masalalar o‘rganiladi.

2.Mehnat vositalari omillari. Bu omillar tarkibiga korxonalarning asosiy fondlar bilan ta’minlanishi va ulardan foydalanish samaradorligi tahlili masalalari kiradi.

3.Mehnat buyumlari omillari. Bu omillar takibida korxonalarning xom ashyo va materiallar bilan qay darajada ta’minlanganligi va moddiy resurslardan foydalanish samarasi tahlili kabi masalalar o‘rganiladi.

8.2. Korxonalarning mehnat resurslari bilan ta’minlanishi va ulardan samarali foydalanishni tahlil qilish

Korxonalarning ish kuchi bilan bilan ta’minlanishini tahlil qilishda ishlovchi barcha xodimlarning tarkibi aniqlanadi. Korxonaning ishchi kuchi bilan qay darajada ta’minlanganligi. Ular ikki turkumga bo‘linadi: asosiy faoliyatda ishlovchi va asosiy bo‘lmagan faoliyatda xizmat qiluvchi xodimlar. O‘z navbatida, asosiy faoliyatda xizmat qiluvchi xodimlar quyidagi toifalarga bo‘linadi: ishchilar, xizmatchilar, shu jumladan, rahbarlar, mutaxassislar va boshqa xizmatchilar. Ushbu qayd etilgan xodimlar mahsulot ishlab chiqarishda birday qatnashmaydilar. Agar rahbarlar, mutaxassislar va xizmatchilar soni bo‘yicha faqat mutlaq farq aniqlansa, ishchilar soni bo‘yicha mahsulot ishlab chiqarish o‘sish sur’atini hisobga olgan holda nisbiy farq ham aniqlanadi. Nisbiy kamlik esa mehnat unumdorligi o‘sganligidan dalolat beradi. Nisbiy kamlik mehnat unumdorligi o‘sganligidan dalolat beradi. Ishchilar soni bo‘yicha nisbiy farqni aniqlash uchun quyidagi 8.2-jadvalni tuzamiz.

8.2-jadval

Ishchilar soni bo‘ yicha nisbiy farqni aniqlash

Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yil	Hisobot yil	Nisbiy farqni aniqlash hisob-kitobi	Farq (+,-)	
				Mutlaq	Nisbiy
A	1	2	3	4 (2-1)	5 (2-3)
Ishchilar soni, kishi	24	37	24 x 145,83/100 = 35	+13	+2

Izoh. Mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum hajmi: O‘tgan yil – 11133677 ming so‘m; Hisobot yili – 16236271 ming so‘m. 16236271x 100/11133677 = 145,83 %.

8.2-jadvaldan ko‘rinishicha, mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum hajmining o‘sish sur’atini hisobga olmaganda ishchilar soni bo‘yicha mutlaq farq 13 kishini tashkil qiladi. Korxonada mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum rejasini bajarish uchun 37 ishchi emas, balki 35 ishchi faoliyat yuritishi kerak edi. Mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum hajmining o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’atini (145,83 foiz) inobatga olganda esa, nisbiy ortiqchalik 2 kishini tashkil etdi. Bu esa korxonada mehnat unumdorligi darajasi pasayganligini ko‘rsatadi.



Mehnat unumdorligi vaqt birligi (soat, smena, oy, kvartal, yil) ichida ishchilar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori yoki bir mahsulot birligini ishlab chiqarishga sarf qilingan vaqt birligi bilan o‘lchanadi.

Mehnat unumdorligini hisoblashda, quyidagi uch ko‘rsatkichdan foydalanish mumkin:

1. Natural ko‘rsatkichlar.
2. Shartli-natural ko rsatkichlar.
3. Pul (qiymat) ko‘rsatkichlari.

Mehnat unumdorligi moddiy ishlab chiqarishda vaqt birligi davomida hosil qilingan mahsulot miqdori bilan o‘lchanadi. Bunda individual korxona va iqtisodiyot ko‘lamidagi mehnat unumdorligi farqlanadi.

Ijtimoiy mehnat unumdorligi moddiy ishlab chiqarishda band bo‘lgan har bir ishlovchi hisobiga hosil qilingan milliy daromad miqdori bilan o‘lchanadi. Korxonalarda mehnat unumdorligi darajasi tovar mahsulotining hajmini ishlovchilarning soniga nisbati bilan aniqlanadi. Tahlil jarayonini chuqurlashtirish uchun bir ishchiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha yillik, kunlik va soatlik ish unumdorligi ham hisoblanadi. Ushbu ko‘rsatkichlar tovar mahsuloti hajmini mutanosib tarzda ishchilarning ro‘yxatdagi soniga, hamma ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan kishi-kunlariga va kishi-soatlariga nisbati tariqasida aniqlanadi.

Mehnat unumdorligi darajasini ifodalovchi umumlashgan ko‘rsatkich bo‘lib bir xodimga to‘g‘ri keluvchi o‘rtacha yillik ish unumi hisoblanadi. Tahlil uchun quyidagi jadvalni keltiramiz (8.3-jadval).

8.3-jadval

Mehnat unumdorligi ko‘rsatkichining tahlili

Ko‘rsatkichlar	**O‘tgan yil**	**Hisobot yil**	**Farqi (+,-)**	**O‘sish sur’-ati, %**
1. Mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum , ming so‘m	11133677	16236271	+5102594	145,83
2. Xodimlarning ro‘yxat bo‘yicha soni, kishi	35	65	+30	185,71
3.Ishchilarning ro‘yxat bo‘yicha soni, kishi	24	37	+13	154,17
4. Bir xodimga to‘g‘ri keluvchi o‘rtacha yillik ish unumi, ming so‘m (1/2)	318105,06	249788,79	-68316,27	78,52
5. Bir ishchiga to‘g‘ri keluvchi o‘rtacha yillik ish unumi, so‘m (1/3)	463903,21	438818,13	-25085,08	94,59

8.3-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki**,** korxonada bir xodimga to‘g‘ri keluvchi o‘rtacha yillik ish unumi 318105,06 ming so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, yil oxirida 249788,79 ming so‘mdan iborat bo‘lgan holda 68316,27 ming so‘mga kamaydi. Uning o‘sish sur’ati esa 78,52 foizdan iborat bo‘ldi. Bir ishchiga to‘g‘ri keluvchi o‘rtacha yillik ish unumi ham yil oxirida yil boshiga nisbatan 25085,08 ming so‘mga kamaygan holda, uning o‘sish sur’ati 94,59 foizni tashkil qildi. Demak, korxonada tahlil yillarida mehnat unumdorligi darajasi pasaydi. Korxonada mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum hajmi asosan xodimlar sonini oshishi hisobiga bo‘lgan. Bu asosan mehnat unumdorligi darajasining oshishi hisobiga bo‘lsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Endi mahsulot sotishdan olingan sof tushum hajmiga ta’sir qiluvchi mehnat unumdorligi darajasini ifodalovchi umumlashgan ko‘rsatkich

(bir xodimga to‘g‘ri keluvchi o‘rtacha yillik ish unumi) tahlilini mutloq farq usuli orqali ko‘rib chiqamiz (8.4-jadval).

8.4-jadval

Bir xodimga mehnat unumdorligi ko‘ rsatkichini tahlili

Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yil	Hisobot yil	Farqi (+,-)	O‘sish sur’-ati, %
1. Mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum , ming sum	11133677	16236271	+5102594	145,83
2. Xodimlarning ro‘yxat bo‘yicha soni, kishi	35	65	+30	185,71
3. Bir xodimga to‘g‘ri keluvchi o‘rtacha yillik ish unumi, ming so‘ m (1/2)	318105,06	249788,79	-68316,27	78,52

8.4-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, korxonada mahsulot sotishdan olingan sof tushum hajmi 5102594 ming so‘mga oshgan. Bu o‘zgarishga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatdi:

1. Xodimlarining o‘rtacha ro‘yxatdagi sonining o‘zgarishi: +30 x 318105,06=+9543152 m.s.

2. Bir xodimga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha yillik ish unumining o‘zgarishi: -68316,27x 65= -4440557 m.s.

Omillar balansi: 9543151,8 + (-4440557,55)= +5102594 m.s.

Xulosa qilib aytish mumkinki, korxonada xodimlar sonining oshishi natijasida 9543152 ming so‘mga ko‘p mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum olingan. Bir xodimga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha yillik ish unumini pasayishi esa mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum hajmini 4440557 ming so‘mga kamayishiga sabab bo‘lgan. Tahlil obyektida mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum hajmini oshirish bo‘yicha ichki xo‘jalik rezervi summasi 4440557 ming so‘mdan iborat. Demak, tahlil natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, korxona boshqaruv ma’muriyati mehnat unumdorligi darajasini oshirish bo‘yicha kerakli tadbirlarni amalga oshirishi lozim bo‘ladi.

Korxonada mehnat unumdorligini oshirish rezervlarining asosiy manbalari b o‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- mahsulot hajmini oshirish, imkoniyatlarni ishga solish;
- mahsulot ishlab chiqarish uchun mehnat sarflarini mexanizatsiyalash, avtomatlashtirish, mehnatni tashkil etishni takomillashtirish, mehnatni intensivlash darajasini oshirish.

8.3. Asosiy fondlarning tarkibi, holati va ulardan samarali foydalanishni tahlili

Mahsulot hajmining ko‘pashiga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillardan biri korxonalarni asosiy fondlar bilan yetarli darajada ta’minlanishidir. Sanoat mahsulotini va mehnat unumdorligini beto‘xtov o‘sishiga ilmiy-texnika taraqqiyotini jadallashtirish, harakatdagi asbob-uskunalar va dastgohlarni zamonaviylashtirish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini kiritish va ishlab chiqarish jarayonlarini to‘la mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish orqali erishiladi.



Korxonalar asosiy fondlarining mahsulot ishlab chiqarish jarayonida bajaradigan roli bir xil emas. Ular 2 qismga bo‘linadi: aktiv (faol) asosiy fondlar; passiv (nofaol) asosiy fondlar. Korxonalarning asosiy fondlari bilan ta’minlanganligini tahlil qilishda, ularning aktiv va passiv qismining salmog‘i, o‘tgan yillarga nisbatan mutlaq farq hamda o‘sish sur’ati aniqlanadi.

Asosiy fondlarning texnik holati qoniqarsiz darajada bo‘lsa, bu o‘z navbatida asbob-uskunalaring bekor turib qolishiga, ayrim vaqtlarda esa halokatga olib kelishi ehtimoldan xoli emas. Shu bois, ular texnik jihatdan yaxshi sozlangan holatda bo‘lishi lozim. Asosiy fondlarni texnik jihatdan qoniqarli darajada ishlab turishi joriy va kapital ta’mirlash orqali amalga oshiriladi.

Asosiy fondlarning texnik holatini belgilovchi umumiy ko‘rsatkichlardan biri ularning eskirish koeffitsientidir. Buni aniqlash uchun asosiy fondlarning eskirish summasi ularning boshlang‘ich qiymatiga bo‘linadi. Asosiy fondlardan uzluksiz ravishda foydalanish natijasida ularning eskirish darajasi oshib boradi. Shuning uchun ularni yangilash zarur. Asosiy fondlarni yangilash koeffitsientini aniqlash uchun yangi kelgan asosiy fondlar summasini asosiy fondlarning yil oxiriga bo‘lgan qiymatiga bo‘lish kerak.

Asosiy fondlarning chiqib ketish koeffitsientini hisoblash uchun esa chiqib ketgan asosiy fondlar summasini ularning yil oxiriga bo‘lgan qiymatiga bo‘lish kerak. Asosiy fondlarning ishga yaroqlilik koeffitsientini aniqlash mumkin. Uni aniqlash uchun birdan eskirish koeffitsientini ayirish kerak, ya’ni 1 - Ek. Asosiy fondlarning eskirish koeffitsienti bilan ishga yaroqlilik koeffisenti o‘rtasida o‘zaro bog‘lanish mavjud. Bu bog‘lanishni yaqqol ko‘rish uchun quyidagi 8.5-jadvalni havola qilamiz.

8.5-jadval

Asosiy fondlarning eskirish va yaroqlilik darajasini tahlil qilish

№	Ko‘rsatkichlar	Yil boshiga	Yil oxiriga	O‘zgarishi (+,-)
1	Asosiy fondlarning boshlang‘ich qiymati	39248	40775	+1527
2	Asosiy fondlarning eskirish summasi	9317	11008	+1691
3	Asosiy fondlarning qoldiq qiymati(1-q- 2-qt)	29931	29767	-164
4	Asosiy fondlarning eskirish koeffitsienti (2-q: 1- q x100)	23,7	27,0	+3,3
5	Asosiy fondlarning yaroqlilik koeffitsienti (3-q : 1- x100)	76,3	73,0	-3,3

8.5-jadvaldan berilgan raqamlardan ko‘rinishicha, asosiy fondlarning qariyb chorak qismi amortizasiyalashtirilgan, ya’ni asosiy fondlarning eskirgan qismining qiymati amortizasiya ajratmasi sifatida tarkib topgan. Asosiy fondlarning yaroqlilik koeffitsienti yetarli darajada. Binobarin, bu o‘z navbatida korxonaga mahsulot ishlab chiqarish rejasini muvaffaqiyatli bajarish uchun imkoniyat yaratadi. Va nihoyat, asosiy fondlarning texnik darajasini ifodalovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri asbob-

uskunalarning xizmat qilish yoshi (davri) hisoblanadi. Bu koʻrsatkichni aniqlash asbob-uskunalar va dastgohlarning ishlash qobiliyati, ularni almashtirish hamda pirovard natijada fond samarasini oshirishga imkoniyat yaratadi. Tahlil qilish uchun harakatdagi asbob-uskunalar ma'lum turlari boʻyicha turkumlanilib, soʻngra ularning haqiqatda xizmat qilgan davri normativ boʻyicha xizmat qilish muddati bilan taqqoslanadi. Odatda, asbob-uskunalar 10 yilgacha boʻlgan davrda almashtirilsa texnika taraqqiyoti talablariga javob bera oladi deb hisoblaniladi.

Mahsulot ishlab chiqarish dasturini muvaffaqiyatli bajarish, nafaqat asosiy fondlarning tarkibi, texnik holati, balki ulardan samarali foydalanishga koʻp jihatdan bogʻliq. Asosiy fondlardan foydalanishning umumlashtiruvchi koʻrsatkichi fonddan olinadigan samara hisoblanadi. U asosiy fondlarning bir soʻmi hisobiga qancha mahsulot chiqarilganligin koʻrsatadi. Masalan, korxonaning bir yilda ishlab chiqargan mahsulot hajmi 100 ming soʻmni tashkil etsin, asosiy fondlarning oʻrtacha yillik qiymati 50 ming soʻm, deylik. Demak, fonddan olinadigan samara 2 soʻmga teng. Fond samarasi quyidagi formula orqali ifodalanadi:

$$FS = TM\ (ST) : AF\ ;$$

bunda:

FS - fonddan olinadigan samara;

TM (ST) –tovar mahsuloti (sof tushum) hajmi;

AF - asosiy fondlarning qiymati.

Fond samarasi koʻrsatkichining aksi fond sigʻimi deb ataladi. Ushbu koʻrsatkich asosiy fondlar qiymatini tovar mhsuloti yoki sof tushum hajmiga nisbati tariqasida aniqlanadi.

Mahsulot hajmi yoki fond samarasining oʻzgarishiga turli omillar ta'sir koʻrsatadi. Masalan, umumiy fond samarasining oʻzgarishiga 2 omil ta'sir etadi: mashina va asbob-uskunalarning jami asosiy fondlar tarkibida tutgan salmogʻining oʻzgarishi va mashina va asbob-uskunalardan olinadigan samarasining oʻ zgarishi va h.k. Tahlil uchun quyidagi jadvalni havola qilamiz (8.6-jadval).

8.6-jadval

Asosiy fondlardan foydalanishning samaradorlik darajasini tahlil qilish

Koʻrsatkichlar	Haqiqatda oʻtgan yili	Haqiqatda hisobot yili	Oʻtgan yilga nisbatan farq (+,-)
1	2	3	4
1.Tovar mahsulotlarining oʻzgarmas korxona ulgurji bahosi. ming soʻ m	898370	1000910	+102540
2. Sanoat ishlab chiqarish asosiy fondlarining oʻrtacha yillik qiymati, ming soʻm	355970	379830	+23860
3. Jumladan mashina va asbob-uskunalar	179290	184640	+5350
4. Mashina va asbob-uskunalarning jami asosiy fondlar tarkibida tutgan salmogʻi (3qator : 2 qator) 0,01 aniqlikda (koef.)	0,504	0,486	-0,018
5. Ming soʻmlik sanoat ishlab chiqarish asosiy fondlaridan olinadigan samara (1 qator : 2 qator), soʻm	2523,7	2635,2	+111,5

8.6-jadvalni davomi

6. Ming so‘mli mashina va asbob-uskunalardan olinadigan samara (1q : 3q). so‘m	5010,7	5420,9	+410,2
7. Ming so‘mlik sanoat ishlab chiqarish asosiy fondlaridan olinadigan samaraning o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi omillar:			
a) mashina va asbob-uskunalarning jami asosiy fondlar tarkibida tutgan salmog‘ining o‘zgarishi, so‘m	-	-	-90
b) ming so‘mlik mashina va asbob-uskunalardan olinadigan samaraning o‘zgarishi, so‘m	-	-	+200

8.5-jadvaldan ko‘ rinishicha, hisobot davrida jami sanoat ishlab chiqarish asosiy fondlaridan foydalanish yaxshilandi, ya’ni joriy yili fonddan olinadigan samara o‘tgan yilga nisbatan 111 so‘m 50 tiyinga oshdi. Bunga mashina va asbob-uskunalarning jami asosiy fondlar tarkibida tutgan salmog‘ining 0,018 bandga kamayishi natijasida fonddan olinadigan samara 90 so‘mga kam bo‘ldi, ya’ni (-0,018 x 5010,7) mashina va asbob-uskunalardan olinadigan samaraning 410 so‘m 20 tiyinga ortishi jami asosiy fondlardan olinadigan samarani 200 so‘mga oshishiga olib keldi, ya’ni (410,2 x 0,486). Shunday qilib, bu ikki omilning yig‘indisi (-90) + (+200) =110 so‘mni tashkil etdi. Bu summa taxminan jami asosiy fondlardan olingan samaradagi farqga, ya’ni 111 so‘m 50 tiyinga to‘g‘ri keladi. Hisobot davrida tovar mahsuloti hajmi o‘tgan yilga nisbatan 101540 ming so‘mga oshdi.

Bunga ikki omil ta’sir ko‘rsatdi:

1. Sanoat ishlab chiqarish asosiy fondlarining o‘rtacha yillik qiymatining o‘zgarishi (ekstensiv omil).

2. Asosiy fondlardan olinadigan samaraning o‘zgarishi (intensiv omil).

Birinchi omilning ta’sirini hisoblash uchun sanoat ishlab chiqarish asosiy fondlarining o‘rtacha yillik qiymatida bo‘lgan farqni ularning o‘tgan yildagi samaradorlik darajasiga ko‘paytiriladi. Bizning misolimizda asosiy fondlarning qiymati o‘tgan yilga nisbatan 23860 ming so‘mga oshgan, ularning o‘tgan yildagi samaradorlik darajasi esa 2523,7 so‘mni tashkil etdi. Demak, tovar mahsuloti hajmini ko‘paytirishning 60215 ming so‘mi (+23860 x 2523,7) yoki 58,7 foizi $\frac{(60215x100}{102540}$ ekstensiv omil evaziga hosil bo‘ldi.

Ikkinchi omilning ta’sirini hisoblash uchun fonddan olingan samaradagi mutlaq farqni joriy yildagi asosiy fondlarning o‘rtacha yillik qiymatiga ko‘paytiriladi. Bizning misolimizda fonddan olingan samara o‘tgan yilga nisbatan 111 so‘m 50 tiyinga oshdi. Demak, mahsulot hajmini ko‘paytirishning 42351 ming so‘mi (111,5 x 379830) yoki 41,3 foizi $\frac{(42351 \mid \times 100)}{102540}$ intensiv omil hisobiga hosil qilingan. Shunday qilib, ikki omil ta’sirining o‘zgarishi, taxminan, tovar mahsuloti ishlab chiqarishdagi umumiy farqni beradi, ya’ni (60215 + 42351)=+102566 ming so‘m. Raqamlarni butunlash hisobiga 26 ming so‘mga farq hosil bo‘ldi (102566 – 102540 = 26 ming so‘m).

8.4. Sanoat korxonalarining moddiy resurslar bilan ta’minlanishi va ulardan samarali foydalanishni tahlil qilish

Mahsulot ishlab chiqarish hajmining o‘sishi, o‘z navbatida, mehnat buyumlarining ortishiga olib keladi. Agar iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida (yengil sanoat) moddiy xarajatlarning ishlab chiqarish xarajatlarida tutgan salmog‘i 80 foizni tashkil etishini nazarda tutsak, u holda material sarfini kamaytirishning qtisodiyotda naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini ko‘rish mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tejamkorlik tartibini kuchaytirish, hamma turdagi resurslarni oqilona va tejab-tergab sarflash, resurslarni tejaydigan va chiqitsiz texnologiyaga o‘tishni amalga oshirish, ishlab chiqarishning ikkilamchi resurslari va chiqitlaridan foydalanishni yaxshilash, ularni qayta ishlaydigan ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlantirish, ikkilamchi xom ashyoni to‘plashni, shu jumladan, aholidan to‘plashni tashkil qilish lozim.

Moddiy-texnika ta’minotini bozor iqtisodiyotiga mos ravishda qayta qurish moddiy resurslardan markazlashtirilgan tarzda foydalanish va iste’molchilarni mol yetkazib beruvchilarga biriktirib qo‘yishdan ishlab chiqarish vositalari bilan fondlar va naryadlarsiz, iste’molchilarning buyurtmasi bo‘yicha, shartnoma narxlaridan foydalangan holda, xaridor manfaatini ko‘zlab, ish yuzasidan sherik tanlash orqali erkin oldi-sotdi shaklidagi savdo qilishga o‘tish natijasida ishlab chiqaruvchining o‘z so‘zini o‘tkazishi va tanho huquqqa (monopoliya) ega bo‘lishni bartaraf etib, rivojlangan bozorning paydo bo‘lishiga olib keldi.

Korxonalarning moddiy-texnika ta’minoti holatini tahlil qilish cheklangan doirada olib boriladi, chunki yillik hisobotda ta’minot holati to‘g‘risida ma’lumotlar juda ham kam beriladi. Shu bois, ta’minot holatini chuqur va har tomonlama tahlil qilish uchun korxonaning ta’minot bo‘limi va omborxona ma’lumotlariga murojaat qilish lozim bo‘ladi. Ana shu ma’lumotlarga asoslangan holda materiallar guruhi bo‘yicha keltirilishi va biznes-rejaning bajarilishini aniqlash mumkin.

Korxonada ishlab chiqarish jarayonini bir maromda amalga oshirish ko‘p jihatdan korxonani moddiy resurslar bilan to‘liq ta’minlanishiga bog‘liqdir.

Korxonaning moddiy resurslarga bo‘lgan ehtiyoji ikki manba hisobiga, ya’ni, tashqi ta’minot va ichki ta’minot hisobiga qondiriladi.

Tashqi ta’minot deganda, korxonalar xom ashyo birjalari bilan tuzilgan shartnomasi asosida moddiy-texnika resurslarini chetdan yetkazib beruvchilardan kelib tushishi tushuniladi.

Ichki ta’minot deganda ta’minot rejasining bajarilishi, ichki resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, iqtisod rejasiga rioya qilish kabilar tushuniladi.

Korxonani xom ashyo va materiallar bilan ta’minlanganligi darajasi sotib olingan xom ashyolarning haqiqatdagi miqdorini rejadagi talabni taqqoslash orqali aniqlanadi. Shu bilan birga moddiy resurslarni olib kelish shartnomalarini bajarilyotganligini ta’minlash va haqiqatda bajarilayotganligini tekshirish lozim.

8.6-jadvalda korxonani moddiy resurslar bilan yetkazib berish shartnomalari va ichki ehtiyoj manbalari orqali ta’minlanganligini tahlil qilamiz (8.7-jadval).

8.7-jadval

Moddiy resurslarni yetkazib berish shartnomalari va ichki ehtiyoj manbalari bilan ta’minlanganligini tahlili

Mate-rial turi	Rejadagi ehtiyoj, m	Ehtiyojni qoplash manbalari		Shartnomada belgilan-gan, m	Shartnomaviy extiyoj-larni ta’minlash, %	Mol yetkazib beruvchilar-dan olingan, m	Shartnoma-larning bajarilishi. %
		ichki	tashqi				
A Va h.k.z	4700	50	4650	4420	95	4190	94,8

8.7-jadval ma’lumotlaridan ko‘ rinishicha, A materialiga bo‘lgan talab yetkazib berish shartnomalari va ichki ehtiyoj manbalari bo‘yicha to‘liq ta’minlanmagan.

Reja bo‘yicha qoplash ta’minlash koeffitsienti quyidagiga teng:

50+4420 : 4700=0,95

Haqiqatda esa , A materialini yetkazib berish rejasi 10 % ga bajarilmagan:

4190+50 : 4700 =0,90

Demak, A materiali bo‘yicha ehtiyoj faqat 90 % ga ta’minlangan (100-90).

Bundan tashqari, mol yuboruvchilardan olingan materiallarning sifati, ularni standartlarga javob berishi, texnika va shartnoma shartlari hamda mol yuboruvchilar tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatolarga bildirilgan e’tirozlar tekshiriladi. Asosiy e’tibor materiallarni o‘z vaqtida yetkazib berish rejasi bajarilishini o‘rganishga beriladi. Materiallarni o‘z vaqtida yetkazib bermaslik natijasida mahsulotni ishlab chiqarish va sotish rejasi bajarilmay qoladi.

Moddiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish darajasini ifodalovchi umumlashgan ko‘ rsatkich material qaytimi hisoblanadi. U moddiy xarajatlarning bir so‘mi hisobiga qancha mahsulot ishlab chiqarilganligini ko‘rsatadi. Masalan, korxonaning ishlab chiqargan mahsuloti hajmi 100 ming so‘mni tashkil etsin, moddiy xarajatlari esa 70 ming so‘m, deylik. Bunday holda material qaytimi 1,43 so‘mga teng bo‘ladi.

Material qaytimini quyidagi formula orqali ifodalash mumkin:

MS = TM(ST) : MX

bunda:

MS - materiallar samarasi;

TM (ST) - tovar mahsuloti (sof tushum) hajmi;

MX - moddiy xarajatlar.

Material samarasi ko‘rsatkichining aksi material sig‘imidir. U bir so‘m tovar mahsuloti ishlab chiqarish uchun necha tiyin moddiy xarajatlar to‘g‘ri kelishini ko‘rsatadi. Tahlil uchun quyidagi 8.8-jadvalni keltiramiz.

Tahlil qilinayotgan korxona moddiy xarajatlarni iqtisod qilish natijasida qo‘shimcha ravishda 67358 ming so‘mli mahsulot ishlab chiqarishga erishdi. Demak, korxona tovar mahsulotiga ketadigan material sarfini kamaytirish borasida barcha chora-tadbirlarni o‘tqazmoqda, deb xulosa chiqarishimiz mumkin.

Jadvaldan ko‘rinishicha, hisobot yili haqiqatda tovar mahsuloti hajmi biznes-rejaga nisbatan 55370 ming so‘ mga oshgan. Bunga ikki omil ta’sir ko‘rsatadi:

8.8-jadval

Mehnat buyumlaridan samarali foydalanishni tahlil qilish

№	Ko‘ rsatkichlar	Biznes-reja bo‘yicha	Haqi-qatda	Mutlaq farq (+,-)
1.	Moddiy xarajatlar, ming so m..	628430	620430	-8000
2.	Tovar mahsuloti ming so‘m.	942600	997970	+55370
3.	Bir so‘mlik moddiy xarajatlarga to‘g‘ri keluvchi mahsulot hajmi (material samarasi 2 qator: 1qator so‘m, tiyin	1,50	1,61	+0,11
4.	Tovar mahsulotiga ketgan material sarfi, tiyin (1 qator: 2 qator), yuzdan bir aniqlikda 0,01	0,6667	0,6217	-0,045
5.	Material sarfining o‘zgarishining ta’siri (+,-) a) tovar mahsulotining ishlab chiqarish tannarxi (moddiy xarajatlarda(qimmatlashishi +; pasayishi -) ming so‘m. (4 qator 5 us x 2 qator 4 us) b) tovar mahsulotining hajmi,ming so‘m (5 qator 5 us : 4 qator 3 us)	- -	- -	-44908 +67358

hisobi:5 a – 0,045 x 997970 =-44908 ming so‘m (+);

5 b – 44908 : 0,6667 = +67358 ming so‘m (-).

1. Moddiy xarajatlarning o‘zgarishi (ekstensiv omil): - 8000 x 1,50 =-12000 ming so‘m.

2. Material samarsini o‘zgarishi (intensiv omil) : +0,11 x 620430 =+68247 ming so‘m.

Hisoblangan ikki omilning yig‘indisi (-12000) + (+68247) =+56247 ming so‘m mahsulot hajmidagi mutlaq farqga (55370 m.s.) taxminan teng keladi. Bu yerda 877 ming so‘mga farq (56247 –55370) omillar miqdorini butunlash hisobiga ro‘y berdi.

Demak, mahsulot ishlab chiqarish hajmining qo‘shimcha o‘sishi faqat intensiv (jadal) omil hisobiga sodir bo‘ldi. Bu esa o‘z navbatida korxonaning iqtisodiy salohiyati oshganligidan dalolat beradi.

8.5. Mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha ichki xo‘jalik imkoniyatlarini aniqlash usuli

Iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish sharoitida har qanday xo‘jalik yurituvchi subyekt o‘z tasarrufidagi barcha resurslar – moliyaviy, moddiy va mehnat resurslari harakati hamda ulardan foydalanish samaradorligini to‘g‘ri boshqarishni ta’minlashi zarur bo‘ladi. Zero, iqtisodiyot oldiga qo‘yilgan vazifalardan biri – bu uni samaradorligini ko‘tarishdan iborat. Mamlakatimizda korxonalarning iqtisodiy samaradorligini oshirishda ularning ichki imkoniyatlardan samarali foydalanish ko‘rsatkichlarini tahlil qilish asosiy o‘rinni egallaydi. Tahlil natijalari asosida boshqaruv ma’muriyati o‘z korxonalarini iqtisodiyotda tutgan o‘rni, tanlagan strategik yo‘li to‘g‘riligi, mavjud resurslardan qay darajada foydalanganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarga ega bo‘ladilar.

Korxonada mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta’sir qiluvchi omillarni tahlil qilish ularning faoliyatini yaxshilash, samaradorligini oshirishda muhim omili bo‘lib

hisoblanadi. Shu bilan birga tahlil natijalari asosida ularni iqtisodiy salohiyatiga baho berish, ichki xo‘ jalik imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda ishlab chiqarishni tashkil etish va asosli qarorlarni qabul qilish mumkin bo‘ladi.

Xo‘jalik faoliyati va uning natijaviy ko‘rsatkichlariga ta’sir etuvchi omillar beqiyosdir. Tovar mahsuloti ishlab chiqarish bo‘yicha biznes-rejaning bajarilishi ko‘pgina omillarga bog‘liq. Ko‘pincha ular qarama-qarshi yo‘nalishda harakat qilib ma’lum miqdor va sifat o‘zgarishlarga olib keladi. Shuning uchun tovar mahsuloti ishlab chiqarish bo‘yicha biznes-rejaning bajarilishiga ta’sir qiluvchi omillarni tahlil qilish jarayonini osonlashtirish maqsadida ular ma’lum iqtisodiy belgilariga asosan umumlashtiriladi. Iqtisodchi olim A.X.Shoalimov tomonidan korxonada mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta’sir qiluvchi omillar quyidagicha tarkiblanadi: mehnat omillari, mehnat vositalari omillari, mehnat buyumlari omillari.

Barcha omillar bir-biri bilan bog‘liqlikka ega, ammo iqtisodiy tahlilning shartiga ko‘ ra ularni shartli ravishda guruhlarga ajratilib, har bir omilni ta’sir etish darajasi alohida aniqlanadi. So‘ngra uchchala omillar guruhini tahlil qilish asosda mahsulot ishlab chiqarishni oshirish borasidagi ichki xo‘jalik imkoniyatlari to‘g‘risida umumiy xulosa beriladi.

Iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida korxonalarni mehnat resurslari bilan ta’minlanganlik darajasini o‘rganib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Korxonada mehnat omillaridan samarali foydalanish bo‘yicha ichki imkoniyatlarni aniqlash uchun quyidagi 8.9-jadvalni tuzamiz.

8.9-jadval

Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta’sir ko‘ rsatuvchi mehnat omillari tahlili

№	Ko‘ rsatkichlar	O‘tgan yil	Hisobot yili	Mutloq farqi (+,-)	O‘sish sur’ati, %
1.	Ishchilarning ro‘yxatdagi o‘rtacha soni, kishi	186	187	+1	100,54
2.	Bir ishchi tomonidan bir yilda ishlangan kishi kunlari, kun	265	256	-9	96,60
3.	Ish kunining o‘rtacha uzunligi, soat	7,83	7,84	+0,01	100,13
4.	Bir ishchiga to‘g‘ri keluvchi soatlik ish unumi, so‘m	43,91	51,11	+7,2	116,40
5.	Tovar mahsuloti hajmi, ming so‘ m (1q x 2 q x 3q x 4q)	16946,6	19182,4	+2235,8	113,19

Endi mahsulot hajmiga ta’sir ko‘rsatuvchi mehnat omillari hisob-kitobini zanjirli almashtirish usuli orqali quyidagi 8.10-jadvalda ko‘rib chiqamiz.

8.10- jadvaldan ko‘rinishicha, hisobot yili tovar mahsulotning hajmi o‘tgan yilga nisbatan 2235,8 ming so‘mga oshgan. Bu o‘sishga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatgan:

1. Ishchilar soni hisobot yili o‘tgan yilga nisbatan 1 kishiga oshdi. Buning natijasida korxona 91,2 ming so‘mlik (17037,8- 16946,6) ko‘p mahsulot ishlab chiqardi.

8.10– jadval

Mahsulot hajmiga ta’sir ko‘rsatuvchi mehnat omillari hisob-kitobini zanjirli almashtirish usuli bo‘yicha hisob-kitobi

Hisobning tartib soni	Almashtirishning tartib soni	Hisob formulasiga kiruvchi omillar				Pirovard natija - tovar mahsuloti (1us x 2 us x 3us x 4us) ming so‘ m	Oldingi hisobga nisbatan farq (+,-)
		Ishchilarning ro‘y xatdagi o‘ rtacha soni	Bir ishchi tomonidan bir yilda ishlangan kishi kunlari	Ish kunining uzunligi	Bir ishchiga to‘g‘ri keluvchi soatlik ish unumi		
A	B	1	2	3	4	5	6
1	-	186	265	7,83	43,91	16946,6	-
2	1	187	265	7,83	43,91	17037,8	+91,2
3	2	187	256	7,83	43,91	16459,1	-578,7
4	3	187	256	7,84	43,91	16480,1	+21
5	4	187	256	7,84	51,11	19182,4	+2702,3
Omillar balansi: +2235,8 ming so‘ m							

2. Bir ishchi tomonidan bir yilda o‘rtacha ishlangan kishi kunlari hisobot yili o‘tgan yilga nisbatan 9 kunga kamaygan. Bu esa tovar mahsuloti ishlab chiqarish hajmini 578,7 ming so‘mga (16459,1 - 17037,8) kamaytirdi.

3. Ish kunining uzunligi hisobot yili o‘ tgan yilga nisbatan 0,01 soatga oshgan. Natijada mahsulot ishlab chiqarish hajmi 21 ming so‘mga (16480,1-16459,1) ko‘paygan.

4. Bir ishchiga to‘g‘ri keluvchi soatlik ish unumi hisobot yili o‘tgan yilga nisbatan 7 so‘m 2 tiyinga ko‘payishi natijasida mahsulot ishlab chiqarish hajmi 2702,3 (19182,4-16480,1) ming so‘mga oshgan.

Demak, korxonada mahsulot ishlab chiqarish hajmi ko‘payishi asosan mehnat unumdorligini oshirish evaziga erishildi. Agar korxona ish kunidan foydalanish borasida faqat o‘tgan yil darajasiga erishganda edi, u holda mahsulot ishlab chiqarish hajmini qo‘shimcha ravishda 578,7 ming so‘mga oshirishi mumkin bo‘lar edi. Natijada mahsulot ishlab chiqarish hajmining o‘sish sur’ati 113,19 foiz emas, balki 116,61 foizni (19761,1x100: 16946,6) tashkil etgan bo‘lar edi. Hisoblangan 578,7 ming so‘m mehnat omillari bo‘yicha mahsulot ishlab chiqarishni oshirish borasidagi ichki xo‘jalik imkoniyati hisoblanadi.

Iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida korxonalar ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirishi uchun yetarli asosiy vositalarga ega bo‘lishlari bilan birga ulardan samarali foydalanishlari kerak. Chunki, asosiy vositalar bilan yetarli darajada ta’minlangan bo‘lsa-yu, lekin ulardan samarali foydalanmasa, u holda korxonaning samaradorligi pasayib ketadi. Ishlab chikarish jihozlaridan vaqt va quvvat bo‘yicha foydalaish tahlilida korxona asosiy fondlari va ularning tarkibida dastgoh va uskunalar ish vaqtidan foydalanishning darajasiga, quvvatlarning foydali ish koeffitsientlariga, foydalanishning real holatiga baho beriladi. Dastgoh va uskunalarning jami ishlagan

vaqti hamda dastgoh va uskunalar ish vaqtidan olingan samaradorlik koʻrsatkichlarini aniqlash asosida mahsulot ishlab chiqarish hajmining oʻzgarishiga taʼsir etuvchi omillar tahlil etiladi hamda uni oʻstirishning ichki imkoniyatlari belgilanadi. Korxonada mahsulot ishlab chiqarish hajmiga taʼsir qiluvchi mehnat vositalari omillari boʻyicha ichki xoʻjalik imkoniyatlarini aniqlash uchun quyidagi 8.11-jadval keltiriladi.

8.11 - jadval

Dastgohlardan samarali foydalanishning ish vaqti (ekstensiv) va quvvati (intensiv) boʻyicha tahlil qilish

№	Koʻrsatkichlar	Oʻtgan yil	Hisobot yili	Farqi, (+,-)	Oʻsish surʼati, (%)
1.	Tovar mahsuloti (ming soʻm)	16946,6	19182,4	+2235,8	113,19
2.	Ishlangan dastgoh-soatlar (ming soat)	856321	843553	-12768	98,51
3.	Bir dastgoh-soatga toʻgʻri keluvchi mahsulot hajmi (soʻm) 1q : 2q	19790	22740	+2950	114,91

8.11-jadval maʼlumotlaridan koʻrinib turibdiki, tahlil qilayottan korxonada oʻtgan yilga nisbatan mahsulot ishlab chiqarish hajmi 2235,8 ming soʻmga oʻsgan boʻlsa, bunga aksincha jami ishlangan dastgoh soatlar hajmi 128 ming dastgoh soatga qisqargan. Dastgohlardan unumli foydalanish natijasida bir dastgoh soatda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi oʻtgan yilgi 19,79 soʻ mdan hisobot yiliga kelib 22,74 soʻmga koʻtarilgan.

Tahlil obyektida hisobot davrida tovar mahsulotni ishlab chiqarish hajmi oʻtgan yilga nisbatan 2235,8 ming soʻmga oshishiga ikki omil taʼsir koʻrsatdi:

1. Ishlangan dastgoh- soatlar sonining oʻzgarishi (ekstensiv omil): (-12768) × 19790= - 252,68 ming soʻm.

2. Bir dastgoh soatda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi (intensiv omil): + 2950× 843553= +2488,48 ming soʻm.

Demak, ikki omil taʼsirining oʻzgarishi tovar mahsulot ishlab chiqarishdagi umumiy farqqa taxminan teng, yaʼni: (-252,68)+2488,48=+ 2235,8 ming soʻm. Shunday qilib, dastgohlarning bekor turib qolishini bartaraf qilish natijasida mahsulot ishlab chiqarishni oshirish imkoniyati 252,68 ming soʻmdan iborat. Endi dastgohlarning vaqti va quvvati boʻyicha foydalanish koeffitsientini aniqlaymiz.

1. Ekstensiv foydalanish koeffitsienti: 843553/ 856321=0,9851.

2. Intensiv foydalanish koeffitsienti: 22740/19790=1,1491.

3. Integral foydalanish koeffitsienti: 0,9851/1,1491=0,8573.

Demak, korxonada dastgohlardan ekstensiv foydalanish koeffitsienti 0,9851 bandni tashkil qildi. Chunki korxonada ishlangan dastgoh-soatlar hajmi 12768 ming soatga kamaygan. Intensiv foydalalanish koeffitsienti 1,1491 bandni tashkil qildi. Bu holat esa ijobiy sanaladi. Mazkur koeffitsient 1 bandni tashkil qilsa maqsadga muvofiq

bo‘ladi. Lekin korxonada ishlangan dastgoh-soatlar hajmini kamayishi natijasida esa integral foydalanish koeffitsienti 0,8573 banddan iborat bo‘ldi.

Korxonalar o‘z maqsadlarini muvaffaqiyatli hal etishlari uchun moddiy texnika resurslari bilan ta’minlash jarayonining bajarilishiga alohida e’tibor beradilar. Buning uchun aniqlangan, ya’ni korxona uchun zarur bo‘lgan moddiy-texnika resurslarining yangi turlari mavjudligi hamda ulrning jahon bozorida taklif qilinganligi o‘rganiladi. Chunki, korxona o‘zi uchun zarur bo‘lgan moddiy- texnika resurslarining yaxshilarini, ya’ni samaralisini olishga harakat qiladi. Korxonalarni materiallar bilan to‘liq, bir me’yorda hamda samarali foydalanganlik darajasini tahlil etish mehnat buyumlari omillar tarkibida o‘rganiladi. Materiallar samaradorligini xarakterlovchi asosiy ko‘rsatkichlar tizimiga materiallar samarasi va sig‘imi ko‘rsatkichlari kiradi. Tahlil etishda materiallar samarasi va sig‘imi ta’sirida tovar mahsuloti hajmining o‘zgarishiga baho beriladi. Bu bevosita korxonada mavjud bo‘lgan ichki imkoniyatlarni aniqlash va belgilashda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Endi mehnat buyumlari tarkibidagi mavjud ichki xo‘jalik imkoniyatlarni aniqlash uchun quyidagi 8.12-jadvalni keltiramiz.

8.12 - jadval

Material sig‘imi ko‘rsatkichini tahlil qilish

№	Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yili	Hisobot yili	Farqi, (+,-)	O‘sish sur’ati, (%)
1.	Material xarajatlar, ming so‘m	11050	12828	+1778	116,09
2.	Tovar mahsuloti, ming so‘m	16946,6	19182,4	+2235,8	113,19
3.	Tovar mahsulotiga ketgan material sarfi (material sig‘imi), 1q : 2q, so‘ m	0,652	0,669	+0,017	102,61

8.12-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinishicha, hisobot yili o‘tgan yilga nisbatan bir so‘mlik tovar mahsuloti ishlab chiqarishga ketgan material sarfi 0,017 so‘mga oshdi. Natijada, korxona bo‘yicha mahsulot ishlab chiqarish hajmi 326,2 so‘mga kamaydi:

a) + 0,017 × 19182,4=+326,2 ming so‘m. Demak, tovar mahsulotining ishlab chiqarish tannarxi moddiy xarajatlarda qimmatlashgan. Bu esa mahsulot ishlab chiqarish hajmining kamayishiga olib keldi, ya’ni mahsulot hajmi manfiy belgi (-) bilan ifodalanadi;

b) - 19182,4: 0,652= - 29421,8 ming so‘m. Shunday qilib, mahsulot ishlab chiqarish hajmining qo‘shimcha o‘sish rezervi 29421,8 ming so‘mni tashkil etadi.

Ichki xo‘jalik imkoniyatlarini aniqlash va ularni korxona aylanmasiga yo‘naltirish asosan uch guruh ishlab chiqarish omillaridan oqilona va samarali foydalanishga bog‘liq ekan. Bu omillarni yuqorida batafsil tahlil qildik. Endi mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta’sir qiluvchi omillar tahlili asosida ichki xo‘jalik imkoniyatlarini aniqlash uchun quyidagi 8.13-jadvalni havola etamiz.

8.13-jadval

Mahsulot ishlab chiqarishni oshirish bo‘yicha ichki xo‘jalik imkoniyatlarini aniqlash

№	Ko‘rsatkichlar	Summasi (ming so‘mda)	Jadvalga ilova
1.	Mehnat omillari	578,7	8.10-jadval
2.	Mehnat vositalari omillari	252,68	8.11-jadval
3.	Mehnat buyumlari omillari	29421,8	8.12-jadval
4.	Ichki xo‘jalik imkoniyati	252,68	

8.13-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinishicha, mahsulot ishlab chiqarishni oshirish bo‘yicha ichki xo‘jalik imkoniyatlari summasi 252,68 ming so‘mni tashkil qiladi. Ichki xo‘jalik imkoniyati sifatida hisob-kitoblar natijasida eng kam summa olinadi. Demak, tahlil obyektida ichki xo‘jalik imkoniyati korxonaning mehnat vositalari omillari hsonlanadi.

8.6. Mahsulot tannarxini tahlil qilish usullari

Hozirgi sharoitida iqtisodiyot oldiga qo‘yilgan vazifalardan biri uning samaradorligini ko‘tarishdan iboratdir.

Mahsulot tannarxi korxonalar xo‘jalik faoliyatini ifodalovchi sifat ko‘rsatkichi bo‘lib, korxonalar faoliyatining barcha jihatlarini, ya’ni ishlab chiqarish va moliyaviy tomonlarini aks ettiradi va ularning ish samaradorligini ko‘rsatadi.

Mahsulot tannarxi deganda, mahsulot ishlab chiqarish, sotish va korxona moliyaviy faoliyati bo‘yicha barcha xarajatlarining pul orqali ifodalanishi tushuniladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mahsulot tannarxini tahlil qilishning ahamiyati turli xildagi mulkchilik shakllarida ish yuritayotgan korxonalar uchun beqiyosdir, zero, ishlab chiqarish xarajatlari to‘g‘risida to‘la ma’lumotlarga ega bo‘lmasdan turib ishlab chiqarishni tashkil qilish va samarali boshqarish mumkin emas.

Mahsulot tannarxini arzonlashtirish jonli mehnat hamda buyumlashgan mehnatni tejashni aks ettiradi, foydaning ortishini ta’minlaydi, ulgurji va chakana narxlarni arzonlashtirish imkonini yaratadi.



Mahsulot tannarxini arzonlashtirishning asosiy yo‘llari quyidagilardan iborat: boshqaruv usullari, ishlab chiqarish va mehnatni ilmiy tashkil qilishni, xo‘jalik hisobini takomillashtirish, ishlab chiqarishning asosiy fondlaridan foydalanishni yaxshilash, moddiy resurslardan tejab-tergab foydalanish, ishlab chiqarishni boshqarish va unga xizmat ko‘rsatish xarajatlarini kamaytirish, xo‘jasizlikka qarshi kurashish kabilar.

Mahsulot tannarxini tahlil qilishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: korxona xo‘jalik faoliyati davomida yuzaga keladigan xarajatlar tarkibini aniqlash,

mahsulot ishlab chiqarish va sotish bilan bog‘liq haqiqiy xarajatlarning reja va o‘tgan yilgi xarajatlarga nisbatan bo‘lgan tejam yoki o‘rtacha xarajatga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash, mahsulot ishlab chiqarish jarayonida material va mehnat resurslaridan to‘g‘ri foydalanish ustidan nazorat olib borish, bir so‘mlik tovar mahsulotiga ketgan xarajatlarning o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash, mahsulot tannarxining xarajat unsurlari va kalkulyatsiya moddalari bo‘yicha tarkibini tahlil qilish, tannarxini arzonlashtirish rezervlarini aniqlash kabilar.

“Xarajatlar tarkibi to‘g‘risida....”gi Nizomga muvofiq hamma xarajatlar quyidagicha guruhlanadi:

- mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga qo‘shiladigan xarajatlar;
- ishlab chiqarish tannarxiga qo‘shilmaydigan, ammo asosiy faoliyatdan olinadigan foydada hisobga olinadigan davr xarajatlariga qo‘shiladigan xarajatlar;
- korxona umumxo‘jalik faoliyatidan olinadigan foyda yoki zararlarni hisobga olinadigan, korxona moliyaviy faoliyati bo‘yicha xarajatlar;
- soliq to‘lagunga qadar foyda yoki zarar hisob-kitobida hisobga olinadigan tasodifiy zararlar.

Shunday qilib, xarajat moddalari quyidagicha guruhlanadi:

1. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi:

a) to‘g‘ri va egri material xarajatlari;

b) to‘g‘ri va egri mehnat xarajatlari;

v) ishlab chiqarish ahamiyatidagi ustama xarajatlar qo‘shilgan holda boshqa to‘g‘ri va egri xarajatlar.

2. Davr xarajatlari:

a) sotish bo‘yicha xarajatlar;

b) ma’muriy xarajatlar;

v) boshqa operatsion xarajatlar va zararlar.

3. Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar:

a) foizlar bo‘yicha xarajatlar;

b) chet el valyutasi bilan bog‘liq operatsiyalar bo‘yicha salbiy kurs farqlari;

v) qimmatli qog‘ozlarga sarflangan mablag‘larni qayta baholash;

g) moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa xarajatlar.

4. Tasodifiy zararlar.

Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi, mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish yoki qayta ishlash jarayonida ishlatiladigan tabiat resurslari, xom ashyo, material, yoqilg‘i, energiya, asosiy fondlar, mehnat resurslari hamda ishlab chiqarish bilan bog‘liq boshqa xarajatlarning puldagi ifodasidir. Sanoat korxonalari ishlab chiqarish xarajatlarini rivojlantirish maqsadida buxgalteriya hisobi va hisobotida uning yo‘nalishlari bo‘yicha guruhlarga ajratish maqsadga muvofiqdir (8.14-jadval).

Mahsulot ishlab chiqarish tannarxini tashkil qiladigan xarajatlar o‘zlarining iqtisodiy mazmuniga muvofiq quyidagi xarajat unsurlariga bo‘linadi:

1. Ishlab chiqarish material xarajatlar (qaytariladigan chiqindilar qiymati chiqarib tashlangan holda).
2. Ishlab chiqarish xarakteridagi mehnatga haq to‘lash xarajatlari.
3. Ishlab chiqarishga taalluqli ijtimoiy sug‘urta ajratmalari.

8.14-jadval

Ishlab chiqarish xarajatlarining iqtisodiy elementlari va kalkulatsion moddalari bo‘yicha turkumlanishi[15]

Iqtisodiy elementlari bo‘yicha	Kalkulasion moddalari bo‘yicha
1	**2**
Ishlab chiqarish xarakteridagi bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar	Xom ashyo
	Yoqilg‘ i
	Elektr quvvati
	Ehtiyot qismlar
	Idishlar va hokazo
Ishlab chiqarish xarakteridagi bevosita va bilvosita mehnat haqi xarajatlari	Asosiy ish haqlari
	Qo‘ shimcha ish haqlari
	Ish haqiga ustamalar
Ishlab chiqarishga taalluqli mehnat haqidan ajratmalar	Ijtimoiy ta’minot bo‘limiga
	Mehnat birjasiga
	Kasaba uyushmasiga
Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizasiyasi, eskirish xarajatlari	Asosiy vositalarning eskirishi
	Nomoddiy aktivlarning eskirishi
	Asosiy vosita va nomoddiy aktivlarnnng ijara haqlari
Ishlab chiqarish xarakteridagi boshqa xarajatlar	Turli ishlar va xizmatlar
	Soliqlar, yig‘imlar va hokozo

4. Ishlab chiqarish ahamiyatidagi asosiy fondlar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi.

5. Ishlab chiqarish ahamiyatidagi boshqa xarajatlar.

Mahsulot tannarxini tahlil qilish jarayonida bir so‘mlik tovar mahsulotiga ketgan xarajat ko‘rsatkichini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. U ishlab chiqarish tannarxini tovar mahsuloti hajmiga nisbati tariqasida aniqlanadi. Masalan, tovar mahsulotining qiymati 100 mln. so‘mni tashkil etsa, mahsulotni ishlab chiqarish tannraxi 80 mln. so‘ m bo‘lsa, u holda tovar mahsulotining har so‘ miga qilingan xarajat 80 tiyin (80:100)ga, yalpi foyda esa 20 tiyinga teng bo‘ladi. Demak, bu ko‘rsatkichda foyda bilan ishlab chiqarish tannarxi o‘rtasidagi bog‘liqlikni yaqqol ko‘rsatish mumkin.

Tahlil etishda bir so‘mlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajatlar dinamikasi, biznes rejaga nisbatan o‘zgarishi aniqlanadi (8.15- jadval).

8.15-jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, tahlil etilayotgan korxonada bir so‘mlik mahsulot uchun qilingan xarajat yil boshida 73,49 tiyinni, yil oxirida esa 81,72 tiyinni tashkil qilgan holda 8,23 tiyinga yoki 11,20 foizga (111,20-100) oshgan. Demak, korxonada bir so‘mlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajatlar ko‘payishiga sabab ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmini oshishi sabab bo‘lgan. Korxonada yil oxirida yil boshiga nisbatan bir so‘mlik mahsulot uchun qilingan xarajatni 8,23 tiyinga oshishi hisobiga bo‘yicha ortiqcha xarajatlarni sarf qilinishi 5667507,2 ming so‘mni

[15]Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori. 5.02.1999 №54 son (o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan).

8.15- jadval

Bir so‘mlik mahsulot uchun qilingan xarajatlar tahlili

T.r.	Ko‘rsatkichlar	Yil boshi	Yil oxiri	Farqi (+,-)	O‘sish sur’ati, %
1.	Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi, ming so‘m	349516	563015	+213499	161,08
2.	Tovar mahsulotining ulgurji bahosi, ming so‘m	475569	688640	+213071	140,80
3.	Bir so‘mlik mahsulot uchun qilingan xarajat, tiyin 1/2	73,49	81,72	+8,23	111,20

tashkil etgan. Buning hisob-kitobi quyidagicha amalga oshirilgan:+8,23 x 688640 /100= +56675, 07 ming so‘m.

Endi bir so‘mlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajatlar hajmining o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi omillarning hisob-kitobini ko‘rib chiqamiz (8.16-jadval).

8.16-jadval

Bir so‘mlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajatlar hajmiga ta’sir etuvchi omillarni zanjirli almashtirish usuli orqali hisob-kitobi

Hisob	Almashtirish	Hisob formulasi tarkibiga kiruvchi omillar		Pirovard natija – bir so‘mlik mahsulot uchun qilingan xarajat (1u/2u), tiyin	Oldingi hisobga nisbatan farq (+,-)
		Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi	Tovar mahsulotining ulgurji bahosi		
A	V	1	2	3	4
1	-	349516	475569	73,49	-
2	1	563015	475569	1,18	-72,31
3	2	563015	688640	81,72	+80,54

Omillar balansi: +8,23

8.16-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinishicha, tahlil obyektida bir so‘mlik mahsulot uchun qilingan xarajat 8,2 tiyinga kamaygan. Bu o‘zgarish quyidagi omillar ta’sirida sodir bo‘lgan:

1 Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi hajmini 213499 ming so‘mga ko‘payishi natijasida bir so‘mlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajatlar 72,31 tiyinga kamaygan.

2. Tovar mahsulotining ulgurji bahosini 213071 ming so‘mga oshishi bir so‘mlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajatlarni 80,54 tiyinga ko‘paytirgan .

Shunday qilib, barcha omillar ta’siri natijaning umumiy o‘zgarishiga teng: (-72,31) +80,54 = +8,23 tiyin.

Korxonada bir so‘mlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajatlarning oshishi asosan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi va unga mutanosib ravishda ishlab chiqarilgan mahsulotlar tannarxining oshishi hisobiga bo‘lgan. Korxona kelgusida

xarajatlarni kamaytirish bo‘yicha kerakli tadbirlarni amalga oshirishi lozim. Bu esa o‘z navbatida rentabellik ko‘rsatkichlarining oshishiga imkon beradi.

Korxonada mahsulot tannarxini pasaytirish bo‘yicha quyidagi tadbirlarni amalga oshirish tavsiya qilinadi:

- korxonaning ishlab chiqarish quvvatlaridan to‘liq foydalanish tufayli mahsulot hajmini oshirish;

- mehnat unumdorligini oshirish, xomashyo, material, elektr energiya, yoqilg‘i, uskunalardan iqtisod rejimiga rioya qilgan holda foydalanish, unumsiz harajatlarni bartaraf etish, brakka yo‘l qo‘ymaslik hisobiga ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish rezervi ishlab chiqarish dasturi bajarilishini tahlil etish orqali aniqlanadi. Mahsulot hajmini ortishi tufayli xarajatlarining o‘zgaruvchan qismi (ishchilarning ish haqi, material xarajatlari va boshqa xarajatlar) ortgan holda, xarajatlarining o‘zgarmas qismi turg‘un holatda saqlanadi va shu tufayli tannarxning pasayishiga erishiladi.

Xarajatlarni qisqartirish rezervi har bir xarajat moddalari bo‘yicha innovasiyani (yangi texnika, ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash, mehnatni tashkil etishni takomillashtirish), pullash orqali ish haqi, xomashyo, material, energiyalarni qisqartirilishiga erishiladi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va tahlil etishning uslubiy va me’yoriy shakli O‘zbekiston Resiublikasi Moliya Vazirligi tomonidan 1999-yil 5-fevralda tasdiqlangan 54-sonli “Mahsulot (bajarilgan ish, ko‘rsatilgan xizmat)lar ishlab chiqarish tannarxi, mahsulot (ish bajarish va xizmat ko‘ rsatish) ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi va moliyaviy natijalarning shakllanish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom bilan belgilanadi.

Sanoat korxonalari ishlab chiqarish xarajatlarini rivojlantirish maqsadida buxgalteriya hisobi va hisobotida uning yo‘nalishlari bo‘yicha guruhlarga ajratish maqsadga muvofiqdir:

1. Xarajatlarning iqtisodiy elementari bo‘yicha.
2. Xarajatlarning kalkulyatsion moddalari bo‘yicha.

Xarajatlarning elementi bo‘yicha guruhlarga ajratishdan maqsad ularning strukturasi va dinamikasini nazorat qilishdan iborat.

Ko‘ rsatkichlarni taqqoslash orqali jonli mehnat bilan boshqa xarajat turlarining nisbati, ishlab chiqarish zaxiralarini normalashtirish va tahlil etish, oborot mablag‘ larining tezligini aniqlash va milliy daromadni hisoblash imkoniyati tushuniladi.

Xarajatlarning elementlari bo‘ yicha tahlil natijalariga muvofiq material sig‘imi, mehnat sig‘imi va fond sig‘imi darajalari bo‘yicha tannarxni pasaytirish imkoniyatlarnni aniqlash mumkin. Tahlil etishda jami xarajatdagi har bir elementning tutgan salmog‘i aniqlanib, o‘tgan yildagisi hamda smetadagi ko‘rsatkichlar bilan taqqoslanib, ularning o‘ zgarish sabablari aniqlanadi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini iqtisodiy elementlari va kalkulyatsion moddalari bo‘yicha o‘rganish quyidagicha farqlanadi, ya’ni, bo‘limlar va korxona bo‘yicha jami xarajatlar faqat iqdisodiy elementlari bo‘yicha o‘rganiladi, mahsulotlar turi va turkumi bo‘yicha esa ishlab chiqarish xarajatlari kalkulyatsiya moddalari asosida ko‘rib chiqiladi. Tahlil etishda, ishlab chiqarish xarajatlarining jami tarkibi bo‘yicha

o‘zgarishlarni mutlaq va nisbiy jihatdan o‘rganiladi. Nisbiy jihatdan o‘rganishda, har bir turkum xarajat moddasi yoki elementining jami ishlab chiqarish xarajatlari tarkibidagi salmog‘iga baho beriladi.

Endi xarajatlarni elementi bo‘yicha tarkibi, strukturasi va dinamikasining tahlilini quyidagi 8.17-jadvalda ko‘rib chiqamiz.

8.17-jadval

Xarajatlarning elementi bo‘yicha tarkibi, strukturasi va dinamikasining tahlili

№	Xarajat guruhlari	Yil boshi		Yil oxiri		Farqi	
		Summa, ming so‘ m	Ulushi, %	Summa, ming so‘ m	Ulushi, %	Summa, ming so‘ m	Ulushi, %
A	B	1	2	3	4	5	6
1.	Moddiy xarajatlar	248682	71,15	430244	76,42	+181562	+5,27
2.	Mehnat haqi xarajatlari	12185	3,49	21811	3,87	+9626	+0,38
3.	Ijtimoiy sug‘urta ajratmalari	3904	1,12	7857	1,39	+3953	+0,18
4.	Asosiy vosita va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi	76986	22,03	90082	16,02	+13096	-6
5.	Boshqa ishlab chiqarish xarajatlari	7759	2,22	13021	2,31	+5262	+0,09
	Jami ishlab chiqarish xarajatlari	349516	100	563015	100	+213499	-

8.17-jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki korxonada jami ishlab chiqarish xarajatlari yil boshida 349516 ming so‘mni, yil oxirida esa 563015 ming so‘mni tashkil qilgan holda 213499 ming so‘ mga oshgan. Jami xarajatlar tarkibida moddiy xarajatlar ulushi yil boshidagi 71,15 foizdan hisobot yiliga kelib 76,42 foizga qadar ko‘tarilishi, shartnoma bo‘yicha xomashyo, yoqilg‘ilarni chetdan yetkazib berish majburiyatlarining bajarilishi, mehnat unumdorligining ortishi bilan izohlanadi. Jamiyatda jami ishlab chiqarish xarajatlari tarkibida asosiy vosita va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi xarajatlarining ulushi hisobot yili oxirida 16,02 foizni tashkil qilgan holda, 6 foizga kamaygan. Shu bilan birga, jamiyatda mehnatga haq to‘lash xarajatlari 9626 ming so‘mga oshgan bo‘lib, uning jami xarajatlardagi salmog‘i yil boshida 3,49 foiz, oxirida esa 3,87 foizni tashkil qiladi. Jamiyatda ijtimoiy sug‘ urta ajratmalarinig jami xarajatlardagi ulushi 0,18, boshqa xarajatlarning ulushi esa 0,09 foizga oshgan. Tahlil natijalaridan ko‘rinib turibdiki, jamiyatda jami ishlab chiqarish xarajatlari oshgan. Bu esa mutanosib ravishda mahsulootlar ishlab chiqarish hajmining oshganligini ko‘rsatib turibdi.

Xarajatlarning kalkulyatsiya moddalarining tahlili asosan bir elementli bo‘lib, ya’ni bir xil iqtisodiy mazmunga ega bo‘lgan xarajatlardan iborat. Xomashyo, yoqilg‘i, energiya va boshqa xarajat moddalarining har birini ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga bo‘lish orqali xarajatlarning darajasi (tiyin) aniqlanadi va bu ko‘rsatkichni bazis davri yoki hisobot davrining rejasi bilan taqqoslash orqali erishilgan iqtisod yoki

ortiqcha xarajat aniqlanadi. Tahlilini ko‘rib chiqish uchun quyidagi 8.18-jadvalni tuzamiz.

8.18-jadval

Xarajatlarning moddalari bo‘yicha tahlili

№	Xarajat moddalari	Yil boshidagi reja xarajat darajasi, tiyin	Yil oxiridagi haqiqiy xarajat darajasi, tiyin	Farqi	
				+	-
A	B	1	2	3	4
1.	Xomashyo va materiallar	23,64	24,07	+0,43	
2.	Yoqilg‘i va energiya texnologik maqsadlar uchun	5,28	5,72	+0,44	
3.	Chetdan olingan butlovchi buyum va yarim fabrikatlar	24,03	28,62	+4,59	
4.	Ishchilarning asosiy ish haqi	11,18	13,80	+2,62	
5.	Qo‘shimcha ish haqi	1,15	1,23	+0,08	
6.	Ijtimoiy sug‘urta ajratmalari	3,31	3,60	+0,29	
7.	Asosiy vositalarni saqlash xarajatlari	2,64	2,70	+0,06	
8.	Ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish xarajatlari	1,39	0,96		-0,43
9.	Brakdan zarar	0,35	0,33		-0,02
10.	Boshqa xarajatlar	0,64	0,69	+0,05	
	Jami bir so‘mlik mahsulot uchun qilingan xarajat	**73,49**	**81,72**	**+8,23**	

8.18-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, tahlil obyektida bir so‘mlik mahsulot uchun qilingan xarajat reja darajasiga nisbatan 8,27 tiyinga oshgan. Xomashyo yoqilg‘i va brakdan ko‘rilgan zararlar 0,43 tiyinga, yoqilg‘i va energiya texnologik maqsadlar uchun qilingan xarajatlar 0,44 tiyinga, chetdan olingan butlovchi buyum va yarim fabrikatlar bo‘yicha xarajatlar 4,59 tiyinga, ishchilarning asosiy ish haqi bo‘yicha xarajatlar 2,62 tiyinga oshgan. Brakdan zarar bo‘yicha 0,02 tiyinga, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish xarajatlari bo‘yicha esa 0,43 tiyin miqdorida iqtisodga erishilgan.

8.7. Moliyaviy natijalar va rentabellik ko‘rsatkichlarini tahlil qilish

Erkin iqtisodiyot sharoitida ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishning asosiy maqsadi foyda olishga qaratilganligi bois har bir xo‘jalik yurituvchi subyekt ko‘proq foyda olishga intiladi. Binobarin, foyda miqdorida jamiyatning korxona jamoasining va har bir xodimning manfaatlari o‘z ifodasini topadi. Shu bois foyda iqtisodiy kategoriya bo‘lib, u o‘zida ishlab chiqarish va taqsimot orqali tovar-pul munosabatlarini aks ettiradi. Xo‘jalik yurituvchi subyektning olgan foydasi qancha ko‘p bo‘lsa, har bir xodimni shuncha ko‘p rag‘batlantirishga, korxonani har tomonlama kengaytirishga, takror ishlab chiqarish fondlari mablag‘ini ko‘paytirishga imkoniyati tug‘iladi.



Moliyaviy natija – korxona faoliyatining foyda summasi va rentabellik darajasida ifodalanadigan yakunidir. Korxonalarning xo‘jalik va moliyaviy faoliyatini belgilovchi asosiy mezon – sof foyda hisoblanadi. Sof foyda miqdorini aniqlash uchun quyidagi oraliq foyda ko‘rsatkichlarini aniqlash kerak: yalpi foyda, asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan kelgan foyda, umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda, soliq to‘lagunga qadar foyda va sof foyda.

Moliyaviy natijalar tahlilining asosiy vazifasi foyda ko‘rsatkichlarini o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi omillarni hamda sof foyda hajmini oshirish bo‘yicha ichki xo‘jalik imkoniyatlarini aniqlash, ularni ishlab chiqarish aylanmasiga jalb qilishdan iboratdir. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy natijalari keng qamrovli tushunchadir. Ularning shakllanishi va taqsimlanishi bo‘yicha to‘liq va har tomonlama asoslangan xulosa chiqarish uchun ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish lozim. Ko‘rsatkichlar haqida to‘g‘ri xulosa chiqarish uchun, avvalo, ularni ilmiy jihatdan tasniflash kerak. Iqtisodiy tahlilda ko‘rsatkichlar g‘oyat ko‘p belgilar bilan tasniflanadi. Chunonchi, iqtisodiy ko‘rsatkichlarni iqtisodiy mazmuni, foydalanish darajasi, ifodalanish shakli, umumlashtirish darajasi, xo‘jalik faoliyatining bo‘g‘inlari va shakllanish holati bo‘yicha kabi belgilar bo‘yicha tasniflash qabul qilingan. Bu o‘rinda biz moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko‘rsatkichlarning iqtisodiy mazmuni bo‘yicha tasnifini havola qilish bilan cheklanamiz, zero ko‘rsatkichlarni ushbu belgi bo‘yicha tasniflash tegishli xulosa chiqarish uchun yetarli bo‘ladi. Ushbu ko‘rsatkichlar tasnifi quyidagi 8.2-chizmada ko‘rsatilgan.

KO‘RSATKICHLAR	
Miqdor ko‘rsatkichlar	**Sifat ko‘rsatkichlar**
Mahsulotlarni sotishdan tushgan yalpi foyda(zarar)	Umumiy rentabellik darajasi
Davr xarajatlari	Davr xarajatlari darajasi
Boshqa operatsion daromadlar	Boshqa operatsion daromadlar darajasi
Boshqa operatsion xarajatlar	Boshqa operatsion xarajatlar o‘rtacha darajasi
Operatsion foyda (zarar)	Asosiy ishlab chiqarish faoliyati rentabelligi darajasi
Moliyaviy faoliyatdan olingan daromad (xarajatlar)	Aksiyaning rentabelligi
Umumxo‘jalik faoliyatidan kelgan foyda (zarar)	Umumxo‘jalik faoliyati bo‘yicha rentabellik darajasi
Tasodifiy foyda (zarar)	va boshqalar (tahlil maqsadiga bog‘liq)
Soliq to‘langunga qadar foyda (zarar)	
Sof foyda	Sof rentabellik

8.2-chizma. Moliyaviy natijalar shakllanishini ifodalovchi ko‘rsatkichlarning iqtisodiy mazmuni bo‘yicha tasnifi

8.2-chizmadan ko‘rinishicha, moliyaviy natijalarning shakllanishini ifodalovchi ko‘rsatkichlar bir qancha. Binobarin, ularning har biri ma’lum miqdorga ega bo‘lishi va tahlil qilinayotgan toifaning u yoki bu jihatini ifodalashi kerak. Bu holat aniq axborotlardan foydalanishni taqozo etadi.

Foyda ko‘rsatkichlari quyidagicha aniqlanadi:

1. Yalpi foyda = Sof tushum – sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi.

2. Asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan kelgan foyda = yalpi foyda - davr xarajatlari ± asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromad (xarajat).

3. Umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda = asosiy faoliyatdan olingan foyda + olingan dividendlar + boshqa olingan dividendlar ± olingan va berilgan qarzlar bo‘yicha foizlar ± boshqa olingan va to‘ langan foizlar ± valyuta kursi farqi ± moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa daromad (xarajat).

4. Soliq to‘lagunga qadar foyda = umumxo‘jalik faoliyatidan kelgan foyda ± favquloddagi foyda (zarar).

5. Sof foyda (zarar) = soliq to‘lagunga qadar foyda - foydadan soliq boshqa soliqlar va ajratmalar.

Iqtisodchi olim L.A.Bersnstayn tomonidan mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum tahlilida quyidagi savollarga javob aniqlash lozimligi ko‘rsatilgan[16]:

1. Tushumni olishning asosiy manbalari nimalardan iborat?

2. Mazkur manbalarning dinamikasi va barqarorligi qanday?

3.Tushumning kelib tushishi qanday aniqlanadi va o‘lchanadi?

Endi korxona moliyaviy natijalarini umumiy hajmini tahlil qilish uchun quyidagi jadvalni keltiramiz (8.19-jadval).

8.19-jadval

Korxona moliyaviy natijalarining tahlili

Ko‘rsatkichlar	Yil boshi	Yil oxiri	O‘ zgarishi (+,-)
1. Mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum	7800	12714,4	+4914,4
2. Mahsulotlar sotishdan olingan yalpi foyda	7800	12714,4	+4914,4
3. Davr xarajatlari	10200	5535,4	-4665,6
4. Asosiy faoliyatidan olingan foyda(zarar)	2400	7179	+4779
5. Umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda (zarar)ning moliyaviy natijasi	2400	7179	+4779
6.Soliq to‘langunga qadar foyda(zarar)	2400	7179	+4779
7. Foyda solig‘ i	475,6	4195,8	+3720,2
8. Hisobot davridagi sof foyda (zarar)	2875,6	2983,2	+107,6

8.19-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, korxonada yil davomida moliyaviy natijalar bo‘yicha ijobiy natija olingan. Jamiyatda davr xarajatlarini 4665,6 ming so‘mga kamayganligi ijobiy holat hisoblanadi. Asosiy, umumxo‘jalik va soliq to‘lagunga qadar foyda yil oxirida 4779,2 ming so‘mga oshganligini ko‘rish mumkin. Hisobot davri boshida jamiyatda 475,6 ming so‘m, oxirida esa 4195,8 ming so‘m

[16]Leonard A. Bernstein. Financial statement analysis. Manual. –M. Финанси и статистика, 2002. Пер. с англ. Елисеева И.И. -510 с.

foyda solig‘i to‘langan. Sof foyda hajmi yil boshidagi 2875,6 ming so‘mdan yil oxiriga kelib 2893,2 ming so‘mga ko‘tarilgan holda 107,6 ming so‘mga oshgan. Tahlil natijalaridan ko‘rinib turibdiki, Korxonada sof foyda hajmini oshirish bo‘yicha imkoniyatlar mavjud ekan. Jamiyat boshqaruvi sof foyda hajmini oshirish bo‘yicha kerakli choralarni amalga oshirishi lozim bo‘ladi.

Endi davr xarajatlari tarkibini tahlil qilish uchun quyidagi 8.20-jadvalni tuzamiz.

8.20-jadval

Davr xarajatlaring tarkibini tahlili

Ko‘rsatkichlar	Yil boshi		Yil oxiri		O‘zgarishi(+,-)	
	mutlaq hajmi. m.s.	salmog‘i, %	mutlaq hajmi, m.s.	salmog‘i, %	mutlaq hajmi, m.s.	salmog‘i, %
A	1	2	3	4	5	6
1.Sotish xarajatlari	-		1259	22,34	+1259	+22,34
2.Ma’muriy xarajatlar	-		2750	48,80	+2750	+48,80
3.Boshqa operatsion xarajatlar	10200	100	1526,4	27,08	-8673,6	-72,92
Jami davr xarajatlar (1q+2q+3q)	10200	100	5635,4	100	-4564,6	-

8.20-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, davr xarajatlari yil boshida 10200 ming so‘ mni, yil oxirida esa 5635,4 ming so‘ mni tashkil qilgan holda, 4564,6 ming so‘ mga kamaygan. Jami davr xarajatlari tarkibida yil boshida boshqa operatsion xarajatlarning ulushi 100 foizni egallagan. Yil oxiriga kelib esa davr xarajatlari tarkibida sotish xarajatlarining ulushi 22,34 foizni, ma’muriy xarajatlarning ulushi 48,80 foizni, boshqa operasion xarajatlarning ulushi esa 27,08 foizdan iborat bo‘ldi. Demak, davr xarajatlari tarkibida yil boshida asosiy o‘rinni boshqa operatsion xarajatlarning ulushi egallagan bo‘lsa, yil oxirida yetakchi o‘rinni ma’muriy xarajatlarning ulushi egalladi. Jamiyat boshqaruv ma’muriyati davr xarajatlarni kamaytirish bo‘yicha kerkli tadbirlarin amalga oshirgan.

Iqtisodiy samaradorlikni oshirishda foydaning mutlaq miqdori korxonalarning xo‘jalik yuritish borasidagi samaradorlik darajasini har tomonlama belgilamaydi. Shu boisdan rentabellik ko‘rsatkichlarini aniqlash lozim bo‘ladi. Rentabellik darajasi nisbiy ko‘rsatkich hisoblanadi.

Korxonalar faoliyatining yakuni rentabellik - iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichida ifodalanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida rentabellik foyda olish darajasi, sarflangan xarajat yoki kapital hisobiga to‘g‘ri keladigan foyda hajmini belgilaydi. Rentabellik xo‘jalik subyektlari faoliyatining samaradorligini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkich bo‘lib, xo‘jalik faoliyati natijalarini to‘la va har tomonlama tavsiflab beradi.

Iqtisodiy tahlil fanining ko‘zga ko‘ringan yirik olimlari M.I. Bakanov, A.D. Sheremet, E.A.Akramov, M.Q.Pardaev, G.V.Savitskaya, A.X.Shoalimov, V.V.Kovalev, A.T.Ibraimov, L.I. Kravchenko va boshqalarning moliyaviy tahlil bo‘yicha chop etilgan qator darslik, o‘quv qo‘llanma va ilmiy maqolalarini e’tirof etish joiz. Xususan, A.I.Alekseeva tomonidan[17] rentabellik ko‘rsatkichlarini uchta guruhga umumlashtirish tavsiya etilgan:

1. Kapital (aktivlar) rentabelligi;
2. Mahsulot rentabelligi.
3. Pul mablag‘lari oqimi asosida hisoblangan rentabellik ko‘rsatkichlari.

Rentabellik ko‘rsatkichi jami ijtimoiy ishlab chiqarish va har bir ayrim korxonaning iqtisodiy hamda moliyaviy samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkich hisoblanadi. Quyida rentabellik ko‘rsatkichlarini hisoblash usullarini havola etamiz:

1. Jami aktivlarning rentabelligi korxonaning asosiy va aylanma mablag‘lardan foydalanish samaradorligi darajasini ko‘rsatadi. Jami aktivlarning rentabellik darajasi quyidagi formula orqali sof foyda summasini (SF) jami aktivlarning o‘rtacha miqdori (JAS) bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi.

2. Sotilgan mahsulot rentabelligi (SMR) sotilgan mahsulot birligiga foyda ulushini, ya’ni sotilgan mahsulotning samaradorlik darajasini tavsiflaydi va quyidagi formula bo‘yicha yalpi foyda summasini (YAF) mahsulot sotishdan tushgan sof tushumga (ST) nisbati tariqasida aniqlanadi.

3.Xususiy (o‘z) sarmoya rentabelligi (XSR) korxonaning o‘z kapitalidan foydalanish samaradorlik darajasini ko‘ rsatadi, ya’ni korxonaning o‘z sarmoyasi o‘rtacha yillik summasining bir pul birligidan qancha pul birligiga teng sof foyda olinganligini ko‘rsatadi. U sof foyda hajmini o‘z sarmoyasini miqdoriga nisbati tariqasida aniqlanadi.

Korxona rentabellik ko‘rsatkichlari tarkibida jami aktivlar rentabelligi asosiy ko‘ rsatkichlardan biri hisoblanadi. Jami aktivlarning rentabellik darajasi korxonalarning asosiy fondlar va aylanma mablag‘lardan foydalanish (samarodorlik) darajasini ko‘rsatadi. Jami aktivlarning rentabellik darajasi — korxonaning bir so‘mlik mulkidan necha so‘m foyda olganligini ko‘rsatadi. Ushbu ko‘rsatkich korxonalar o‘rtasidagi raqobat kurashida indikatorlik vazifasini o‘taydi.

Endi jami aktivlari rentabelligini tahlil qilish uchun quyidagi 8.21-jadvalni tuzamiz.

8.21-jadval

Jami aktivlar rentabelligining tahlili

№	Ko‘rsatkichlar	Yil boshi	Yil oxiri	Mutlaq farq, (+,-)
1.	Sof foyda	2875,6	2983,2	+107,6
2.	Jami aktivlar qiymati	75098,8	410861	+335762,2
3	Jami aktivlar rentabelligi, % (1q x100:2q)	3,83	0,73	-3,1

[17] Алексеева А.И. Комплексный экономический анализ хозяйственной деятельности. Учебное пособие. –М.: Финансы и статистика, 2010. -339 с.

8.21-jadvaldan ko‘ rinib turibdiki, jami aktivlar qiymati yil oxirida yil boshiga nisbatan 335762,2 ming so‘ mga oshgan. Jami aktivlar rentabelligi esa 3,1 foizga ko‘ paygan. Jamiyatda jami aktivlar hajmining oshishi natijasida rentabellik darajasi pasaygan. Shunday qilib, korxonalarda jami aktivlar rentabellik ko‘ rsatkichlarining omilli tahlilining amaliyotda qo‘llanishi nafaqat nazariy, balki muhim amaliy ahamiyatga ham ega.

8.8. Korxonalarining moliyaviy faoliyatini tahlil qilish

Iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida xo‘jalik yurituvchi subyektlarni iqtisodiy mustaqil hamda moliyaviy barqaror faoliyat ko‘rsatishlarida ularni oqilona boshqarish, hisob-kitob yuritishni bozor iqtisodiyoti talablariga moslash, bor moddiy, moliyaviy va mehnat boyliklaridan samarali foydalangan holda ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatishni tashkil etish, natijada yuqori foyda olib, davlat budjeti oldidagi majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarish rezervlarini tashkil etish eng dolzarb vazifalardan sanaladi.

Iqtisidiyotni liberallashtirish sharoitida korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy holatining ahamiyati oshib bormoqda. Korxonalar moliyaviy ahvolini o‘rganishning mazmuni shundan iboratki, bunda o‘z vaqtida pul tushumlarining kelishi, hisoblashish intizomiga rioya qilish, xususiy va qarz mablag‘larining to‘g‘ri nisbatda bo‘lishini ta’minlash, moliyaviy tartib va intizomga, barcha ishlab chiqarish bo‘g‘inlarida iqtisod va tejamkorlikka rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Korxonalarning moliyaviy holati ko‘p jihatdan – baho, kredit, foyda va uni iqtisodiy taqsimlanish mexanizmiga bog‘liqdir. Shu bois, hozirgi sharoitida har qanday korxonaning moliyaviy ahvolini bilish va o‘rganishga e’tibor kuchaymoqda.

Iqtisodchi olim L.A.Bernstayn moliyaviy holat tahlilini ichki va tashqi tahlil shaklida o‘tkazish lozimligini ko‘rsatgan. Tashqi moliyaviy tahlilni asosan tashqi foydalanuvchilar o‘tkazsa, ichki moliyaviy tahlilni xo‘jalik subyekti mutaxassislari o‘tkazadi[18].

Korxonaning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish moliyaviy tahlilning yakunlovchi bosqichi bo‘lib hisoblanadi. Korxonalar moliyaviy holatini tahlil qilishning asosiy maqsadi – moliyaviy faoliyatdagi yutuq va kamchiliklarni aniqlab, mablag‘ lardan yanadi to‘g‘ri foydalangan holda hisob-kitob tartibini mustahkamlashga qaratiladi. Demak, bu mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish, xarajatlarni tejash, pul-moliya aloqalari va boshqa faoliyatlarning bir-biriga bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Ayniqsa, mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish, maxsus va maqsadli mablag‘lar, zaxira jamg‘armasi, foyda va zararlar, turli xil hisob-kitoblar, qiymatli qog‘ oz va veksellar bo‘yicha ma’lumotlardan ko‘ proq foydalaniladi. Bular xo‘jalik faoliyatining to‘g‘ri boshqarilishi, uning moliyaviy barqaror bo‘lishi va to‘lov qobiliyatining yaxshilanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

---

[18] Leonard A. Bernstein. Financial statement analysis. Manual. –M. Финанси и статистика , 2002. Пер. с англ. Елисеева И.И.- 9 с.

Korxona moliyaviy resurslarini to‘g‘ri va mohirona boshqarish uchun birinchi navbatda korxonaning moliyaviy ahvoli va resurslardan foydalanish samaradorligi aniqlanishi va tahlil qilinishi lozim bo‘ladi.

Korxonaning moliyaviy ahvoli moliyaviy resurslarning turlar bo‘yicha mavjudligi, raqobatbardoshlik darajasi, davlat va boshqa xo‘jalik subyektlari oldida majburiyatlarni boshqarish qobiliyatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar majmuidir.



Korxona moliyaviy holatini tahlil qilishning asosiy vazifasi quyidagilarni baholash hisoblanadi:

- buxgalteriya balansi va mulkiy holat ko‘rsatkichlari tuzilmasi;
- aylanma mablag‘lar ahvoli, ta’minlanganlik va foydalanish samaradorligi;
- moliyaviy barqarorlik;
- likvidlilik va to‘lov qobiliyati;
- ishga doir faollik:
- va boshqalar.

Korxona moliyaviy holatini buxgalteriya balansi asosida dastlabki baholash hisobot yili oxiriga bo‘lgan balans moddalarini yil boshiga bo‘lgan ma’lumotlar bilan taqqoslash yo‘li orqali amalga oshiriladi. Balansni tahlil qilishda uning tuzilmasi aniqlanadi va korxona mablag‘lari hamda ularning manbalari tarkibida sodir bo‘lgan o‘zgarishlar o‘rganiladi, mablag‘larni qanchalik to‘g‘ri joylashtirilganligi aniqlanadi va korxona moliyaviy holatiga dastlabki baho beriladi.Tahlil uchun quyidagi jadvalni keltiramiz (8.22 -jadval).

8.22-jadval

Buxgalteriya balansi aktiv qismining tahlili

Ko‘rsatkichlar	Yil boshi		Yil oxiri		Farqi (+,-)	
	Summa, m.s.	Sal-mog‘i, %	Summa, m.s.	Sal-mog‘i, %	Summa, m.s.	Sal-mog‘i, %
Balans aktivi. Jumladan:	75098,8	100	410861	100	+335762, 2	-
1. Uzoq muddatli aktivlar. Undan:	-	-	249900	60,82	+249900	+60,82
1.1. Asosiy vositalar	-	-	249900	60,82	+249900	+60,82
2. Joriy aktivlar. Undan :	75098,8	100	160961	38,18	+85862,2	+61,82
2.1. Debitorlar	74618,8	99,36	159511	38,82	+84892,2	-60,54
2.2. Pul mablag‘lari	482	0,64	1450	0,35	+968	-0,29

8.22-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinishicha, korxonada yil bo‘yicha bugalteriya balansi aktivi yil boshiga 75098,8 ming so‘mni, oxiriga esa 410861 ming so‘mni tashkil qilgan holda 335762,2 ming so‘mga oshgan. Aktiv bo‘limda joriy aktivlarning ulushi yil boshida 100 foizdan iborat bo‘ldi. Jamiyatda debitorlik qarzlari yil boshidagi

74618,8 ming so‘mdan yil oxiriga kelib, 159511 ming so‘mga oshdi. Uning jami aktivlardagi ulushi 99,36 foizni tashkil qildi. Demak, jamiyatda joriy aktivlar tarkibining asosiy qismi debitorlik qarzlardan iborat ekan. Boshqaruv ma’muriyati mazkur qarzdorlikni kamaytirish bo‘yicha kerakli ishlarni amalga oshirishi lozim bo‘ladi. Pul mablag‘larining hajmi ham 968 ming so‘mga oshib, aktivlardagi salmog‘i 0,64 foizdan iborat bo‘ldi. Yil oxiriga kelib, jami aktivlarda uzoq muddatli aktivlarning ulushi 60,82 foizni tashkil qilib uning tarkibida asosiy o‘rinni asosiy vositalarning ulushi egalladi. Joriy aktivlarning aktivlardagi ulushi yil oxirida 38,18 foizdan iborat bo‘ldi. Jami debitorlik qarzlarining aktivlardagi ulushi yil oxirida 38,82 foizni tashkil qilib, 60,54 foizga kamaydi. Pul mablag‘larining hajmi yil oxirida 1450 ming so‘mdan iborat bo‘lib, uning aktivlardagi ulushi 0,35 foizdan iborat bo‘di. Demak, jamiyat buxgalteriya balansi aktivida yil boshida joriy aktivlarning ulushi asosiy o‘rinni egallagan bo‘lsa, yil oxiriga kelib uzoq muddatli aktivlarning ulushi yetakchi o‘rinni egalladi. Demak, jamiyatda uzoq muddatli aktivlar hajmini oshirish bo‘yicha tadbirlar amalga oshirilgan. Tahlil qilinayotgan korxonada muddati o‘tgan debitorlik va qarzlar mavjud emas. Bular korxona mablag‘lari tuzilmasini yaxshilaydi hamda moliyaviy holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Korxonalar o‘z mablag‘lari manbalarini tahlil qilishi ularning to‘lov layoqatiga baho berishda muhim o‘rin tutadi. Ularning mulki va mablag‘larining kelib chiqish manbalari balansning passivida ko‘rsatiladi. Bular o‘ziga qarashli va chetdan jalb qilingan manbalarga ajratiladi. Jalb qilingan manbalarga bank kreditlari va kreditorlik qarzlari kiradi.

Korxonaning o‘z mablag‘lari manbalarini tahlil qilish, avvalambor buxgalteriya balansi, passiv 1-bo‘limi asosida dastlab o‘z mablag‘lari manbalarining tarkibiy tuzilishi va o‘zgarishini aniqlashdan boshlanadi. Tahlil uchun 8.23-jadvalni havola qilamiz.

8.23-jadval

Buxgalteriya balansi passivi tarkibiy tuzilmasi va o‘ zgarishi

Ko‘rsatkichlar	Yil boshi		Yil oxiri		Farq (+, -)	
	Summa, m.s.	Sal-mog‘i, %	Summa, m.s.	Sal-mog‘i, %	Summa, m.s.	Salmo-g‘i, %
Balans passivi. Jumladan:	75098,8	100	410861	100	+335762,2	-
1.O‘z mablag‘lari manbalari. Undan:	31717,5	42,23	40983,2	9,97	-9265,7	+32,26
1.1. Ustav kapitali	38000	50,60	38000	9,25	-	-41,35
1.2. Taqsimlanmagan foyda	(-)6282,5	8,36	2983,2	0,73	-3299,3	-7,63
2. Majburiyatlar. Undan:	43381,3	57,76	369877,8	90,02	+326496,5	+32,26
2.1. Uzoq muddatli majburiyatlar:Undan:	-	-	212125	51,63	+212125	+51,63
Uzoq muddatli qarzlar	-		212125	51,63	+212125	+51,63
2.2. Joriy majburiyatlar. Undan:	43381,3	57,76	157752,8	38,39	+114371,5	-18,87
2.3. Kreditorlik majburiyatlari	43381,3	57,76	157752,8	38,39	+114371,5	-18,87

8.23-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinishicha, balansining passiv qismi yil oxirida 410861 ming so‘mni tashkil qilgan holda, 335762,2 ming so‘mga oshgan. Uning tarkibida yil boshida o‘z mablag‘lari manbalarining ulushi 42,23 foizni, majburiyatlarning salmog‘i esa 57,76 foizdan iborat bo‘lgan. Yil oxiirga kelib esa balans passivida sezilarli o‘zgarish bo‘lib, o‘z mablag‘larining passivdagi ulushi atigi 9,97 foizni, majburiyatlarning salmog‘i esa 90,02 foizdan iborat bo‘lgan.

Endi, o‘z mablag‘lari manbalarining har bir turi bo‘yicha hisobot yilidagi o‘zgarish sabablarini aniqlaymiz. Jamiyat balansining passiv qismining tarkibida ustav kapitalining salmog‘i yil boshida 50,60 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, yil oxiriga kelib 9,25 foizdan iborat bo‘ldi. Taqsimlanmagan foydaning ulushi yil oxirida 0,73 fozdan iborat bo‘ldi. Jamiyatda joriy yilda 6282,5 ming so‘mlik qoplanmagan zarar mavjud bo‘lgan.

Korxonaning majburiyatlari yil boshida 43381,3 ming so‘mni, oxirida esa 369877,8 ming so‘mni tashkil qilib, 326496,5 ming so‘mga oshdi. Yil boshida jami passivlarda uzoq muddatli majburiyatlarning ulushi mavjud emas. Joriy majburiyatlarning ulushi esa hisobot davri boshida 57,76 foizdan iborat bo‘ldi. Yil oxiriga kelib esa jami passivlarda uzoq muddatli majburiyatlarning ulushi 51,63 foizdan iborat bo‘ldi. Jamiyatda yil oxirida joriy majburiyatlar hajmi 157752,8 ming so‘mdan iborat bo‘lib, 114371,5 ming so‘mga ko‘paydi. Uning jami passivlardagi ulushi esa 38,39 foizdan iborat bo‘ldi. Jamiyat joriy majburiyatlarining asosiy qismini kreditorlik majburiyatlari tashkil qiladi. Demak, tahlil natijalaridan ko‘rinib turibdiki, Jamiyatida hisobot yili oxirida jami mulk manbalarining asosiy qismini majburiyatlarning ulushi egallagan. Bu holat salbiy baholanib, jamiyat boshqaruvi majburiyatlar hajmini kamaytirish bo‘yicha kerakli tadbirlarni amalga oshirishi lozim bo‘ladi.

Korxonaning moliyaviy holati barqaror deganda, asosan uning o‘z mablag‘larining hajmi qarzga olingan mablag‘lar hajmidan ko‘p bo‘lishi tushuniladi. O‘z mablag‘lari va qarzga olingan mablag‘larning nisbati koeffitsienti qarzga olingan mablag‘lar summasining o‘z mablag‘lari summasiga nisbati tariqasida aniqlanadi. Ushbu koeffitsient korxonaning o‘z mablag‘larining har bir so‘miga to‘g‘ri keladigan qarzga olingan mablag‘larning miqdorini ko‘rsatadi. Ushbu koeffitsient jamiyatida yil boshida 43381,3:31717,5 = 1,37 bandni, yil oxirida esa 369877,8: 40983,2= 9,02 bandni tashkil etdi yoki korxonaning yil boshida o‘z mablag‘larining har so‘miga 1,37 tiyin qarzga olingan mablag‘lar to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, yil oxiriga kelib 9,02 tiyinni tashkil qildi. Demak, korxonaning qarz mablag‘lariga qaramligi oshgan bo‘lib, bu uning moliyaviy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Korxona moliyaviy holatini tahlil qilish jarayonida ayniqsa, uning likvidligi va to‘lovga layoqatliligini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Korxona balansining likvidligi deganda, balansdagi likvid mablag‘larning balansida ko‘rsatilgan majburiyatlarni qoplash darajasi tushuniladi. Aktivlarning likvidligi – balans likvidligining aksi bo‘lib, vaqt bo‘yicha aktivlarning pul mablag‘lariga aylanishi tushuniladi.

Korxona balansi likvidligi va to‘ lov qobiliyatni ifodalovchi ko‘ rsatkichlarni tahlil qilish uning moliyaviy holatini baholashda muhim o‘ rin egallaydi. Korxona balansi likvidligini tahlil etish moliyaviy tahlilning eng asosiy bosqichlaridan biri bo‘

lib, korxonalarning hayot-mamotini, ularni bankrot bo‘ lish yoki kelgusida faoliyat kechirish muammolarini hal etishda yordam beradi.

Likvidlilik korxonaning o‘z joriy aktivlari hisobiga o‘zining qisqa muddatli (joriy) majburiyatlarini bajarishga layoqatliligini ko‘rsatadi. Balans aktivi “realizasiya qilinadigan”, ya’ni mol-mulkni istalgan vaqtda naqd pulga aylantirsa bo‘ladi. Balans aktivining moddalari yo‘q bo‘lib ketmay, balki bir shakldan boshqa bir shaklga o‘tadi. Balans passivining moddalari “uziladigan”, ya’ni ular qarzdorlik uzilishi tufayli “yo‘q bo‘lish” qobiliyatiga ega. Mana shunday “likvidlik” passivda realizasiya qilinadigan aktivlar bilan aks ettiriladigan majburiyatlarni to‘lashni anglatadi.



Balans likvidligini aniqlash dolzarbligi korxonalarni bankrotlik oqibatida tugatish muammosi yuzaga keladigan bozor sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi. Balansning likvidlik darajasini aniqlash uchun aktivning ma’lum muddatda to‘lanishi lozim bo‘lgan qismiga taqqoslanadi. Agarda aktiv moddalari realizatsiya majburiyatlarini to‘lash uchun kifoya qiladigan summasini bersa, bu ma’noda balans likvid, ya’ni korxona to‘lovga layoqatli, aks holda esa u to‘lovga layoqatsiz hisoblanadi.

Balans likvidligini kerakli darajada bo‘lishi – korxona faoliyatini davom etishi, boshqa korxona va tashkilotlar – ta’minotchi, kreditor, bank organlari va davlat byudjeti bilan me’yoriy iqtisodiy aloqalarni davom ettirish kafolatidir. Bozor munosabatlari murakkab bo‘ lib, bu vaziyatda korxona balansi likvidlik xususiyatga ega va ega bo‘lmasligi mumkin. Balansning likvidligi tasodifan, vaqtincha, uzoq muddatli va doimiy bo‘lishi mumkin. Lekin amaliyot talabi – korxonalar balansi likvidlikka ega bo‘lishidir.

Iqtisodiy adabiyotda korxonalar balansi likvidligini tahlil etish uchun har hil tizimdagi ko‘rsatkichlar tavsiya etilgan. L.V.Dontsova[19] o‘z o‘quv qo‘llanmasining “Balans likvidligi tahlili” bo‘limida qo‘shimcha ko‘rsaktichlardan, “Moliyaviy koeffitsientlar tahlili” bo‘limida asosiy ko‘rsatkichlardan foydalangan.

Balansning likvidlik xususiyati bozor munosabatlarining asosiy talablaridan biridir. Korxona likvidlik xususiyatiga ega bo‘lsa, bu korxona iqtisodiyot majmuasida faoliyat ko‘rsatishi mumkin. Agarda korxona balansi bu xususiyatga ega bo‘lmasa, u boshqa korxona va tashkilotlar bilan me’yoriy ravishda iqtisodiy aloqalarni olib borolmaydi va faoliyat kechirishi og‘irlashib ketadi. Demak, balans likvidligi katta ahamiyatga ega bo‘lib, uni tahlil qilib turish obyektiv zaruratdir.

Balansning likvidlik ko‘rsatkichlarni aniqlash hisob-kitobi usulini 8.24-jadvalda keltiramiz.

[19] Донцова Л.В., Никифирова Н.А. Анализ бухгалтерской (финансовой) отчетности. Практикум. –М.: Дело и сервис, 2018.

8.24-jadval

Buxgalteriya balansi likvidligini tahlil qilishni hisob-kitob usuli

Aktiv	Balans satrlari	Passiv	Balans satrlari
1	**2**	**3**	**4**
Doimiy harakatdagi aktivlar (A1)	320+..+370-satr №1-shakl	Zudlik bilan to‘ lanadigan majburiyatlar (P1)	601-satr №1-shakl
Tez sotiladigan aktivlar (A2)	210-211+380-satr №1-shakl	Qisqa muddatli passivlar (P2)	730+740- satr №1-shakl
Sekin sotiladigan aktivlar (A3)	030+140+190+200 satr №1-shakl	Uzoq muddatli passivlar (P3)	570+580- satr №1-shakl
Qiyin sotiladigan aktivlar (A4)	012+022+090+100+110 +120- satr №1-shakl	Doimiy passivlar (P4)	480-satr №1-shakl
Balans A1+A2+A3+A4		Balans P1+P2+P3+P4	

Balansning mutlaq likvidligini aniqlash uchun bir yo‘la quyidagi holatga erishish lozim: A1 > P1 ,A3 > P3 , A2 > P2, A4 < P4. Endi balansning likvidligini tahlil qilish uchun quyidagi jadvalni tuzamiz (8.25-jadval).

8.25-jadval

Buxgalteriya balansi likvidligining tahlili

Aktiv	Yil boshi	Yil oxiri	Passiv	Yil boshi	Yil oxiri	To‘lov manbalarining ortiqcha yoki yetishmasligi	
						Yil boshiga	Yil oxiriga
A	**1**	**2**	**B**	**3**	**4**	**5(1-3)**	**6(2-4)**
A1	482	1450	P1	43381,3	157752,8	+42899,3	+156302,8
A2	74616,8	159511	P2	-	-	-74616,8	-159511
A3	-	-	P3	-	212125	-	+212125
A4	-	249900	P4	31717,5	40983,2	+31717,5	-208916,8
Balans	**75098,8**	**410861**	**Balans**	**75098,8**	**410861**	-	-

Aktivlar, kapital va majburiyatlarni o‘zaro taqqoslash asosida buxgalteriya balansi likvidligiga baho beriladi. Bunda quyidagi mezonga tayaniladi;

A1>P1, A2>P2, A3>P3, A4<P4 = to‘la likvid korxona;

A1>P1, A2>P2, A3>P3, A4<P4 = likvidl korxona;

A1>P1, A2<P2, A3>P3, A4<P4 = nolikvid korxona;
A1>P1, A2<P2, A3<P3, A4<P4 = bankrot korxona.

Yuqoridagi mezonga tayangan holda xo‘jalik subyektlarining moliyaviy barqrorligidagi o‘zgarishlariga davriy baho berish mumkin.

Demak, quyidagi shartlarga amal qilinsa, korxona mablag‘i harakatchan deb baholanadi:

A 1 doimiy harakatdagi aktivlar > P 1muddati kelgan to‘lov majburiyatlar;
A 2 tez sotiluvchi aktivlar > P 2 qisqa muddatli passivlar;
A 3 sekin sotiluvchi aktivlar > P 3 uzoq muddatli passivlar;
A 4 qiyin sotiluvchi aktivlar < P 4 doimiy passivlar

Ma’lumotlarga asoslangan holda yuqoridagi shartlar bajarilishini tekshiramiz (8.26-jadval).

8.26-jadval

Buxgalteriya balansi likvidligini baholash

№	Ko‘rsatkich	Yil boshiga	№	Yil oxirida
1.	A1>P1	482<43381,3	1.	1450<157752,8
2.	A2>P2	74616,8>0	2.	159511> 0
3.	A3>P3	-	3.	0 < 212125
4.	A4<P4	0<31717,5	4.	249900> 40983,2

Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, biz tahlil qilayotgan korxonada balans likvidligiga qo‘yilgan to‘rtta shartdan birinchisi yil boshida ham, yil oxirida ham bajarilmagan. Ya’ni, korxonaning doimiy harakatdagi aktivlari uning muddati kelgan to‘lov majburiyatlarini qoplashga yetishmas ekan. Bu esa korxona balansining tez likvidlikka ega emasligidan dalolat beradi. Ikkinchi guruh qo‘yilgan shartga to‘g‘ri keladi. Chunki jamiyatda hisobot davrida qisqa muddatli bank kreditlari bo‘lmagan. Uchinchi A3 va P3 guruhlarda ham shart yil boshiga, ham yil oxiriga ham bajarilmagan. To‘rtinchi guruhda esa jamiyatda hisobot yili boshiga uzoq muddatli aktivlar bo‘lmaganligi uchun shart bajarilgan. Yil oxirida esa qiyin sotiladigan aktivlar doimiy passivlardan ko‘ p bo‘ lgan. Bu esa qo‘yilgan shartga to‘g‘ri kelmaydi. Bundan ko‘rinadiki, korxona balansi mutlaq likvidlikka ega emas. Bunday natijalarni salbiy baholasak bo‘ladi.

Balansning likvidligi va to‘lovga layoqatliligini tahlil qilish ehtiyoji korxona moliyaviy mablag‘larda cheklanganligi, shuningdek, investorlar, aksiyadorlar va turli kreditorlar uchun to‘lovga layoqatliligini aniqlash zaruriyati munosabati bilan yuzaga keladi. Balansning likvidligini tahlil qilishda korxonaning to‘lash qobiliyati ham baholanishi zarur.

Korxonaning to‘lov qobiliyati eng muhim ko‘rsatkich hisoblanib, u korxonaning moliyaviy holatining barqarorligini ifodalaydi.

To‘lov qobiliyati deganda, xo‘jalikning muddati kelgan to‘lov majburiyatlarini bajarish uchun zarur bo‘lgan mablag‘larning yetarli yoki kamchiligini aniqlash tushuniladi.

To‘lov mablag‘lariga pul mablag‘lari, jo‘natilgan tovar va mahsulotlar qiymati (hali pul kelib tushmagan), debitor sotishdan tushgan tushum va boshqalar kiradi. Shuningdek, qisqa muddatga olingan ssudalar ham vaqtincha to‘lov majburiyatlarini amalga oshirish uchun manba bo‘lishi mumkin. Qimmatli qog‘oz, aksiya, obligatsiya sotishdan olingan mablag‘ va qo‘shma korxonalar qatnashuvidan kelgan daromadlar ham to‘lov majburiyatlarini bajarishdagi manba bo‘lishi kerak. To‘lov majburiyatlariga - mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga, budjet va sug‘urtaga, mehnat haqi, turli hil kreditorlarga bo‘lgan qarzlar kiradi. Korxonaning ma’lum bir kundagi to‘lov qobiliyatini aniqlash uchun shu muddatdagi to‘lov majburiyatlari bilan mablag‘lar solishtiriladi. Korxona to‘lov qobiliyatiga ega bo‘lishi muhim va bu uning o‘z vaqtda zarur bo‘lgan qarzlarni qaytarish imkoniyatlarini belgilaydi.

Korxona balansi likvidligini aniqlash maqsadida balansning ma’lum moddalari va moliyaviy hisobotning boshqa turlarini aks ettiruvchi koeffitsientlar tarzidagi ko‘rsatkichlarning butun bir tizimi hisoblab chiqiladi.

Korxonaning to‘lov qobiliyati eng muhim ko‘rsatkich hisoblanib, u korxona moliyaviy holatining barqarorligini ifodalaydi. To‘lov qobiliyati korxonaning o‘z aylanmma mablag‘larining saqlanuvchanligi, tez pulga aylanadigan (likvid) aylanma aktivlarning holatiga ulardan samarali foydalanishiga bog‘liq.

Balansni to‘lov qobiliyatini ifodalovchi koeffitsientlar quyidagilar hisoblanadi:

1.Mutloq to‘lov qobiliyati koeffitsienti pul mablag‘larini joriy majburiyatlardagi ulushini tavsiflaydi. Aylanma mablag‘larning eng mobil (xarakatchan) qismi pul mablag‘lari hisoblanadi. Ushbu ko‘rsatkich qisqa muddatli majburiyatnint har bir so‘miga to‘g‘ri keladigan pul mablag‘larini xarakterlaydi.

Mutloq to‘lov qobiliyati koeffitsienti asosida shu vaqtdagi majburiyatlarni qoplash uchun naqd pul mablag‘lari mavjudligini aniqlash mumkin. Bu birinchi navbatda mazkur korxonaga mahsulot yetkazib beruvchilar uchun ahamiyatli. Bu ko‘rsatkichni normadagi darajasi bo‘lib >0,2 <0,7 hisoblanadi. Ushbu koeffitsientni ahamiyati agar 0,2 dan kam, 0,7 dan yuqori bo‘lmasa, u holda nazariy jihatdan korxonaning to‘lov qobiliyati ta’minlangan bo‘ladi. Aniqlanishi: 1-sh. 320-satr : 1-sh. 600-satr. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan 207-sonli qarorda[20] ham mazkur koeffitsientni yuqorida ko‘rsatilgan hisob-kitob asosida tahlil qilish tavsiya qilingan bo‘lib, uning me’yori 0,2 dan kam bo‘lmasligi kerak.

2. Oraliq to‘lov qobiliyati koeffitsienti. Oraliq to‘lov qobiliyati koeffitsienti joriy majburiyatlardagi pul mablag‘lari, hisob-kitoblar va boshqa aktivlar ulushini tavsiflaydi. Ushbu koeffitsient korxonaning likvid aktivlar hisobidan joriy majburiyatlarini uzish qobiliyatini ko‘rsatadi.

[20] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015- yil 28- iyuldagi "Davlat ulushi bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to‘g‘risida"gi 207-sonli qarori.

Oraliq to‘lov qobiliyati koeffitsienti ko‘rsatkichining yuqoriligi moliyaviy xavf darajasining pastligidan va chetdan qo‘shimcha moliyaviy mablag‘larni jalb qilish uchun yaxshi imkoniyatlar borligidan dalolat beradi. Bu ko‘rsatkich kredit berishda banklar va kredit beruvchi boshqa muassasalarni qiziqtiradi. Ushbu koeffitsientning normadagi darajasi bo‘lib > 0,7 <2,0 hisoblanadi. Aniqlanishi: 1sh.210+..320+370-satr : 1 sh. 600-satr.

3. Joriy to‘lov qobiliyati koeffitsienti. Joriy to‘lov qobiliyati koeffitsienti joriy majburiyatlar aylanma mablag‘lar bilan qay darajada ta'minlanishiga ko‘ra, ya’ni aylanma aktivlarga qo‘yilgan moliyaviy resurslarning necha so‘mi joriy majburiyatlarning bir so‘miga to‘g‘ri kelishini tavsiflab, korxonaning to‘lovga layoqatliligiga umumiy baho beradi.

Bu ko‘rsatkichning o‘sishi ijobiy deb qaraladi. Ammo bu ko‘rsatkichning jiddiy o‘sishi nomaqbul bo‘lib, ishlab chiharish zaxiralariga joylangan mablag‘lar aylanuvchanligi susayganidan, debitorlik qarzlarining asossiz ko‘payishidan dalolat beradi. Ushbu koeffitsientning normadagi darajasi bo‘lib, >1,25 <3,0, ya’ni ahamiyati 1,25 dan 3 gacha bo‘lishi nazariy jihatdan asoslangan. Agar ushbu koeffitsientning ahamiyati 1,25 dan kam bo‘lsa, u holda korxona uchun moliyaviy xavf-xatar tug‘iladi. Chunki bu salbiy holat bir so‘mlik qisqa muddatli qarzlarga bir so‘mdan kam joriy aktivlar to‘g‘ri keladi degani. Ushbu koeffitsientning ahamiyati 3 dan ko‘p bo‘lishi maqsadga muvofiq emas, zero menejment nuqtai nazaridan aktivlarni boshharish borasidagi uquvsizlikdan dalolat beradi. Aktivlarning keragidan ko‘p jamlanishi ulardan samarali foydalanishga olib kelmaydi. Lekin joriy likvidlik koeffitsientini ahamiyati 3 dan ko‘p bo‘lishi kreditorlarni korxonaga sarmoya qo‘yishga ko‘proq jalb etadi. Aniqlanishi: 1sh. 390-satr : 1sh.600-satr.

Endi ushbu koeffitsientlarni tahlil qilish uchun 8.27-jadvalni havola qilamiz.

8.27-jadval

Buxgalteriya balansi to‘lov qobiliyatini ifodalovchi koeffitsientlari tahlili

№	Koeffitsientlar	Me’yori	Yil boshi	Me’yor farqi (+,-)	Yil oxiri	Me’yor farqi (+,-)
1.	Mutlaq to‘lov qobiliyati	>0,2<0,7	0,01	-0,19	0,009	-0,191
2.	Oraliq to‘lov qobiliyati	>0,7<1,25	1,73	+1,03	1,02	+0,32
3.	Joriy to lov qobiliyati	>1,25<3	1,73	+0,48	1,02	-0,23

8.27-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinishicha, mutlaq to‘lov qobiliyati koeffitsienti yil boshida 0,01 bandni, yili oxirida esa 0,009 bandni tashkil qilib, me’yordan kam bo‘lgan. Oraliq to‘lov qobiliyati koeffitsienti yil boshida 1,73 bandni tashkil qilib, me’yordan yuqori bo‘lgan bo‘lsa, yil oxirida 1,02 bandni tashkil qilgan holda me’yor dorasida bo‘lgan. Joriy to‘lov qobiliyati koeffitsiyenti yil boshida me’yor doirasida bo‘lib, 1,73 koeffitsientni tashkil qiladi. Mazkur koeffitsient yil oxirida me’yordan kam bo‘lgan, ya’ni 0,48 banddan iborat. Demak, korxonaning to‘lov qobiliyati koeffitsientlarining aksariyat qismi hisobot davri davomida me’yor doirasida bo‘lmagan.

Shu tariqa hisoblab chiqarilgan likvidlik va to‘lov qobiliyati ko‘rsatkichlari korxonaning turli davrlaridagi balanslarini, shuningdek, moliyaviy holatni baholash maqsadida turli korxonaning balansini taqqoslash imkonini beradi.

Likvidlik va to‘lov qobiliyati ko‘rsatkichlari belgilangan me’yorlardan past bo‘lgan va yomonlashib borayotgan korxonalar bankrot deb topilishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasi “Bankrotlik to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq, kreditorlarning pul mablag‘lari bo‘yicha talablarini to‘liq hajmda qondirishga, shu jumladan soliqlar, yig‘imlar, budjetga va budjetdan tashqari fondlarga boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashga qodir bo‘lmagan korxonalar bankrot (iqtisodiy jihatdan nochor) deb hisoblanadi. Korxonani bunday ahvolga olib bormaslik uchun uning likvidligi va to‘lov qobiliyati muntazam tahlil qilib borilishi hamda baholab turilishi kerak.

Korxonalarda likvidlik va to‘lov qobiliyatining yaxshilanishiga quyidagi yo‘llar bilan erishiladi:

- mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish hajmini ko‘paytirish;
- tugallanmagan ishlab chiqarish va tayyor mahsulot qoldiqlarini qisqartirish;
- debitorlik va kreditorlik qarzlarini kamaytirish hamda ular yuzasidan muddati o‘tkazib yuborilgan qarzlarni to‘lash;
- o‘z majburiyatlari bo‘yicha vaqtida hisob-kitob qilish hamda muddati o‘tkazib yuborilgan qarzlarni to‘lash;
- joriy aktivlardagi o‘z aylanma mablag‘lari ulushini ko‘paytirish;
- aylanma mablag‘lar aylanish tezligini oshirish.

Likvidlik va to‘lov qobiliyati darajasi ko‘p jihatdan korxonaning moliyaviy barqarorligi hamda iqtisodiy baquvvatligiga bog‘liq bo‘ladi. Moliyaviy barqaror korxona deganda, korxona aktivlariga qo‘yilgan mablag‘larni o‘z mablag‘lari hisobiga qoplaydigan, muddati o‘tgan debitorlik va kreditorlik qarzlariga yo‘l qo‘ymaydigan hamda o‘z majburiyatlarini o‘z vaqtida bajaradigan korxona tushuniladi. Moliyaviy barqarorlik koeffitsientlarining ahamiyati asosan kreditorlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ularga mustaqillik, moliyaviy qaramlik va moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari kiradi[21]:

Mustaqillik koeffitsienti. Ushbu ko‘rsatkich korxona mablaglarining qarz mablaglariga qaram emasligini tavsiflaydi. U o‘z mablaglarining xo‘jalik mablaglari umumiy summasiga nisbati tariqasiga aniqlanadi. Ushbu ko‘rsatkichning ahamiyati 0,5 dan kam bo‘lmasligi kerak. Binobarin, mazkur ko‘rsatkichning o‘sishi moliyaviy mustaqillikning ortishi va moliyaviy qiyinchiliklar xavfining kamayishini ko‘rsatadi.

Moliyaviy qaramlik koeffitsienti. Ushbu ko‘rsatkich korxonani o‘z mablag‘larining bir so‘miga qancha xo‘jalik mablag‘lari to‘g‘ri kelishini ko‘rsatadi va xo‘jalik mablag‘larining o‘z sarmoyasiga nisbati sifatida aniqlanadi. Ushbu koeffitsientni ahamiyati 2 dan kam bo‘lmasligi kerak.

Moliyaviy barqarorlik koeffitsienti. U o‘z mablag‘larining qarz mablag‘lariga nisbati sifatida aniqlanadi. Bu ko‘rsatikchning ahamiyati birdan kam bo‘lmasligi kerak.

[21] Shoalimov A.X., Tojiboyeva Sh. A. Iqtisodiy tahlil nazariyasu. O‘quv qollanma. –T.:Iqtisodiyot, 2012.

DontsovaL.V., va Nikifirova N.A.larning o‘quv qo‘llanmasida korxonaning moliyaviy barqarorligini tahlil qilish uchun quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalanish tavsiya qilingan[22]:

- o‘zlik manbalar koeffitsienti;
-o‘zlik va majburiyatlar nisbati;
- chaqqonlik koeffitsienti;
- haraktchan va harakatsiz mablag‘lar nisbati;
- qisqa muddatli qarzlar koeffitsienti;
- zaxira va xarajatlarning shakllanishida mustaqil manbalar koeffitsienti;
- kreditorlik qarzlar koeffitsienti;

Iqtisodchi olimlarning tavsiyalariga ko‘ra moliyaviy barqarorligini belgilovchi eng muhim ko‘rsatkichlar quyidagilardan iboratdir[23] (8.28-jadval).

8.28-jadval

Moliyaviy barqarorlik koeffitsientlarining hisob-kitob usuli

Ko‘rsatkichlar	Aniqlash tartibi
1. Qarzga olingan va o‘z mablag‘larining nisbati koeffitsienti	1-shakl.770 satr / 1-shakl.480 satr
2. Jami mablag‘dagi korxonaning o‘ziga qarashli mablag‘ ulushi koeffitsienti	1-shakl.480 satr / 1-shakl.780 satr
3. Korxona jami mulkida asosiy va moddiy aylanma mablag‘larning ulushi koeffitsienti	1-shakl 130+140 satr / 1-shakl. 400 satr
4. Korxona jami mulkida uzoq muddatli aktivlar ulushi koeffitsienti	1-shakl. 130 satr / 1-shakl.400 satr
5. O‘z mablag‘lari bilan ta’minlanishi koeffitsienti	1-shakl.480-130 / 1-shakl.390 satr
6. Jalb qilingan kapital tarkibi koeffitsienti	1-shakl.570+580 / 1-shakl. 770 satr
7. Joriy aktivlarning qarzga olingan kapitalga nisbati koeffitsienti	1-shakl.390 satr / 1-shakl. 770 satr
8. O‘ziga qarashli mablag‘larning chaqqon harakatchanlik koeffitsienti	1-shakl.390 satr / 1-shakl. 400 satr

Endi yuqoridagi moliyaviy barqarorlik koeffitsientlarini tahlil qilish uchun qyuidagi 8.29-jadvalni tuzamiz.

8.29- jadval

Moliyaviy barqarorlik koeffitsientlari tahlili

№	Ko‘rsatkichlar	Yil boshi	Yil oxiri	Farqi (+,-)
1.	Qarzga olingan va o‘z mablag‘larining nisbati koeffitsienti	1,37	9,02	+7,65
2.	Jami mablag‘ dagi korxonaning o‘ziga qarashli mablag‘ ulushi koeffitsienti	0,73	0,11	-0,62

[22] Донцова Л.В., Никифирова Н.А. Анализ бухгалтерской (финансовой) отчетности. Практикум. –М.: Дело и сервис, 2018.

[23] Shoalimov A.X., Ilxamov Sh.I., Tojiboyeva Sh. A. Iqtisodiy tahlil va audit. Darslik. –T.:Sano-standart, 2017.

8.29- jadvalni davomi

3.	Korxona jami mulkida asosiy va moddiy aylanma mablag‘larning ulushi koeffitsienti	-	0,61	+0,61
4.	Korxona jami mulkida uzoq muddatli aktivlar ulushi koeffitsienti	-	0,61	+0,61
5.	O‘z mablag‘lari bilan ta’minlanishi koeffitsienti	0,42	1,30	+0,88
6.	Jalb qilingan kapital tarkibi koeffitsienti	-	0,57	+0,57
7.	Joriy aktivlarning qarzga olingan kapitalga nisbati koeffitsienti	1,73	0,43	-1,3
8.	Korxonaning o‘ziga qarashli mablag‘larning chaqqon harakatchanlik koeffitsiyenti	1	0,39	-0,61

8.29-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, moliyaviy ahvoliga to‘g‘ri baho berish uchun buxgalteriya balansiga asoslangan holda moliyaviy koeffitsientlardan foydalanamiz. Shunga ko‘ra, korxonaning qarzga olingan va o‘z mablag‘larining nisbati koeffitsienti yil boshiga nisbatan 7,65 koeffitsientga oshgan. Demak, korxonada qarz mablag‘lariga ehtiyoj ko‘paygan. Jami mablag‘dagi korxonaning o‘ziga qarashli mablag‘ ulushi koeffitsienti yil boshiga nisbatan 0,62 koeffitsientga kamayganligi ham salbiy holat hisoblanadi. Mazkur koeffitsientlarning bunday tartibda o‘zgarishi korxonaning moliyaviy holatini joriy yil boshiga nisbatan yil oxirida birmuncha yomonlashib borayotganligidan dalolat beradi. Bundan tashqari korxonada joriy aktivlarning qarzga olingan kapitalga nisbati koeffitsientini 1,3 bandga kamayganligini ham salbiy baholamoq lozim, ya’ni bu korxona majburiyatlarining oshganligidan dalolatdir. Korxona jami mulkida uzoq muddatli aktivlar ulushi koeffitsienti esa yil oxirida 0,0,61 koeffitsientni tashkil qiladi. Tadqiqotlar natijasida korxona moliyaviy barqarorligining darajasi yomon emas deb xulosa berish mumkin.

Korxonaning moliyaviy holatini baholashda uning ish faolligi bilan bog‘liq ko‘rsatkichlarni tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bular qatoriga aylanma mablag‘larni, debitorlik va kreditorlik qarzlarining, xususiy kapital hamda Qarz mablag‘larning aylanish ko‘rsatkichlari kiradi. Ish faolligining aylanish ko‘rsatkichlari bir qancha. Ularning eng asosiylari quyidagilar:

1. Jami aktivlarning aylanish koeffitsienti. U sof tushumni korxona jami aktivlarining o‘rtacha yillik qiymatiniga nisbati sifatida aniqlanadi.

2. Aylanma mablag‘larning aylanish kuni. Ushbu ko‘rsatkichlarni aniqlash uchun aylanma mablag‘larning o‘rtacha yillik qiymatini 360 ga ko‘paytirib, mahsulot sotilishdan tushgan sof tushumga bo‘lish kerak.

3. Qarz mablag‘larining aylanish kuni. Uni aniqlash uchun qarz mablag‘larining o‘rtacha yillik qiymatini 360 ga ko‘paytirib, sof tushumga bo‘linadi.

4. Qarz mablag‘larining aylanish koeffitsienti. U sof tushumni qarz mablag‘larining o‘rtacha yillik qiymatiga nisbati sifatida aniqlanadi.

Debitor qarzlari, deganda aynan tahlil qilinayotgan korxona aylanma mablag‘ larining bir qismi boshqa korxonalar aylanmasida qatnashishi tushuniladi. Kreditor qarzlari deganda esa o‘zga korxonalar aylanma mablag‘larining bir qismi aynan tahlil qilinayotgan korxona aylanmasida qatnashishi tushuniladi. Ko‘pgina korxonalar moliyaviy holatini yomonlashuvi omillaridan biri – katta summadagi muddati o‘tgan debitorlik va kreditorlik qarzlarining hosil bo‘lishidir.

Korxonalarda o‘tkaziladigan moliyaviy holat tahlilining muhim qismini aylanma mablag‘lardan samarali foydalanganlikni o‘rganish egallaydi, bunda, aylanma mablag‘lar ayniqsa, ishlab chiqarish zaxiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot, debitorlik qarzlari, pul va valyuta mablag‘lari, qimmatli qog‘ozlar harakatini o‘rganish muhimdir.

Aylanma mablag‘lardan foydalanish samaradorligi ular aylanishi, rentabelligi va mablag‘lar aylanishi tezlashishi (sekinlashishi) oqibatida ozod bo‘lgan (qo‘shimcha jalb qilingan) mablag‘lar summasi bo‘yicha topiladi.

Iqtisodchi olimlar[24] tomonidan: “Aylanma mablag‘larni aylanuvchanligi deganda, ularning pulga aylanish tezligi tushuniladi” deb fikr birdilirgan. Aylanuvchanlik korxona faoliyatining samaradorligini tavsiflovchi ko‘rsatkich bo‘lib, u asosda biznesni boshqarishda resurslar cheklanganligi va ulardan unumli foydalanish darajasi tahlil qilinadi va uning muhim yo‘nalishlari belgilanadi.

Aylanma mablag‘larni aylanishini tahlil qilganda quyidagi ko‘rsatkichlar aniqlanadi:

1. Aylanish koeffitsienti = mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan sof tushum/aylanma mablag‘larning o‘ rtacha yillik qiymati.

2. Aylanish kuni = aylanma mablag‘larning o‘rtacha yillik qiymati x hisobot davr kuni (360) /mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan sof tushum

3. Aylanish salmog‘i koeffitsienti = aylanma mablag‘larning o‘rtacha yillik qiymati / mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan sof tushum.

Endi aylanma mablag‘larni aylanish ko‘rsatkichlarini tahlil qilish uchun quyidagi 8.30-jadvalni keltiramiz.

8.30-jadval

Aylanma mablag‘lari aylanish ko‘ rsatkichlarinii tahlili

№	Ko‘rsatkichlar nomi	Yil boshi	Yil oxiri	Farqi (+,-)
1.	Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan sof tushum, m.s.	7800	12714,4	+4914,4
2.	Aylanma mablag‘ larning yillik qiymati, m.s.	69311,5	118029,9	+48718,4
3.	Aylanma mablag‘larni aylanish koeffitsienti (1/2)	0,11	0,12	+0,01
4.	Aylanma mablag‘larni aylanish davri, kun hisobida (2x360/1)	3198,9	3341,9	+143
5.	Aylanish salmog‘i koeffitsienti (2\1)	8,89	9,28	+0,39
6.	Bir kunlik oborot (1/360)	21,67	35,32	+13,65
7.	Aylanma mablag‘larni aylanishini sekinlashuvi natijasida qo‘shimcha mablag‘larni jalb qilish (+): +1436x 35,32= +5050,76 m.s.			+5050,76

[24]Shoalimov A.X., Ilxamov Sh.I., Tojiboyeva Sh. A. Iqtisodiy tahlil. Darslik. –T.:Sano-standart, 2017..

8.30-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, biz tahlil qilayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatida hisobot davrida mahsulotlarni sotishdan olingan sof tushum miqdori 4914,4 ming so‘mga oshgan. Aylanma mablag‘larning o‘rtacha yillik qiymati esa 48718,4 ming so‘mga o‘sgan. Bularning natijasida aylanma mablag‘larning aylanish koeffitsienti o‘tgan yilgi 0,11 koeffitsientdan hisobot yiliga kelib 0,12 koeffiiientga oshgan. Aylanish davri esa o‘tgan yilga nisbatan 143 kunga oshgan, ya’ni sekinlashgan. Aylanish salmog‘i koeffitsienti esa hisobot yili oxirida 9,28 koeffitsientni tashkil qilgan holda 0,39 koeffitsientga ko‘paygan.

Aylanma mablag‘larni aylanishini tezlashuvi natijasida qancha aylanma mablag‘larni ishlab chiqarishdan ozod qilinganligini yoki aylanma mablag‘larni aylanishini sekinlashuvi natijasida qancha aylanma mablag‘larni qo‘shimcha ishlab chiqarishga jalb etilishini aniqlash uchun aylanma mablag‘larning aylanishini tezlashgan yoki sekinlashgan kunini bir kunlik oborot summasiga ko‘paytirish kerak. Aylanma mablag‘larning aylanishini tezlashuvi aylanma mablag‘larni ishlab chiqarishdan bir qismining ozod qilinishiga, aylanma mablag‘larning sekinlashuvi esa ishlab chiqarishga aylanma mablag‘larni qo‘shimcha jalb qilinishiga olib keladi.

Jamiyatida aylanma mablag‘lar aylanishini sekinlashuvi natijasida oborotga 5050,76 ming so‘m (+1436x 35,32= +5050,76 m.s.) qo‘shimcha mablag‘ larni jalb qilishi lozim bo‘ladi. Demak, aylanma mablag‘larning aylanib turishini tahlil qilish – ularni moliyaviy holati barqarorligi tahlilining asosiy bosqichlaridan biri bo‘lib, u hamma vaqt korxona rahbari, tahlilchilar va auditorlarning e’tibor markazida bo‘lishi lozim.

Aylanma mablag‘lardan samarali foydalinsh ko‘rsatkichlari tahlilida rentabellik darajasini tahlil qilish muhim masala hisoblanadi. Rentabellik foyda olish darajasi, sarflangan xarajat yoki kapital hisobiga to‘g‘ri keladigan foyda hajmini belgilaydi. Aylanma mablag‘lar rentabelligi darajasi korxonalarning aylanma mablag‘lardan foydalanish (samarodorlik) darajasini ko‘rsatadi. Rentabellik darajasi korxonaning har so‘mlik aylanma mablag‘laridan qancha foyda olganligini ko‘rsatadi. Tahlil uchun quyidagi jadvalni tuzamiz (8.31-jadval).

8.31-jadval

Aylanma mablag‘lar rentabellik darajasining tahlili

№	Ko‘rsatkichlar	Yil boshi	Yil oxiri	Farqi(+,-)
1.	Sof foyda, m. s.	321835,64	1029463,30	+707627,66
2.	Aylanma mablag‘larning yillik qiymati, m. s.	2596096,60	4102954,20	+1506857,6
3.	Aylanma mablag‘larning rentabellik darajasi (1x100:2), foiz	12,40	25,09	+12,69

8.31-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinishicha, yil boshida aylanma mablag‘larning rentabellik darajasi 12,04 foizni, oxirida esa 25,09 foizni tashkil qilgan holda 12,69 foizga oshgan. Bu o‘zgarishga ta’sir qiluvchi omillar hisob-kitobini quyidagi 8.32-jadvalda keltiramiz.

8.32-jadval

Aylanma mablag‘lar rentabellik darajasini o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi omillar hisob-kitobi

Hisobning tartib soni	Almashtirish-ning tartib.	Omillar		Umumlashgan ko‘rsatkich – Aylanma mablag‘lar rentabellik darajasi, %	Oldingi hisobga nisbatan farq (+.-)
		Sof foyda	Aylanma mablag‘larning yillik qiymati		
A	V	1	2	3(1x100:2)	4
1	-	321835,64	2596096,60	12,40	-
2	1	1029463,30	2596096,60	39,65	+27,25
3	2	1029463,30	4102954,20	25,09	-14,56

Omillar balansi: +12,69 %.

8.32-jadvaldan ko‘ rinishicha, tahlil obyektida sof foyda hajmining 707627,66 ming so‘mga oshishi natijasida aylanma mablag‘lar rentabellik darajasi 27,25 foizga ko‘paygan. Aylanma mablag‘lar o‘rtacha miqdorini hisobot yili oxirida 1506857,6 ming so‘mga ko‘payishi natijasida esa uning rentabellik darajasi 14,56 foizga kamaydi. Hisoblangan ikki omilning ta’siri quyidagi natijani berdi: 27,25 + (-14,56)= +12,69 foiz.

Korxonalarda aylanma mablag‘larni rentabellik darajasini oshirish bo‘yicha quyidagi tavsiyalarin berish mumkin:

- aylanma mablag‘lar immobilizasiyasiga yo‘l qo‘ymaslik;
- aylanma mablag‘lar aylanishini tezlashtirish choralarini belgilash;
- sifat evaziga mahsulot bahosini oshirish;
- bir so‘mlik mahsulot uchun qilinadigan moddiy xarajatlarni qisqartirish;
- ishlab chiqarishni modernizasiya, rekonstruksiya, diversifikasiya qilish va innovasiya texnologiyalarini jalb qilish;
- ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish natijasiga ko‘ra material sig‘ imi, fond sig‘ imi, amortizasiya sig‘imini pasaytirish;
- import o‘rnini bosadigan zamonaviy mahalliy xom ashyo va materiallardan foydalanish;
- mahsulot raqobatbardoshligini va sifatini oshirish, assortimentini yangilash.

Tavsiya qilingan yuqoridagi tadbirlarni korxona amaliy faoliyatiga tatbiq qilinishi ularning moliyaviy holati barqarorligi darajasini oshirish imkonini beradi.

Qisqa xulosa

Ushbu mavzuni o‘rganish natijasida talabalar korxonalarning xo‘jalik va moliyaviy faoliyatiga baho berish tamoyillarini, ularning iqtisodiy va moliyaviy salohiyatini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkichlarini tahlil qilish usullarini bilishlari zarur.

Talaba bilimini nazorat qilish hamda mustahkamlashga oid savol va topshiriqlar

1. Sotilgan mahsulot hajmiga qanday omillar ta’sir ko‘rsatadi?
2. Mehnat unumdorligi hajmiga qanday omillar ta’sir ko‘rsatadi?

3. Asosiy fondlarning texnik holati va samarali foydalanishni ifodalovchi ko‘rsatkichlar.

4. Material samarasi va material sig‘imi ko‘rstkichlari qanday aniqlanadi?

5. Balans likvidligi deganda nima tushuniladi va likvidlilik koeffitsientlari qanday aniqlanadi?

6. Korxonaning moliyaviy barqarorligini ifodalovchi koeffitsientlar qanday aniqlanadi?

7. Aylanma mablag‘larni aylanish kuni qanday aniqlanadi va unga qanday omillar ta’sir qiladi

8. Aylanma mablag‘larni aylanish kuni qanday aniqlanadi va unga qanday omillar ta’sir qiladi?

9. Moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko‘rsatkichlar qanday aniqlanadi?

1-topshiriq:

Quyidagi berilgan ma’lumotlar asosida mehnat unumdorligi ko‘rsatkichlarini aniqlang va tahlil qiling.

Ko‘rsatkichlar	**O‘lchov birligi**	**O‘tgan yili**	**Hisobot yili**	**Mutloq farq (+, -)**
1. Tovar mahsuloti	ming so‘m	505120	558900	
2. Sanoat ishlab chiqarish xodimlarining ro‘yxatdagi o‘rtacha soni	kishi	4041	3914	
3. Jumladan : ishchilar	_'_	3373	3259	
4. Bir ishlovchiga to‘g‘ri keluvchi yillik ish unumi	So‘m			
5. Bir ishchiga to‘g‘ri keluvchi yillik ish unumi	_'_			

2-topshiriq:

Quyida berilgan jadval ma’lumotlari asosida asosiy ishlab chiqarish fondlaridan samarali foydalanish ko‘rsatkichlarini aniqlang va tahlil qiling.

Ko‘rsatkichlar	**O‘lchov birligi**	**O‘tgan yil**	**Hisobot yil**	**Mutlaq farq (+, -)**
1. Tovar mahsuloti	Ming so‘m	505120	558900	
2. Sanoat ishlab chiqarish asosiy fondlarining o‘ rtacha yillik qiymati	_'_	487940	531450	
3. Fond samarasi	So‘m,tiyin			
4. Fond sig‘imi	_'_			

3-topshiriq:

Quyida berilgan jadval ma’lumotlariga asosan materiallardan samarali foydalanishga baho bering.

Ko‘rsatkichlar	**O‘lchov birligi**	**O‘tgan yil**	**Hisobot yil**	**Mutlaq farq (+, -)**
1. Moddiy xarajatlar	Ming so‘m	263540	285760	
2. Tovar mahsuloti	_'_	505120	558900	
3. Material samarasi (0,01 aniqlikda)	So‘m,tiyin			
4. Material sig‘imi (0,0001 aniqlikda)	So‘m,tiyin			

4-topshiriq.

Bir so‘mlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajatlarni tahlil qiling va xulosa yozing.

Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yil	Hisobot yili	
		Biznes-reja bo‘yicha	Haqiqatda
1	2	3	4
1.Tovar mahsulotining ishlab chiqarish tannarxi, ming so‘m	256892,1	276452,7	281026,9
2.Tovar mahsulotining hajmi ming so‘m	301224,7	312521,4	318419,1
3.Bir so‘mlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajat, tiyin	?	?	?

5-topshiriq.

”Buxgalteriya balansi” (1-shakl) malumotlari asosida korxonaning to‘lov qobiliyati koeffitsientlarini hisoblab toping. Jadvalga tegishli xulosa yozib, tavsiyalar bering.

T.s	Koeffitsientlar	Hisoblash formulasi	Me’yori	Yil boshiga	Yil oxiriga	Me’yordan farq (+,-)
1	2	3	4	5	6	7
1.	Mutlaq to‘lov qobiliyati koeffitsienti	320/600	≥0,2 ≤0,7			
2.	Oraliq (muddatli) to‘lov qobiliyati koeffitsienti	320+370+210-211/600	≥0,7 ≤2,0			
3.	Joriy (umumiy) to‘lov qobiliyati koeffitsienti	390/600	≥1,25 ≤3,0			

6-topshiriq.

”Buxgalteriya balansi” (1-shakl) malumotlari asosida korxonaning moliyaviy barqarorlik koeffitsientlarini aniqlang. Jadvalga tegishli xulosa yozib takliflar bering.

T.s	Koeffitsientlar	Hisoblash formulasi	Me’yori	Yil boshiga	Yil oxiriga	Me’yordan farq (+,-)
1	2	3	4	5	6	7
1.	Moliyaviy mustaqillik koeffitsenti	480:400	≥0,5			
2.	Moliyaviy qaramlik koeffitsienti	400:480	≥2			
3.	Moliyaviy barqarorlik koeffitsienti	480:770	≥1			

7-topshiriq

”Moliyaviy natijalar togrisidagi hisobot” (2-shakl) ma’lumotlariga asosan foyda ko‘rsatkichlarini aniqlang. Kerakli jadvalarni tuzing va xulosa bering.

1. Mahsulotlar sotishdan tushgan yalpi foyda (zarar).
2. Asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan tushgan foyda (zarar)..
3. Umumxo‘jalik faoliyatidan tushgan foyda (zarar)..
4. Soliq to‘lagungacha bo‘lgan foyda (zarar)..
5. Hisobot davridagi sof foyda (qoplanmagan zarar).

№	Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yil	Hisobot yil	Farqi (+,-)	O‘sish sur’ati, %
1	2	3	4	5	6
1.	Mahsulot (ish, xizmat) sotishdan tushgan sof tushum				
2.	Sotilgan mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish tannarxi.				
3.	Mahsulotlar sotishdan tushgan yalpi foyda				
4.	Davr xarajatlari				
5.	Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari				
6.	Asosiy faoliyatning foydasi(zarari)				
7.	Moliyaviy faoliyatning daromadlari				
8.	Moliyaviy faoliyat xarajatlari				
8.	Umumxo‘jalik faoliyatidan tushgan foyda (zarar)				
10.	Favqulodda foyda (zarar)				
11.	Soliq to‘laguncha bo‘lgan foyda (zarar)				
12.	Daromad (foyda solig‘i)				
13.	Foydadan boshqa soliqlar va yig‘imlar				
14.	Hisobot davrining sof foydasi (zarar)				

8-topshiriq.

Moliyaviy hisobot ma’lumotlaridan foydalanib, korxona balansi rentabellik darajasini va o‘sish sur’atiga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlang. So‘ngra javdalga xulosa yozing.

Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yil	Hisobot yil	Farqi(+,-)
1. Sof foyda, ming so‘m 2. Joriy aktivlarning o‘rtacha yillik qiymati, ming so‘m 3. Aktivlarning rentabellik darajasi, %			

9-topshiriq.

Moliyaviy hisobot ma’lumotlaridan foydalanib, xususiy kapitalning rentabellik darajasini va unga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlang Jadvalga xulosa yozing.

Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yil	Hisobot yil	Farqi (+,-)
1.Sof foyda, ming so‘m 2.Xususiy kapitalning o‘rtacha yillik qiymati, ming so‘m 3.Xususiy kapitalning rentabellik darajasi, %			

10-topshiriq

Quyidagi berilgan jadval ma’lumotlariga asosan tovar mahsuloti hajmiga ta’sir qiluvchi mehnat omillarini berilgan ko‘rsatkichlarning bajarilish foiz darajasidagi farq usuli orqali ichki xo‘jalik imkoniyati summasini aniqlang.

№	Ko‘rsatkichlar	Ko‘rsatkichlarning bajarilish foizi (%)	Foizda bo‘lgan farq (+,-)	Mahsulot hajmiga ta’siri (2us.77720: 100) (ming so‘m)
1	Ishchilarning ro‘yxatdagi o‘rtacha soni	99,42	?	?
2	Hamma ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan kishi kunlari	98,84	?	?
3	Hamma ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan kishi soatlari	97,20	?	?
4	Tovar mahsuloti	100,96	?	?
	Jami	X		

Ma’lumot uchun: 77720 ming so‘m – biznes reja bo‘yicha tovar mahsuloti hajmi.

11- topshiriq.

Quyidagi berilgan ma’lumotlariga asosan tovar mahsuloti hajmiga ta’sir qiluvchi mehnat vositalari omillarini mutlaq farq usuli orqali toping va ichki xo‘jalik rezerv summasini aniqlang.

№	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	Biznes-reja bo‘ yicha	Haqiqatda	Mutlaq farqi (+,-)
1	Tovar mahsuloti	ming so‘ m	77720	78468	?
2	Ishlangan dastgoh-soatlar	ming so‘ m	12278	12175	?
3	Bir dastgoh-soatga to‘g‘ri keluvchi unumdorligi	so‘ m, tiyin	?	?	?

12 – topshiriq.

Quyidagi berilgan jadval ma’lumotlariga asosan tovar mahsuloti hajmining o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi mehnat buyumlari omillarini integral usuli orqali toping va ichki xo‘jalik rezerv summasini aniqlang.

№	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	Biznes-rejada	Haqiqatda	Mutlaq farq (+,-)
1	Moddiy xarajatlar	Ming so‘m	42357	43123	+766
2	Tovar mahsuloti	Ming so‘m	77720	78468	+748
3	Tovar mahsulotiga ketgan material sarfi (1q:2q)	So‘m	0,545	0,55	+0,005
4	Material samarasi (2q:1q)	So‘m	1,835	1,820	-0,015
5	Material samarasi koef. (4q:2us:1us)	Koef.	X	?	X
6	Material sarfi koef. (1:5q:2us)	-“-	X	?	X

13- topshiriq.

10 ,11, 12 – topshiriqlarning yechimi asosida tovar mahsuloti ishlab chiqarish hajmini oshirish bo‘yicha komplekt rezerv summasini hisoblang.

Tartib soni	Rezervlarning nomi	Summasi (ming so‘ m)	Topshiriqqa ilova
1	Mehnat omillari	?	10-topshiriq
2	Mehnat vositalari omillari	?	11-topshiriq
3	Mehnat buyumlari omillari	?	12-topshiriq
4	Mahsulot ishlab chiqarishni oshirish bo‘ yicha komplekt rezerv	?	X

IX Bob. IQTISODIY TAHLILDA INFORMATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

9.1.Informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimida iqtisodiy tahlilning roli va o‘rni

Milliy iqtisodiyotni boshqarishdagi o‘zgarishlar, bozor munosabatlariga o‘tish buxgalteriya hisobini tashkil qilish va olib borishga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Hisobning xalqaro tizimlariga o‘tishi amalga oshirmoqda, bu uning uslubiyotining yangi shakllarini ishlab chiqishni talab qiladi. Buxgalteriya hisobi va iqtisodiy tahlilning axborot tizimi va uni kompyuterda ishlab chiqishni tashkil qilishning an’anaviy shakllari katta o‘zgarishlarga uchragan. Iqtisodchi-tahlilchidan korxona iqtisodiy va moliyaviy holatining obyektiv baholarini bilish, iqtisodiy tahlil usullarini egallash va boshqalar talab qilinadi.

Ijtimoiy ishlab chiqarishda informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimida korxona faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish iqtisodiy tahlil ishlarini amalga oshirishning zamonaviy shaklidir. Mazkur tizim tegishli obyektning maqbul boshqarish uchun zamonaviy texnik vositalar va texnologiyalardan foydalaniladigan, boshqaruv jarayonlari modellarini tuzadigan, ularni o‘lchash va baholash usullarini ishlab chiqadigan, mutaxassislar yordamida faoliyat ko‘rsatadigan inson-mashina tavsifidagi yaxlit mexanizmdir.

Informatsion texnologiyalarga asoslangan tizimda boshqaruv mutaxassislari, zamonaviy texnik vositalar va usullar, uning faoliyat ko‘rsatishida, o‘z oldiga qo‘ygan vazifalarni hal qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Inson informatsion texnologiyalarga asoslangan tizimda ishini tashkil etadi, maqsad qo‘yadi, vazifalarni belgilaydi, faoliyat dasturlarini tuzadi, natijalirni baholash mezonlarini ishlab chiqadi hamda boshqaruv funksiyasini ijro etish metodikasini takomillashtiradi.



Zamonaviy texnik vositalar (turli kompyuterlar, dasturlar, aloqa vositalari va boshqa vositalar), boshqaruv usullari bilan birgalikda kuchli va zaruriy qurol hisoblanib, boshqaruv faoliyatini tezlashtirish, kengaytirish, chuqurlashtirishga imkon berib, uni sifat jihatdan yuqori bosqichga ko‘taradi.

Iqtisodchi olim N.F.Ishonqulovning darsligida: ”Boshqariladigan obyektlarning zamonaviy modeli informatsion texnologiyalarga asoslangan tizimning tarkibiy elementi sifatida boshqariluvchi obyektlarning mohiyati va mazmunini ochib berishda, undagi o‘zgarishlarni o‘lchash metodlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. U o‘z ichiga mantiqiy so‘zlar va matematik ifodalarni oladi; ular boshqaruv obyektda bir-biriga bog‘liq elementlarni ifodalaydi; ko‘rsatkichlar tizimining qurilishi va tuzilishi;

xo‘jalik faoliyati mohiyati va natijalarini aks ettiradi; ularni rivojlatirish maqsadi va mezonlarini ifoda etadi” [25]deb ko‘rsatilgan.

Amaldagi modellarni takomillashtirish birinchi navbatda ishlab chiqarishni boshqaruv sohalarida qo‘llaniladigan nazariy va amaliy fanlar rivojlanishiga va ularning yutuqlarini modellar konstruksiyasi tuzishda tatbiq etilishiga bog‘liq. Modellarga boshqaruv usullarini joriy etish, ular jumlasiga boshqaruv funksiyasi uslubiyoti, ya’ni tahlilni kiritish zarur shartdir. Chunki, u modellar bilan birgalikda informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimining metodik ta’minotini tashkil etadi.

Informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimidagi zamonaviy texnik vositalar, modellar va boshqaruv metodlari iqtisodiy tahlil funksiyalarining imkoniyatlarini to‘la amalga oshirishga imkon yaratadi. Bu holatda, ko‘p variantli masalalar ichidan eng maqbul yechim oson topiladi, ichki xo‘jalik rezervlari to‘la ochib beriladi, ularni tez o‘zlashtiradi, rejalarni bajarishda yuzaga kelgan holatlarni o‘z vaqtida aniq baholaydi, bir so‘z bilan aytadigan bo‘lsak, o‘z faoliyatini boshqaruv funksiyalari bilan bog‘laydi. Bularning barchasi informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimida tahlil funksiyasi samaradorligi va rolini oshiradi.

Hozirgi davrda analitik vazifalar informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimining kichik tizimlari tarkibiga kiritib yuborilgan. Ular kichik sistemalar nomlanishida goho uzilmaydi, goho uziladi. Masalan, "Iqtisodiy rejalashtirish va tahlil", "Buxgalteriya hisobi va tahlil" va shu kabilar.

Informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimining rivojlanishi va uning yanada takomillashtirish xo‘jalik faoliyati tahlili funksiyasini informatsion texnologiyalarga asoslanishini talab etadi. Shu sababli "Kompleks iqtisodiy tahlil" nomli alohida funksional kichik tizimli informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimi paydo bo‘ldi. Uning bu tartibdagi faoliyati boshqarishning texnologik jarayonlarida va masalalarni yechimiga tizimli yondashishda tahlil funksiyalari rolini oshirishga qaratilgandir. Bu kichik tizim informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimida quyidagi afzalliklarni namoyon etadi:

- xo‘jalik faoliyatida ro‘y bergan ijobiy yoki salbiy holatlarning sabablarini aniq bilishga imkon yaratadi;
- boshqariladigan obyektga ularning miqdor va sifat tomonidan ko‘rsatgan ta’sirini aniqlaydi;
- boshqaruv tizimining yanada samarali ishlashga o‘tkazish uchun yangi variantlar topiladi;
- eng asosiysi tahlil yordamida xo‘jalik faoliyatini yanada yaxshilashning qo‘shimcha imkoniyatlari aniqlanadi.

Tahlil boshqaruv funksiyasi sifatida boshqaruv tizimi bilan birgalikda bir maqsadga qaratilgan, shu tufayli boshqa boshqaruv funksiyalari bilan chambarchas bog‘ langan. Masalan, rejalashtirish bilan uni ilmiy asoslangan holda ishlab chiqishda bir tomondan, boshqa tomondan esa rejaning bajarilishi uchun tahlil muhim vosita hisoblanadi.

---

[25] Ishonqulov A.N.. va boshqalar. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Darslik. –T.: Sano-standart, 2014. -264 б.

Buxgalteriya hisobi tahlilni boshqariladigan obyekt holati haqida zarur ma’lumotlar bilan ta’minlaydi. Boshqaruvni eng maqbul qarorlarini qabul qilishda va ishlab chiqarishda analitik ma’lumotlar tahlil natijasida olinadi. Demak, boshqaruv obyektiga tizimli yondashuv informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimi strukturasi va mazmuni uning tarkibida mustaqil "Kompleks iqtisodiy tahlil" kichik tizimi alohida tarzda faoliyat ko‘rsatishni talab etadi

9.2. Informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimida iqtisodiy tahlilni tashkil etish tamoyillari va mazmuni

Iqtisodiy tahlil vazifalarini yechishni informatsion texnologiyalar asosida tashkil qilish korxona biznes-rejasini tuzishdan boshlab yakuniy moliyaviy hisobotni tahlil qilish bilan yakunlanuvchi operatsiyalarining yig‘indisidir.

Hozirga bosqichda iqtisodiy tahlil vazifalarini informatsion-kommunikatsiya texnologiyalari asosida markazlashtirilgan holda ishlab chiqish asosiy rolni o‘ynaydi:

- foydalanuvchining ish joyida o‘rnatilgan kompyuterlarni qo‘llash, bu yerda vazifalarni yechish tahlilchi tomonidan bevosita uning ish joyida bajariladi;
- korxona (tashkilot, firma)ning turli xildagi bo‘linmalari iqtisodiy vazifalarini integratsiyalangan holda ishlab chiqilishini ta’minlovchi mahalliy va ko‘p bosqichli hisoblash tarmoqlarini shakllantirish;
- hisoblash texnikasida bajariladigan tahliliy hisoblashlar tarkibini ko‘paytirish;
- har xil bo‘linmalar uchun korxonaning yagona taqsimlangan ma’lumotlar bazasini yaratish;
- iqtisodiy tahlil hujjatlarini mashinada shakllantirish imkoniyatlari, bu qog‘ozsiz texnologiyalarga o‘tishni ta’minlaydi va hujjatlarni yig‘ish va ro‘yhatga olish bo‘yicha operatsiyalar mehnat talabligi darajasini kamaytiradi;
- kompleks iqtisodiy tahlil vazifalari majmualarini yechishni integratsiyalash;
- dialogli usulda amalga oshirish yo‘li bilan axborot xizmati ko‘rsatishni tashkil qilish imkoniyati.

Informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimida "Kompleks iqtisodiy tahlil" ni tashkil qilish tizimdagi barcha umumiy tamoyillarga asoslanadi. Bu bilan informatsion, matematik, texnik va tashkiliy masalalar metodik jihatdan to‘g‘ri hal qilinadi hamda tizim elementlarining o‘zaro aloqasi va boshqa kichik tizimlar bilan bog‘liqligi ta’minlanadi.

Ularga quyidagi tamoyillarni misol qilib ko‘rsatishimiz mumkin:

Tizimli yondashuv. “Kompleks iqtisodiy tahlil” tizimi informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimining muhim tarkibiy qismi, ayni paytda o‘z elementlaridan tashkil topgan mustaqil faoliyat ko‘rsatib, tahlil funksiyasini maqbul shaklda bajaruvchi tizim deb qaraladi;

To‘xtovsiz rivojlanish tamoyili. Mazkur tamoyil an’anaviy usuldagi barcha nazariy va amaliy tomonlarga matematik, mantiqiy, texnik, texnologik, tashkiliy, uslubiy jihatlar va boshqa shu kabilar) tinimsiz yangi sifat jihatdan takomillashgan o‘zgarishlarni tatbiq etib borilishga asoslanadi.

Ma’lumotlarni kiritish va chiqarishni minimallashtirish tamoyili. Uning mohiyati ma’lumotlarni ortiqcha kiritish, qayta ishlash va chiqarish masalasidagi

kamchiliklarni bartaraf etishdir. Iqtisodiy tahlil tizimining boshqa tizimlardan farqi tahlil uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni oladi, qayta ishlaydi va foydalanishga tahlil natijalarini chiqarib beradi va ular asosida boshqaruv qarorlari qabul qilinadi.

Funksional va dasturiy yondashiuvning bog‘liqligi. Mazkur tamoyilga amal qilish faqatgina tahlilning funksional vazifalarini hal qilib qolmasdan, balki kompleks dasturlarni bajarishni ham nazarda tutilishini ta’minlaydi.

“Kompleks iqtisodiy tahlil”ni tashkil etishda sanab o‘tilgan asosiy umumtizim tamoyillar bilan birgalikda uning informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimida tutgan o‘rnidan, vazifasidan kelib chiqadigan o‘ziga xos tamoyillarini ham hisobga olish zarur. Ulardan eng muhimlarini ko‘rib chiqamiz:

Xo‘jalik faoliyat tahlili bo‘yicha metodik materiallar analitik masalalarni kompyuterlarda qayta ishlashda foydalaniladigan quyidagi jihatlarni o‘zida aks ettirishi zarur:

- analitik va boshqa ko‘rsatkichlar tushunchasiga aniq mazmunli ta’rif berilishi;
- shartli belgilarni bir xil bo‘lishi;
- analitik ko‘rsatkichlar hisoblarini amalga oshirishda eng maqbul usullarni qo‘llash, kiritiladigan va chiqariladigan informatsiyalarning aniq ro‘yhati, shuningdek analitik jadvallar shakli va shu kabilar.

Mazkur talablar ma’lumotlarni informatsion texnologiyalarga asoslangan tarzda qayta ishlash shartlaridan kelib chiqadi. Noaniq yoki mazmuni to‘liq ochib berilmagan ko‘rsatkichlar analitik masalalarni hisob-kitob qilishda, dasturlarni ishlab chiqishda murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Agar ko‘rsatkichlar shartli belgilarining birligi hamda masalalarni eng maqbul yechish usullari qo‘llanilmas ekan, bu ham analitik masalalarni ishlash algoritmlarini tuzishda ko‘plab qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

“Kompleks iqtisodiy tahlil” tizimida ma’lumotlar ta’minotini qurilishi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- informatsion texnologiyalarga asoslangan ma’lumotlarni tashkil etishda uslubiy va tashkiliy birlik bo‘lishligi;
- bir marta ma’lumotlarni kiritish va undan ko‘p marta foydalanish;
- ma’lumotlarni markazlashgan tarzda saqlash;
- ma’lumotlarning kod va shifrlarini bir tizimga keltirish;
- boshqa tizim massivlari bilan aloqasini ta’minlash;
- savol-javob rejimida ishlash;
- ma’lumotlar massivlarini tizimda saqlashni ta’minlash.

9.3. Informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimida analitik masalalar tasnifi

Informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimidagi “Kompleks iqtisodiy tahlil” tizimida ko‘plab miqdordagi analitik masalalar hal qilinadi. Ularning aniq tasnif qilinishi masalalarning navbatma-navbat ishlanib joriy etilishiga, natija esa tizimning funksiyasining samaradorligini oshirishga ta’sir etadi. Obyektga tizimli va kompleks yondashuvni rejalashtirish, hisob va tahlil masalalarining boshqaruv maqsadi va funksiyasi uchun yagona tavsifini talab etadi.

Analitik masalalarning ijtimoiy tamoyillar talablariga javob bera oladigan tasnifining amaldagi turi mazmun tavfisi bo‘yicha ajratishdir.

Boshqaruv jarayoniga bog‘liqligiga ko‘ra mazkur belgi bo‘yicha masalalar quyidagi ko‘rinishni oladi:

- tabiiy-buyumlashgan — aniq iste’mol qiymatini yaratishga ko‘ra;
- iqtisodiy — qiymatni shakllanishiga ko‘ra;
- ijtimoiy — ijtimoiy sohadagi faoliyat bo‘yicha;
- ekologik — tabiiy muhitni saqlash bo‘yicha.

Analitik masalalar boshqaruv darajasi va turiga ko‘ra ham tasnif etiladi.

Birinchi belgi bo‘yicha: brigada, sex, bo‘lim, korxonaning xo‘jalik faoliyati tegishli masalalarga bo‘linadi.

Ikkinchi belgi bo‘yicha: boshqaruv turi bo‘yicha esa tezkor, joriy va istiqbolli masalalarga ajratiladi.

O‘z navbatida muayyan belgilar bo‘yicha guruhlangan masalalarning ichida boshqariladigan obyekt mazmuniga ko‘ra ham guruhlarga ajratiladi. Masalan, birinchi guruh muayyan mahsulot yaratish bo‘yicha quyidagicha bo‘linishi mumkin: ishlab chiqarishni tayyorlash, mehnat vositalari va predmetlari bilan ta’minlanish, ishlab chiqarish, yordamchi ishlab chiqarish, sotish jarayoni va shu kabilar.

Informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimida iqtisodiy tahlil natijalari obyekt ma’lumotlaridan foydalanish maqsadiga ko‘ra ichki va tashqi foydalanuvchilar yo‘nalishi bo‘yicha ham alohida tayyorlanadi.

Ichki foydalanuvchilarga mo‘ljallangan tahlili ma’lumotlari boshqaruv ehtiyojiga ko‘ra barcha soha va jarayonlarni aks ettirish mumkin.

Tashqi foydalanuvchilar uchun esa ma’lumotlar olish obyektlari cheklangan bo‘ladi.

Iqtisodiy tahlilga oid ko‘plab adabiyotlarda ma’lumotlarni informatsion texnologiyalarga asoslangan tarzda qayta ishlashda analitik masalalarni boshqa belgilariga ko‘ra ham tasnif etishlar tavsiya etiladi.

Lekin, ularning barchasi asosida bir mazmun u ham bo‘lsa, iqtisodiy tahlil funksiyasini informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimida doimiy va samarali amalga oshirishni ta’minlash yotadi.

9.4. Iqtisodiy tahlilda avtomatlashtirilgan ish o‘rinlarini tashkil etish va informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimida tahlilni rivojlantirish istiqbollari

Iqtisodiy tahlil vazifalarini yechishni avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalari asosida tashkil qilish birlamchi hujjatlarni tahlil qilishdan boshlab yakuniy moliyaviy hisobotni tahlili muolajalari yig‘indisidir.

Hozirga bosqichda iqtisodiy va moliyaviy holat tahlili vazifalarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida markazlashtirilgan holda ishlab chiqish asosiy rolni o‘ynaydi:

Korxonalarda shaxsiy kompyuteralar bazasida avtomatlashtirilgan ish joylarining tashkil qilinishi, ularda mahalliy hisoblash tarmoqlarini yaratish, axborot bazasini tashkil qilish va iqtisodiy vazifalar mazjmuasini shakllantirishda yangi talablarni ilgari

surdi. Ma’lumotlarning taqsimlangan bazalari tizimini yaratish, turli foydalanuvchilar o‘rtasida axborotlarni almashtirish, kompyuterda boshlang‘ich hujjatlarni avtomatik shakllantirishning imkoniyatlari paydo bo‘ldi. Bunday sharoitlarda turli vazifaviy tizimchalar majmualari o‘rtasidagi aniq chegaralar buzila boshladi, bu ilk navbatda buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlilning axborot bazasida namoyon bo‘ldi.

Quyidagi 9.1-rasmda zamonaviy iqtisodchi-tahlilchinng ish joyini avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalariga asoslangan holda tashkil qilinish tamoyili keltirilgan[26].



9.1-chizma. Tahlilchining zamonaviy ish joyini tashkil qilish tamoyillari

Har qanday iqtisodiy obyektni boshqarish faoliyatining asosini murakkab qurilishga ega bo‘lgan axborot tizimlari tashkil qiladi, ularning tarkibi, faoliyat turi va korxona, tashkilot, firmaning ko‘lamiga bog‘liq.Yangi asrni axborotlar, texnologiyalar, innovatsiyalar asri deyish mumkin. Negaki bu uchta jihatsix rivojlanishni, taraqqiyotni tasavvur qilib bo‘lmaydi.

[26] S.S.G‘ulomov, B.Yu.Xodiev, B.A.Begalov va boshq. Informatika va axborot texnologiyalari. Darslik. – T.: Iqtisodiyot, 2010.

Iqtisodiy tahlilni zamonaviylashtirish muammosi ham bugun olimlar oldidagi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Axborotlarga shunchaki ega bo‘lish yoki axborotlarni shunchaki o‘qish bilan bugun muhim natijalarga erishib bo‘lmaydi. Ularni tahlil etishning shunday bir tizimini shakllantirish lozimki bu ularni boshqaruvda samarani, faoliyatdagi natijani ta’minlashga xizmat qilsin.

Iqtisodiy tahlilda avtomatlashtirilgan ish joylari qarorlar qabul qilish uchun tahliliy axborotlarni shakllantirish hamda rahbariyatga tezkor axborotlar berishga imkon berushni ta’minlaydi. Bunday axborotlarga tannarx, foyda ko‘rsatkichlari, hisob-kitoblar va boshqa buxgalteriya yozuvlarining holati, debitorlik va kreditorlik qarzdorliklari, turli xildagi iqtisodiy ko‘rsatkichlar, tahlilning natijalari, bashoratlar, xodimlar haqidagi ma’lumotlar kiradi. Bu barcha axborotlarni vaqtning istalgan paytida so‘rov bo‘yicha olish mumkin.

Ichki auditorning avtomatlashtirilgan ish joylari buxgalteriya andozalaridagi o‘zgarishlarni kuzatishga, xo‘jalik vaziyatlari va qonunchilikni tahlil qilishga, hisob siyosati, xarajatlarni tartibga solish va investitsion siyosatini ratsional qurish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqarish, soliqlarni rejalashtirishni amalga oshirishga imkon beradi. Umuman moliyaviy hisobning ma’lumotlaridan korxona iqtisodiyotini rejalashtirish va bashorat qilishda, moliyaviy menejmentda, korxonaning barcha axborotlarining iqtisodiy tahlilida foydalaniladi.

Bugungi kunda axborotlarni kompyuter dasturlari asosida tahlil etish qator dasturiy ta’minotlari yaratilganligi va ularning yangi modellari yaratilayotganligini ta’kidlash joish. Amaliyotda keng qo‘llanilayotgan dasturiy ta’minotlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

Umumiy moliyaviy holat va moliyaviy holatni bashoratlash yuzasidan dasturiy ta’minotlar ichida eng ommalashgan shakllari sifatida Rossiyaning “Inek”, “Intelekt-servis”, “Pro-invest IT” kompaniyalari tomonidan tuzib chiqilgan dasturiy ta’minotlar asosiy o‘rinni egallaydi. Ushbu dasturiy ta’minotlar nafaqat analitik ishlash jarayoni balki, biznes rejalarni tuzish, investitsion loyihalarni analitik baholash imkonini ham beradi. Boshlang‘ich jarayon ko‘proq ma’lumotlarni analitik ishlashga qaratilgan bo‘lgan bo‘lsa xozirgi holati ko‘proq prognozlashga ham imkon bermoqda.

Moliyaviy hisobot ma’lumotlarni tahlil etishda, koeffitsientlardan foydalanish va korxonaning moliyaviy iqtisodiy reytingini aniqlashning sistemalashtirilgan himoyalangan dasturiy ta’minotilariga o‘tilishi bilan analitik ishlar samaradorligini yuksak darajaga chiqqanligini ko‘rish mumkin.

Hozirgi kunda ommalashgan dasturiy ta’minotlar qatoriga yuqorida tarkiblangan litsenzion dasturiy ta’minotlari sanalgan "Analitik”, “Finansoviy analiz”, “Inek-AFSP”, “Inek-ADP”, “Inek-Analitik”, “Audit Expert” dasturiy ta’minotlarini kiritish mumkin.

Iqtisodiy tahlilida axborotlarni dasturiy ta’minotidan foydalanishning sxematik ketma ketligi quyidagi tarkibda amalga oshiriladi.

1. Ma’lumotlarni kiritish:

- Buxgalteriya hisobot ma’lumotlarini kiritish;
- Moliyaviy hisobotga kirmaydigan qo‘shimcha ma’lumotlarni kiritish.

2. Buxgalteriya balansi aktiv va passiv moddalarini korrektirovkalash (baholash);

3. Buxgalteriya balansini xalqaro standartlar talablari asosidagi anailitik jadvallarini tuzish;

4. Moliyaviy koeffitsientlarni hisob-kitob qilish;

5. Aniqlangan moliyaviy koeffitsientlar orqali chizma va diagrammalarni tayyorlash;

6. Olingan natijalar asosida xulosalar tayyorlash.

Ma'lumotlarni analitik qayta ishlashning galdagi vazifalari qatoriga ularning o‘zbek tilidagi dasturiy ta'minotlarini shakllantirish va amaliyotga joriy etish, dasturiy ta'minotda ko‘proq prognoz asosda aniq yechimlarga chiqish imkonini beruvchi dasturiy ta'minotlarni ishlab chiqish, milliy hisobchilik va xalqaro normalarga mos ishlanmalarni tuzib chiqish vazifalari turmoqda. Albatta bu borada olib borilayotgan ishlar ko‘lamini jonlantirish maqsadida olimlar va amaliyotchilar o‘rtasida konkurslar o‘tkazishni yo‘lga qo‘yish va ularni ragbatlantirishning aniq shaklariga o‘tish lozim.

Informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimida iqtisodiy tahlil qilish tizimining sifat jihatdan tinimsiz takomillashtirib borish ham ustuvor ahamiyatga ega yo‘nalish bo‘lib, bu bilan uning tobora samarali ishlash ta'minlanadi.

Agar informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimining rivojlanishi ikkinchi yo‘ nalishdan borsa, u holda boshqaruvchi tizim (KIT) o‘ z mohiyatini saqlab qolgan holda o‘ zgaradi.

Ayni davrda informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimining tarkibida texnologik jarayonlarni informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimi (TJITABT) shaklining qo‘llanilishi ko‘proq samara bermoqda. Biroq bu xo‘jalik faoliyatini boshqarishning informatsion texnologiyalarga asoslanishining bir tomoni bo‘lib, unda yangitdan yaratilayotgan iste'mol qiymatini tabiiy buyumlashgan jihatini ifodalaydi. Lekin, mazkur jarayon aniq mahsulot qiymatining shakllanishi bilan chambarchas bog‘lanlangan va barcha sarflar xarajat ko‘rinishida hisobga olinadi. Shuning uchun informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimini takomillashtirishning navbatdagi bosqichi TJITABT ni xo‘jalik jarayonining iqtisodiy tarkibiy qismi deb qaralib, butun boshqaruv obyektini muhim elementi tarzida faoliyati ta'minlanadi.

Boshqaruv samaradorligiga ko‘p jihatdan ijtimoiy masalalar ham jiddiy ta'sir ko‘rsatadi. Shu sababli mazkur obyektning ham informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimiga kiritish muhim ahamiyatga egadir. Bu bilan korxonani ijtimoiy-iqtisodiy masalalari o‘rganib boriladi.

TJITABT bilan iqtisodiy, ijtimoiy va boshqarish kichik tizimlarini birlashtirilishi avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimida xo‘jalik faoliyatini rejalashtirish, hisob, tahlil, tartibga solish va ularning boshqaruv funksiyalari bilan birgalikda rivojlanishining istiqbolli yo‘nalishi hisoblanadi.

Qisqa xulosa

Ushbu mavzuni o‘rganish natijasida talabalar informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimida iqtisodiy tahlilning ahamiyati, boshqaruv tizimida iqtisodiy tahlilni tashkil etish tamoyillar va analitik masalalar tasnifini bilishlari kerak.

Talaba bilimini nazorat qilish hamda mustahkamlashga oid savol va topshiriqlar

1. Xo‘jalik subyektlarida informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimida iqtisodiy tahlilning o‘rni va afzalligi nimalardan iborat?

2. Informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimida iqtisodiy tahlilning tashkil etish tamoyillari va mazmuni nimalardan iborat?

3. Analitik masalalarning ijtimoiy tamoyillar talablariga javob bera oladigan tasnifi qanday ko‘rinishga ega?

4. Informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimida iqtisodiy tahlilning rivojlantirish istiqbollari nimalarda o‘z aksini topadi?

1-topshiriq.

O‘zbekiston Respublikasida xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini boshqarishda iqtisodiy tahlilning tutgan o‘rni va salohiyatini o‘z fikr-mulohazalaringiz orqali bayon qilib bering.

2-topshiriq.

Informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimida iqtisodiy tahlilning tashkil etish xususiyatlarini izohlab bering.

3-topshiriq.

Informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimida iqtisodiy tahlilni rivojlantirish istiqbollarini o‘z fikr-mulohazalaringiz orqali bayon qilib bering. Tahlil jarayonida qanday kompyuter dasturlaridan foydalanish mumkinligigni ko‘rsatib bering.

GLOSSARIY

O‘zbek tilida	Rus tilida	Ingliz tilida	Atamaning mazmuni
Analiz	Анализ	Analysis	yunoncha ”analysis” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, ”bir butunni bo‘laklarga bo‘lib o‘rganish” degan ma’noni anglatadi yoki biror jarayonni o‘rganishda umumiylikdan xususiylik sari tatqiq qilish tushuniladi
Arifmetik tekshiruv	Арифметичес-кая проверка	Arithmetic test	balans va aylanma qaydnoma (vedomostlar), Bosh daftardagi summalarni solishtirish, balans guruhlari va bo‘limlari bo‘yicha summalarni aktiv va passiv yakunlari tengligini hisoblash yo‘li bilan amalga oshiriladi
Aktivlarni likvidliging	Ликвидность активов	liquidity of assets	balans likvidligini aksi bo‘lib, vaqt bo‘yicha aktivlarni pul mablag‘lariga aylanishi tushuniladi
Asosiy vositalar	Основные средства	Fixed assets	korxonada ko‘p yil foydalaniladigan mehnat qurollari: ya’ni binolar, inshootlar, mashinalar va asbob-uskunalar
Asosiy vositalar bilan ta’minlanish	Обеспечен-ность основными средствами	Provision of fixed assets	korxonaning biznes-rejasiga yoki o‘tgan yillarga nisbatan asosiy fondlar bilan qurollanish darajasi
Aktiv (faol) asosiy fondlar	Активные основные средства	Active fixed assets	kuch beradigan mashinalar va asbob-uskunalar, ish mashinalari, o‘tkazgich jihozlar, o‘lchash va tartibga solish asboblari
Asosiy fondlarning eskirish koeffitsienti	Амортизация основных фондов	Depreciation of fixed assets	asosiy fondlarning eskirish summasi (balans aktivining 1-bo‘limi) ularning boshlang‘ ich qiymatiga (balans aktivining 1-bo‘limi) bo‘linadi.
Asosiy fondlarni yangilash koeffitsienti	Коэффициент обновления основных фондов	The coefficient of fixed assets renewal	yangi kelgan asosiy fondlar summasini asosiy fondlarning yil oxiriga bo‘lgan qiymatiga bo‘ lish kerak

O‘zbek tilida	Rus tilida	Ingliz tilida	Atamaning mazmuni
Asosiy fondlarni chiqib ketish koeffitsenti	Коэффициент выбытия основных фондов	Coefficient of disposal of fixed assets	chiqib ketgan asosiy fondlar summasini ularning yil oxiriga bo‘lgan qiymatiga bo‘lish kerak
Asosiy (operatsion) faoliyat bo‘yicha pul oqimlari	Денежные потоки от основной деятельности	Cash flows from operating activities	xo‘jalik jarayonlarini korxonaning pul mablag‘lariga, foyda miqdoriga ta’sirini ifodalaydi
Aylanma mablag‘lar	Оборотные средства	Current assets	aylanma fondlar, muomala fondlari va boshqa harakatdagi aktivlarda turgan pul mablag‘lari
Boshqaruv tamoyillari	Принципы управления	Principles of management	iqtisodiyotning barcha sohalarini boshqarish tizimining tuzilishi va amal qilinishini belgilab beruvchi asosiy qoida
Boshqaruv tizimi	Системы управления	Control systems	boshqarishning maqsadlari, tarkibi, shakli va usullari majmuasi. U dinamik bo‘lib, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar o‘zgarishi bilan uning unsurlarini aniq mazmuni ham o‘zgaradi.
Boshqaruv tahlili	Управленчес-кий анализ	Management review	korxona ma’muriyati, mulk egasi va mutaxassislari tomonidan ichki xo‘jalik rezervlarini aniqlash va ularni ishga solish hamda samaradorlikni oshirishga qaratilgan tahlildir
Balansni likvidligi	Ликвидность баланса	Balance liquidity	balansdagi likvid bo‘lgan mablag‘larning majburiyatlarni qoplash darajasi tushuniladi
Brak mahsulot	Бракованная продукция	Bar products	tasdiqlangan andoza va texnika shartlariga mos kelmaydigan mahsulot
Balans	Баланс	Balance	lotincha ”bis”– ikki marta, ”band” – tarozi pallasi so‘zlaridan tarkib topib, tom ma’noda ikki palla degan ma’noni anglatadi va tenglik tushunchasi sifatida ishlatiladi

O‘zbek tilida	Rus tilida	Ingliz tilida	Atamaning mazmuni
Bir so‘mlik tovar mahsulotiga ketgan xarajat	Затраты на один сум товарной продукции	The cost of one sum of commodity products	ishlab chiqarish tannarxini tovar mahsuloti hajmiga nisbati tariqasida aniqlanadi
Deduksiya	Дедукция	Deduction	tadqiqot yoki biror obyektni (hodisani, jarayonni) o‘rganishda umumiylikdan xususiylik sari o‘tilishi tushuniladi
Debitor qarzlari	Дебиторская задолженность	Receivables	aynan tahlil qilinayotgan korxona aylanma mablag‘larining bir qismi boshqa korxonalar aylanmasida qatnashishi tushuniladi
Debitorlik majburiyalarining aylanuvchanligi	Оборачиваемость дебиторской задолженности	Accounts receivable turnover	qarz majburiyatlarining undirib olish muddati va ularning aylanish koeffitisenti
Debitorlik majburiyatlarining aylanish koeffitsienti	Коэффициент оборочавиаемости дебиторской задолженности	Turnover ratio of receivables	sotishdan olingan sof tushumni debitorlik majburiyatlarining mavjud summasiga bo‘ lish asosida aniqlanadi.
Debitorlik qarzlarining aylanish kuni	Оборачиваемость дебиторской задолженности в днях	Accounts receivable turnover in days	debitorlik majburiyatlarining mavjud summasini tahlil etish davrini kalendar kuniga ko‘paytirish va sotishdan olingan sof tushum summasiga bo‘lish asosida aniqlanadi
Jami aktivlarni rentabelligi (mulk rentabelligi)	Рентабельность всех активов (рентабельность имущества)	Profitability of assets (return on assets)	korxonaning asosiy va aylanma mablag‘lardan foydalanish samaradorligi darajasini ko‘rsatadi. U sof foydani jami aktivlarning o‘rtacha qiymatiga nisbati tariqasida aniqlanadi
Joriy likvidlik koeffitsienti	Коэффициент текушей ликвидности	Current ratio	aylanma aktivlarga qo‘`yilgan moliyaviy resurslarning necha so‘mi joriy majburiyatlar bir so‘miga tog‘ri kelishini ifodalaydi. U joriy aktivlarning joriy majburiyatlarga nisbati tariqasida aniqlanadi

O‘zbek tilida	Rus tilida	Ingliz tilida	Atamaning mazmuni
Zanjirli almashtirish usuli	Метод цепной подстановки	Chain substitution method	natija o‘zgarishiga uchta va undan ko‘p omillar ta’sir ko‘rsatsa, ular o‘rtasidagi bog‘liqlik funksional bo‘lganda qo‘llaniladigan usul
Induksiya	Индукция	Induction	tadqiqotni yoki biror obyektni (hodisani, jarayonni) xususiylikdan umumiylik sari o‘tilishi tushuniladi
Ichki xo‘jalik rezervlar (imkoniyatlari)	Внутрихозяй-ственные резервы	Intra reserves	xo‘jalik yuritish samaradorligini oshirish imkoniyatini aniqlashda ijobiy ta’sir etuvchi omillar harakatini kuchaytirish va ularning salbiy ta’sirini tugatish tushuniladi
Iqtisodiy tahlilning maxsus usullari	Специальные способы экономичес-кого анализа	Special methods of economic analysis	taqqoslash, guruhlashtirish, mutlaq va nisbiy miqdorlar, indeks, dinamika, bartaraf etish, zanjirli bog‘lanish, yetakchi bo‘g‘inni ajratib qo‘yish, koeffitsientlar, foizlar, o‘rtacha miqdorlar, qayta hisoblash, ko‘rsatkichlarning bajarilish foizi va o‘sish sur’atidagi farq, mutlaq farq kabilar
Iqtisodiy-matematik usullar	Экономико-математичес-кие методы	Economic-mathematical methods	integral, korrelyasiya, regressiya, omillar tizimini determinlashgan modellarda aks ettirish, nazariy o‘yin kabilar
Istiqbol tahlili	Перспектив-ный анализ	Foresight	korxonaning kelgusi faoliyatini oldindan o‘rganish sodir bo‘ladigan jarayonlarni oldindan belgilash maqsadida amalga oshiriladigan tahlil
Investitsiya faoliyati	Инвестицион-ная деятельность	Investment activities	nomoddiy aktivlarni sotib olish va sotish, uzoq muddatli moddiy aktivlar sotib olish uchun yetkazib beruvchilarga to‘langan pullar va unga tenglashtirilgan mablag‘ lar chiqim ustunida aks ettiriladi

O‘zbek tilida	Rus tilida	Ingliz tilida	Atamaning mazmuni
Ijtimoiy mehnat unumdorligi	Социальный производи-тельность труда	Social productivity	moddiy ishlab chiqarishda band bo‘lgan har bir ishlovchi hisobiga hosil qilingan milliy daromad miqdori bilan o‘lchanadi
Individual mehnat unumdorligi	Индивидуаль-ный производи-тельность труда	Individual productivity	individual (yakka tartibda ishlovchining (lokal) uchastka, sexdagi, korxona, tarmoqdagi) ishlovchining ishlab chiqargan mahsuloti
Kompleks tahlil	Комплексный анализ	Complex analysis	korxona faoliyatini makon va zamon nuqtai nazaridan barcha tuzilmalari bilan birga batafsil tahlil qilish
Kreditor qarzlari	Кредиторская задолженность	Accounts payable	o‘zga korxonalar aylanma mablag‘larining bir qismi aynan tahlil qilinayotgan korxona aylanmasida qatnashishi tushuniladi
Kreditor majburiyat-larining aylanuvchan-ligini	Оборачивае-мость кредиторской задолженности	Accounts payable turnover	sof tushum hajmini kreditorlik majburiyatlarining mavjud summasiga bo‘lish asosida aniqlanadi
Kreditorlik qarzlarining aylanish kuni	Оборачивае-мость кредиторской задолженности в днях	Accounts payable turnover in days	kreditorlik majburiyatlarining mavjud summasini tahlil etish davrining kelendar kuniga ko‘ paytirish va sof tushum summasiga bo‘lish asosida aniqlanadi
Leveraj	Левераж	Leverazh	xususiy kapitalning o sgan qismi bo‘lib, xususiy kapital rentabelligi koeffitsienti bilan jami investitsiyalar orasidagi farq koeffitsienti olinadi
Metod(usul)	Метод (способ)	The method (method)	yunon tilidan olingan bo‘lib, tabiat hamda jamiyatda sodir bo‘layotgan hodisa va jarayonlarni o‘rganish va bilish usulidir. Muayyan fanning predmetini o‘rganish usuli

O‘zbek tilida	Rus tilida	Ingliz tilida	Atamaning mazmuni
Metodologiya (uslubiyat)	Методология	Methodology	muayyan fanning predmetini o‘rgatish usuli, unda qo‘llaniladigan yondashuvlar, usullar majmuasi
Moliyaviy tahlil	Финансовый анализ	The financial analysis	xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy natijalari va moliyaviy holatini o‘rganishga qaratilgan tahlildir
Material samarasi	Материал-отдача	Materials	moddiy xarajatlarning bir so‘mi hisobiga qancha mahsulot ishlab chiqarilganligini ko‘rsatadi
Material sig‘imi	Материало-емкость	Consumption of materials	bir so‘m tovar mahsuloti ishlab chiqarish uchun qancha (necha tiyin) moddiy xarajatlar to‘g ri kelishini ko‘rsatadi
Moliyaviy natija	Финансовый результат	Financial results	korxona faoliyatining foyda summasi va rentabellik darajasida ifodalanaigan yakunidir
Muddatli likvidlik koeffitsienti	Коэффициент срочной ликвидности	Quick ratio	u pul mablag‘lari, sof debitorlik qarzlari summasini joriy majburiyatlarga bo‘lish orqali aniqlanadi
Mutlaq likvidlik koeffitsienti	Коэффициент абсолютной ликвидности	Absolute liquidity ratio	pul mablag‘larining joriy majburiyatlariga nisbati sifatida aniqlanadi
Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti	Коэффициент финансовой независимости	The financial independence	korxonaning o‘z mablag‘ larining xo‘jalik mablag‘ lari umumiy summasiga nisbati tariqasida aniqlanadi
Mehnat omillari	Факторы труда	Labor Factors	korxonaning ishchi kuchi bilan ta’minlanishi, ish vaqtidan foydalanish va mehnat unumdorligi darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar
Mehnat vositalari omillari	Факторы средств труда	Factors labor funds	korxonaning asosiy vositalar bilan ta’minlanganligi, tarkibi, texnik holati va ulardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar

O‘zbek tilida	Rus tilida	Ingliz tilida	Atamaning mazmuni
Mehnat predmetlari omillari	Факторы предметов труда	Factors objects of labor	korxonaning xom-ashyo va asosiy materiallar bilan ta’minlanganligini hamda ulardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar
Mahsulotni bir tekisda ishlab chiqarish	Ритмичная производства продукции	Rhythmic production	mahsulotni tuzilgan jadval asosida, mahsulotning oldindan aniqlangan assortimenti va sifatiga muvofiq yetkazib berish va sotishni o‘z vaqtida ta’minlanishi
Mahsulot Sifati	Качества продукции	Quality products	uning barcha mo‘ljallangan maqsadda foydalanishga yaroqli xususiyatlarining majmuasi
Mehnat unumdorligi	Производительность труда	Productivity	moddiy ishlab chiqarishda vaqt birligi davomida hosil qilingan mahsulot miqdori bilan o‘lchanadi
Moddiy resurslar	Материальные ресурсы	Material resources	ishlab chiqarishning muayyan siklida foydalanishda bo‘lgan va shu siklda ishlab chiqarilgan mahsulot (ish va xizmatlar) tannarxiga o‘z qiymatini to‘liq o‘tkazib boruvchi buyumlar
Mahsulot tannarxi	Себестоимость продукции	Product cost	mahsulotni ishlab chiqarish, sotish va korxona moliyaviy faoliyati bo‘qyicha barcha xarajatlarning pul orqali ifodalanishi
Moliyaviy faoliyat	Финансовая деятельность	Financial activities	bo‘limida aksiya chiqarishdan kelib tushgan tushum**,** uzoq va qisqa muddatli qarzlarning kelib tushishi va chiqimlar aks etadi.
Moddiy tekshiruvlar	Материальная проверка	Material inspection	moddiy boyliklar, pul mablag‘ lari haqiqiy qoldig‘ ini buxgalteriya xisobi ma’lumotlari bilan qiyoslash orqali amalga oshiriladi

O‘zbek tilida	Rus tilida	Ingliz tilida	Atamaning mazmuni
Omilli tahlil	Факторный анализ	Factor analysis	natija ko‘rsatkichining o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash va ularning ta’sir doirasini hisoblash usullari majmuasini o‘zida ifoda ettirgan tahlildir
Omillar	Факторы	Factors	u yoki bu iqtisodiy ko‘rsatkichga ijobiy hamda salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi faol harakat qiluvchi kuchlar tushuniladi.
Operasion foyda(asosiy faoliyati foydasi)	Операционная прибыль (прибыль от основной деятельности)	Operating profit (operating profit)	yalpi foydadan davr xarajatlari va boshqa operasion xarajatlar chegirilishi va asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar qo‘ shilishi natijasida hosil bo‘lgan foyda
Pul oqimlari	Денежные потоки	Monetary flows	pul va pul mablag‘ larining hamda so‘m va o‘zga ekvivalentlarining kirimi va chiqimi
Pul ekvivalentlari	Денежные эквиваленти	Cash equivalents	erkin almashtiriladigan qisqa muddatli likvidlanadigan, qiymati o‘zgarishi xatariga kamroq moyil bo‘lgan investitsiyalar
Pul mablag‘lari	Денежные средства	Cash	kassadagi naqd pul va talab bo‘yicha beriladigan depozitlar, shuningdek, hisob-kitob, valyuta va o‘zga bank hisob raqamlaridagi mablag‘lar
Passiv (nofaol) asosiy vositalar	Пассивные основные средства	Passive fixed assets	binolar, inshootlar va transport vositalari
Retrospektiv (joriy) tahlil	Ретроспектив-ный (текущий) анализ	Retrospective (current) analysis	hisobot davri tugashi bilan buxgalteriya, statistik va tezkor hisobotlar hamda hisobdan tashqari axborot manbalariga asosan o‘tkaziladigan tahlil
Rentabellik	Рентабельность	Profitability	jami ijtimoiy ishlab chiqarish va har bir korhonaning iqtisodiy hamda moliyaviy samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkich

O‘zbek tilida	Rus tilida	Ingliz tilida	Atamaning mazmuni
Raqobat	Конкуренция	Competition	lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, maqsadga erishish uchun kurash, korxonalar o‘ rtasidagi sof kurashni bildiradi
Sintez	Синтез	Synthesis	yunoncha ”synthesis” so‘zidan olinib, umumlashtirish degan ma’noni bildiradi yoki biror obyektni (hodisani, jarayonni) o‘rganishda xususiylikdan umumiylik sari tadqiq tushuniladi
Sotilgan mahsulot	Реализованная продукция	Products Sold	tovarlar iste’molchilarga jo‘natilib, uning haqi mol yuboruvchilarning bankdagi hisob-kitob raqamiga o‘tkazilishi tushuniladi
Sof mahsulot	Чистая продукция	Net output	tovar mahsulot bilan uni ishlab chiqarishga qilingan moddiy sarflar va asosiy vositalar hamda nomoddiy faollarning amortizasiyasi summasi o‘rtasidagi farq
Soliq to‘lagunga qadar foyda	Прибыль до уплаты налогов	Profit before tax	umumxo‘jalik faoliyatidan kelgan foydaga favquloddagi foydaning qo‘shilishi va favquloddagi zararni chegirish orqali hosil bo‘lgan foyda
Sof foyda	Чистая прибыль	Net profit	soliq to‘lagunga qadar foydadan daromad (foyda) solig‘i va foydadan boshqa soliqlar hamda yig‘imlarni chegirilishi orqali aniqlangan foyda
Taqqoslana-digan mahsulot	Сравниваемая продукция	Comparable products	shu yil va undan oldingi yillarda seriyali va ommaviy tartibda ishlab chiqarilgan mahsulotning barcha turlari
Taqqoslan-maydigan mahsulot	Несравнива-емая продукция	Comparable products	joriyyilda ishlab chiqarilgan mahsulotdir

O‘zbek tilida	Rus tilida	Ingliz tilida	Atamaning mazmuni
Texnik-iqtisodiy tahlil	Технико—экономический анализ	Feasibility analysis	kompleks iqtisodiy tahlil va muhandislik tahlilining birikishi asosida hosil bo‘lgan tahlil
Tovar mahsuloti	Товарная продукция	Commercial products	barcha ishlab chiqarish bosqichlarini o‘tgan, to‘la butlangan, texnika nazorati bo‘limidan o‘tgan va omborga topshirilgan mahsulot
Taqsimlanma-gan foyda	Нераспреде-ленная прибыль	Retained earnings	korxonaning hisobida turgan sof foydasi
To‘lov qobiliyati	Плетежеспособ ность	Solvency	xo‘jalikning muddati kelgan to‘lov majburiyatlarini bajarish uchun zarur bo‘lgan mablag‘larning yetarli yoki kamchiligini aniqlash
Umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda(hisobot foydasi)	Прибыль от общехозяй-ственной деятельности	Profit from general economic activity	operasion foydaga moliyaviy faoliyatning daromadlarini qo‘shilishi va moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar chegirilishi orqali hosil bo‘lgan foyda
Ustav kapitali	Уставный капитал	Authorized capital	o‘z mablag‘lar manbaining asosinitashkil etadi
Fikrlar hujumi usuli	Метод мозгового штурма	Brain storm	biror bir muhim masalani, muammoni hal etish uchun tashkil qilingan bir qancha mutaxassislar va olimlardan iborat ijodiy guruhning g‘oyalari majmuasidir
Funksional qiymat tahlili (F.Q.T)	Функциональ-но-стоимостный анализ	Functional-cost analysis	har bir bajariladigan funksiyani (asosiy, yordamchi va keraksiz) qiymat jihatdan baholab, mahsulotning (ish, xizmat) samaradorligini va sifatini oshirgan holda keraksiz (disfunksiya) funksiyalarni bartaraf etish evaziga ichki xo‘jalik rezervlarini aniqlash va korxona aylanmasiga solishga qaratilgan tahlildir

O‘zbek tilida	Rus tilida	Ingliz tilida	Atamaning mazmuni
Fond samarasi (qaytimi)	Фондотдача	Capital productivity	asosiy ishlab chiqarish vositalarining bir so‘miga ishlab chiqariladigan mahsulot miqdoridir
Fond sig‘imi	Фондоемкость	Sapital intensity	bir so‘mlik mahsulotga to‘g‘ri keladigan asosiy ishlab chiqarish vositalarning qiymati
Yalpi ijtimoiy mahsulot	Валовая социальная продукция	The gross social product	moddiy ishlab chiqarish barcha tarmoqlarining iqtisodiy rivojlanishini umumlashtiriuvchi ko‘rsatkichlar
Yalpi mahsulot	Валовая продукция	Gross output	tarkibiga tovar mahsuloti qo‘shuv tugallanmagan ishlab chiqarishning qoldig‘i qo‘shuv korhonaning o‘zida tayyorlangan yarim - fabrikatlar va asbob-uskunalar kiradi
Yalpi foyda	Валовая прибыль	Gross profit	mahsulotni sotishdan tushgan daromadni tavsiflaydi va sof tushum va sotilgan mahsulot tannarxi o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasining Qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 1992- yil 8- dekabr (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).

2. O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida" gi qonuni. №404. 2016- yil 13- aprel.

3. O'zbekiston Respublikasi "Auditorlik faoliyati to'g'risida" gi qonuni (yangi tahrir). - T.: 2000- yil (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari

4. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining №PF 4947-sonli farmoni. 2017- yil 7-fevral.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-4720-sonli farmoni. 2015- yil 24- aprel.

6. "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 15-avgustdagi PF-5024-sonli farmoyishi.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3946-sonli qarori. 2018- yil 19- sentyabr.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 4-apreldagi "Auditorlik tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish hamda ular ko'rsatayotgan xizmatlar sifati uchun javobgarlikni oshirish to'g'risida"gi PQ–615-sonli qarori.

9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 28-iyuldagi "Davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to'g'risida"gi 207-sonli qarori. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015-yil., 30-son, 397-modda).

10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 22-sentyabrdagi "Auditorlik faoliyatini takomillashtirish va auditorlik tekshirishlarning ahamiyatini oshirish to'g'risida"gi 365-sonli qarori. // Xalq so'zi, 2000- yil 26-sentyabr.

III. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

11. O'zbekiston Pespublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga 2019- yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Murojaatnomasi. Toshkent. 2018- yil 28- dekabr.

12. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik — har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent. 2017- yil 16- yanvar. //Xalq so'zi (№ 11 (6705)) .

13 .Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b.

14. Mirziyoyev Sh.M. Demokratik islohotlarni izchil davom ettirish, xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish — barqaror taraqqiyot kafolatidir. –T.: O'zbekiston, 2017. – 22 b.

IVI. Sohaga oid me'yoriy hujjatlar

15. Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori. 5.02.1999 №54 son (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan)

16. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2002-yil 27-dekabrdagi "Moliyaviy hisobot shakllari va ularni to'ldirish bo'yicha qoidalarni tasdiqlash to'g'risida"gi 140-son buyrug'i (O'zR AV tomonidan 24.01.2003-yilda 1209-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan).

17. O'zbekiston Respublikasining Buxgalteriya hisobining milliy standartlari. To'plam. -T.: O'zR BAMA nashriyot markazi. 2019

18. O'zbekiston Respublikasining Auditorlik faoliyatining milliy standartlari. To'plam. -T.: O'zR BAMA nashriyot markazi. 2019 .

19. "Korxonalardagi ichki audit xizmati to'g'risidagi Nizom". O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 16-oktyabrdagi 215-sonli qaroriga 2-ilova.

IV. Asosiy adabiyotlar

20. Алексеева А.И. Комплексный экономический анализ хозяйственной деятельности. Учебное пособие. –М.: Финансы и статистика, 2010.

21. Vahabov A., Ishonqulov N., Ibrohimov A. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. Darslik. -T.: Iqtisod-moliya, 2013.

22. Донцова Л.В., Никифирова Н.А. Анализ бухгалтерской (финансовой) отчетности. Практикум. –М.: Дело и сервис, 2018.

23. Pardayev M.Q. va boshqalar. Iqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma. –T.: Print Line Group, 2017.

24. Pardaev M.Q , Xasanov B.A. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. O'quv qo'llanma. -T.: Cho'lpon, 2012.

25. Raximov M.Yu. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2015.

26. Shoalimov A.X., Tojiboyeva Sh.A. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. O'quv qo'llanma. –T.:Iqtisodiyot, 2012

27.Shoalimov A.X., Ilxamov Sh.I., Tojiboyeva Sh. A. Iqtisodiy tahlil va audit. Darslik. –T.:Sano-standart, 2017.

28. Shoalimov A.X., va boshqalar. Iqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma. – T.:Lesson-press, 2016.

29.Шеремет А.Д., Хорин А.В. Теория экономического анализа. Учебник. – М.: Инфра-М, 2019.

30.Shog'iyosov T. Sh. Kompleks iqtisodiy tahlil. Darslik -T.: Fan va texnologiya, 2012.

V.Qo'shimcha adabiyotlar

31. Akramov E.A. Korxonalarning moliyaviy holatining tahlili. O'quv qo'llanma. -T.: Moliya, 2003.

32.Leonard A. Bernstein. Financial statement analysis. Manual. –M. Finansi i statistika, 2002. Пер с англ Елисеева И.И.

33.Raximov M.Yu. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. O'quv – uslubiy qo'llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2013.

34.Subramanyam K.R. Financial statement analysis./Eleventh edition. New York, Mc Graw-Hill Education, 2014, 814 pages.

35 Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. Учебник. -М.: Инфра-М, 2012.

35.Хасанов Б.А. и др. Анализ хозяйственной деятельности. Ychebное рособие. - T.:Sano-standart, 2017.

36. Шеремет А.Д.,Сайфуллин Р.С Методика финансового анализа. Учебное пособие. - М.: ЮНИТИ, 2007 .

37. Shoalimov A.X., Ilxamov Sh.I., Tojiboyeva Sh. A. Iqtisodiy tahlil va audit. Darslik. –T.:Iqtisodiyot, 2016.

38. G'ulomov S.S.,Xodiev B.Yu,.Begalov B.A va boshq. Informatika va axborot texnologiyalari. Darslik. – T.: Iqtisodiyot, 2010.

VI. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar

39. Azlarova D. Evaluation of efficiency of personnel management in the oil fating industry. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. Philadelphia, USA, 2019. http://s-o-i.org/1.1/TAS-12-68-49.

40. Ilxamov Sh., Xodjayeva M., Bababekova G. Financial statements of the enterprise for use of higher efficiency internal audit analysis. Interciencia Journal (ISSN: 0378-1844). CARACAS, VENEZUELA. 2019. http://intercienciajournal.com/index.html.

41.Tadjibayeva Sh., Xamidova S .Main Aspect of the Analysis of Business Activity in The Conditions of Economic Devolopment. International Journal of Research in Managament & Business Studies, Vol. 8 Issue 10. India. 2019.

42.Xasanov B., Eshboyev U. Calculation of the capital sensitivity invested in the financial stability process. Indo Asian Journal multi disciplinary research. 2019. www.jpsscientificpublications.com/journals/browser.php.

VII. Internet saytlari

43.www.gov.uz.
44.www.mf.uz .
45.www.stat.uz.
46.www.norma.uz.
47.www.web of scince.

MUNDARIJA

Kirish..... **3**

I bob. Iqtisodiy tahlilning shakllanishi va fan sifatida rivojlanish bosqichlari…….. **6**

1.1. Iqtisodiy tahlilning fan sifatida shakllanishi va rivojlanish bosqichlari…… **6**

1.2.Iqtisodiy tahlil-dialektikaning muhim xususiyati…….. **10**

1.3. Iqtisodiy tahlil-boshqaruv tizimining maxsus funktsiyasi……. **11**

1.4. Iqtisodiy tahlilning rezervlarni aniqlashdagi ahamiyati……. **13**

Qisqa xulosa..... **14**

Talaba bilimini nazorat qilish hamda mustahkamlashga oid savol va topshiriqlar…….. **14**

II bob. Iqtisodiy tahlilning mazmuni, predmeti va vazifalari……. 15

2.1. Iqtisodiy tahlilning mazmuni……. **15**

2.2. Iqtisodiy tahlilning predmeti…….. **16**

2.3. Iqtisodiy tahlilning vazifalari…….. **17**

2.4. Iqtisodiy tahlilning asosiy prinsiplari (tamoyillari)…….. **18**

Qisqa xulosa..... **20**

Talaba bilimini nazorat qilish hamda mustahkamlashga oid savol va topshiriqlar…….. **20**

III bob. Iqtisodiy tahlilning metodi va unda qo‘ llaniladigan an’anaviy usullar……. 22

3.1. Iqtisodiy tahlilning metodi…… **22**

3.2. Iqtisodiy tahlil metodining o‘ ziga xos xususiyatlari…….. **23**

3.3. Iqtisodiy tahlilda qo‘ llaniladigan usullar va ularni guruhlarga ajratish……. **25**

3.4. Iqtisodiy tahlilning maxsus usullari…… **26**

Qisqa xulosa..... **32**

Talaba bilimini nazorat qilish hamda mustahkamlashga oid savol va topshiriqlar…….. **33**

IV bob. Iqtisodiy tahlilning iqtisodiy-matematik usullari…… 36

4.1. Iqtisodiy-matematik usullarni tahlilda qo‘llashning zaruriyati.…… **36**

4.2. Iqtisodiy ko‘ rsatkichlarning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlashda integral usulini qo‘ llash…….. **37**

4.3. Korrelyatsiya va regressiya usullari mohiyati va ularni iqtisodiy tahlilda qo‘llanilishi…….. **38**

4.4. Omillar tizimini determinallashgan modellarda aks ettirish…….. **39**

Qisqa xulosa..... **41**

Talaba bilimini nazorat qilish hamda mustahkamlashga oid savol va topshiriqlar……. **41**

V bob. Iqtisodiy tahlilning turlari, shakllari va ularning axborot manbalari..... 43

5.1. Iqtisodiy tahlilning turlari va shakllari to‘g‘risida tushuncha..... 43

5.2. Xo‘jalik faoliyatining joriy (retrospektiv) , tezkor va istiqbolli tahlili..... 46

5.3. Moliyaviy-iqtisodiy va texnik- iqtisodiy tahlil..... 49

5.4. Taqqoslama (korxonalararo) va funksional - qiymat tahlili..... 50

5.5. Iqtisodiy tahlilning asosiy axborot manba’lari..... 53
5.6. Tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish……. 56
Qisqa xulosa..... 56
Talaba bilimini nazorat qilish hamda mustahkamlashga oid savol va topshiriqlar……. 57
VI bob. Iqtisodiy tahlil ishlarini tashkil etish……. 59
6.1. Iqtisodiy tahlil qilishning asosiy qoidalari……. 59
6.2.Iqtisodiy tahlilni tashkil qilish va o‘tkazish bosqichlari ……. 60
6.3. Iqtisodiy tahlil dasturini tuzish…….. 61
6.4. Korxonalarning faoliyatini iqtisodiy tahlil qilishda qatnashadigan subyektlar……. 62
Qisqa xulosa..... 64
Talaba bilimini nazorat qilish hamda mustahkamlashga oid savol va topshiriqlar…… 64
VII bob. Kompleks iqtisodiy tahlil tizimi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash……. 65
7.1. Kompleks iqtisodiy tahlilni tashkil etish asoslari, mazmuni va asosiy prinsiplari..... 65
7.2. Kompleks iqtisodiy tahlilning umumiy sxemasi va undagi ko‘rsatkichlarning bir-biri bilan bog‘liqligi..... 66
7.3. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning imkoniyatlari…… 68
7.4. Intansivlashtirish va ishlab chiqarishning samaradorligini kompleks baholash metodlari…… 70
Qisqa xulosa..... 71
Talaba bilimini nazorat qilish hamda mustahkamlashga oid savol va topshiriqlar…….. 71
VIII bob. Moliya-xo‘jalik faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlarni tahlil qilish uslubi…….. 72
8.1. Mahsulotni ishlab chiqarish va uni sotishni tahlil qilish usullari..... 72
8.2. Korxonalarning mehnat resurslari bilan ta’minlanishi va ulardan samarali foydalanishni tahlil qilish..... 75
8.3. Asosiy fondlarning tarkibi, holati va ulardan samarali foydalanishni tahlili .. 77
8.4. Sanoat korxonalarining moddiy resurslar bilan ta’minlanishi va ulardan foydalanishni tahlil qilish 81
8.5. Mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha ichki xo‘jalik imkoniyatlarini aniqlash usuli..... 83
8.6. Mahsulot tannarxini tahlil qilish..... 88
8.7. Moliyaviy natijalar va rentabellik ko‘rsatkichlarini tahlil qilish …….. 94
8.8. Korxonalarning moliyaviy faoliyatini tahlil qilish..... 99
Qisqa xulosa..... 113
Talaba bilimini nazorat qilish hamda mustahkamlashga oid savol va

topshiriqlar…….. 113
IX bob. Iqtisodiy tahlilda informatsion texnologiyalardan foydalanish…… 114
9.1. Informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimida iqtisodiy tahlilning roli va o‘rni…….. 114
9.2. Informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimida iqtisodiy tahlilning tashkil etish tamoyillari va mazmuni…… 118
9.3. Informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimi analitik masalalar tasnifi…… 121
9.4. Iqtisodiy tahlilda avtomatlashtirilgan ish o‘rinlarini tashkil etish va informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimida tahlilni rivojlantirish istiqbollari..... 123
Qisqa xulosa..... 125
Talaba bilimini nazorat qilish hamda mustahkamlashga oid savol va topshiriqlar……. 126
Glossariy……. 127
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati……. 138
Mundarija…… 142

Shoalimov A.X., Tojiboyeva Sh.A.

Iqtisodiy tahlil nazariyasi
Darslik
2019